

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY  
MARKAZI**



Samarqand 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY  
MARKAZI**

**MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISH  
METODIKASI MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJUMA**

**Modul 3.2**

**Malaka yo‘nalishi:**

**Musiqqa madaniyati fani  
o‘qituvchilari**

**Tinglovchilar kontingenti:**

**umumiy o‘rta ta’lim  
maktablarining musiqa  
madaniyati fani o‘qituvchilari**

**Samarqand 2020**

*Ishchi o'quv reja va dastur Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrasining 2020-yil 20-avgustdagi navbatdan tashqari 9-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.*

**Tuzuvchilar:** Ualieva G.I. - Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Nazarova Z.T - Samarqand VXTXQTUMOHM "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** Panjiev Q.B. - Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrasida mudiri, san'atshunoslik fanlari nomzodi;

Mustafayev Sh.N. – SamDU pedagogika fanlari bo'yicha fal.doktori

*Ushbu musiqa madaniyati fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining "Musiqqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha ishchi o'quv reja va dasturi markaz Ilmiy - metodik kengashining 2020-yil 2-sentabrdagi 7/3-5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.*

Ishchi dastur

## KIRISH

2017-2021- yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda ular asosida pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmonlari, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3931-son Qarori, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori, shuningdek 2019 yilning 19 mart kuni Prezidentimiz boshchiligida o'tkazilgan yoshlarimizga bo'lgane'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalarigabag'ishlanganvideoselektor yig'ilishida Prezidentimiztomonidan ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashki letish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus"da belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi o'rta maktab o'qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Shu bilan birga, 2017-2018 o'quv yilidan maktablarda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham o'z navbatida o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarning yuqoridagi keltirilgan ehtiyojlari malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda yuqoridagi ehtiyojlardan va ular oldida ko'ndalang turgan muammolardan kelib chiqqan holda, musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

"Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi" modulning ishchi o'quv dasturi musiqa madaniyati fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga zamonaviy metodlari mazmuni va mohiyatini oshib beradi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalari va maqbul metodlaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining nazariy va amaliy, metodik tayyorgarligi darajasini orttirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish;
- musiqa madaniyati fani o'qituvchilarida dars jarayonida samarali metodlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **Tinglovchi:**

- musiqa madaniyati fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodlarini;
- musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat turlarini;
- dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo'yilgan zamonaviy talablarni;
- musiqa madaniyati fanidan sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish yo'llarini;
- musiqa madaniyati darslarida buyuk ajdodlarimiz ilmiy me'rosidan foydalanish;
- musiqa madaniyati o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlarini **bilishi**;
- musiqa madaniyati fanini o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llay olish;
- zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat topshiriqlarini tuzish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- musiqa madaniyati fanidan ochiq darslarni o'tkazish va ularni tahlil qilish;
- musiqa madaniyati fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash **malakalarga ega bo'lishi**;
- ilg'or pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- musiqa madaniyati o'qituvchining o'z ustida ishlashi va pedagogik mahoratini muttasil oshirib borish **kompetensiyalariga ega bo'lishi ozim**.

#### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.**

Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi modulidan yaratilgan o'quv-uslubiy majmua tarkibi, dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar, musiqa madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari va uni o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda dars ishlanmalarini tuzish, o'quvchilar bilimini baholash, sinfdan tashqari ishlar, darslarni kuzatish va tahlil qilish o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan foydalanish, musiqa tinglash, test so'rovlari, fikrlash, ijrochilik, ovoz sozlash, ritmik xarakterlar, guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarni keng qo'llanishi nazarda tutiladi.

#### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi" blok modullari, "O'quv faoliyatini boshqarish psixologiyasi", "Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari", "Ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalar" kabi o'quv modullar bilan uzviy bog'langan holda o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

#### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur modul “O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya jarayonlarining huquqiy-me’yoriy asoslari”, “Ta’lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat” va “Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” bloklaridan keyin o‘rganiladi. Unda yuqoridagi bloklarda o‘rganilgan mazmun yo‘nalishlari va uslubiy jihatlarini musiqa madaniyati faniga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

### Modulning ta’limdagi o‘rni

Tinglovchilarni musiqa madaniyati fanini o‘qitishning zamonaviy texnologiya va metodlari bilan tanishtirish hamda amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashdan iborat.

### 3.2. MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISH METODIKASI BO‘YICHA MODULNING SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Umumiy	Jami auditoriya soati	Jumladan			Mustaqil ta’lim
				Nazariy	Amaliy	Ko‘chma mashg‘ulot	
1	“Musiqa madaniyati” fanio‘qituvchilari malakasini oshirish o‘quv-mavzu rejasi, DTS talablari asosida kompetensiyaviy yondoshuv, o‘quv dastur, o‘quv reja, qo‘llanma va darsliklar tahlili. <i>Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni loyihasi haqida.</i>	6	6	2	4		
2	<b>Musiqa mashg‘ulotlarida qo‘shiq o‘rgatish metodikasi, yangi ashulani o‘rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa malakalarini o‘stirish)</b>	8	8	2	6		
3	Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musiqa madaniyati darslarini to‘g‘ri tashkil etish metodikasi <b>O‘quvchilarni turli ko‘rik - tanlovlarga tayyorlash tartibi.</b>	8	6	2	4		2
4	Mumtoz musiqa an‘analari va ularni o‘qitish metodikasi. <b>Shashmaqomni milliy musiqamizdagi ahamiyati.</b> <i>Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahrida 2020-yilning 5—10-sentabr kunlari II Xalqaro maqom san’ati anjumani</i>	6	6		6		
5	O‘zbek musiqasining mahaliy uslublari.	4	4		4		
6	Rossiya, Yevropa va Sharq mamlakatlarida musiqa ta’limining rivojlanish tarixi <i>“Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivali haqida.</i>	4	4		4		
7	Estrada musiqasi. O‘zbek estrada musiqasining rivojlanishi va bugungi kundagi holati	4	4		4		
8	Milliy cholg‘u sozlari, ularning guruhlanishi (orkestr, ansambl) va Yevropa cholg‘u sozlariga o‘hshashligi va farqi	4	4		4		
9	Raqs san’ati. Milliy raqs san’ati va uning namoyondalari. <b>Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va sahna madaniyati Raqs turlari va janrlari</b>	4	4		4		
10	O‘zbek musiqa me’rosini rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan tarixiy shaxslarning uy muzeylarida(hududlarda tanlov asosida	6	4			4	2

	ekskursiya) ochiq darslar: 1.Yu.Rajabiy uy muzeyi 2.Tamaraxonim uy muzeyi 3.M.Ashrafiy uy muzeyi						
11	Ilg'or pedagoglarni ish tajribalarini o'rganish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi	2	2			2	
	<b>Jami</b>	<b>56</b>	<b>52</b>	<b>6</b>	<b>40</b>	<b>6</b>	<b>4</b>

## NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-Mavzu: "Musiqqa madaniyati" fani o'qituvchilari malakasini oshirish o'quv-mavzuiy rejasi, DTS talablari asosida kompetensiyaviy yondoshuv, o'quv dastur, o'quv reja, qo'llanma va darsliklar tahlili**

*(2 soat nazariy va 4 soat amaliy).*

Musiqqa madaniyati fani o'qituvchilarini malaka oshirish o'quv-mavzuiy reja dasturi bilan tanishtirish, dasturning tuzilishi va DTS asosida tuzilganligi hamda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar haqida bilim berish. Musiqqa madaniyati fanidan umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. O'quv xonasi gigiyenasi. Umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. Musiqqa madaniyati fanidan ta'lim mazmunining minimal hajmi. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning 1-7-sinflar kesimidagi darajalari. Musiqqa madaniyati fanidan umumiy o'rta ta'lim dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"dagi 187-sonli qarori. Davlat ta'lim standarti (ta'lim bosqichlari bo'yicha ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifalari, tuzilishi). O'quv reja (namunaviy, tayanch, ishchi rejalar). Dasturi (sinflar bo'yicha o'quv soatlari, mavzular taqsimoti). Yangidan yaratilgan darslik va metodik qo'llanmalar mazmuni.

(Kompetensiyaviy yondoshuv dars ishlanmasidan namuna ko'rsatish va izohlash)Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 7 apreldagi Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestasiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida 107-son qarori haqida.Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqaridavlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestasiyadan o'tkazish tartiblari.Xalq ta'limi boshqarmalari attestasiyasi komissiyalarini tuzish tartiblari.2020 yil- "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" dastur maqsad va vazifalari. **Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni loyihasi haqida.**

### **2- Mavzu: Musiqqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa malakalarini o'stirish) (2 soat nazariy va 6 soat amaliy).**

Kishilik jamiyatining rivojlanish tarixidan pedagogika yer yuzidagi eng qadimiy san'at ekanligini, musiqqa pedagogikasi tarixi boy ilmiy- nazariy va amaliy merosga ega ekanligi, O'zbekistonda "Ustoz-shogird" deb atalgan kasbiy ta'lim tizimi keng tarqalganligi, Respublikamizning Toshkent, Andijon, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa shahar va tumanlari o'z ustoz sozanda va xonanda ijrochilarining ajoyib maktablari, ustazodalar faoliyati, bugungi kunda musiqqa pedagogikasi rivojida,



aynan zamonaviy o'zbek musiqa pedagogikasining rivojida ham ularning xizmatlari beqiyos ekanligini tushintirish. Musiqa fani dasturiga yangi kiritilgan mavzularni o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, oldin o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalariga moslikni ta'minlash. O'quvchilarni o'zlashtiri olmaslik sabablari, o'qituvchining bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilani faoliyatini tashkil etish tartiblari. *Zamonaviy ta'lim va uning turlari*

**3 -Mavzu: Boshlang'ich va o'rta sinflarda musiqa madaniyati darslarini to'g'ri tashkil etish metodikasi O'quvchilarni turli ko'rik - tanlovlarga tayyorlash tartibi. (2 soat nazariy va 4 soat amaliy, 2 soat mustaqil ta'lim).**

Boshlang'ich va o'rta sinflarda musiqa mashgulotlarini olib borishga kuyiladigan talablar. Boshlang'ich va o'rta sinflarda musiqa madaniyati fani dasturi taxlili, kompetentlik. Musiqa darslarini olib borishda sifat va samaradorlikka erishish metodikasi. Amaliy mashgulotlarda kuylash va cholg'u asboblarida ijro etish ko'nikmasini oshirish uchun tavsiyalar. (Zamonaviy usullar orqali mavzuni yoritish: venn, tingla top va dilaktik topshiriqlar). Musiqa madaniyati fani umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'rganish bosqichlari standarti darajasi., daraja nomlanishi (A1), (A2) *O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim*

**4-Mavzu: Mumtoz musiqa an'analari va ularni o'qitish metodikasi (6 soat amaliy). Shashmaqomni milliy musiqamizdagi ahamiyati.**

Mumtoz musiqa an'analari, makomot tushunchasi, maqomlar va ularning maxalliy xususiyatlari. Mushkulot va nasr bulimlari. Olti makom va ularning mumtoz musiqa san'ati rivojidadagi ahamiyati. Shark mamlakatlarida umumta'lim maktablarida mumtoz musiqa madaniyatini uqitish muammolari va metodikasi.

(Shashmaqom misolida) O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va xususiy kompetensiyalar elementlari haqida. Tayanch kompetensiyalari orqali umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish. *Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida 2020-yilning 5—10-sentabr kunlari II Xalqaro maqom san'ati anjumani*

**5-Mavzu: O'zbek musiqasining mahaliy uslublari (4 soat amaliy)**

O'zbek musiqasining mahaliy uslublari. Surxondaryo-Qashqadaryo, Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm vohalarining qo'shiqchilik san'ati, xalqning madaniy hayoti, ashulachi hofizlarning ijro yo'llari va cholg'u sozlari haqida umumiy ma'lumotlar berish.

Katta ashula va patnisaki ashulalari haqidagi tassurotlarni boyitish. *Lapar.Yalla.Sozanda san'ati.Amaliy topshiriq*

**6-Mavzu: Rossiya, Yevropa va Sharq mamlakatlarida musiqa ta'limining rivojlanish tarixi (4 soat amaliy).**

Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini Rossiya, Yevropa (Germaniya, Amerika, Fransiya, Italiya) va Sharq mamlakatlarida (Xitoy, Yaponiya, Xind, Azarbayjon, Kirg'iziston) musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimi bilan tanishtirish. Ilg'or pedagogik tajribalar va ularni o'quv jarayoniga qo'llash metodikasi. Rossiya, Yevropa va Sharq mamlakatlarida xalqning qo'shiq, milliy cholg'ulari va teatrlari haqida tushuncha berish.

Sharq mamlakatlarida musiqa ta'limining rivojlanish tarixi har bir xalqning go'zal, mukammal va arziguli an'anasi odati boshqa xalqlar ananalariga o'z ta'sirini ko'rsatishi, xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili. *2017-yil Qashqadaryo viloyatidagi*

*maqom musiqa festivali haqida . "Sharq taronalari" XI xalqaro musiqa festivali haqida.*

**7-Mavzu: Estrada musiqasi. O'zbek estrada musiqasining rivojlanishi va bugungi kundagi xolati (4 soat amaliy)**

Estrada musiqasi haqida tushuncha va estrada janirining paydo bo'lishi. O'zbekistonda estradaning rivojlanishi. Dastlabki VIAlar xaqida. Zamonaviy qo'shiqchilik va milliy estradaga berilayotgan e'tibor. Respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlar xaqida. O'zbekistonda estrada rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxslarning ijodi. ( B.Zokirov hayoti va ijodi misolida)Hozirgi davrimizdagi yoshlarimiz orasida g'arb estrada uslubidagi musiqa janrlarining ommalashgani bilan solishtirish. *Sharq taronalariva uni tarbiyaviy ahamiyati*

**8-Mavzu: Milliy cholg'u sozlari, ularning guruhlanishi (orkestr, ansambl) va Yevropa cholg'u sozlariga o'hshashligi va farqi ( 4 soat amaliy)**

O'zbek xalq cholg'u asboblari, ularning turlari, tuzilishi va chalinishiga ko'ra guruxlanishi haqida ma'lumot berish. O'quvchilarni xalq va Yevropa cholg'ulari bilan tanishtirishga oid qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish, ovoz tembrlaridan farqlashga o'rgatish hamda cholg'u asbobida jonli tarzda ijro etish, uning jo'rligida qo'shiq kuylashning darslarda qo'llashning ahamiyatini ochib berish. O'zbekistonda xalq cholg'ulari orkestri tashkil topishi va rivojlanishi. "Sug'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri bilan tanishtirish.*Milliy cholg'u asboblari tarixi*

**9-Mavzu: Raqs san'ati. Milliy raqs san'ati va uning namoyondalari (4 soat amaliy)**

Raqs san'ati xaqida tushuncha berish, xalq raqs maktabi va uning uslublari xaqida. Raqs maktabi namoyondalari. Zamonaviy raqs usullari va ansambillari xaqida ma'lumot berish. *Raqs turlari va janrlari*

**10-Mavzu: O'zbek musiqa me'rosini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan tarixiy shaxslarning uy muzeylarida(tanlov asosida) ochiq darslar: (4 ko'chma va 2 soat mustaqil ta'lim).**

**1.Yu.Rajabiy uy muzeyi**

**2.Tamaraxonim uy muzeyi**

**3.M.Ashrafiy uy muzeyi**

Respublika (shaxar, viloyat) miqiyosida joylashgan taniqli ijodkorlar yoki taniqli shaxslarning muzeylariga borish, ularning qilgan ishlari va ijod mahsullari bilan tanishish, sn'atga aloqador ishlari va bugungi kelajak avlod uchun qoldirgan meroslari bilan tanishish. Ochiq darslar tashkil etish. Yunus Rajabiy, Tamaraxanum, Muhtor Ashrafiy va o'zbek san'atining rivojlanishi va asoschisi haqida ma'lumot berish.

**11-Mavzu: Ilg'or pedagoglarni ish tajribalarini o'rganish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi (2 soat ko'chma)**

Musiqa madaniyati fanidan ilg'or pedagoglarni ish tajribasi bilan tanishish, darslarini kuzatish va tahlil qilish. Dars jarayonidagi foydalangan metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni amaliy tajribada ko'rsata olish. Ochiq, ko'rgazmali, namunaviy darslari va ularga qo'yilgan talablar asosida darsni tahlil qilish.

*O'quvchilar BKMLarini baholashning aniq, samarali tizimini yaratish. O'quvchilar BKMLarini baholash jarayoni ularda fanga qiziqish, mustaqil ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarining shakllanishi bilan tugashiga erishish.*

Ko'chma mashg'ulot umumiy o'rta ta'lim muasasalarida (ochiq dars shaklida) o'tkaziladi. Unda ilg'or pedagoglarni ish tajribalarini darslarni tegishli mezonlar

asosida tahlil qilish orqali o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi baholanadi. Bu jarayonga ko'chma mashg'ulot tashkil qilingan maktab o'qituvchilarini jalb etish, ularning darslarini tahlil qilish orqali ularga metodik yordam ko'rsatish ham ko'zda tutiladi. *Darslarni kuzatish va tahlil qilish mezonlarini o'rganish, musiqa fani darslarini kuzatish va tahlil qilish uchun zarur mezonlarni va qo'shimcha mezonlar yaratishni o'rganish*

Ko'chma mashg'ulot "**Musiqa madaniyati** fanini o'qitishda metodikasi" moduli doirasida hozirgi zamon talabi darajasidagi moddiy-texnika bazaga ega bo'lgan hamda ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralarida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa muassasalarda tashkil etiladi.

### **MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI**

Modulga oid o'rganilgan materiallar asosida "O'zbek musiqa me'rosini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan tarixiy shaxslarning uy muzeylarida(hududlarda tanlov asosida ekskursiya) ochiq darslar:

1.Yu.Rajabiy uy muzeyi, 2.Tamaraxonim uy muzeyi, 3.M.Ashrafiy uy muzeyi" va "Ilg'or pedagoglarni ish tajribalarini o'rganish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi" mavzularida mustaqil ish bajariladi

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, musiqa san'atiga qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan topshiriqlar yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qilish, eshitish va qobiliyatini rivojlantirish).

### **Foydalanish tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxati**

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.–176 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston", 2011.–440 b.

7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – 302 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 5106-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim Vazirligining 2011 yil 25 iyundagi 139-sonli buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 12 may ”O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 275 sonli qaror.

### **Mutaxassislik adabiyotlar**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
3. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovasion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.
5. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovasion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2010.
7. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
9. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.
10. Nurmatov H. va boshqalar 1-3 sinf “Musiqqa” darsliklari. 2016
11. Ibrohimov O. 4-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016
12. Mansurov A va D. Karimova 5-sinf “Musiqqa” darsligi. 2015
13. Bekmatov S. 6-sinf “Musiqqa” darsligi. 2017
14. Ibrohimov O. 7-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016
15. Panjiyev Q.B., Karimova D. A., Ualiyeva G.I., . - “Musiqqa madaniyati” fani o‘qituvchilari uchun O‘UM -T.-2017

### **Elektron ta’lim resurslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
2. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
3. Toshkent shahar pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)
4. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

5. <http://www.school.yedu.ru> - Umumta'lim portali (rus tilida),
6. <http://www.yedunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
7. [music-dic.ru](http://music-dic.ru)-Bolalar uchun qo'shiqlar
8. <http://www.zvuki.ru/>
9. <https://t.me/joinchat/> - Uchitel muziki
10. <https://infourok.ru> - musiqa darslari
11. <https://kopilkaurokov.ru/muzika/presentacii> - musiqa dars prezentasiyalari.

## NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-Mavzu: “Musika madaniyati” fani o‘qituvchilari malakasini oshirish o‘kuv-mavzuiy rejasini, DTS talablari asosida kompetentsiyaviy yondoshuv, o‘quv dasturi, o‘quv reja, qo‘llanma va darsliklar tahlili** *(2 soat nazariy va 4 soat amaliy)*

Musika madaniyati fani o‘qituvchilarini malaka oshirish o‘quv-mavzuiy reja dasturi bilan tanishtirish, dasturning tuzilishi va DTS asosida tuzilganligi hamda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar haqida bilim berish. Musika madaniyati fanidan umumiy o‘rta ta‘limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta‘lim standarti. O‘quv xonasi gigiyenasi. Umumiy o‘rta ta‘lim nihoyasida o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar. Musika madaniyati fanidan ta‘lim mazmunining minimal hajmi. O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarning 1-7-sinflar kesimidagi darajalari. Musika madaniyati fanidan umumiy o‘rta ta‘lim dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili.

### **2- Mavzu: Musika mashg‘ulotlarida qo‘shiq o‘rgatish metodikasi, yangi ashulani o‘rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa malakalarini o‘stirish)** *(2 soat nazariy va 2 soat amaliy)*

Musika mashg‘ulotlarida qo‘shiq o‘rgatish metodikasi, yangi ashulani o‘rgatishdagi asosiy jarayonlar. Musika mashg‘ulotlarida bolalarga qo‘shiq o‘rgatishning metodikasi va usullari haqida tushuncha berish Maktabgacha yoshdagi bolalarning ovozlari zararli yetkazmaydigan qo‘shiqlarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati haqida. Korreksiya qilish masalalarini ko‘rib chiqish.

**Amaliy soatda** Maktabda o‘quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirishning ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berish

### **3 -Mavzu: Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musika madaniyati darslarini to‘g‘ri tashkil etish metodikasi O‘quvchilarni turli ko‘rik - tanlovlarga tayyorlash tartibi.**

*(2 soat nazariy va 4 soat amaliy).*

Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musika mashg‘ulotlarini olib borishga kuyiladigan talablar. Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musika madaniyati fani dasturi taxlili, kompetentlik. Musika darslarini olib borishda sifat va samaradorlikka erishish metodikasi. Amaliy mashg‘ulotlarda kuylash va cholg‘u asboblari ijro etish ko‘nikmasini oshirish uchun tavsiyalar.

**4-Mavzu: Mumtoz musika an‘analari va ularni o‘qitish metodikasi** *(2 soat nazariy va 2 soat amaliy).* Mumtoz musika an‘analari, makomot tushunchasi, maqomlar va ularning maxalliy xususiyatlari. Mushkulot va nasr bulimlari. Olti makom va ularning mumtoz musika san‘ati rivojida ahamiyati. Shirk mamlakatlarida umumta‘lim maktablarida mumtoz musika madaniyatini uqitish muammolari va metodikasi.

## **5-Mavzu: O‘zbek musiqasining mahaliy uslublari (4 soat amaliy).**

O‘zbek musiqasining mahaliy uslublari. Surxondaryo-Qashqadaryo, Farg‘ona–Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm vohalarining qo‘shiqchilik san‘ati, xalqning madaniy hayoti, ashulachi hofizlarning ijro yo‘llari va cholg‘u sozlari haqida umumiy ma‘lumotlar berish.

## **6-Mavzu: Rossiya, Yevropa va SHarq mamlakatlarida musiqa ta‘limining rivojlanish tarixi (2 soat nazariy va 2 soat amaliy).**

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarini Rossiya, Yevropa (Germaniya, Amerika, Frantsiya, Italiya) va SHarq mamlakatlarida (Xitoy, Yaponiya, Xind, Azarbadjon, Kirg‘iziston) musiqa ta‘limi va tarbiyasi tizimi bilan tanishtirish. Ilg‘or pedagogik tajribalar va ularni o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Rossiya, Yevropa va SHarq mamlakatlarida xalqning qo‘shiq, milliy cholg‘ulari va teatrlari haqida tushuncha berish.

## **7-Mavzu: Estrada musiqasi. O‘zbek va bugungi kundagi xolati rivojlanishi estrada musiqasining (2 soat nazariy va 2 soat amaliy).**

Estrada musiqasi haqida tushuncha va estrada janirining paydo bo‘lishi. O‘zbekistonda estradaning rivojlanishi. Dastlabki VIAlar xaqida. Zamonaviy qo‘shiqchilik va milliy estradaga berilayotgan e‘tibor. Respublika va xalqaro miqyosida o‘tkazilayotgan ko‘rik tanlovlar xaqida. O‘zbekistonda estrada rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxslarning ijodi.

## **8-Mavzu: Milliy cholg‘u sozlari, ularning guruhlanishi (orkestr, ansambl) va Yevropa cholg‘u sozlariga o‘hshashligi va farqi (2 soat nazariy va 4 soat amaliy).**

O‘zbek xalq cholg‘u asboblari, ularning turlari, tuzilishi va chalinishiga ko‘ra guruxlanishi haqida ma‘lumot berish. O‘quvchilarni xalq va Yevropa cholg‘ulari bilan tanishtirishga oid qo‘shimcha ma‘lumotlardan foydalanish, ovoz tembrlaridan farqlashga o‘rgatish hamda cholg‘u asbobida jonli tarzda ijro etish, uning jo‘rligida qo‘shiq kuylashning darslarda qo‘llashning ahamiyatini ochib berish. O‘zbekistonda xalq cholg‘ulari orkestri tashkil topishi va rivojlanishi. "Sug‘diyona" o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri bilan tanishtirish. Prezident qoshidagi yosh simfonik orkestr (rahbari va dirijyor K.Urimbaev) bilan tanishtirish.

## **9-Mavzu: Raqs san‘ati. Milliy raqs san‘ati va uning namoyondalari (4 soat amaliy)**

Raqs san‘ati xaqida tushuncha berish, xalq raqs maktabi va uning uslublari xaqida. Raqs maktabi namoyondalari. Zamonaviy raqs usullari va ansambillari xaqida ma‘lumot berish.

**10-Mavzu: O‘zbek musiqa me’rosini rivojlanishiga katta hissa  
qo‘shgan tarixiy shaxslarning uy muzeylarida(tanlov asosida) ochiq  
darslar: (4 ko‘chma va 2 soat mustaqil ta’lim)**

**1.Yu.Rajabiy uy muzeyi**

**2.Tamaraxonim uy muzeyi**

**3.M.Ashrafiy uy muzeyi**

Respublika (shaxar, viloyat) miqiyosida joylashgan taniqli ijodkorlar yoki taniqli shaxslarning muzeylariga borish, ularning qilgan ishlari va ijod mahsullari bilan tanishish, sn’atga aloqador ishlari va bugungi kelajak avlod uchun qoldirgan meroslari bilan tanishish. Ochiq darslar tashkil etish. Yunus Rajabiy, Tamaraxanum, Muhtor Ashrafiy va o‘zbek san’atining rivojlanishi va asoschisi haqida ma’lumot berish.

**11-Mavzu: Ilg’or pedagoglarni ish tajribalarini o‘rganish va  
ulardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasi  
(4 soat ko‘chma va 2 soat mustaqil ta’lim).**

Musiqa madaniyati fanidan ilg’or pedagoglarni ish tajribasi bilan tanishish, darslarini kuzatish va tahlil qilish. Dars jarayonidagi foydalangan metod va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni amaliy tajribada ko‘rsata olish. Ochiq, ko‘rgazmali, namunaviy darslari va ularga qo‘yilgan talablar asosida darsni tahlil qilish.

Ko‘chma mashg‘ulot umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida (ochiq dars shaklida) o‘tkaziladi. Unda ilg’or pedagoglarni ish tajribalarini darslarni tegishli mezonlar asosida tahlil qilish orqali o‘qituvchilarning ilg’or pedagogik tajribalarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi baholanadi. Bu jarayonga ko‘chma mashg‘ulot tashkil qilingan maktab o‘qituvchilarini jalb etish, ularning darslarini tahlil qilish orqali ularga metodik yordam ko‘rsatish ham ko‘zda tutiladi.

*Ko‘chma mashg‘ulot “Musiqqa madaniyati fanini o‘qitishda metodikasi” moduli doirasida hozirgi zamon talabi darajasidagi moddiy-texnika bazaga ega bo‘lgan hamda ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalarining mutaxassislik kafedralarida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa muassasalarda tashkil etiladi.*

**MUSTAQIL TA’LIM MAZMUNI**

Modulga oid o‘rganilgan materiallar asosida “O‘zbek musiqa me’rosini rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan tarixiy shaxslarning uy muzeylarida(hududlarda tanlov asosida ekskursiya) ochiq darslar:

1.Yu.Rajabiy uy muzeyi, 2.Tamaraxonim uy muzeyi, 3.M.Ashrafiy uy muzeyi” va “Ilg’or pedagoglarni ish tajribalarini o‘rganish va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasi” mavzularida mustaqil ish bajariladi

**O‘QITISH SHAKLLARI**



Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, musiqa san'atiga qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan topshiriqlar yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qilish, eshitish va qobiliyatini rivojlantirish).

## **Foydalanish tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxati**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1.Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2.Mirziyoev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

3.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.

4.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

5.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.–176 b.

6.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston", 2011.–440 b.

7.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: "O'zbekiston", 2015. – 302 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim Vazirligining 2011 yil 25 iyundagi 139-sonli buyrug‘i.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 12 may ”O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 275 sonli qaror.

### **III. Mutaxassislik adabiyotlar**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

3. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.

5. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2010.

7. Sayidahmedov N.S.Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.

8. Tolipov O‘., Usmonboeva M.Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

9. Urazova M.B., Eshpulatov SH.N.Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPURizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.

10. Nurmatov H.va boshqalar 1-3 sinf “Musiqqa” darsliklari. 2016

11. Ibrohimov O.4-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016

12. Mansurov A va D.Karimova 5-sinf “Musiqqa” darsligi. 2015

13. Bekmatov S.6-sinf “Musiqqa” darsligi. 2017

14. Ibrohimov O.7-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016

15. Panjiev Q.B., Karimova D. A., Ualieva G.I., . - “Musiqqa madaniyati” fani o‘qituvchilari uchun O‘UM -T.-2017

### **Elektron ta’lim resurslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).

2. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)

3. Toshkent shahar pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)

4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
5. <http://www.school.edu.ru> - Umumta'lim portali (rus tilida),
6. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
7. [music-dic.ru](http://music-dic.ru) - Bolalar uchun qo'shiqlar
8. <http://www.zvuki.ru/>
9. <https://t.me/joinchat/> - Uchitel muzыki
10. <https://infourok.ru> - musiqa darslari

Interfaol ta'lim metodlari.


## VENN DIAGRAMMASI

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna:** Sahnaviy janrlarning umumiligi va farqlari



### “Bumerang” texnologiyasi asosida darsni tashkil etish.

**Texnologiyaning maqsadi.** O‘quv jarayoni moboynda tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.

### Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.

- o‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi;
- har bir guruh a‘zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh a‘zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so‘zlab beradilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
  - o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga savollar bilan murojat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;
  - savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;
  - har bir guruh a'zosi tomonidan matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda savol tuziladi;
  - tayyorlangan savollar orqali savol-javob o'tkaziladi;
  - umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi va o'quvchilar baholanadi.

### **Tarqatma materiallar:**

#### **1-guruhga: "Tovush manbalari"**

Tovush tovush manbalari (musiqa asboblari, radiokarnaylar, odamning tovush paychalari va boshqalar)da paydo bo'ladi. Tovush qanday hosil qilinishini o'rganish uchun, metall chizg'ich olib, parta chetiga uchini uzun qilib chiqarganholda qo'yamiz. Qolgan qismini rasmda ko'rsatilgandek qo'l bilan bosib ushlaymiz. Uzin uchidan bosib qoyib yuborsak, chizg'ich uchi tebrana boshlaganini ko'ramiz. Bunda tovush chiqadimi? Sizg'ich uchini parta ustiga surib tajribani takrorlaymiz. Bunda tovush eshitiladi. CHizg'ichning tebranuvchi qismini kamaytirib borsak, tovush aniqroq eshitila boshlaydi. Bu chizg'ich sekundiga kamida 16 marta tebranadigan bo'lganida yuz beradi. Binobarin, sekundiga 16 marta dan ortiq tebrana oladigan jismlar tovush manbalari bo'la oladi.

**2-guruhga: "Tebranishni xarakterlaydigan tushuncha va kattaliklar"** Har qanday takrorlanuvchi harakatga tebranma harakat deyiladi.

1. Bir sekunddagi tebranishlar soni tebranishlar chastotasi deb ataladi. CHastota  $\nu$  (nyu) xarfi bilan belgilanadi. Agar jism 1 sekunda 1 marta tebransa, uning chastotasini 1 Gerts (Gts) deb qabul qilingan. 1 Gts =

Inson qulog'i 16 Gts dan 20 000 Gts gacha bo'lgan tovushlarni seza oladi. 16 Gts dan kichik tovushlarni infratovush va 20 000 Gts dan kattalarini ultratovush deyiladi. Ultratovushlarni itlar, otlar va boshqa ba'zi jonivorlar eshitadi.

#### **3-guruhga : "Kamerton"**

Aniq bir chastotali tovush chiqaradigan asbobga **kamerton** deyiladi. Kamertonni 1711-yilda ingliz musiqachisi J. SHorom ixtiro qilgan bo'lib, musiqa asboblarini sozlashda foydalangan. Kamerton ikki shoxli metall sterjendan iborat bo'lib, o'rtasida tutqichi bor. Rezina tayoqcha bilan kamertonning bir shoxchasiga urilsa, ma'lum bir tovush eshitiladi. Kamertonning tebranishiga ishonch xosil qilish uchun ipga birorta yengil sharchani osib, uni kamertonning ikkinchi shoxchasiga tegizib qo'yamiz. Kamertondan ovoz chiqqanda sharcha

xam tebranib turganligini ko'rish mumkin. Kamertondan chiqadigan ovozni kuchaytirish uchun u yog'ochdan yasalgan qutiga o'rnatiladi. Bu quti **rezonator** deb ataladi. Odamning ham tovush chiqaruvchi og'zi kamertonga o'xshaydi. Til tebranuvchi jism bo'lsa, og'iz bo'shlig'i va tomog'i rezonator vazifasini bajaradi.

#### **4-guruhga: "Tovush qabul qilgichlar"**

Tovushning tabiiy qabul qilgichlariga odam va hayvonlarning eshitish a'zolari misol bo'la oladi. Quloq ichida maxsus parda bo'lib, unga tovush tushganda tebranadi va undan signallar miyaga uzatiladi. Odamlar qulog'ining sezgirligi turlicha bo'ladi. O'quvchi yoshlar bilan qariyalarning qulog'i birday eshitmaydi. Xuddi shunday, hayvonlarning ham tovushni eshitish chastota diapazoni boshqacha. Delfin 200 000 Gts gacha bo'lgan ultratovushlarni qabul qiladi.

Tovushni qabul qiluvchi sun'iy asbob mikrofondir. "Mikrofon" so'zi yunoncha ikki so'zdan: mikros – kichik va phone – tovush so'zlaridan olingan. Mikrofondagi tovush tebranishlari elektr tebranishlariga aylantiriladi, so'ngra maxsus kuchaytirgichlarda kuchaytiriladi.

#### **«Blits» metodi**

O'zbek tilida bolalar uchun yozilgan «Yoriltosh», «Malikai ayyor», «Hayvonlar sultoni» operalaridir.

Shunday misollardan biri sifatida Avaz Mansurovning B.Isroil va F.Safarov librettosiga yozilgan – «Hayvonlar sultoni» operasining mazmunini o'qib beriladi. Talabalarga tarqatma materiallar tarqatiladi.

#### **PROLOG(kirish, muqaddima)**

O'rmon. Barcha hayvonlar to'planishib turadigan joy. SHo'x ohanglarda hirgoyi qilib o'tib ketayotgan quyonchalardan so'ng Ertakchi bobo paydo bo'ladi, u o'rmon tabiatini madh etadi. SHu o'rmonda yashaydigan jonzotlarni birma – bir tanishtiradi. Ular – SHer Sulton, Bo'ri, Quyon, Ayiq, Tulki - o'zlari haqida qo'shiqlar aytishadi. Ertakchi bobo tonglar otib, kunlar botib, bunda har kun hayot qaynashini, hech to'ymaslar – ochko'zlar faqat o'lja payida yurishlarini aytadi va bir kun bo'lib o'tgan voqeani tomosha qilishga taklif etadi.....

#### **VOQEA**

Ikki och bo'ringning jangi avjida. Tulki paydo bo'lib, bo'rilar talashayotgan o'limtik kiyikni olib qochmoqchi bo'ladi. Bo'rilar sezib qolib tulkini haydab yuborishadi va jangni davom ettirishadi. Tulki alamkashlik qilib hayvonlar sultoni – SHer Sultonni yetaklab keladi. SHer Sulton ikkala bo'ri arzlarini tinglab, ajrim qiladi. Talashganlar tarqalishib, SHer Sulton pana joyda dam olishga yotadi.

O'ynab - quvnab quyonchalar kirib kelishadi. Ayyor tulki yana paydo bo'ladi. Quyonlardan biri «Men botirman! Bokschiman! Hattoki SHer Sultonni nakaut qilib qo'yaman!» deb, maqtanib qoladi. Tulki paytdan foydalanib, hayvonlar sultoniga o'xshatma qilayotgan quyonni SHer Sultonga ro'para qilib qo'yadi. Botirligi puchga chiqadi. SHer Sulton o'zining yengilmasligidan, salobatidan mamnun bo'ladi....

Kutilmaganda oʻrmonda toʻs – toʻpolon boshlanadi. Hamma hayvonlar oʻzlarini yoʻqotib quyishgan, ular Sher Sultonni ham pisand qilmay qolishdi, hukmdor hayron..... Hayvonlar tarqalgach, Sher Sulton panagaberkinadi. Baralla qoʻshiq aytib, Odam kirib keladi. Sher Sulton ustiga toʻr tashlaydi. Hayvonlar yordamida ham SHER toʻrdan ozod boʻla olmaydi. U yengilganini boʻyniga olib, «Ne sharting bor!» deb soʻraydi. Odam – doʻstlik, tinchlik va baxtiyor hayotni taklif etadi. Hammalari doʻstlikni madh etib raqs tushishadi, qoʻshiq aytishadi:

«Doʻstlik boʻlsin! Tinchlik boʻlsin!»

**«Hayvonlar sultoni» operasi**

Harakatlar mazmuni	Yakka	Guruh	Toʻgʻri	Yaakka	Xato
	baho	bahosi	javob	xato	
Asar mualliflari. Sahnalashtiruvchilar haqida maʼlumotlar berish					
<b>Ikki och boʻrining jangi</b>					

**Quyoning maqtanishi**

**Opera tomoshasiga 15-20**

**daqqa oldin borish**

**Sher Sultonning**

**engilmasligidan mamnunligi**

**Oʻrmonda toʻpalon**

**Operaning mazmuni yozilgan**

**dasturchani olish**

**Doʻstlikni madh etib**

**Raqs va qoʻshiq ijrosi**

**Sahnada ertakchi bobo**

**koʻrinishi**

**Tulki hayvonlar Sultoni**

**– Sher Sultonni yetaklab**

**kelishi.**

**Sahnada quyonchalar**

**Baralla qoʻshiq aytib sahnaga**

**odamning kirib kelishi.**

**Izoh:** 1-grafa yakka holda toʻldiriladi, 2-grafa yonidagi doʻsti bilan toʻldiriladi, 3-grafaga oʻqituvchi tomonidan etilgan toʻgʻri javob yoziladi.



4-grafa yakka holda qo'yilgan baho to'g'ri javob bilan solishtirilib farqi yoziladi. 5-grafaga yo'l qo'yilgan ball To'g'ri javoblar.1-3; 2-5; 3-7; 4-1; 5-9; 6-10; 7-2; 8-12; 9-4; 10-6; 11-8; 12-11.

### "Beshinchisi ortiqcha" metod

Utiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, bu metodni ham ko'rish mumkin.

Quyida "Birinchisi ortiqcha" metodidan foydalanishni ko'rib chiqamiz.

*Darsning mavzusi:* intervallar.

*Darsning maqsadi:* o'quvchilarning turli intervallar orqali va ularning turlari haqida olgan bilimlarini mustahkamlash.

Dars jarayonida interval- so'zining ma'nosi, sof kichik va katta intervallar haqida tushuncha beradi.

Dastlab o'kituvchi o'quvchilarga bir oktavi oralig'idagi intervallar haqida tushuncha beradi. Bunda u intervallarning uch xil asosiy turi borligiga to'xtaladi.

1. **Sof intervallar:** sof prama (s 1), sof kvarta (s 4), sof kvinta (s 5) va of oktavalari (s 8).
2. **Kichik intervallar:** kichik sekunda (kich 2), kichik tertsiya (kich 3), kichik seksta (kich 6) va kichik septimi (kich 7),
3. **Katta intervallar:** katta sekulda (kat 2), katta tertsiya (kat 3), katta sensta (kat 6), katta sentimi (kat 7).

Uqituvchi o'quvchilarning fikrlarini har bir turdagi intervallarning soni to'rttadan ekanligiga qaratish lozim. SHunda ular intervallarning aniq tizimini o'z oldilariga belgilab olishlari osonlashadi. So'ngra, "beshinchi ortiqcha" interfaol uslubini qo'llashga o'tiladi. Bunda doskaga quyidagi shakldagi ko'rgazmali qurollar osib qo'yiladi.

Sof intervallar	Kichik	Katta
1. sof 8	1-kich 2	1. katta
2. sof 5	2. kich 3	2. katta
3. sof 1	3. kich 4	3. katta
4. sof 2	4. kich 6	4. katta
5. sof 4	5. kich 7	5. katta

O'quvchilarga berilgan shaklarda qaysi interval ortiqcha ekanligini aniqlash va buni isbotlab berish vazifasi topshiriladi.

**Javoblar:** 1-shaklda sof intervallarning soni to'rtta bo'lishi lozim. Ma'lumki, sof sekunda (s 2) umuman uchramasligi, sekundalar odatda kichik yoki kata bo'lishi mumkinligi hamda sekunda interval kuloqqa yoqimsiz eshivilishi, sof intervallar esa quloqqa yoqimli eshivilishi haqida fikr bildirgan hola sof intervallar safidan sof sekundaning ortiqcha ekanligini isbotlab beradi.

2- shaklda esa kichik kvarta ( kich 4) ning ro'yxatga noto'g'ri kiritilganligi hamda 3-shaklda katta kvinta intervali bo'lmasligini e'tirof etadi. Ayni paytda orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvartalar mavjud bo'lishi hamda bu interval "Trion" deb atalishi hamda ma'lumot beriladi.

Bunday metoddan foydalanish o'quvchilarning intervallar haqidagi bilimlarini aniq bir sxema asosida fikrlariga joylab olish imkonini beradi.

### **"Qora quti" metodi**

O'quvchilarning egallagan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun ko'l keladi. Ayni paytda o'quvchilarni hamkorlikda ishlashda hamda ularning o'z-o'zini boshqarish malakalarini oshirishga ham imkon beradi.

Har bir metoddan foydalanishda shu metodga mos keladigan mazudan kelib chiqishga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Mazkur metoddan o'quvsilarning egallagan bilimlarini mustahkamlash maqsadida umumli foydalanish mumkin. Xususan, 6-sinfda kompozitor V.A.Motsartning hayoti va ijodi haqidagi darsda o'quvchilarga internatsional tuyg'ularni singdirish, mumtoz musiqaga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash mumkin.

Darsda kompozitorning bolaligi va ijodiy yutuklari hakida ma'lumot berish, uning hayoti va ijodiga xos xususiyatlar, yaratgan asarlarini tahlil etish, o'quvchilarda chet el musiqa namoyondalarining ijodini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'quvchilarni milliy va baynalminal ruxda tarbiyalash kabi vazifalar hal etiladi.

"Qora quti" metodidan foydalanish uchun dastlabki har bir partada o'tirgan ikki o'quvchining hamkorlikda ishlashiga imkon beriladi. Ular V.A.Motsartning hayoti va ijodiga taaluqli asosiysanalarni tarqatilgan kartochkalarga qayd etib boriladi. Ma'lum vaqtda o'quvchilar bu fazifani bajarganlaridan so'ng, o'qituvchi ularning kartochkalarini tekshirib kichadi. Topshiriqni to'g'ri bajargan partadagi ikki o'quvchining biri doskaga chiqib, topshirilgan vazifaning to'g'ri javobini yozuv taxtasiga bo'r bilan yozib qo'yadi. Doskaga quyidagi sonlar yozib belgilanadi.

1756 yil, 1762 yil, 1786 yil, 1788 yil, 1791 yil. So'ngra o'qituvchi bu savollarning ahamiyati haqida to'xtaladi. Sanalarning ma'nosini to'g'ri izohla bergan o'quvchi o'qituvchilik vazifasini bajaradi va dars o'z-o'zini boshqarish tarzida olib boriladi.

Uqituvchi vazifasini o'tayotgan o'quvchi sinfdoshlariga har bir partaga 6 tadan kartochka takatib chikadi va o'quvchilarga V.A.Motsart hayotiga oid eng muhim sanalar va uning yaratgan asarlaridan eng muhimlarini yozish topshiriladi.

Doskada quyidagi yozuvlar paydo bo'ladi.

1. 1756 y. - V.A.Motsartning tug'ilgan yili.

2. 1762Y. - 6 yoshli Motsartning kontsert ijrosi.
3. 1786 y. - "Figaronning to'yi" operasi ko'yilgan.
4. 1788 y.- "Donjuan" operasi qo'yilgan.
5. 1791 y. - "Sehrli fleyta" operasi va "ekvill" yozilgan.
6. 1792 y. - V.A.Motsart 36 yoshida vafot etgan.

O'tkazilgan tajribalar bu metodlardan foydalanish darsda ilgari foydalanilgan an'anaviy metodlarni yangilash imkonini berishi, o'quvchilar bu metodlarni ko'llashda faol ishtirok etishlari, darsni qiziqarli tashkil qilishga erishishi, beriladigan bilim va axborotlarning o'quvchilar ongiga chuqur singdirishga erishishini ta'minlashini ko'rsatadi.

Nazariy mashg'ulotlar

**1-MAVZU: “MUSIQA MADANIYATI” FANI O‘QITUVCHILARI  
MALAKASINI OSHIRISH O‘QUV-MAVZUIY REJASI, DTS  
TALABLARI ASOSIDA KOMPETENTSIYAVIY YONDOSHUV, O‘QUV  
DASTUR, O‘QUV REJA, QO‘LLANMA VA DARSLIKLAR TAHLILI”  
REJA**

1. Umumiy o‘rta ta’limning DTS bo‘yicha qoidalar, printsiplar va talablar
2. Umumiy o‘rta ta’limning "Musiqqa madaniyati" faniga oid quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar

**3.Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni loyihasi haqida.**

**1.Umumiy o‘rta ta’limning DTS bo‘yicha qoidalar, printsiplar va talablar**

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti o‘quvchilar umumta’lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Davlat ta’lim standarti ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baxolash tartibini belgilaydi. Ta’lim mazmunining o‘zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta’lim standarti o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar, nizomlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib shiqadi.

Davlat ta’lim standartini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

*Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari*

Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartini ishlab chiqishda quyidagi me‘yoriy hujjatlar asos qilib olindi:

“Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlashtizimini isloh qilish bilan bog‘liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-son hamda «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida» 1998 yil 13 maydagi 203-son qarorlari;

O‘zRST 1.0 – 92. O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O‘zRST 1.1 – 92. O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. O‘zbekiston Respublikasi standartini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi;

GOST 1.5 – 93. Davlatlararo standartlash ishlarini olib borish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuniga bo‘lgan talablar;

O‘zRST 1.9 - 95. O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. Tarmoqlar standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.

*Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini ishlab chiqish printsiplari*

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti quyidagi printsiplarga tayangan holda ishlab shiqildi: – davlat ta’lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

– o‘quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog‘liqligi;

– umumiy o‘rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

– umumiy o‘rta ta’lim mazmunining insonparvarligi;

– ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

– umumiy o‘rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalarga tayanish;

– pedagogik tafakkurda qaror topgan an’anaviy qarashlar bilan “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

– ilg‘or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribalaridan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

*O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar*

Umumiy o‘rta ta’lim ikki bosqichdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich (1-4-sinflar) va umumiy o‘rta ta’lim (1 – 9-sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti boshlang‘ich hamda umumiy o‘rta ta’lim nihoyasida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi.

Har bir sinf yakunida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim predmetlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘z aksini topgan.

*Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar musiqa madaniyati fani bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:*

- musiqa badiiy san'at ekanligini bilishlari, kuyga tavsif bera olish;
- xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish;
- cholg'u asboblarini bilish va tovush tembrlaridan ularni farqlay olish;
- musiqaga oid oddiy atamalarni bilish;
- nota yozuvlarini bilish va amalda qo'llay olish;
- birgalikda va yakka holda kuylay olish;
- musiqaning ifoda vositalarini bilish;
- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

*5-7sinflarda o'quvchilar musiqa madaniyati fani bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:*

*O'quvchilar musiqa madaniyatiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:*

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish;
- Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik)ni bilish, ularning mashhur ijrochilarini bilish;
- maqom haqida tushuncha, o'zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, shashmaqom, uning cholg'u ashula yo'llari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytish yo'llarini bilish;
- O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;
- ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'ta olish;
- kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baxolay bilish;
- mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar hamda ushoqlarning mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;
- kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish;
- musiqa naqadar qadimiy san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asrlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishini va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olish.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimida ro’y berayotgan

o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa o'quv faning o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. "Musiqa madaniyati" o'quv fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan tarix, geografiya, fizika, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar), katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi.

Musiqa ta'limidan Davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. SHu bois, musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. SHu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi.

Mazkur standartda umumiy o'rta ta'lim doirasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etildi va shu asosda Respublika



viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Toshkent shahar xalq ta'limi Bosh boshqarmasi musiqa madaniyati fanining ta'lim mazmunini ishlab chiqadilar. Ta'lim mazmunida hududiy vohalarning san'ati va madaniyati, u yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topmog'i lozim.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda asosiy tarbiyaviy vazifalar o'quvchilarda quyidagilarni shakllantirishdan iborat:

o'z xalqining tarixiy an'alariga sodiq bo'lish

yashab turgan muhitini ezozlash

mahalliy sharoitda mavjud bo'lgan tabiat boyliklarni qadrlash va tejab-tergab foydalanish

kelajakda o'z xalqi va Vataniga sadoqat bilan hizmat qilish

madaniyat e'tiqodni hosil qilish

bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini shakllantirish

kundalik hayotda kuzatilayotgan hodisalarning musiqa madaniyat mohiyatini bilish va tegishli hulosalar shiqara olish darsliklar, qo'llanmalar, va turli xildagi ilmiy-ommabob adabiyotlaran foydalana bilish va tegishli xulosalar chiqarisha olish

## **1.2. Umumiy o'rta ta'limning "Musiqa madaniyati" faniga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalari**

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

**bilim**—o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

**ko'nikma**—o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

**malaka**—o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

**kompetentsiya**—mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

*O'quvchilar "Musiqa madaniyati" faniga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:*

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish;

- Farg'ona - Toshkent; Samarqand - Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik) ni bilish;

- maqom haqida tushuncha, o'zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, SHashmaqom, uning cholg'u ashula yo'llari, Farg'ona - Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytish yo'llarini bilish;

- O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;

- ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'ta olish; - kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;

- mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar hamda ushshoqlarning mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

- kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish;

musiqa naqadar qadimiy san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asarlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishini va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olish. Musiqa madaniyati fanining maqsadi va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa madaniyati fanining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Musiqa madaniyati fanining maqsadi: o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati va san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham Davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib etishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan SHarq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

O'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. SHuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'limtarbiyasining asosiy

vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar Musiqa madaniyati o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi. Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilish, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralari, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi:

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

1. Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va kompozitorlarining musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

2. Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovozi ijrosini boshqarishni va ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavoqlik qilishga intiladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

3. Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro yetish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. SHu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi) tashkil etadi. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Musiqa tinglash yakkanavoqlik va jo'rnavoqlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr

ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta’lim mazmunini tashkil etadi.

4. Musiqa ijodkorligi qo‘shiq ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo‘lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa, bolalar kuy va qo‘shiqlari, ommaviy xalq kuy qo‘shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, ritm-usul, sur‘at, o‘lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay bilish. Oddiy musiqa shakllari: bir qismli, ikki qismli va uch qismli musiqa shakllari. Kupletli, rondo, sonata, syuitalar haqida tushunchaga ega bo‘lish. Musiqiy janrlar: ashula, raqs, vals, marsh kabi janrlarini farqlay olish. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo‘lish. Xor ijrochiligi: bolalar, ayollar, erkaklar bilan tanishish. Partiya ovozlari: soprano, alt, tenor, bas ovozlari farqlay olish. Musiqa san’atining boshqa san’at turlari bilan bog‘liqligi adabiyot, kino, teatr kabi san’atlar bilan bog‘liqligi. Atoqli o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh xalqlar kompozitorlari, atoqli o‘zbek xalq sozanda va xonandalari, mashhur ansambllari, orkestrlari va xor jamoalari haqida tushunchaga ega bo‘lishda ushbu san’at turlarini bilishning ahamiyati katta. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan barcha fanlar qatorida o‘quvchilar musiqa madaniyati fanidan ma’lum darajada bilim va ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

### **1-sinf**

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- shoir va bastakorlarni bir-biridan farqi haqida tushunchaga ega bo‘lish;
  - musiqaning badiiy tavsifi (quvnoq, sho‘x, g‘amgin va v.b.)ni bilish;
  - musiqaning tasviriy tavsifi (tabiat, o‘yin, ertak, hazil, o‘yinchoqlar obrazlari, kundalik hayot) haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- nota chizig‘i, skripka kaliti, etti tovush haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish;
- musiqiy ifoda tavsifiga qarab ijro ti plari sust, sekin, o‘rta va tez suratlarda ijro etilishini bilish;
  - kuyga tavsif berish (sekin, tez, sakramali) va unda nima ifodalanganligini bilish;
  - xalq cholg‘u asboblari doira, rubob, nog‘ora, karnay bilan tanishish; tovushlarni baland va pastligi, yuqorilashib va pastlashib borishi, uzun va qisqaligi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- Asar ohangidan unda nima tavsiflanganligini, uning ifoda tavsifi (quvnoq, sho‘x, g‘amgin, hazil va boshqalar ) orqali aniqlay olish;

-chapakda va bolalar cholg‘u asboblari cholib musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish;

- dirijorning "Diqqat", "Nafas" va "Tugatish" kabi asosiy ish oralariga amal qila olish;

- notalar uzunligi (butun, yarim, chorak va nimchorak) haqida tasavvurga ega bo‘lish.

Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

- shoir va bastakorlarni bir-biridan farqlash;

- asarlarni ifoda tavsiflari orqali farqlash;

- musiqa tovushlarini farqlash;

- kuy va qo‘shiq'larga tavsif berish;

- dirijorning ishoralariga qarab kuylash.

## **2-sinf**

Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- Asarning nomi, ijodkorlari va badiiy mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish;

- musiqaning ifoda tili-kuy, registr va dinamik turlari haqida tushunchaga ega bo‘lish,

- nota yozilishida yetti asosiy bosqichning joylashuvini bilish;

- cholg‘u asboblari, g‘ijjak, qashqar rubobi, nog‘ora bilan tanishish; - yakkanavoz, yakkaxon, cholg‘uchilar va xonandalar ansambli haqida tushunchaga ega bo‘lish;

-kuyning tuzilishi, uning ifoda vositalari haqidagi tushunchalarni bilish.

*Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:*

- asarning musiqiy tavsiflari tahlilida qatnashish va o‘z nuqtai nazarini bayon eta olish;

- cholg‘u asboblarni tovush tembridan ajrata olish;

- tinglash orqali musiqaning ijro turlari yakkanavoz, yakkaxon dasta yoki orkestr ekanligini ajrata bilish;

- dirijorlik ishoralari yordamida xor bo‘lib kuylay olish.

Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

- asarning musiqiy tavsiflari tahlilida qatnashish va o‘z nuqtai nazarini bayon etish;

- cholg‘u asboblarni tovush tembridan farqlash;

- tinglash orqali musiqaning ijro turlari yakkanavoz, yakkaxon, ansambl ekanligini bir-biridan farqlash;
- dirijorlik ishoralari yordamida xor bo‘lib kuylash.

### **3-sinf**

Musiq madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- ansambl, orkestr va xor haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish.
- o‘rganilgan qo‘shiqlarning mazmuni va mualliflari haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- musiqa savodiga doir kuy, usul, ritm, sur‘at, o‘lchov notalar shakli va pauzalar cho‘zimi, nota yo‘lidagi o‘rni; major va minor lad (tuzuk)lari xususiyatlari, ularning uch tovushliklari;
- oddiy musiqa shakllari volta, repriza haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish;
- tinglangan musiqa asarlarining mazmuni, janri (qo‘shiq, marsh, raqs) va mualliflari haqida umumiy bilimlarga ega bo‘lish.

Musiq madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- Qo‘shiqlar kuylash va ularning janri, shakli, ifoda vositalari haqida fikr bildira olish;
  - mashq va qo‘shiqlar kuylaganda o‘qituvchining dirijorlik ishoralariga qarab ansambl bo‘lib kuylay olish
  - o‘z o‘rnida nafas olish, qo‘shiq so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, dinamik belgilarga rioya etib kuylay olish;
  - musiqa asarini diqqat bilan tinglash, uning shakli, qismlari(jumlalari), qaytarish va tugatish joylari, janr (qo‘shiq, raqs, marsh) undagi major yoki minor tavsifi, ijro turi va asboblari ishtirokini aniqlay olish;
  - oddiy nota yozuvlaridan o‘rganilgan nota belgilarini topib aniqlay olish;
  - musiqa tavsifini raqs, turli harakatlarda ifodalab ko‘rsata olish;
  - chapak va bolalar kichik urma cholg‘u asboblari cholib musiqaga ritmik jo‘r bo‘la olish;
- Musiq madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:
- Qo‘shiqlar kuylash va ularning janri, shakli, ifoda vositalari haqida fikr bildirish;
  - mashq va qo‘shiqlar kuylaganda o‘qituvchining dirijorlik ishoralariga qarab ansambl bo‘lib kuylash, o‘z o‘rnida nafas olish, qo‘shiq so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, dinamik belgilarga rioya etib kuylash;

- musiqa asarini diqqat bilan tinglash, uning shakli, qismlarini (jumalari), qaytarish va tugatish joylari, janr (qo‘shiq, raqs, marsh) undagi major yoki minor tavsifi, ijro turi va asboblarning ishtirokini aniqlash;

- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlash;

- chapak va bolalar kichik urma cholg‘u asboblari musiqa ritmik jo‘r bo‘lish.

- cholg‘u asboblari tembridan ajratish.

#### **4-sinf**

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- Xalq musiqa ijodi haqida tushunchaga ega bo‘lish;

- o‘zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari: qo‘shiq, alla, lapar, yalla, terma, bolalar qo‘shiqlari, ommaviy kuylar haqida tushunchaga ega bo‘lish;

- o‘zbek musiqasida bastakorlik uslubi hamda kompozitorlik ijodi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish;

- rus, dunyo xalq musiqasi va O‘zbekistonda yashovchi xalqlarining musiqasi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish.

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- Xalq musiqa janrlarini ohang va ifoda tavsiflariga ko‘ra ajrata bilish;

bastakorlik va kompozitorlik uslubiga mansub asarlarning tuzilishi va ijro uslubidan ajrata olish:

- ommaviy xalq musiqa janrlarini kasbiy musiqa (ashula, kata ashula)dan farqlay olish;

- mashq va qo‘shiqlarni nota yozuviga qarab kuylay olish;

- kichik cholg‘u asboblari cholib, musiqa ritmik jo‘r bo‘la olish;

- ma‘lum she‘r parchalariga kuy bastalay olish.

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

- Tinglash va kuylash orqali asarning major va minor ladini farqlash;

- musiqa tinglash orqali damli, zarbli va torli cholg‘u asboblarning ovoz tembridan farqlash;

- nota yozuvlariga qarab kuylash;

- musiqiy cholg‘u asboblari kuy va qo‘shiqlar xarakteriga mos ritmik jo‘r bo‘lish.

#### **5-sinf**

Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- Orkestr, ansambl va xor tuzilishini bilish;

- xor turlari - bolalar xori, xotin-qizlar xori, erkaklar xori, aralash xor;

- ovoz turlari - bolalar ovozi (alt, soprano, diskant), ayollar ovozi (alt, soprano), erkaklar ovozi (tenor, bariton, bas)ni bilish;
- simfonik orkestr;
- vokal simfonik asarlar - syuita, kantata; raqs san'ati (xoreografiya), balet;
- sahnaviy musiqa asarlari; xalq qo'g'irchoq teatri, musiqali drama va komediya;
- opera san'ati, o'zbek musiqasida opera janri;
- opera ijodkorlari - J. Verdi, V. A. Motsart, N. Rimskiy-Korsakov, A.Xachaturyan, P.I.CHaykovskiy va boshqalar; - o'zbek musiqasida opera va drama ijodkorlari - M.Ashrafiy, R. Glier, S.Vasilenko, T.Jalilov, Yu.Rajabiy, S.Yudakov, S.Jalil, S.Boboev, M.Leviev;
- vokal-cholg'u syuita va kantata ijodkorlari - S.Yudakov, M.Nasimov;
- drama musiqasi ijodkorlari - T.Jalilov, Yu.Rajabiy, S.Jalil;
- atoqli o'zbek dirijorlari - M.Ashrafiy, D.Zokirov, M.Bafoev, N.Xalilov, B.Umidjonov, A.Sultonov, A.Hamidov;
- bolalar xor jamoasi dirijori - SH.Yormatov;

musiqaning san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligi (kino, tasviriy san'at, adabiyot va boshq). Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

#### **Tinglash madaniyati:**

- CHolg'u ansambli va xalq cholg'u orkestrini audiokasseta, radio va televidenie orqali tinglab, ularni tembr va cholg'u tovushlari tarkibidan ajrata bilish;
- simfonik orkestr, estrada simfonik orkestri va duxovoy orkestrlari cholg'ular tembrini tovushlaridan ajrata bilish;
- xor va orkestr ijrosidagi asarlarni idrok etib, ulardagi obrazlarni anglab olish;
- xor turlari (bolalar xori, xotin-qizlar xori, erkaklar xori, aralash xor)ni audio yozuvdan tinglab ajrata olish;

#### **Ijro madaniyati:**

- Bilgan cholg'u asbobida chalib o'qituvchi ijrosiga jo'r bo'lish;
- mashq va ayrim qo'shiq parchalarini ikki ovozda mustaqil kuylay olish;
- berilgan qo'shiqlarni mahorat bilan ijro eta olish.

Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

#### **6-sinf**

Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- Xalq musiqa janrlarida mumtoz musiqani;



- SHarq xalqlari mumtoz musiqasi bilan tanishish;
- buyuk rus kompozitorlari M.Glinka, P.CHaykovskiy, Yevropa klassik musiqasi, simfoniya janri I.S.Bax, L.Betxoven, V.Motsart, F. SHubert, Y.Gaydn asarlarining klassikligi;
- ushbu kompozitorlar ijodi bilan qisqacha tanishuv;
- o‘zbek zamonaviy musiqasida bastakor va kompozitor ijodini bilish; -o‘zbek xalq musiqasining Markaziy Osiyo va yaqin SHarq xalqlari

musiqasi bilan o‘xshashligi va farqini bilish;

- jiddiy va yengil musiqaning ifoda vositalari, mazmuni va kuyining ohangini ajratishni;

- bastakorlik ijodida an’anaviylik va zamonaviy ijod uslublarining mujassamligini bilish;

- estrada qo‘shiqlarida milliylik va baynalminallik xususiyatlari tushunchasiga ega bo‘lish;

milliy estrada qo‘shiqlarini badiiy idrok etish va uning ijro mahoratini farqlay bilish;

- rok, janri, uning asl vatani;

- o‘zbek musiqasida estrada janri, kino musiqasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini;

- mumtoz musiqani, ustozona (kasbiy) musiqani, xalq musiqa janrlarini ongli ravishda o‘zlashtirib farqlashni bilish.

Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

### **Tinglash madaniyati:**

- Xalq va ustozona mumtoz musiqani shakl, mazmun va ijro mahoratiga qarab ajrata olish;

- Zamonaviy milliy musiqada mumtozlikka xos badiiy yuksaklikni ajrata olish;

- SHarq xalqlari milliy usulini ohanglaridan ajrata bilish;

- SHarq xalqlari uchun mushtarak bo‘lgan cholg‘u asboblarida ijro yetilgan asarlarni tinglab, ular qaysi millatga xosligini aniqlay olish.

### **Ijro madaniyati:**

- Qo‘shiqlarning so‘z ma’nolarini jarangdor va ifodali kuylay olish;

- ayrim qo‘shiqlarni doira usullari boshqaruvida kuylay olish; Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega

bo‘lishlari kerak:

### **7- sinf**

Musiqqa madaniyati fanidan quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

-Milliy musiqa amaliyotida mahalliy uslublar haqida tushunchaga ega bo'lish;

-har bir vohaga mansub mahalliy musiqiy uslubga xos mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik va b.)ni bilish;

-har bir mahalliy uslubning o'ziga xos ijrochilik usublari va yetakchi cholg'u asboblari bilish;

-Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm mahalliy uslublaridagi xususiyatlarini; ularning mashhur ijrochilari (ashulachilar, yallachilar, xalfalar va b.)ni bilish;

-SHashmaqom, uning cholg'u va ashula yo'llarini bilish;

-Farg'ona-Toshkent-Xorazm maqomlarining cholg'u va ashula yo'llari haqida tasavvurga ega bo'lish;

mahalliy musiqiy an'alarining zamonaviy musiqa ijodiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik sohasida namoyon bo'lishini;

-estrada va milliy estrada haqida tushunchaga ega bo'lish;

-hozirgi badiiy jamoalar, ta'sis etilgan ko'rik-tanlovlari haqida bilish;

-O'zbekiston Markaziy Osiyo, jahon musiqasi va hozirgi zamon musiqa san'atining o'ziga xos jihatlarini bilish, bu san'atning ayrim namoyondalarini hamda ularning mashhur asarlarini tinglab umumiy tasavvurga ega bo'lish.

Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

### **Tinglash madaniyati:**

-SHashmaqom, Xorazm hamda Farg'ona-Toshkent maqomlarining ohang xususiyatlarini usul va uslublariga ko'ra ajrata bilish;

-to'rt lokal mintaqada mavjud musiqiy mahalliy uslublarni ijro uslublariga ko'ra farqlay bilish;

- Farg'ona - Toshkent, Samarqand - Buxoro, Surxondaryo - Qashqadaryo va Xorazm vohalaridagi baxshilar ijrolarini cholg'u jo'rlari (dombra, dutor, tanbur, tor) va ovoz ishlatish (bo'g'iq va ochiq) uslublariga ko'ra ajrata bilish;

-SHarq, mumtoz, estrada va jahon musiqalarini tinglab farqlay bilish;

-Festivallar va ko'rik-tanlovlarni farqini aniqlay bilish.

### **Ijro madaniyati:**

-Turli tuzilishdagi ikki ovoqli qo'shiqlarni ansamblda kuylash; -major va minor ladlarini ifodali kuylash; -kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish:

- o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarni ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;

-bilgan cholg'u asboblari chalish, sinf xoriga jo'rnavozlik qilish. Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

### 3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni loyihasi haqida.

*Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni loyihasi e'lon qilindi.*

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iborat.

#### **Qonunning asosiy vazifalari:**

ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratish;

ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirish;

ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb tan olinadi.

#### **Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

ta'lim va tarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga ega ekanligi;

ta'limning uzluksizligi, uzviyligi va izchilligi;

12 yillik (6 yoshdan 7 yoshgacha bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash hamda o'n bir yillik umumiy o'rta va o'rta maxsus)

ta'limning majburiyligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagog xodimlar ijtimoiy himoyasining kafolatlanganligi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Davlat jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olishda teng huquqlarni kafolatlaydi.

**Davlat ta'lim olish huquqini quyidagilar orqali ta'minlaydi:**

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni va ta'lim dasturlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;

yetakchi klassik oliy ta'lim muassasalari maqomini belgilash va ularni qo'llab-quvvatlash;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy, dual) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlar tayyorlash va ta'limga oid davlat dasturlari asosida o'qitish;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni bepul olish;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan, shuningdek, majburiy umumiy o'rta ta'limni to'liq olmagan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish;

ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini mehnat bozorining talablariga muvofiq shakllantirish.

Xorijiy mamlakatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga va qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

**O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlarini yoki ulardan birini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari;

yakka tartibda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar (repetitorlik);

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlari hamda ularga idoraviy mansub tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

**O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:**

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

kasbiy ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;  
kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;  
maktabdan tashqari ta'lim.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Davlat ta'lim standartlarini kim tasdiqlaydi ?
2. Uzluksiz ta'limning qanday turlariga DTS joriy etiladi?
3. O'quvchining ma'lum fan yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalari amaliyotda qo'llay bilishi – bu
4. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyatlar turlari?
5. Musiqa talimi mazmuni asosini qaysi faoliyatlar tashkil etadi?
6. Musiqa tinglash faoliyati necha bosqichda amalga oshiriladi?
7. Musiqa madaniyati fanidan 4-7 sinflarda haftalik o'quv soatlari qancha?
8. Musiqa madaniyati fanidan I-VII sinflarda jami yillik soati qancha?
9. O'zbekiston Respublikasi umumtalim maktablarida musiqa talim-tarbiyasi Kontseptsiyasi qachon qabul qilingan va necha bobdan iborat?
10. «Musiqa ta'lim-tarbiyasining ilmiy-uslubiy ta'minlanishi» O'zbekiston Respublikasi umumtalim maktablari musiqa talim-tarbiya Kontseptsiyasining nechanchi bobida bayon etilgan?
11. O'quv fanini bilish jarayonning amaliyotda tasdiqlangan natijasi – bu
12. «Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi» O'zbekiston Respublikasi umumtalim maktablari musiqa talim-tarbiya Kontseptsiyasining nechanchi bobida bayon etilgan?
13. Musiqa talim tarbiyasining bosh maqsadi?
14. «Musiqa talim tarbiyasining maqsad va vazifalari» O'zbekiston Respublikasi umumtalim maktablari musiqa talim-tarbiya Kontseptsiyasining nechanchi bobida bayon etilgan?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Musiqa madaniyat fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o‘tqazish yuzasidan tavsiyalar. O‘R XTV RTM, Toshkent, 2006 y.
- 2.Malaka oshirish va qayta tayyorlash davlat talablarining qayta takomillashtirilgan varianti. Musiqa madaniyati. Toshkent, 2009 y.
- 3.Askarov I. va boshqalar. Musiqa 5-7 darsiklar. T.,2002,2006y.y.
- 4.O‘zRMSIV, O‘ D.K. R.Qodirov “Musiqa pedagogikasi”-T. -2013y.
- 5.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining pedagogik maxorati asoslari. Tuzuvchi: T.V.Shevchenko. T, 1991.

## 2-MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARS FAOLIYATLARINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH METODIKASI

### REJA

- 1.Musiqa idroki (tinglash)
- 2.Qo‘shiq kuylash faoliyati.

### 2.1. Musiqa idroki (tinglash).

Bolalarning musiqiy bilimlar tizimida musiqa tinglashning ahamiyatini baholash murakkabdir.

Musiqa tinglamay madaniyatni o‘rgatish, dunyo musiqa san‘ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o‘rgatish, yuqori musiqa san‘ati asarlariga nisbatan muhabbat o‘yg‘otish mumkin emas. Bu sifatlarni shakllantirishda musiqa tinglash jarayonining juda katta o‘rni bor.

Musiqa tinglash jarayonida, bolalar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. D. SHostakovichning ta‘biri bilan aytganda, «Musiqani sevish uchun, avvalam bor uni tinglash kerak...» Vatan, do‘stlik haqidagi, mehnat va boshqa jismoniy hamda aqliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash, bolalarga ijobiy ta‘sir qiladi. Bola tinglangan musiqa yoki san‘at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog‘lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo‘lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

V.I.Petrushin "Musiqa psixologiya" asarida musiqaning psixologik xususiyatlari haqida to‘xtalar ekan, musiqa idrokiga ham to‘xtalib o‘tadi.

Uning fikricha, tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda, uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo‘lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning hayoti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini o‘yg‘otadi. Lekin tinglovchi musiqiy asarni tinglaganda, o‘zining emas, balki kompozitorning kayfiyati, his-tuyg‘ularini musiqaning ifoda vositalari orqali anglashi kerak. V.Petrushinning fikriga ko‘ra, musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirishga bog‘liq ekan. Lekin u yana shuni ta‘kidlaydiki, kishining tarbiya ko‘rgan muhiti, bilimi, yoshi ham uni musiqiy

idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Har bir kishining musiqiy didi uning turar joyi, yashash muhiti va uni o'rab turgan oblaydi, V.Petrushin.

Olim yana "... Musiqiy idrok tafakkurning boshlang'ich bosqichi..." - deydi.

Demak, olimning fikrini tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Musiqiy idrok eshitish sezgisi bilan bog'liqdir.
2. Musiqani idrok etganda avval egallangan taassurotlar gavdalanar ekan.
3. Kishilarning musiqiy didi ular yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekan.
4. Musiqiy idrok taffakur jarayonining ilk bosqichlaridan biridir.

N.A.Vetlugina o'zining "Musiqani idrok etish" nazariyasida musiqaning nihoyatda ta'sirchanligi va uni inson ongi orqali idrok etish malakalarini shakllantirishning boshlang'ich bosqichlari haqida bayon etadi.

Avvalam bor, N.Vetlugina bolalarni musiqiy asarlarni idrok etishi muammosi bilan ko'p shug'ullangan olimadir. U musiqa tinglashning ahamiyati haqida gapirar ekan, ijro etishdan ko'ra musiqa tinglash kishilar ruhiyatiga ko'proq ta'sir qilishiga urg'u beradi. SHuningdek, N.Vetlugina musiqa tinglash jarayonining ham o'z metodikasi bo'lishi haqida gapiradi. Maktabda o'quvchilarga har xil mazmundagi qo'shiqlarni tinglatar ekanmiz, tinglash jarayonini tashkil etish va uni samarali usullarini ishlab chiqish joizdir. N.Vetluginaning ta'biriga ko'ra, musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga ta'sir qilib, unda har xil hislarni o'yg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi.

B.V. Asafev (1884-1949) musiqa tinglash yoki musiqani idrok etishni ikki xil ma'noda tushuntirgan:

1. Tinglovchi o'z ijrosi bilan uyg'unlashib undan zavqlanib, musiqa tinglash uning kundalik ishiga aylanib qoladi.
2. Tinglovchi o'zini, butun vujudini musiqa ummoniga g'arq etib, qalbi bilan uni his etib, haqiqiy musiqa bilimdoni sifatida tinglaydi.

Ko'rib turganimizdek, B.V.Asafev musiqa tinglovchilarni ham farqlaydi. U musiqani asl bilimdoni boshqacha tinglaydi va shunchaki havaskor boshqacha tinglaydi, deb o'qtiradi. Tabiiyki, musiqashunos musiqani idrok etar ekan, u musiqa ijodkori, shakli, karakteri, janri haqida bemalol fikr bildira oladi. Biroq, havaskor musiqa tinglaganda, faqatgina musiqaning karakteri, badiiy obrazi haqida qisman tushuncha bera oladi.

Asarni bilishning ikkinchi bosqichida bola asar haqidagi o'z fikrini aytishi, uning g'oyaviy-badiiy mazmuniga baho berishi, asarning karakterli

xususiyatlarini tahlil qilishi kerak. Bunda tanqidchilik, san'atshunoslik va hokazolardagi muallif va uning asarlari haqida insoniyat to'plagan bilimlar mujassamlashadi. Musiqa tinglash, yakkanavoz va jo'rovozklikni ajrata bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish, o'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash kabi musiqiy-nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bilimlarni o'zlashtirish bolalarning musiqiy-estetik saviyasini oshiradi.

Bolalarning musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, uning tilini tushunish, har bir bolaning o'z sevimli musiqiy asarlar doyrasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan minnatdorlik hissini o'yg'otish, milliy va mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish o'yg'otish muhim vazifalardandir.

Musiqa madaniyati darslarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda musiqa ta'limining ko'pgina faoliyatlari qamrab olinadi. Bu faoliyat turlari ichida xor bo'lib kuylash va musiqiy asar tinglash jarayonida bolalarning musiqiy didini shakllantirish yetakchi o'rinni egallaydi. SHuningdek, mashg'ulotning tarkibiy qismlari - qo'shiq kuylash, musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, musiqa ostida ritmik harakatlar qilish jarayonlarida ham bolalarning musiqiy didlari shakllantirib boriladi. Bolalarda musiqaga havas o'yg'otish uchun ularning eshitayotgan musiqa asarlarini sevish katta ahamiyatga egadir. Bu xislat faqat yuksak badiiy-estetik saviyadagi asar vositasida amalga oshiriladi.

Inson yaxshi qo'shiqni mahoratli ijrochidan tinglaganda unda musiqiy asarga nisbatan taassurotlar, fikr-mulohazalar o'ygonadi. Tinglovchilarning qo'shiqni qanday idrok etishlari, undan qanchalik ta'sirlanishlari, musiqiy asarning tinglovchilar hissiyotiga va ongiga ta'siri musiqaning qanday yangrashi, sozanda yoki xonandaning asarni qay darajada ijro etishiga bog'liqdir. Lekin buning o'zi musiqa tinglash uchun yetarli emas. Tinglovchilar musiqa ijodkorlari va mualliflari haqida, tinglanyotgan asarning yaratilgan davri, shakli, turi, o'lchovi, ritmi va boshqalar haqida tushunchaga ega bo'lsa, musiqiy asarni tinglashda asarning mazmun-mohiyatini to'la-tukis tushunadi, shuningdek, asar unga ijobiy ta'sir qiladi, ichki hissiyot va kechinmalarni hosil qiladi.

Yuqorida aytilgan musiqa tinglash uchun kerak bo'ladigan shartlarni bajarish o'qituvchi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi musiqiy asarni eshittirishdan oldin, bolalar bilan shu mavzuda qisqacha suhbat o'tkazadi va suhbatda asarning mazmuni va karakteri, asar mualliflari haqida bolalarga so'zlab beradi.

E.Gorskayaning fikriga ko'ra, musiqa tinglashdan avval o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni psixik jihatdan asarni idrok etishga tayyorlaydi. Asarning janri, yaratilish tarixi, ijodkorlari, asardagi g'oya haqida o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni shu asarni tinglashga zamin yaratadi.

Kuyni tinglash jarayonida uni yaratilgan davr haqida, kompozitorning hayot va ijodi haqida, qo'shiq yoki kuy bilan bog'liq tarixiy voqealar haqida o'tkazilgan suhbat musiqani idrok etishda o'ta muhim jarayon hisoblanadi.



E.Gorskaya shu fikrlarni bayon etar ekan, bir qator har xil mavzudagi qo'shiq va kuylarni keltiradi. SHuningdek, u har bir kuy va qo'shiqni ijro etishdan - tinglashga berishdan avval beriladigan kirish suhbatlaridan namunalar keltiradi. O'quvchilarga har bir musiqiy asar zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar yotishi haqida ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borish lozim.

Musiqiy tarbiyani amalga oshirishda bolalarni nafaqat musiqiy asarni ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan idrok etishni o'rgatish kerak. Asosan, bolalar musiqani qo'shiq kuylash jarayonida eshitadilar. qoidaga ko'ra, o'qituvchi qo'shiq o'rtgatishdan avval, bolalarga uni o'zi ijro etib beradi. O'quvchilarning musiqani eshitish va idrok etishlari uchun bu juda kamlik qiladi. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'quvchilarni o'zlari kuylaydigan qo'shiqlaridan murakkabrok kuy va qo'shiqlarni tinglashga o'rgatishi kerak. SHuning uchun ham o'qituvchining o'zi yuqori darajada musiqani ijro eta olishi va qo'shiq kuylay olishi talab etiladi. Afsuski, hozirgi paytda hamma o'qituvchilari ham bunday imkoniyatga ega emaslar.

Lekin metodik jihatdan mahoratli o'qituvchi turli



texnik vositalar, audio tasmalar, musiqiy markazlar va kompyuterlardan foydalangan holda bolalarni yuqori emotsional holatda musiqa eshitishlarini tashkil eta oladi, ya'ni zamonaviy madaniyati o'qituvchisi musiqa barcha imkoniyatlardan foydalangan holda o'quvchilarning musiqani asl mohiyatini tushinishlari, uni ma'nosini anglashlari

uchun mavjud bo'lgan texnik va ko'rgazmali qurollardan samarali foydalana olishi lozim. Lekin shuni inobatga olish kerakki, magnitofon yordamida eshitilgan asarga nisbatan o'qituvchining o'zi ijro etgan musiqiy asar o'quvchilarda ko'proq taassurot qoldirar ekan. Agar o'qituvchi musiqiy asarni avval o'zi ijro etib, so'ngra magnitofonda qo'yib bersa natija yuqori darajada bo'ladi, albatta.

Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash bo'yicha qo'yiladigan asosiy vazifalar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Har xil mazmundagi va har xil mualliflar asarlari bilan tanishish, musiqiy zaxira to'plash.

Musiqiy termin va tushunchalarni o'zlashtirish, asosiy musiqaning ifodalovchi vositalari haqida, musiqiy asar elementlari haqida boshlang'ich tushunchalarni egallash. Musiqa ta'lim tizimidagi darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishda mashg'ulotlarda tinglanadigan asar musiqiy tuzilishi, badiiy-g'oyaviy mazmun jihatidan chorak mavzusidan kelib chiqishi lozim. Musiqa tinglash jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Tinglanadigan asar haqida o'qituvchining kirish so'zi (bunda, o'qituvchi o'quvchilarga musiqiy asar mualliflari haqida, asarning yaratilish tarixi haqida so'zlab beradi).

2. O'qituvchi yoki magnitofon ijrosida asarni tinglash.

3. Tinglangan asarni suhbat-bahs yo'li bilan musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.

Musiqiy asarni bir butunligicha qaytadan tinglash hamda asar haqida bolalarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish.

Yuqorida keltirilgan bosqichlarga amal qilgan holda, mavzu jihatidan bolalar hayotiga oid bo'lgan, turli harakterdagi musiqa asarlarini tinglab va bu asarlarni yaratgan kompozitorlarning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumotga ega bo'lsalar – ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lamiz. SHu tariqa bolalar mashg'ulotlarning musiqa tinglash qismida quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:

– Musiqiy asarni diqqat bilan jimlikni saqlagan holda tinglash.

– Musiqiy asarni tinglaganda asar mazmuni va harakterini anglash;

– musiqaning ifoda vositalari, janrlar (qo'shiq, raqs, marsh), tembrlar haqida oddiy tushunchaga ega bo'lish;

– erkaklar, ayollar, bolalar va aralash xor ovozlari, yakkanavozlarni eshita olish hamda bir-biridan farqlay olish;

– milliy cholg'u cholg'ularini, orkestr turlarini, musiqa janrlarini bir-biridan farqlash va hokazo.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'zi tinglagan asarlari haqidagi taassurotlarini rasm chizish orqali aks etishlari yaxshi natijalar beradi. O'qituvchi o'quvchilarning tasviriy faoliyati natijalariga asoslanib ularning fikrlashi, idrok etishi, tafakkuri, ongi qay darajada shakllanganligini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Musiqa tinglashning yana bir muhim shartlaridan biri, musiqiy asarni tinglash jarayonida guruhda tinchlik bo'lmog'i lozim. Musiqani diqqat bilan, jimlik sharoitida tinglashga o'rganish yoshlikdan boshlanadi va bola ulg'aygandan so'ng yuksak madaniyatli shaxs bo'lib yetishadi.

Har qanday sohada ko‘nikma va malakalarni oshirish uchun takrorlash o‘ta muhim shart hisoblanadi. Musiqa tinglashda ham eshitilgan musiqiy asarni qayta-qayta tinglab turish, ushbu asarni yaxshirok tushunish va o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Eng asosiy talablardan biri shundaki, bola tinglangan asar haqida o‘z taassurotlarini aytib bera olishi kerak. Har bir bolaning o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilishi eshitilgan asar haqidagi taassurotlar qo‘lamini kengaytiradi. Masalan, musiqa tinglashda

– «Bu qo‘shiqni bilasizmi? Birinchi marta qaerda eshitgansiz? Qo‘shiq sizga yoqdimi? Qo‘shiqning ma‘nosini tushuntirib bera olasizmi?» – kabi savollar orqali bolalarni yanada diqqat bilan tinglashga, ularni o‘zlari e‘tibor bermagan ayrim jihatlarni idrok etish va anglashga, mustaqil fikr yuritishga odatlantirib boradi.

Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglashni ahamiyatini baholash murakkabdir. Bolalarga musiqa tinglash madaniyatini o‘rgatish, ularni dunyo musiqa san‘ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning o‘ta boy ifoda vositalarini o‘rgatish, yuqori badiiy saviyadagi musiqa san‘ati asarlariga nisbatan muhabbat o‘yg‘otishda musiqa tinglash jarayonining o‘rni juda katta.

Musiqiy ta‘lim tizimida, xususan, musiqa tinglash ta‘lim mazmunining asosini tashkil qiladi. Bolalar asar tinglash jarayonida yakkanavoz va jo‘rnavozlikni ajrata bilishlari, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilishlari, sozlar va cholg‘ular tembrini ajrata olishlari, o‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglay olishni o‘rganishlari zarur.

Musiqa tinglash mashg‘ulotlarda barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi. Demak, musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borlikni estetik idrok etish, anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Yuqorida sanab o‘tilgan shartlar bajarilsa, bolalarni musiqiy asarlarni badiiy-g‘oyaviy jihatdan mantiqan to‘g‘ri idrok etishga, musiqiy did va tafakkurlarini rivojlantirishga, musiqiy asarni qadrlashga, uni to‘g‘ri baholashga qulay sharoit yaratiladi.

## 2.2. Qo‘shiq kuylash faoliyati



O‘quvchilar tarbiyasida musiqa yetakchi o‘rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. O‘quvchilar qo‘shiq kuylashni sevadilar. Kuylash o‘quvchilar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, u o‘quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Yaxshi qo‘shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol

topdiradi va tarbiyalaydi. CHolg'u kuylaridan farqli ularoq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. CHunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-alam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni o'quvchilarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshirok idrok etadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: Musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Qo'shiq kuylash o'quvchilarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bug'inlab, xatosiz o'rganadilar. O'qituvchi so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar.

Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoklarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash - musiqiy ta'limining asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq ko'ylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq ko'yini anglashga yordam beradi.

Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlarni eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolalarning nutqini rivojlantiradi.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi. Bola ovoznini o'ziga

xos xususiyatlari nozik, yumshoq mayin bo‘ladi. Bola tomog‘i undagi bug‘in bilan katta kichkina bo‘ladi. SHuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo‘linadi:

1. yuqori bosh rezonator.
2. pastki ko‘krak rezanatori.

Ko‘krak rezanatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezonator esa ovozni jarangli qilib beradi.



Kuylash - bu murakkab jarayon bo‘lib, tovush hosil qiladi, ya‘ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlarida qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar.

O‘quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og‘iz, burun bo‘shlig‘i, xalqum, traxeya, bronxlar va o‘pkalar ovoz hosil qiluvchi a‘zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish bo‘yicha ish asta-sekin olib boriladi. SHuni inobatga olgan holda maktab ta‘lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan.

SHuni aytib o‘tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo‘ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari vazifasini paylar bajaradi. 11 -13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to‘liq shakllandi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. SHundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo‘shiq o‘rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak.

Bolalar ovozini to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchi ovoz apparati o‘zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. CHunki bolarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovozning to‘g‘ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir. 6-7 yoshli bolalarda kuylash imkoniyati u qadar katta emas. Yuqorida aytib o‘tilgandek, bu ularning ovoz apparatlari to‘liq shakllanmaganligi bilan bog‘liq.

1-sinf o‘quvchilari ovozi mi 1-sol 1, fa 1- lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. Shuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo‘lmagan, sodda, ammo harakteri va obraz jihatdan erkin qo‘shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-sekin qo‘shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo‘shiqda o‘quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko‘rgazmalar va harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta‘minlaydi va tovush balandligini to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatadi.

2-sinf o'quvchilarining ovozlari esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. SHu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. SHuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yengil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak. Asta-sekin kuylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re 1 - re 1 ga o'tadi Uchinchi-to'rtinchi o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re 2 (mi 2 ) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2 ) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular kuylash malakalariga ega bo'ladilar. 5-6-sinfda 11-13 yoshli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi ishida qiyinchiliklar vujudga keladi. CHunki bu davrda hiqildoqning o'sishi natijasida bolalar ovozida «mutatsiya» holati kuzatiladi.

Mutatsiya har kimda turlicha kechadi. SHuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi bilishi va ovozidagi individual o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim.

Qizlarda ham «mutatsiya» bormi degan savol ilmiy adabiyotlarda u qadar to'liq yoritilmagan. Yaxshi ma'lumki, ovoz o'zgarishi fiziologik jarayon bo'lib, u bevosita butun organizm o'zgarishi bilan bog'liq. Qizlarda ham ovoz paylarining o'sishi kuzatiladi. 13-14 yoshga kelib kuylashdan so'ng qizlar ovoz paylarida ham qizarish va ovozning bir muncha charchash holati kuzatiladi. Lekin qizlardagi mutatsiya jarayoni o'g'il bolalardagidek sezilarli darajada o'tmaydi. Bolalar ovozini muxofaza qilishda kuylash malakalari ustida ish to'g'ri olib borilishi kerak. Jamoa bo'lib kuylash malakalariga:

- Kuylashdagi holat (turib, o'tirib kuylash)
- Nafas hosil qilish
- Tovush hosil qilish
- Soz• Talaffuz• Ansamb

Qo'shiq aytish holati. Bog'cha bolalarning kuylash jarayonida ularni to'g'ri o'tirish, qomatlarini, boshlarini tik to'tishlarini, og'iz ochishlarini to'g'ri o'rganishlarini nazorat qilib turish. Stulga to'g'ri o'tirish, lekin, 3-4 yoshli bola stulga suyanib qo'lini tizziga qo'yib o'tirishi mumkin, og'izlarini vertikal ochishlari kerak. Maktabda esa o'qituvchi birinchi darsdan boshlanoq, qo'shiq aytish holati - partada o'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday to'tish lozimligi haqida bolalarga tushuncha berib boradi. Kuylaganda gavgani qiyshaytirmasdan to'g'ri to'tish, yelkarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yinni va boshni to'g'ri ushlash, qo'llarni erkin holda pastga tushirish yoki kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib, engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin qo'yish kabi holatlari ustida ish olib boradi. Bu ish har bir darsda qayta-qayta takrorlanadi va butun yil davomida nazorat qilib borish bilan bolalarda ko'nikma hosil etiladi

Nafas hosil qilish. Nafas qo'shiq kuylash jarayonida mustahkamlanadi. Kuylashdan avval musiqiy jumlar orasida nafas olishga bolalarni o'rgatadi. Nafas hosil qilish, kuylash, nafasni to'g'ri olish va undan unumli foydalana bilish



asosida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nafasni ko'krak qismida olishlari sababli kaftlarni ko'tarishlari, jumlaning tugatmasdan yoki so'zni bo'lib nafas oladilar. O'qituvchi yelkalarni ko'tarmasdan vazmin nafas olish va jumla hamda so'z o'rtalarida nafas olmaslikka alohida e'tibor berishi lozim, bolalar qo'shiq yoki mashq kuylaganlarida o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab, nafas olishlariga va uni jumla oxirigacha yetkazishga odatlantirib boriladi. Dirijyorlik holatlari - «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»ga odatlantirib borish boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishda eng samarali usul hisoblanadi.

**Intonatsiya (Tovush hosil qilish)** Buning uchun bolalar kuyni yaxshi idrok etish kerak. Intonatsiya eshitish qobiliyati va ovoz apparatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Ayrim nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlarni noto'g'ri aytish natijasida falsh (nosoz) qilib kuylashlari mumkin. Intonatsiyani sof bo'lishi tarbiya olayotgan muhitga ham bog'liq. Tovush hosil qilish kuylashni asosiy vositalaridan biridir.

U ko'pincha maxsus mashqlar va qo'shiqlar o'rganishda so'zlarni aniq-ravshan talaffuz etish yo'li bilan shakllanib boradi.

Bolalarni kuylash malakalarini shakllantirish va o'stirish ishlari, musiqa tovushlarini diqqat bilan eshitish va ularni aniq balandlikda ko'ylab bera olish qobiliyatini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu yoshdagi bolalarda, qo'shiqni kuylaganda ko'proq nutq tovushlaridan



foydalanishga intilish hollarini kuzatish mumkin. SHuning uchun ham bu, birinchi navbatda, bolalarni bitta tovushda cho‘zib mayin, ya’ni legatoda

kuylashga o‘rgatishdan boshlash zarurdir. Boshlang‘ich sinflarda bolalarni mayin "ataka"da kuylashlari aniq tovush hosil bo‘lishini, ovozning muloyim va

yoqimli bo‘lishini ta’minlaydi. Qattiq "ataka"dan foydalanish bolalar ovoziga qo‘pollik va dag‘allik olib kelishi mumkin.

Ayrim bolalar baqirib, zo‘riqib kuylaydilar. Bu esa, vokal-xor malakalarining yaxshi shakllanishiga xalaqit beradi, ovozlarga putur yetkazadi. Bolalarni to‘g‘ri kuylashga o‘rgatish uchun kerakli mashqlardan foydalanamiz: pastki jag‘ni bo‘shatish uchun «lya-lya-lo-lu»; «da-de-di-do-du»; «ma-me-mi-mo-mu» mashqini ikkinchi barmoqlarimizni labimiz chetiga qo‘yib ijro etamiz.

**Soz va ansambl.** Jamoa bo‘lib kuylashning eng asosiy sharti soz va ansamblga erishishdir.

Soz jamoa bo‘lib kuylashda ovozlarning intonatsion uyg‘unligi, jo‘rligi, birligi bo‘lib, melodik va garmonik turlarga bo‘linadi.

Soz har bir bolaning musiqa tovushi balandligini aniq kuylay olishiga asoslanadi. Barcha bolalarni sozga bir xil tushushi jamoa bo‘lib kuylaganda talaffuz jihatdan uyg‘unlashishga imkoniyat beradi. SHuning uchun 1-darsdan boshlab, soz ustida muntazam ish olib boriladi. Faqat shundagina sof unisonga erishish mumkin bo‘ladi.

**Talaffuz.** Tovush yaxshi chiqishi uchun talaffuzning muhim ahamiyati bor. Jamoa bo‘lib kuylash ishini rivojlantirishda talaffuzning yaxshi rivojlanishi muhimdir. Bunda artiqo‘lyatsion organlari - lab, til, jag‘larning faol harakatidan hamjihatligi, aniq, ohangdor, mazmunan ifodali talaffuz etilishiga erishish lozim. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlilik, ovoz apparatini siqib gapirish kabi nuqsonlar uchraydi. Bunday bolalarga e’tiborni kuchaytirish va ular bilan individual ish olib borish lozim. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo‘shiq matnlarining vokal talaffuziga o‘rgata borish lozim. Qo‘shiq kuylashda unli tovushlarni to‘g‘ri shakllantira olish muhimdir. Bu ish vokal mashqlari, mashq-qo‘shiq, va qo‘shiqni o‘rganib kuylash jarayonida amalga oshiriladi. Nutqimizda unli tovushdan ko‘ra, undosh tovushlar ko‘proq ishlatiladi.

SHuning uchun bizning vazifamiz ko‘proq unli tovushlarni kuychan, cho‘zib kuylash hisobiga undosh tovushlarni qisqa aniq talaffuz etishga erishishdan iboratdir. Xususan, «A» tovushini ochiq keng talaffuz qilinib, ko‘ylanganda lablar bir-biriga yaqin, yopiqli, biroz «o» tovushiga yaqinlashtirish; «O» tovushini talaffuz qilganda ochiqq tomoqqa yaqin, kuylaganda ballarga yaqin, yopiqli, yumshoq ko‘ylanadi; «E» tovushi talaffuzda ochiq, kuylaganda yopiqli



«e» tarzida keladigan soʻzlarni «e» ga yaqinlashtirib koʻylanadi. «I» tovushi til oldi, yigʻiq, baʻzan siqiq holda talaffuz etiladi. Uni faqat ovoz apparatinnig erkinligi va yengil nafasda «u» ga yaqinlashtirib kuylash lozim. Tovushlarni vokal mashqlarida «da, de, di; ma, me, mi» kabi bugʻinlar bilan kuylash foydalidir. Undosh tovushlarni keskin, chaqqon va aniq talaffuz etib, ularni unli tovushlar oraligida kuylashga oʻrgatib borish lozim.

«K», «x» va «g» tovushlari nutqda tomoqqa yaqin talaffuz etiladi. Kuylashda talaffuz mexanizmini oʻzgartirmay, ularni yumshoq talaffuz qilishga erishish lozim.

1. Kuylashdan oldin qoʻshiq matnini ifodali oʻqish.
2. Qoʻshiq oʻrgatish jarayonida hamma birgalikda shoshmasdan soʻzlab sekin kuylash.
3. Qoʻshiqni koʻpletlarga boʻlib, ifodali oʻqish kuylashga yordam beradi. **Ansaml.** Jamoa boʻlib kuylashda ovozlarning ritmik, dinamik, temp, tembr va intonatsion uygʻunligidir. Soz malakasi esa, ansamblning vujudga kelishida asosiy omil hisoblanadi. Qoʻshiqlarning badiiy ijro etilishiga ovozlardagi soz va ansamblning uygʻunligi vositasi bilangina erishish mumkin.

Oʻquvchilarini jamoa boʻlib qoʻshiq kuylashga oʻrgatish umumiy oʻrta taʼlim maktablarining musiqa oʻqituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Jamoa boʻlib kuylash oʻquvchilarda bir qator ijobiy jihatlarni jumladan, ularni axloqiy jihatdan shakllanishiga katta taʼsir etadi. Birinchidan, qoʻshiq aniq bir mavzuga qaratilgan boʻladi, ikkinchidan, oʻquvchilar qoʻshiqlarda aks etgan oʻzga insonlarning ruhiy holatini, uning kechinmalarini his qiladilar. Jamoa boʻlib kuylash nafaqat estetik didni, balki oʻquvchilarning tashabbuskorligini, fantaziyalarini, ijodiy qobiliyatlarini, tarbiyalaydi va musiqiy qobiliyatlar (qoʻshiqchilik ovozini, usulni his etishni, musiqiy xotirani)ni rivojlantiradi, qoʻshiqchilik malakalarini, musiqiy qiziqishlarini oshirib, emotsional hamda vokal-xor malakalarini orttiradi.

Jamoa boʻlib kuylash inson hayotida jamoatchilikning oʻrnini tushunishga yordam beradi. SHu bilan birga oʻquvchilarning dunyoqarashlarini shakllantiradi va ularga jisplashtiruvchi, tartibga soluvchi taʼsir qiladi hamda jamoatchilik, doʻstlik hislarini shakllantiradi. Jamoa boʻlib kuylash darslarida ijro etish uchun musiqiy asar tanlashda koʻylanadigan materialni toʻgʻri tanlash asosiy shartlardan biridir. Bu turdagi darslar uchun qoʻshiq ularni mavzu, musiqiy janrga mansublik, maqomi (milliy va chet el musiqiy asarlari) jihatidan turli tuman boʻlishiga alohida eʼtibor qaratish lozim, yaʼni repertuarda har xil mavzu va janrlardagi zamonaviy va mumtoz asarlar, mahalliy va chet el musiqalarini boʻlishi maqsadga muvofiq. Qoʻshiq aytish boshqa musiqiy faoliyatlar turidan shunisi bilan farq qiladiki, unda musiqa bilan soʻz birgalikda keladi. SHuning uchun ham qoʻshiqning mazmuni oʻquvchilarga musiqaning boshqa turlariga qaraganda tushunarliroq boʻladi.

Maktab musiqiy tarbiya amaliyotida jamoa boʻlib kuylashning bir qator oʻziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqargan:

- jamoa bo‘lib kuylash bolalar xulqini tarbiyalaydi va jamoaga birlashtiradi;
- jamoa bo‘lib kuylash bolalarni jismoniy rivojlantirish vositasidir;- jo‘rsiz kuylash bolalarni eshitish qobiliyatini va xotirasini rivojlantiradi;- ko‘p ovozlilik garmonik eshitish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Bolalarni jamoa bo‘lib kuylashga qiziqtirish va o‘rgatishda o‘qituvchining oldida qator vazifalar belgilab berilgan.

*Jamoa bo‘lib kuylashning vazifalari:*

- bolalarda badiiy sezgirlikni oshirish va musiqaga bo‘lgan muhabbatni o‘yg‘otish, jamoa bo‘lib kuylashga bolalarni qiziqishini rivojlantirish;
- vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- Musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Musiqiy ijrochilik malakalarini rivojlantirish.

Jamoa bo‘lib kuylashda belgilab berilgan xususiyatlar, maqsad va vazifalardan to‘laqonli foydalana olsak, bolalarda musiqaga, xususan, jamoa bo‘lib kuylashga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiramiz.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishning qo‘shiq kuylash jarayonida, o‘quvchilar avval ko‘ylanadigan qo‘shiqni o‘qituvchi ijrosida, ma‘lum cholg‘u jo‘rligida tinglaydilar. Bu o‘quvchilarda qo‘shiq haqidagi dastlabki emotsional taassurotlarni hosil qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tanlangan qo‘shiqning yaratilishi haqida, uni yozgan kompozitor haqida qisqacha ma‘lumot beradi. Keyin hamma birgalikda qo‘shiqning tuzilishi, ladi, o‘lchovi va tonligini aniqlaydilar. So‘ngra o‘qituvchi yordamida qo‘shiqni kuylashni o‘rganadilar.

O‘quvchilarga qo‘shiq kuylashni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi o‘z bilimini ular ongiga yetkazishi uchun juda qulay vaziyat vujudga keladiki, bunda o‘qituvchining bolalarni musiqani to‘g‘ri idrok qilishga tayyorlashi muhimdir. Bu jarayonni amalga oshirishda tafakkur, diqqat, xotira va emotsional ko‘tarinki ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida utkazilgan tadqiqotlardan ma‘lumki, ijodiyotni shakllantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun ta‘lim jarayonini bularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy printsiplaridan biri darslarni soddadan - murakkabga, quyidan-yuqoriga qarab borish printsiplariga asoslangan holda uyushtirishdir.

Qo‘shiq aytish san‘ati vokal-xor malakalariga ega bo‘lishni talab etadi va quyidagi shartlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kuylash jarayonida to‘g‘ri o‘tirish yoki turish.
2. To‘g‘ri nafas olish.
3. Ohangdoshlikni his etishga erishish.
4. Boshqa o‘quvchilarni tinglagan holda kuylash (ansamblga erishish) va hokazolar.

Jamoa (xor) bo‘lib qo‘shiqni kuylash oldidan va uni kuylash jarayonida musiqiy savodxonlik komponentlarini tashkil etuvchi bir qancha vazifalarni amalga oshirish lozim, chunonchi:

- qo‘shiq haqida dastlabki emotsional taassurotlar hosil qilish (qo‘shiqni tinglab ko‘rish orqali);
- qo‘shiqni musiqiy tahlil qilish (o‘lchov, temp, ritm, janr va hokazolarni aniqlash);
- qo‘shiqning so‘zlari ustida ishlash;
- qo‘shiqni kichik bulaqlarga bo‘lib o‘rganish;
- qo‘shiqni bir necha marotaba qaytarish orqali mustahkamlash;
- asarning musiqiy-badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib kuylash (musiqiy harakatlar, emotsional tuyg‘ular orqali).

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi eng avvalo tanlangan qo‘shiqning yaratilishi haqida qisqacha ma‘lumot berishi va ushbu qo‘shiqni ma‘lum cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali ko‘ylab berishi lozim. O‘qituvchi qo‘shiq ustida ishlaganda, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Yuqoridagi vazifalarni hisobga olgan holda qo‘shiq kichik bulaklarga bo‘linib o‘rgatiladi. So‘ngra bir butun qilib frazalar, jumlar bo‘yicha qo‘shiladi. Qo‘shiqni bir butun kuylaganda o‘quvchilar o‘qituvchining ijrosiga suyanadilar. Bu vazifalarni o‘quvchilarning bilim doyrasini, ya‘ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni bir xilda kechmaydi. Bu jarayon ma‘lum qonuniyatlarga bo‘yso‘ngan holda maqsadga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirishning quyidagi uch bosqichga bo‘lishimiz mumkin:

1. Oddiy elementar kuylashni o‘rganishga erishish.

2. Oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish.

3. Hosil bo‘lgan kuylash mahoratidan samarali foydalanish. SHakllanishning ilk bosqichlaridanoq o‘quvchilar kichik diapazonda bo‘lsa ham, sof, toza va ifodali, dinamik belgilarga rioya qilgan holda kuylashga harakat qilishlari kerak. Kuylaganda, og‘izni to‘g‘ri ochish, nafasni to‘g‘ri olish, kuylash talaffuzini yaxshilash, ovoz tembrini yorqinroq hamda yumshoqroq qilishga erishishlari lozim. malakalarning bir-biriga bog‘liqligini ta‘minlashga erishishi muhim hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning tovush pardasiga og‘irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun qo‘shiq aytish faoliyatini boshqa faoliyatlar bilan almashtirib turishi lozim.

Ikkinchi bosqichda asosiy o‘quvchilarning kuylash malakalarining barcha qirralarida ijobiy o‘zgarishlar ruy beradi. Nafas yo‘llarida erkinlik hosil bo‘ladi, ovoz tembrini yorqinlashadi musiqiy xotira, eshitish, ladni his etish qobiliyati, diqqat rivojlanadi.

So'nggi bosqichda kuylash malakalarini rivojlanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi, ovoz hosil bo'lish usulining mustahkamlanishi, ovoz tembri sifatining yanada oshishi, ovoz diapazonining sezilarli darajada kengayishi, kuylashda talaffuzning hamda nafas olishning to'g'ri, ravon va to'la shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichda o'quvchilar chuqur musiqiy his-tuyg'u va musiqiy to'g'ri kuylashga erishgan bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi katta diapazonli, sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan foydalanishi mumkin. Kuylash malakalarining o'zaro uzviyligi paydo bo'lishi shu bosqichga xos omillardandir. Masalan, musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz tembrining sifatiga, ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga ta'sir qiladi.

Tabiiyki, o'quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirishning o'z qiyinchiliklari bo'ladi. O'quvchilar hali berilgan asarni to'la tahlil qila olmaydilar, dastlabki mashqlarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni keyingi mashqlarda ishlata olmaydilar, kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni to'liq ko'ra bilmaydilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'quvchilarning musiqa tinglash va kuylash ijodiyotini to'g'ri tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuylash malakalarini shakllantirishda qayta muhimdir. Qayta kuylash usulining ikki sharti mavjud: Birinchi bosqichni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu kuylash mashqlari usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi

1. O'quvchi kuylayotganda o'z oldiga aniq bir maqsadni qo'yishi kerak.

2. O'quvchi nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini, qanday xatolarga yo'l qo'yilganini bilishi lozim va kelajakda ushbu xatolarni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan shartlarni bajarish musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshiradi va kelajakda yangi usul va uslublar ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Buning uchun biz musiqiy tarbiya tizimini yaxshiroq anglashimiz zarur.

Har bir dars o'z xususiyatiga ko'ra takrorlanmas va bir-biriga o'xshamaydigan bo'ladi. Darsning har bir faoliyati, metodlari, maqsadi va vazifalari erishilmoqchi bo'lingan natijalar avvaldan tuzib chiqilgan bo'ladi.

Qisqa vaqt ichida darsni tashkil etish uchun 3-sinf misolida bir aralash dars turining rejasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Dastlab darsning maqsadi belgilanadi. I Darsning maqsadi:

- 1) Ta'limiy maqsad - intonatsiya ustida ishlash, yangi mavzuni tushuntirish, yangi qo'shiq o'rgatish, dars jarayonida avval o'tilgan mavzularni mustahkamlash va dars mobaynida ulardan unumli foydalanish.

- 2) Tarbiyaviy maqsad - o'rganilayotgan qo'shiq orqali o'z Vataniga, xalqiga nisbatan mehr-muhabbat o'yg'otish, o'z milliy musiqasiga, milliy urf-odatlarga hurmat va faxrlanish hissini o'yg'otish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad - Mustaqil fikrlay olish, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olish, boshqa o'quvchilarning xato va kamchiliklarini to'g'ri topib, ularni tuzata olish.

4) SHakllantiruvchi maqsad - Musiqiy qobiliyatni, eshitib aniqlash malakalarini, to'g'ri o'tirish, qo'shiq kuylaganda to'g'ri nafas olish, ovoz apparatidan qoidagidek foydalanishni, musiqiy did va dunyoqarashni shakllantirish.

II. Darsning turi: bahs-munozaraga asoslangan intellektual o'yin.

III. Darsning ko'rgazmaliligi:

Darslik va kushimcha adabiyotlar, cholg'u asboblari (pianino, rubob, akkordeon...), magnetofon yoki gramplastinka, kartochka va plakatlari.

IV. Darsning rejasi: Musiqa ohangi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar va joylariga o'tiradilar. (o'rganilishi yoki eshitalishi kerak bo'lgan qo'shiq bo'lsa yana ham yaxshi).

2) Eshitilgan musiqa yuzasidan fikr-mulohazalar almashinadi. (musiqiy asarning muallifi, qanday janrga xosligi, tempi (sur'ati), ritmi (usuli), tonligi va hokazo).

3) Yangi mavzu: «Tonika».

Kuyning tayanch nuqtasi - tonikadir. Har bir tonlikda tonika mavjud. Musiqiy asarlar o'z yozilgan tonligining tonikasida tugaydi va hokazo.

4) O'rganishimiz kerak bo'lgan «Ota-onalarga» qo'shig'ini tinglaymiz. O'quvchilar qo'shiq borasidagi o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Qo'shiqning kompozitori haqda o'qituvchi so'zlab beradi. Yangi mavzuga bog'lagan holda o'qituvchi o'quvchilarga asarning tonikasini topishni vazifa qilib beradi.

5) Qo'shiq o'rganib kuylaymiz. (Ovoz sozlovchi mashqlar bilan ovoz sozlanadi, qo'shiq kichik jumalarga bo'lib o'rganiladi)

6) O'qituvchi o'quvchilar bilan qo'shiqni musiqiy (tonligi, o'lchovi, tempi, dinamikasi va boshqalar) va mazmuniy (ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'ulari va hokazo) jihatdan tahlil qilib, o'quvchilar fikrlarini to'ldiradi va qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

IV. Darsning borishi: Musiqiy ta'lim an'anaviy shaklda (o'quvchilarni davomatini tekshirish, uyga berilgan vazifani tekshirish, qo'shiq o'rgatish, musiqa tinglash, musiqiy savodxonlik) olib boriladi. So'ng o'qituvchi yuqorida belgilangan rejaga asosan darsni olib boradi. Dars so'ngida uyga vazifa berilib, faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Faol qatnashgan o'quvchilarning aniqlash uchun yordam sifatida, har bir to'g'ri javob uchun o'quvchiga rag'batlantiruvchi kartochkalar berib borish darsning samarasini oshiradi.

Yuqorida berilgan dars ishlanmasi bir darsning ko'rinishi bo'lsada, biz bundan tashqari boshqa usuldagi, masalan, kontsert darslari (barcha o'rganilgan qo'shiqlar o'quvchilar ijrosida tinglanadi va baholanadi), kontrol darslar (barcha o'rganilgan mavzular musobaqa tarzida (qatorlararo) savol-javob qilinadi), «kim

to'g'ri topadi» darslari (ijro etilgan kuyning nomi, muallifi, tempi, qanday jamoa uchun yozilganligi va hokazo topiladi) va shu kabi dars shakllaridan ham foydalanishimiz, yangilarini izlab topishimiz mumkin. Bunday yondoshuv o'quvchilarni barchasini darsda faol qatnashishga, ularning aksariyatini bir darsda baholashga keng imkoniyat yaratadi.

Musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshirish uchun mazkur predmet xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan didaktik printsiplarga asoslanadi.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar tizimida qo'llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo'lishi, avvalgi o'tilgan darslar bilan hozirgi darslarning uzviyligi, darsda o'tiladigan mavzuga mos material tanlash, dars o'tishda samarali usul va uslublardan foydalanish, darsni tashkil eta bilish, jamoa, guruh va individual ishlash usullarini umumlashtirish, dars jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish, musiqa madaniyati darslarini boshqarish, turli xil darslar yordamida darslarning mazmunini boyitish, beriladigan vazifalarni to'g'ri baholash, o'qituvchining darsga tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Notaga qarab kuylash (solfedjio) Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash murakkab jarayondir. Solfedjio - italyancha - notalar, musiqa belgilari, gammalarni kuylash - eshituv malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rganish uchun o'tkaziladigan vokal mashqlardir. Solfedjio - musiqa asarlari va turli xil musiqiy mashqlarni notaga qarab, nota nomini aytib kuylash tariqasida olib borilishi mumkin. Solfedjio termini sol-fa nota nomlaridan olingan. U o'qituvchidan darslarni tizimli va izchil ravishda olib borishni talab qiladi.

Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tayotganlarida notaga qarab kuylash malakalarini asta-sekin, oddiydan-murakkabga qarab olib borsalar yuqori sinflarga o'tganda ular o'rganiladigan qo'shiqlarni bemalol notaga qarab kuylay oladilar. Notaga qarab kuylash -solfedjio musiqa savodi bilan uzviy ravishda olib boriladi. Musiqa savodi notalar joylashuvi, uzunligi, sanalishi haqida o'rgatsa, solfedjio orqali notalarni amalda ko'ylab ko'rish imkoniyati bo'ladi. SHuning uchun musiqa savodi va solfedjio parallel tarzda olib boriladi.

Birinchi sinfdanoq o'quvchilar notaga qarab kuylash malakalarini egallashlari kerak. Buning uchun ko'ylanayotgan kuyning harakatini notaga qarab kuzatib borish lozim. Avvalam bor oson bo'lgan kichik musiqiy lavhalar berib boriladi. Notaga qarab kuylash uchun o'quvchilar notalar tizimini yaxshi bilishlari va ularni nota chizig'idan bemalol topa olishlari muhimdir. Notaga qarab kuylash yaxshi samara berishi uchun o'quvchilarga tanish bo'lgan, avval ko'ylangan yoki tinglangan kuyni berish ularni kuy harakatini kuzatishlarida qulaylik tug'diradi.

Kuylashdan oldin kuyning o'lchovi, qanday uzunlikdagi notalar (butun, yarim, chorak, nimchorak..) ishtirok etganligi, kuyning tempi, tonligi aniqlanadi. Keyin shu tonlikda ovoz sozlash mashqlarini bajarish tonlikka moslashishga imkon beradi. Mashqlarda tonlikdagi turg'un va noturg'un bosqichlar aniqlanadi va aytiladi. Ko'rgazmali qurol sifatida bunday mashg'ulotlarda darslikdan tashqari, musiqiy kuy yozilgan plakatlar yaxshi natija beradi. Plakat hammaga ko'rinadigan joyga osib kuyiladi.

O'qituvchi boshchiligida o'quvchilar kuyning barcha notalarini baravariga aytadilar. Keyin o'qituvchi shu kuyni ohangi va o'lchovi bilan ko'ylab ko'rsatadi, o'quvchilar notaga qarab kuzatib turadilar. So'ngra hamma birgalikda notaga qarab kuyni kuylaydilar va bir vaqtda dirijyorlik qiladilar. Notaga qarab kuylashda dirijyorlik qilish, kuyning ritmidan chiqib ketmaslikka, metr hissini rivojlantirishga, notalar uzunligini to'g'ri sanashga yordam beradi. Solfedjio malakalarini egallash o'quvchilarning musiqiy o'quvlarini o'stirishda, ularning amaliy ishida katta ahamiyatga egadir.

Solfedjio asosan notanish bo'lgan kuylarni birinchi galdanoq notaga qarab kuylashni nazarda tutadi. Notanish kuyni notaga qarab kuylash uchun yozilgan kuyning ohangini fikran tasavvur qila oladigan bo'lishi lozim. SHuning uchun ham musiqiy o'quvni o'stirish va musiqa tajribasiga yetarli darajada ega bo'lishlik uzoq vaqtni va muntazam ravishda mehnat qilishni taqozo etadi. Bunga musiqa savodini o'stirish musiqa adabiyotlari bilan tanishish, vokal-xor malakalarini egallash jarayonlarida erishiladi.

O'quvchilar asta-sekin musiqiy nutqning balandligi, ladi, metroritmik xususiyatlarini tushuna boshlaydilar, shuningdek ularda musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy xotira, musiqiy hissiyotlar paydo bula boshlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga solfedjio malakasini egallash bo'yicha mashg'ulotlarni 1-sinfdan boshlasada, 5-6-sinflardagina ko'zlagan maqsadga erisha oladi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi doskaga nota misollarini yozadi. Keyin o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari asosida kuy tahlil qilinadi. Tahlil qilish o'quvchilar avval egallagan musiqiy-nazariy bilimlari ularning yoshiga mos ravishda o'tkaziladi. O'quvchilar tushunmagan elementlarni o'qituvchi tushuntirib beradi, O'quvchilar diqqatini asosiy mavzuga qaratadi.

Tahlil qilish jarayonida quydagilar aniqlanadi:

Asar tonligi, ladi.

1. Asarning o'lchovi.
2. Asarda uchraydigan dinamik belgilar.
3. Kuyning ritmik tuzilishi (notalar cho'zimi, pauzalar, asarning qaysi hissidan boshlanishi va hokazo).
4. Asardagi jummlar, nafas olish uchun qulay bo'lgan taktlar.

Ana shundan keyin solfedjioga, ya'ni nutqlashga o'tish mumkin. Boshlang'ich sinflarda solfedjio uchun mashqlar asosan Do major gammasida

beriladi. Chunki bu tonlik eng oson va kuylash uchun qulaydir. Solfedjiolash uchun mashqlarni solfedjio darsliklaridan topish mumkin. Bunday darsliklarda oson misollardan boshlab murakkab mashqlargacha mavjud bo'lib, u yerda o'quvchilarning yoshi va o'zlashtirish darajalari hisobga olingan bo'ladi. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tganlari sari ularga beriladigan mashqlar ham tonligi, o'lchovi, ladi va boshqa xususiyatlari jihatidan murakkablashib boradi.

Ayrim hollarda mashqlar ritmi tez bo'ladi. Bunday hollarda o'qituvchi mashqlarni avval sekin tempda boshlab keyin sekin-asta tezlashtirib borishi kerak. Agar o'qituvchida metronom bo'lsa, u holda u bermalol ko'zlangan tempga erishishi mumkin. Musiqiy asarni avval mu'tadil tempda kuylash kuyni yaxshiroq eshitish, to'g'ri sanash, nafasni to'g'ri olish, aniq dirijyorlik qilish imkonini beradi. Solfedjio uchun mashqlar tanlashda o'qituvchi o'quvchilarning ovoz diapazonini, nafas olish malakalarini hisobga olishi lozim. Nutqlashda baqirmasdan, ovozni zo'riqtirmasdan, har jumlaning oxirida nafas olib mayin ovoz bilan kuylashni o'qituvchi nazorat qilib turmog'i darkor. Solfedjio mashqlar 1-sinfning ikkinchi yarmidan boshlanib 7-sinfning oxirigacha davom etadi.

O'quvchilarni kuylashga o'rgatishda, ularni solfedjio malakasini egallashlariga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqiy saviyasini oshirishdagi yetakchi omillardandir.

### **Zamonaviy ta'lim va uning turlari**

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ma'lum konuniyatlarga, printsiplarga asoslana- di. Printsip — lotincha „principium“ suzidan olingan bulib, asos, dastlabki mlat, boshkaruvchi goya, umumlashgan talab kabi ma'nolarni anglatadi. Pedagogik texnologiyalar printsiplari — loyihalangan ukuv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yukori natijalarga erishish uchun rioya kilinadigan umumiy me'yorlar va talablardir. Ularni aniktashda kuyidagi xolatlar e'tiborga oli- nadi: 1) mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya maksadi; 2) didaktik jarayonning ob'ektiv konuniyatlari; 3) ta' - lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan shart-sharoitlar (N. Said- ax,medov. Yangi pedagogik texnologiyalar, 2003 y, 82-92-betlar).

**Pedagogik texnologiyaning yaxlitlik printsipi.** Bu printsip texnologiya loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimining barcha elementlari uzaro ta'sir ostida bulishini va uzaro boklikdigini e'tiborga olishni takozo etadi. ya'ni, ta'lim maksadining katъ- iyan aniklanishi (nega va nima uchun?), ukuv jarayoni mazmuni (nima?), tashkiliy shakllarini (k, anday?), uk, itish metodlari va vositalarini (nima yordamida?) saralash va tanlashga kumaklashi- shi, shuningdek, uk, ituvchining mayorat darajasiga botik, xolda didaktik jarayon samarasini anik^tashga imkon berishi kerak. Yaxlitlik printsipi pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi elementlardan birini yangilab yoki uzgartirib, kolganlariga teg- maslikni, k, ayta kurmaslikni inkor etadi. Misol uchun, ta'lim mak, sadini uzgartirib, uning mazmunini yoki uk, itish jarayonini eskicha krldirish mumkin emas. Bugungi kunda respublika xal k, ta'limi tizimida chukur uzgarishlar va isloxotlar amalga oshiri- lyapti. Birinchidan, ta'lim-tarbiya mak, sadi yangilandi — erkin fikrlaydigan fuk, aroni, barkamol inson shaxsini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, bu ijtimoiy



buyurtma uz navbatida ta'lim mazmunini tubdan kbatayta kurishni, yangi ukuv darsliklari va dasturlarini yaratishni keltirib chik;aradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni axborotlarni ukuvchi (talaba) larga ma'lum vak^ doirasida yetkazish jarayonini tezlashtiruvchi vosita- larni talab etadi. Ana shu vajdan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish olimlar oldiga kundalang vazifa kdgsib kuyilyapti. Pedagogik faoliyat yurgizayotgan xar bir shaxe bu mu ammolarni tugri anglashi va ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishlari zarur. Pedagogik texnologiyalar ukuv-tarbiyaviy jarayonini oldindan loyixalash va keyingi boskichda bu loyixani sinf (auditoriya)da amalga oshirishni kuzda tutadi. SHu boisdan pedagogik texnologiyalarning nmuxim printsiplari — bulajak ukuv tarbiyaviy jarayonni **oldindan loyixalash printsiplari**. Bu esa, tabiiy-ki, ukutuvchidan ijodiy faoliyatni talab etadi. Loyixalangan texnologiya dare mavzuiga ajratilgan vakd- doirasida joriy etilishi lozim. Ukuv vakgi pedagogik texnologiyani oldindan kurishda muxim kursatkich Xisoblanadi va ukutuvchi uni xisobga olishi shart. Loyixalanayot- gan didaktik jarayon sinf ukuvchilarining uzlashtirish darajasiga mos kelishi, xamma uchun tushunarli bulishi juda muxim. SHundagina yakuniy natija kulga kiritiladi. **Yakunin natijaning kafolatlanishi** pedagogik texnologiyaning yana bir muxim printsiplari. Bu tushuncha aslida nisbiy xarakterga ega, chunki tuzilgan texnologiya amalga oshirilgach, muayyan nati- jalar bulishi — ukuvchilarning ukuv materialini tur l i da- rajada uzlashtirib olishi, tabiiy. Pedagogik texnologiyaning muxim printsiplaridan yana biri tugallanganlik printsiplari. Ukuvchining uzlashtirish sifati uning uzlashtirish koeffitsienta bilan anikdanadi. Mamlakatimiz ukuv yurtlarida ukuvchining uzlashtirish sifati — uzlashtirish koeffitsienta 0,55 ga teng yoki undan kup bulsa, ya'ni ukuv materi- alining 55 foizi uzlashtirilsa „krnikarli" \isoblanyapti. Fik- rimizcha, bu kureatkich ta'lim tizimini islox kdpishning dast- labki bosk.ichlari uchun yetarlidir.

Pedagogik texnologiyaning printsiplaridan biri — egiluv chanlik printsiplari. Bu printsiplari pedagogik texnologiyalarniig kullinish soxalarini birmuncha kengaytiradi. U yoki bu mavzu buyicha loyixalangan texnologiya xech bulmaganda Fan bulimlari chegarasida egiluvchanlik xususiyatiga ega bulishi kerak. Ukutuvchi- da kam kuch va bbkj sarfi evaziga fan mavzulari buyicha didaktik jarayon tuzilmasini tashxisli makradga muvofik, tarzda almashtira olish yoki ^aytadan loyixalash imkoni mavjud buladi. V.P. Bespal'ko, B.Skinner, N.D.Nikandrov, N.F.Talizina, B.L.Farber- man va boshkalarining ilmiy izlanish natijalarini taxdil kil ga n xolda pedagogik texnologiyaning kuyidagi printsiplarini xam ajratib kursatish mumkin

#### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Musiqa savodi faoliyatining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Musiqa savodi faoliyatining boshqa faoliyatlar bilan bog'liqligi tushuntirib bering.
3. Nota yozuvini o'rgatganda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Nota savodi va musiqa savodi tushunchalariga izox bering.
5. Ritmik harakatlar bajarishda qanday mashqlardan foydalanish mumkin?

6. Musiqiy dinamika harakatlarda qanday ifodalanadi?

Musiqiy tovush balandligi, ritm hissini aks ettirishda qanday harakatlar qoʻllaniladi?

7. "Musiqqa madaniyati" darslarida oʻquvchilarning musiqiy-ritmik faoliyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib bering.

8. Oʻquvchilarda ritm tuygʻusini rivojlantirish vazifasiga qaratilgan dars fragmentini tayyorlang va talabalar guruhi bilan oʻtkazib bering.

9. Folklor qoʻshiq asarini drammatizatsiyalashga misollar keltiring va bunda qanday harakat malakalarini shakllantirish mumkinligini ayting.

10. Biror bir tanlangan sinfda qoʻshiq yoki kuy yordamida musiqiy-ritmik harakatlar bajarishga misollar keltiring.

11. Uchinchi va toʻrtinchi sinf oʻquvchilariga tavsif bering.

12. Birinchi sinfda qanday musiqqa faoliyatlari amalga oshiriladi?

13. Qoʻshiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?

14. Yuqoridagi sinflarga moʻljallab, chorak mavzulardan kelib chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

15. Bolalar cholgʻularida ijrochilik faoliyatining ahamiyatini tushuntirib bering.

16. Bolalar cholgʻularida ritm hissini shakllantirish necha bosqichda amalga oshiriladi? Ularni sharhlab bering.

17. Cholgʻuchilik faoliyatini amalga oshirishda repertuar va ish metodlarining ahamiyatini yoritib bering.

18. Darsda qoʻllaniladigan bolalar musiqqa cholgʻulariga tavsif bering.

19. Darsda cholgʻuchilik faoliyatini tashkil etish yoʻllari qanday?

20. Bolalar cholgʻularida ijro etish faoliyatini qaysi faoliyatlar bilan uzviy olib borish mumkin?

21. Biror bir musiqiy asarga bolalar cholgʻusida joʻr boʻlish yoʻllarini koʻrsatib bering.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Apraksina.O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2119 «Muzika i penie») - M.: Prosveteniye, 1983-222s

2.Muzыkalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., -T. Muzыka, 2005. -80 s.

D.Soipova Musiqqa oʻqitish nazariyasi va metodikasi Oʻquv qoʻllanma.T.2009 OʻzDK.

### **3- MAVZU: “BOSHLANG’ICH VA O’RTA SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL METODIKASI” O‘QUVCHILARNI TURLI KO‘RIK - TANLOVLARGA TAYYORLASH TARTIBI.**

#### **REJA**

- 1.1-sinfda musiqa o‘qitish metodikasi va mazmuni
- 2.2-sinfda musiqa o‘qitish metodikasi va mazmuni
- 3.3-4 sinfda musiqa o‘qitish metodikasi va mazmuni
4. 5-6-sinfda musiqa o‘qitish metodikasi va mazmuni
5. 7 sinfda musiqa o‘qitish metodikasi va mazmuni

#### **3.1 Birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy xususiyatlari** *Birinchi sinf o‘quvchilariga xos xususiyatlar quyidagilar:*

To‘liq shakllanmaganlik, organizmining nozikligi; bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, o‘qituvchining ohangsiz nutqi, darslarning bir qolipda o‘tilishidan tez charchab qolishlari;

iqqatlarining tarqoqligi;

2) aqliy faoliyat jarayonida yo‘naltirilganlik, tizimlilik malakalarining yetishmasligi; yorqin xotira;

3) erkin diqqatlarining kulami torligi (shuning uchun dars jarayonida tez-tez faoliyatlarni o‘zgartirib turish kerak);

4) Aniq va yorqin obrazli tasavvurga ega bo‘lishlari;

5) o‘yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o‘yin orqali yengil o‘zlashtiriladi. O‘yin o‘quvchilarning tasavvurlari, diqqati, xotirasi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiradi. Ko‘zatishlarimizga ko‘ra, birinchi sinf o‘quvchilarining bilimdarajalari bir tekis bo‘lmaydi. Ayrim bolalar bemalol musiqani boshidan oxirigacha tinglay oladi, qo‘shiqlarni sof intonatsiyada kuylaydi, ayrim bolalar esa aksincha tignlash va to‘g‘ri kuylash haqida tasavvurga ham ega bo‘lmaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgunlariga qadar, musiqa to‘garaklariga qatnashgan va maktabgacha ta‘lim muassasalarida musiqiy tarbiya olgan bo‘ladilar. Ayrim bolalar musiqiy muhitda tarbiyalangan bo‘lsalar, ba‘zilari umuman musiqadan bexabar bo‘ladilar. SHu nuqtai

nazardan qaraydigan bo‘lsak, birinchi sinf o‘quvchilari har xil xususiyatlarga ega bo‘ladilar. SHunga qaramay, biz ularning ayrim umumiy qiyofalarini sanab o‘tamiz:

1. Musiqani idrok etish borasida ular qo‘shiq, marsh va raqs janrlarini idrok eta oladilar. Birinchi sinf o‘quvchilari tinglaydigankuy va qo‘shiqlar hajmi jihatidan kichik va yorqin bo‘lmog‘i hamda tinglashdan avval o‘qituvchi uning ifodaviyligi, musiqiy obrazlari, ma‘no va mazmuni haqida tushunchalar berishi kerak.

2. Kuylash borasida, birinchi sinf o‘quvchilari avvalgi ( maktabgacha bo‘lgan davrga) musiqiy tayyorgarliklariga bog‘liq. Tayyorgarligi bo‘lmagan

bolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda bir oktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bo'lishi mumkin. O'qituvchi kuylash jarayonida bolalarning ovoz apparati to'liq shakllanmagan, nozik, ovoz paychalari ingichka bo'ladi. SHuning uchun kuylashda baqirmasdan yumshok ovozda kuylash kerak. Bu davrda bolalarning (7 yoshli) ovoz diapazoni re-lya birinchi oktavagacha bo'lgan tovushlarni qamrab boradi. Lekin dars jarayonida bu diapazon ayrim hollarda birinchi oktavaning si va ikkinchi oktavaning do va re tovushlarigacha ko'tarilishi mumkin. Biroq o'quvchilar birinchi oktava do tovushi va undan quyiyoq tovushlarni kuylay olmaydilar. CHunki ularning ovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

3. Ijodiy yondashish borasida birinchi sinf o'quvchilarining imkoniyatlari kengdir. Ular bemalol har xil ijodiy topshiriqlarni bajara oladilar. Ular biror so'zga melodik va ritmik badihalar qilishlari mumkin. Ular musiqiy cholg'u asboblarida yoki sahnaviy ko'rinishlarda, tanish bo'lgan qo'shiqlarni harakatlar va pantomimalar bilan ko'rsatib bera oladilar.

#### *Musiqqa idrokini rivojlantirish vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligi*

Musiqiy idrok - musiqqa tinglash faoliyati barcha musiqiy mashg'ulotlarning asosidir. musiqiy tovush balandligi, uning ritmik suratini tinglamay kuylab bo'lmaydi. Lekin musiqqa tinglash oson emas, chunki har bir musiqiy asarning xarakteri musiqaning ifoda vositalari orqali aks ettiriladi va doimiy rivojlanish va harakatda. Shuning uchun musiqqa tinglashni o'rganish kerak. Musiqqa tinglashni har qanday musiqiy jarayonda - qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqiy cholg'ularda jo'r bo'lish, musiqqa savodi jarayonlarida ham o'rganish mumkin.

«Musiqani sevish uchun, avvalambor, uni tinglay olish kerak...» - degan kompozitor D. SHostakovich. Musiqani idrok etish masalalariga bir qator rus olimlari N.Vetlugina, Ye.Gorskaya, G.Rigina, N.Grodzenskayalar murojaat qilganlar (78-betga qarang).

Musiqani eshitish va tinglashni o'rgatish 1-sinf o'qituvchisi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Avvalam bor o'qituvchi musiqani boshqa san'at turlaridan farqi nimadaligini tushuntirib bermog'i lozim. Musiqani his qilish, anglash, tushunish uchun uni tinglay olish muhimdir.

uning uchun bolalar musiqaning ifoda vositalari haqida - kuy harakati, ritmik surati, registrlarning ifodaviylik ahamiyati, sur'at, dinamika, lad buyoqlari (major va minor) va boshqalarni bilishlari kerak.

Asosan musiqqa tinglash faoliyati quyidagi to'rtta shartli bosqichlarda o'tkaziladi:

1. Kirish so'zi.
2. Asar ijrosi.
3. Tinglangan asar haqida suhbat.
4. Qayta tinglash.

Bu bosqichlar shartli deb bejiz ta'kidlamadik. Dars to'zilishi, asar mazmuni va mohiyatiga qarab bu bosqichlar qisqartirilishi yoki kengaytirilishi ham mumkin.

#### *Birinchi sinfda kuylash malakalari*

Birinchi sinfda kuylash malakalarini shakllantirish bevosita musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Sof intonatsiyada kuylash, aniq idrok etib, tinglangan tovushni toza ijro etishdan iboratdir. Gohida musiqiy tovushlarni to'g'ri idrok etadigan, biroq to'g'ri kuylay olmaydigan o'quvchilar ham uchrab turadi. Sinfda turli xususiyat va odatlarga ega bolalar bo'lganligi tufayli, o'qituvchi barcha bolalarga mos keladigan usullarni qo'llashi kerak. Qo'shiq kuylashni o'rganayotganda sekin-asta takrorlash usullari bilan, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffo'z qilgan holda, qo'shiq ritmini sanagan holda ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Bolalar ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilishlarini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchi o'quvchilarni kuylatishidan avval qo'shiqni o'zi ijro etib berishi lozim. O'qituvchi kuylash jarayonida nafas, talaffo'z, ansambl, soz ustida ish olib boradi. Buning uchun o'quvchilarni o'qituvchini qo'lga qarab, qo'shiqni barobar boshlash va barobar tugatishlarini nazorat qilib borish kerak. Har qanday tovushni chiroyli, baqirmasdan, to'g'ri nafas olib, undoshlarga unli tovushlarni qo'shgan holda kuylash yashxi natija beradi. Nafas olganda, "...xuddi gul hidlagandek," (N.Grodzenskaya) olish muhimdir. o'quvchilar nafaqat o'zlarini, balki, sinfdoshlarining ham kuylashini eshita olishlari kerak. Qo'shiq kuylash jarayonida, musiqa tinglash jarayonida bo'lgani kabi, o'quvchilarga musiqa savodidan ma'lumotlar berib boriladi

### **3.2 2-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni**

#### *Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik, musiqiylik xususiyatlari*

1-2-sinf o'quvchilarining ko'pgina umumiy jihatlari - idroki, fantaziyasi, xotirasi, qiziqishlari bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida sezilarli farq bor. Birinchidan, 2-sinf o'quvchisi 1-sinf o'quvchisiga nisbatan, darsda o'zini qanday tutish, dars tartib-intizomi, kun tartibiga moslashganlik jihatidan ancha tajribaliroq bo'ladi. 2-sinf o'quvchisida iroda yetarlicha shakllangan bulmasada, 1-sinf o'quvchilariga nisbatan ular birmuncha qiyinchiliklarni yenga oladi. 2-sinf o'quvchisi o'qish va yozish malakalarini egallagan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy bilimlarni ham kulamini kengaytirishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi ularning 1-sinfda olgan bilimlariga asoslanadi.

Tashkillashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan, qiziqarli darslar o'quvchilarni birgalikda musiqa tinglashga, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishga, jamoa bo'lib kuylashga, bir-birini tinglashga urgatgan buldai.

Odatda 2-sinf o'quvchilari xuddi 1-sinf o'quvchilaridek, o'ta qiziquvchan bo'lmaydilar. Biroq, o'qituvchi ularning qiziqishlarini

sundirmaslikka harakat qilmog'i kerak. Buning uchun o'qituvchi musiqiy qobiliyati bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan ham e'tiborliroq bo'lmog'i lozim va kelajakda ularning qobiliyati o'quvchilarga biriktirib ularga ham alohida vazifadar berishi kerak. O'qish jarayonida o'qituvchi darsdagi vazifalarni osondan murakkabga, kuyidan yuqoriga qarab olib borishi kerak.

Boshlang'ich sinflardagi musiqa darslari umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarga badiiy ta'lim va estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi sinflarning orasida unchalik farq bo'lmasada, lekin ikkinchi sinf bolalari tajribali o'quvchi, maktab koidalariga ko'nikma hosil bo'lgan, diqqati mustahkamlashgan o'quvchi hisoblanadi.

Musiqa madaniyat darslarida dars faoliyatlarini tez-tez almashtirib turish, ularni musiqaga qiziqishlarini yanada oshiradi. Ikkinchi sinfda ovoz apparatining nozikligi, mo'rtligi va ovoz pardalari to'la shakllanmaganligi sababli ovozlari (nosoz) faltset ko'rinishida yangraydi. Ovoz diapazoni do1-re2 gacha bo'ladi. o'quvchilarda birinchi sinfda olgan bilimlari ikkinchi sinfda yanada mustahkamlanib, chuqurlashib boradi. Ular marsh musiqalari, tantanavor xarakterdagi musiqalar haqida ta'savurga ega bo'lib, bu musiqalarni janri, turlari haqida bilimga ega bo'ladilar. SHu tarzda qo'shiq va raqs janri ham o'rgatiladi.

2-sinf bolalari ovoz apparatining fizilogik xususiyatlari, ya'ni nozikligi, mo'rtligi ovoz pardalarining to'la shakllanmaganligi bilan ham birinchi sinf bolalaridan kam farq qiladilar. 2-sinf o'quvchilarining musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi birinchi sinfda berilgan darslarning sifat va mohiyatiga bog'liq. 1-sinfda o'quvchilar bilan o'tilgan samarali, qiziqarli tashkillashtirilgan darslar o'quvchilarda musiqa tinglash, qo'shiq haqida o'zinig taassurotlarini ifodalash, xor jamoasi bilan qo'shiq kuylash malakalarini oshiradi.

Musiqa tinglash musiqa faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Zeroki, darsda qo'llanadigan barcha musiqa materiallari asosan eshitib o'zlashtirish orqali amaliy faoliyat (kuylash, chalish, raqsga tushish, qadam tashlash)ga kuchadi. Xususan bolalar musiqaning uch asosiy janri (Qo'shiq, marsh va raqs) ni: har bir janrning o'ziga xos turlanishi, uch janrning yirik asarlarida mujassamlashuvi va ularing qo'shiqona, raqsona va marshona xarakterga ega bo'lishini bilib oladilar. Mazkur janrlar vositasida musiqa nima haqida «So'zlashi» va uni qanday ifodalashini angelaydilar. Bu mavzular asosida olingan bilim va ko'nikmalar esa to'rt chorakda umumlashadi .

Musiqa pedagogikasi sohasidagi mutaxassislar tajribalari ikkinchi sinf o'quvchilarini psixologik fizilogik hamda musiqiy malakalariga musiqaga bo'lgan qiziqishlariga asoslanib ularni musiqa darslariga qatnashishiga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi. Bu yoshdagi o'quvchilar musiqa sa'nati bilan birinchi sinfda, oilada, radio va televidenie orqali beriladigan eshiritirishlar, ko'rsatuvlar orqali tanish bo'ladilar. Darsda bolalarning quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash,

kuylash raqs elementlarini bajarish hamda chapak va cholg'u asboblarini chalish ishtiyoqlari oshib boradi.

CHunki bu yoshdagi bolalarning diqqatlari hali uncha turg'un bo'lmaydi, ular ko'proq serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Bunga esa darsdagi musiqa faoliyatini turlarini maqsadga muvofiq almashib turishi yordam beradi. SHu bilan birga musiqa haqida yangi tushunchalar paydo bo'lib musiqani ongli o'rganishga qiziqish kuchayib boradi. Buning natijasida kuylashda va boshqa amaliy faoliyatlarni bajarishda faollik ifodalilik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ammo bu yoshda bolalar ko'proq shirin so'zga moyil bo'ladilar. SHunga ko'ra, bolalarni musiqa madaniyati darslariga tobora qiziqtirishga, butun dars davomida quvnoq qayfiyatni saqlashga erishish lozim.

1-sinfda kullangan musiqa o'qitish metodikasi 2-sinfda ham deyarli o'zgarmaydi. Bu davrda musiqaga qiziqish va muhabbat o'yg'otish, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish davom etadi. Barcha bilim, ko'nikma va malakalar chuqurlashtiriladi. SHuningdek, musiqani to'laqonli idrok etish, uning estetik kechinmalar va sifatlari ijro nuqtai-nazaridan mukammal bo'lishi ta'minlanadi.

Ikkinchi sinf o'quvchilari psixologik fiziologik xarakterga ko'ra birinchi sinfga o'xshash bo'ladi. 2-sinf o'quvchilari o'z diqqat e'tiborini o'zoq vaqt bir narsaga qaratib turolmaydilar, juda tez charchab qoladilar. SHuning uchun ham musiqa madaniyati darslarida musiqiy ijroga ahamiyat berib borish chapak chalish, qadam tashlash kabi xilma-xil harakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, bolalar musiqiy cholg'u asboblari (Doyra, bubenga, rumba) da jo'r bo'lish va ritmik raqs harakatlarini bajarish bolalarni faollashtiradi va dars qiziqarli mazmunli o'tadi. 2-sinfda bolalar musiqaning xarakteri, obrazlar orqali olgan bilimlari nisbiy bo'lib, keyingi sinflarda aniq tushunchalarga aylanadi.

Musiqiy faoliyatlarning birinchi turlariga doir vazifalar ish mazmunini tashkil etadi. Mazkur faoliyatlar qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, raqs elementlarini bajarish, qadam tashlash musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. 2-sinfda qo'shiq kuylash-jamoa faoliyati sifatida o'quvchilarni bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Qo'shiq kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi asab xujayralari faol

qatnashadi, o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularni faollashini ta'minlaydi, ko'krak qismi tovush hosil kiluvchi azolarni artikulyatsiya va nafas organlarini faollashtiradi, hamda o'quvchilarni samarali kuylashga sharoit yaratadi.

2-sinfda o'quvchilarni ovoz diapazonini kengaytirishga alohida e'tibor berish lozim. Qo'shiqlarni o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, o'quvi, xotirasi, talaffuziga ahamiyat berib tanlash maqsadga muvofiqdir. Dars samaradorligini oshirishda dars mazmuni bilan bo'lgan

ko'rgazmali qurollar, musiqa obrazlarini ifodalovchi badiiy suratlar, texnika vositalari, didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu yoshdagi o'quvchilarni ovozi o'zlariga xos juda mayin va yoqimli tembrga ega bo'ladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasni so'z o'rtasida olmaslik uchun rejaga solish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, sof intonatsiya ustida muntazam ish olib borish lozim. Ovoz sozlashni prima tovushlardan (mi1,fa1, sol1)

boshlab, yelkani ko'tarmasdan nafas olishga ahamiyat berish, qo'shiq kuylash samaradorligini oshiradi.

2-sinf o'quvchilarining psixologik, fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini rivojlantirishda darsning har bir faoliyati bir-biri bilan o'zlik bog'liq holda olib borilishi lozim. Darsning chorak, yil mavzulari bir-biri bilan izchil bog'lanib bir-birini to'ldirish kerak.

2-sinf o'quvchilarida ovoz apparatlari to'la shakllanmaganligi sababli, hali ancha zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz bo'ladi, ovoz registri kuchi va tembri bo'yicha o'g'il va qiz bolalarda deyarli farq sezilmaydi. SHu sababli ularda tovush faltset tipida hosil bo'ladi. Ayrim bolalarning ovozlari normal holatda bo'lsada, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab, ularda musiqa eshitish (slux) o'rgangani bilan tovush qilish apparati o'rtasida musiqa tovushlari baland pastligini sezish bo'yicha umumiy koordinatsiya hali yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Natijada yil boshida bolalarning musiqiy o'quvi qobiliyatlari, musiqa tinglash ko'nikmalari va kuylash malakalari bo'yicha saviyalari bir xil bo'lmaydi. SHularni hisobga olib birinchi darsdan boshlab bolalarni musiqaga qiziqtirish yo'li bilan ularni musiqiy qobiliyatlarini, kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib, ularni defferentsial (tabaqalashgan) tarzda guruhga bo'lish mumkin.

1-guruhga - iqtidorli musiqiy o'quvi yaxshi rivojlangan o'quvchilar.

2-guruhga - musiqani aniq eshita oladigan ammo sozga va o'qituvchi ovozigga tayyangan holda kuylaydigan o'quvchilar.

3-guruhga - sozga umuman tusha olmaydigan o'quvchilar kiritiladi.

Birinchi guruhga kirgan bolalarni orqaga, ikkinchi guruhga kirgan bolalarni o'rtaga, uchinchi guruhga kirgan bolalarni esa oldingi partalarga o'tkazish talab etiladi. Maqsad musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar oldinda o'qituvchi va orqada esa qobiliyatli ovozi rivojlangan bolalarning ijobiy tasirida musiqiy ravnaqini tezlatish hamda yil davomida guruhlar saviyasini tenglatishdan iboratdir.

Ayrim bolalarda ovoz kasalligi belgilari (masalan, doimiy xirillash, ovoz paychalarining to'la birlashmasligi kuzatilishi mumkin) ammo bular vaqtinchalikdir. Kasal bolalarni davolatish ota-onalar yordamida va qoidali qo'shiq kuylatish yo'li bilan bunday bolalar ovozdagi nuqson bartaraf etiladi. Bundan ayniqsa, o'qituvchi ovoz gigienasini bolalarga tushintirib va sinfda



qo'shiq kuylash holatiga doimiy e'tibor berishi muhim ahamiyatga ega. Dars davomida musiqa qobiliyati sust rivojlangan va ovozi ma'lum xastalik mavjud bo'lgan o'quvchilarning har bir yutug'i uchun ularni rag'batlantirish hamda qiziqtirish va ilg'or bolalar bilan teng darajada musiqiy faollik ko'rsata olishlariga ishonch hosil qildirish lozim.

2-sinfda o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda musiqaga qiziqishni o'yg'otish va musiqiy taassurotni tarkib toptirish, musiqani san'at sifatida ongli idrok etishga zamin yaratadi. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.

1. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
2. Musiqani (tinglash) idrok etish malakasini o'stirish.
3. Qo'shiq kuylash malakasini o'stirish.

Musiqiy badiiy-g'oyaviy mazmun vastasida axloqiy estetik tarbiyalash. o'quvchilarning aqliy nafosat va jismoniy rivojida raqs musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Musiqa madaniyati darslarida musiqaga mos harakatlar bajarish

o'quvchilarning musiqiy o'quvi, xotirasi, ritm tuyg'usiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq musiqiy ohanglar bola xotirasida o'zoq saqlanadi.

Raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib qomatni to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishiga yordam beradi. Demak, musiqaga mos harakatlar o'quvchilarning aqliy nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham mustahkamlaydi. Masalan, marsh - o'quvchilarga g'ayrat va tetiklikni, raqs - ichki his-tuyg'ularni hosil etib raqsga tushishga undaydi va zavqlantiradi.

2-sinf o'quvchilarida bolalar cholg'u aboblarida jo'r bo'lish eng qiziqarli mashg'ulotdir. Bolalarni cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoq sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Cholg'u asboblarni chalishga hamma intiladi, shuning uchun berilgan asarning bolalar xato qilmay to'g'ri his qilishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

SHunday qilib yosh avlodni yetuk inson qilib voyaga yetkazishda musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishini ahamiyati katta. Musiqiy qobiliyatlar yordamida o'quvchilarda fikrlash o'ylash, mushohada qilish rivojlanadi.

#### *Bolalar ovozi xususiyati va uning rivojlanishi*

Musiqiy ta'limning asosiy maqsadi - maktab o'quvchilarini musiqa madaniyatlarini tarkib toptirishdan iborat, bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, ritm tuyg'usi, musiqiy xotirasi melodik va garmonik o'quvi, tembr o'quvi kabi qobiliyatlarni rivojlantirish vositasida vokal

xor hamda musiqiy idrok malakalari shakllandi. Bu vazifalarni amalga oshirishda har bir o'quvchini alohida o'rganish, undagi musiqaga qiziqishni va ikkinchi sinfning imkoniyatlarini hisobga olgan holda repertuar tanlash va turli metodlardan unumli foydalanish lozim.

Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda qo'shiq o'rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o'quvchilarning ishchi diapazonining primar(o'rta) tovushlardan boshlab pastki tomon yo'naluvchi tetraxodlardan foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, yelkani ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e'tibor beriladi.

Ularning ovoz diapazonining haddan tashqari past yoki yuqori pardalarida kuylatish yaramaydi.

2-sinfdan o'quvchilarning ovoz diapazoniga alohida e'tibor berish lozim. 2-sinf o'quvchilarining diapazoni birinchi oktava «DO», ikkinchi oktava «RE» gacha bo'ladi. Dasturda berilgan qo'shiqlar diapazoni yuqori bo'lganligi sababli ba'zi o'quvchilar qo'shiqning bu pardalarida mutlaqo noto'g'ri ijro etadilar, yoki umuman ayta olmaydilar shu tufayli o'quvchilarning ikki ovozga ajratish, ya'ni ovozi yuqori pardalarga

ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari, qolganlar kuylashi talab etiladi. SHuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda, ularni guruhlariga bo'lishda ham qo'l keladi. Har bir ovoz guruhning alohida ko'ylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik hissini tarbiyalaydi.

2-sinf o'quvchilarining ovoz apparati o'ziga xos musiqa asbobi bo'lib, u o'zining nihoyatda tembr boyligi, nozik musiqa ohangini ifodalash xususiyatlari bilan musiqa asboblaridan ustun turadi. Qo'shiq aytib kuylaganda bolalar organizmining deyarli hamma a'zolari ayniqsa, tovush hosil qiluvchi artikulyatsiya nafas organlari va nerv to'qimalari faol ishtiroq etadi. Agar mazkur organlarning biri qo'shiq kuylash jarayonida noto'g'ri ishlasa ovoz apparatiga va ovoz hosil bo'lishiga zarar yetishi mumkin.

Buning uchun bolalar ovozini parvarish qilish va vokal xor malakalarini shakllantirishda maxsus vokal mashqlarini ya'ni oktava miqiyosidagi qismlarida ovozni bir maromga solish katta ahamiyatga ega.

Qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchilar ovozi bakiyib, kuchanib aytmasligiga ahamiyat berish lozim. CHunki bunday hollarda ovoz pardalari shikastlanishi mumkin. Nafis gul hidlagandek burun bilan ochib, asta sekin chiqarish malakalarini rivojlantirib borish zarur.

O'quvchilarni ovoz tembri, ovoz diapazoni va sof intonatsiyasiga katta ahamiyat berish zarur. SHuningdek, qo'shiq kuylaganda asar mazmunini kirish avji, tugatish joylariga e'tibor berish, sof intonatsiya, nafas talaffuziga rioya qilib erishish lozim. 2-sinfda o'g'il va qiz bolalar ovozi bir-biridan uncha farq qilmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiq kuylashga o'rgatish musiq madaniyati darslarining

amalgga oshirish mumkin bo'lgan muhim masalalaridan biridir. Qo'shiq kuylash har bir bolaning o'ziga jalb kiluvchi samarali natija beruvchi jarayonidir.

Bolalarda kuylash malakalarining shakllantirishda musiqa o'qituvchisidan katta malaka va bilim talab etiladi. Chunki bunda diqqat, xotira, musiqiy o'quv shakllanib boradi. Qo'shiq kuylash jarayonida bola organizmining deyarli barcha a'zolari faol ishtirok etadi. Vokal xor malakalarini hosil etishda bu organlarni bir maromda o'zaro aloqada normal ishlashiga erishish zarur. Nota bilimlarini, uning matnini tushinish qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi.

Kuyni puxta ijro etishga va yaxshi esda saqlashga yordam beradi. Shuningdek, nota savodini bilish ikki-uch ovozda kuylash malakalarini o'stiradi. Ikki ovozda kuylashda asosiy maqsad ikki ovozli tovush yangrashining yaxshi soz bilan barobar uyg'un va ravon bo'lishishiga erishishdir. Oldin ovoz sozlash mashqida har bir ovozda sof intonatsiyaga erishish lozim. So'ng qo'shiqning musiqiy jumllariga bo'lib har bir ovoz bilan alohida o'rganib chiqish lozim. Ovozlar mukammal o'rganilgandan keyin ikki ovozni qo'shib birgalikda kuylatish mumkin.

### **3.3 3-4-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni**

#### *3-4 sinf o'quvchilarining psixologik, musiqiy xususiyatlari*

3-4-sinf o'quvchilari o'zlarining pedagogik-psixologik xarakteriga ko'ra quyi sinflardan ancha farq qiladilar. Ularning diqqat-e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, nutqi ravon, hayotiy tajribasi ko'lami ancha keng, fanlarga qiziqishlari yuqori bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatidan kattaroq bo'lgan musiqani hal etishga, izlanish, mustaqil mushohada etishga qodir bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarda bosh miya anatomic tuzilishining yanada faolroq shakllanishi kuzatiladi. O'qish uning funktsiyalari rivojlanishiga kuchli omil sifatida ta'sir qiladi. Jumladan, predmet-obrazli tafakkurdan sekin-asta mavhum, izohli-mantiqiy tafakkur sari o'tish uchun sharoit tug'iladi. Lekin, baribir o'qituvchi yosh o'quvchi hamma narsadan o'zining shaxsiy hissiy tajribasiga, xususiy taassurotlariga, bilimlariga, hayotga yaqinrok tayanch izlashini unutmaslik kerak. Shu sababdan, bolaning fikrini narsalar va hodisalarning qonuniyatli tarzda bog'liqligini idrok etishga yo'naltirish maqsadida bevosita ta'sir qiladigan ob'ektlarni tanlash juda muhimdir.

Bu yoshdagi o'quvchilarda, ular uchun qiziqarli bo'lmagan ishdan hali charchaydi, bevosita ta'sir jozibasi bo'lmagan materialga diqqat qilishi kiyin bo'ladi. Bu holni hisobga olgan holda butun ta'limni birgina qiziqish asosida, yoqib qolganligi vajidagina olib borib bo'lmaydi. O'quvchilar o'qishning jiddiy iroda kuchini talab qiladigan mehnat ekanligini qanchalik tez tushunib olsalar va his etsalar, ularda diqqat-e'tiborning barqarorligi, o'quv faoliyatida harakatlarni yo'naltirishi va erkin tarzda uyushtirish qobiliyati shunchalik erta paydo bo'ladi.

Bu yoshdagi o'quvchiga jadal harakat faolligi xos bo'lib, bu faollik uning o'z xulq-atvorini yetarli darajada idora qila bilmasligi bilan qo'shib, ko'pincha ta'sirga beriluvchanlikni, o'zini tuta bilmasligini keltirib chiqaradi. o'quvchining harakatchanligini, motorikasini to'g'ri shakllarda uyushtirmoq, unga maqbul keladigan yo'nalish berish kerak. 3-4-sinf o'quvchilarining o'qishga munosabatida muayyan dinamika kuzatiladi. Nihoyat, bola o'quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib, o'quv-nazariy vazifalarni aniq va amaliy vazifalarga o'zgartira oladi. Uning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish zamonaviy pedagogika-psixologiya fanlarining vazifasidir.

Bola kuzatuvchanligi haqida gapiradigan bo'lsak, bu sinflardagi bolalar allaqachon ixtiyoriy diqqatga ega bo'lgan bo'ladilar. Ixtiyoriy diqqat yoki diqqatni u yo bu masalaga maqsadli yo'naltirish - bu yoshdagi o'quvchilarning muhim yutuqlaridandir. Xuddi boshqa psixologik jarayonlar kabi bolalar emotsiyasining umumiy xususiyatlari ham o'zgarib boradi. Bu davrda bolalarda jamoachilikka intilish, jamoa ichida o'zini bemalol tuta olish malakalari paydo bo'la boshlaydi.

3-4-sinf o'quvchilarida ovoz apparatlari shakllangan, vokal-xor malakalariga ega, musiqa haqida bilimga ega bo'ladilar. Ovoz apparati mexanizmi tuzilishi murakkablashadi. Xiqildoqda muhim paylardan - ovoz paylari rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning ovozi ancha kuchli va jarangdor eshitiladi. Ovoz tarangligi kuchayadi va qo'shiqchilik ovozi shakllana boshlaydi. Muayyan tembrdagi ohangning paydo bo'lishi o'g'il bolalar ovozinin diskant va altga bo'linishiga sabab bo'ladi. Diskantlar o'zining yengilligi, jarangdorligi, yorqinligi bilan ajralib tursa, altlar esa o'zining kuchsizligi, xiraligi, jarangsizligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun bu yoshda o'quvchilarda ko'p ovoqli kuylash malakalari rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi.

Rus pedagoglari I.Ponamarev, A.Karasev, N.Kovin, D.Zarin, A.Maslovlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida ovoz yo'nalishlari parallel tovushlarda yozilgan ikki ovoqli qo'shiqlarni kuylash maqsadga muvofiq deb hisoblaganlar. Z.Koday ham bu haqida shunday degan: "Ko'povozlik nafaqat polifonik eshituvni rivojlantiradi, balki bir ovoqli kuylashda ham muhim o'rin egallaydi". SHuni e'tiborga olish kerakki, sof intonatsiya bilan kuylash uchun avvalam bor, musiqiy asarni tinglay olish kerak.

#### *3-4-sinf o'quvchilarining musiqa tinglash malakalarini rivojlantirish metodlari*

Musiqa idroki - musiqa mazmunini eshita bilim va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir. musiqiy idrok - murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borlikning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi. Idrok masalalari, xususan, musiqa vositasida uni rivojlantirish muammolari bilan ish olib borgan

musiqashunoslar, psixologlar, pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi.

Musiqashunos B.Yavorskiy "musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani «ma'noga ega nutq" sifatida qabul qilish malakasi yotadi", - deb ta'kidlaydi. O'quvchilarda musiqiy idrokni rivojlantirishda ularda musiqiy hissiy ta'sirchanlik, qiziqishni o'stirish, musiqiy ijodiy qobiliyatlar, didni rivojlantirishga qaratilgan ko'nikma va malaka shakllantirish talab etiladi. O'quvchilarda, ayniqsa, 3-4-sinflarda, musiqa idrokini rivojlantirish murakkab vazifadir. O'quvchi musiqani butunligicha umumiy xarakter, kayfiyat sifatida idrok etadi.

Ular "g'amgin-quvnoq", "chaqqon-sekin", "pastu-baland", marsh, qo'shiq, raqs kabi kontrast obrazlarni yengil farqlaydilar, ammo shu bilan bir qatorda asarni doimo ham boshidan oxirigacha xayollarini buzmasdan tinglay olmaydilar. Ko'pincha, asarning boshlang'ich taktlarinigina tinglab, davomini eshitmaydilar. SHuning uchun asarni boshidan oxirigacha tinglash va idrok etishga o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. "Musiqada har daqiqada o'zgarish sodir bo'ladi, tovushlar qaytariladi, o'zgaradi, tovushlar turli kayfiyatlarni birlashtiradi", degan fikrni bolalarga yaxshilab tushuntirish kerak. Bunda musiqa ifoda vositalarining bolalar tomonidan o'zlashtirilishi katta yordam beradi: asarning qanday yangrayotganligi, bu kayfiyat qanday vositalar orqali berilgan? - degan savollarga javob berish uchun, o'quvchilar kuyning harakati, harakteri, ritmik ko'rinishi, tempi, dinamikasiga, keyinchalik ladiga ham quloq tutishlari lozim.

3-4-sinflarda o'quvchilar asosan xalq musiqasining ommaviy janrlariga kiruvchi ko'plab asarlarni yakkanavoz, cholg'u dastalari va orkestr, xor jamoasi ijrosidagi variantlarda tinglaydilar.

Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish, mazmuni va kayfiyatini anglash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishi kerak. Buning uchun o'qituvchi:

- o'quvchilarni tinglanadigan asarga hissiy tayyorlaydi;
- o'quvchilarni madaniyatli tinglovchi sifatida tarbiyalaydi;
- musiqaning mazmuni, ifoda vositalrini oddiy tahlil qilishga o'rgatadi;
- musiqa haqida fikr yuritish, asarga estetik baho berish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- o'tilgan asarlarni tinglab esga olish, asarning nomi va mualliflarini aniqlash.

Tinglashdan avval o'quvchilar diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o'qituvchi o'quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli xil vazifalar qo'yishi mumkin:

1. Katta bo‘lmagan kuy, musiqiy asarni o‘quvchilarga tinglash uchun beradi va "Siz bu asarga nima deb nom bergan bo‘lardingiz?"- degan savolni o‘rtaga tashlaydi.

2. O‘qituvchi M.Mirzaevni «Bahor valsini» asarini tinglash uchun beradi va asar nima uchun bunday nomlanganligini o‘quvchilardan so‘raydi.

3. Tinglash uchun berilgan asarning kayfiyatini aniqlash vazifasini beradi.

Bunday vazifa-savollar o‘quvchilarda musiqani tinglash xohishini o‘yg‘otadi, musiqiy idrokni faollashtiradi.

O‘quvchilar asar mazmunini, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyligini anglashga harakat qiladilar. musiqiy idrokni hissiy jihatdan faollashtiruvchi va boyituvchi metodlar quyidagilar:

- bolalarga tanish bo‘lgan asarni yangi ijroda, yangi talqinda berish;
- turli talqin va ijro usullarida berilgan bir asarning o‘zini taqqoslash;
- o‘qituvchining jonli ijrosi;
- o‘qituvchining kirish so‘zi;
- yuqori sifatli audio va CD yozuvlaridan foydalanish;
- cholg‘u asarlarining musiqiy mavzularini lokalizatsiya qilib kuylash.

Musiqani idrokni musiqiy asarni o‘rganish jarayonida rivojlanadi va bu jarayon to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

- o‘qituvchining kirish so‘zi;

musiqiy asarni birinchi bor tinglash;

- musiqiy asar tahlili;
- qayta tinglash.

Endi bu bosqichlarni alohida ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchining kirish so‘zi - qisqa, emotsional, qiziqarli bo‘lib, asosiy maqsad - bolalarning diqqatini tinglanadigan asarga jalb etish, unga qiziqish o‘yg‘otish. O‘qituvchi o‘z kirish so‘zida bolalarga kompozitor haqida qisqacha so‘zlab berishi mumkin. Ba’zida esa kirish so‘zi bir necha savollardan iborat bo‘lib, bolalar idrokini faollashtirish, ularda musiqani tinglash xohishini hosil qilish kerak.

Musiqiy asarni tinglash - o‘quvchilarni musiqani tinch, gaplashmasdan tinglashga o‘rgatish birinchi galdagi vazifadir. Asar boshidan oxirigacha ifodali badiiy ijroda gramm yozuv orqali yoki o‘qituvchi ijrosida ko‘rsatiladi. Musiqani jaranglangan paytda o‘qituvchining o‘zi ham musiqani berilib tinglashi, ko‘rsatmalar bermasligi, yozuv-chizuv ishlari bilan shug‘ullanmasligi lozim, ya’ni o‘qituvchi musiqiy asarni o‘quvchilar bilan birgalikda tinglashi kerak.

Musiqani tahlili - musiqani tinglashdan olingan hissiy ta’sirni chuqurlashtirish vazifasiga qaratilgan. Bu murakkab va o‘qituvchidan katta mahorat talab etadigan bosqich. Asarni tushunish va his etish bir narsa emas. Tahlil ko‘pincha, hissiy idrokka halal ham berishi, tinglashni susaytirishi ham mumkin. Asar ifoda

vositalari mazmundan ajralgan holda, ko'rib chiqilsa, shunday hol ruy berishi aniq. Musiqa savodini egallagan o'quvchilar musiqa tahlili jarayonida o'z bilimlarini bema'lol qo'llay boshlaydilar. Musiqa tahlili jarayonida 3-4-sinflarda so'hat quyidagi savollar yuzasidan o'tkaziladi:

1. Mazmun va harakter.
2. Musiqiy janr.
3. Musiqa qanday o'zgaradi.
4. Musiqiy shakl.

Musiqa tahlili asosida o'quvchilarning musiqa kirib borishi, asosiy musiqiy qonuniyatlarni tushunib yetishlari bosqichma-bosqich, tizimli ravishda hosil bo'ladi.

Qayta tinglash - o'quvchilar musiqani to'larok idrok etishlari, asarni eslab qolishlari, asarni yoqtirib qolishlari uchun bir necha bor qayta tinglash maqsadga muvofiq, chunki bir marta tinglangan asar darrov bolalarga yoqadi, hamma bolalar tomonidan yetarli darajada emotsional qabul qilinadi, deb aytib bo'lmaydi. Musiqiy asar o'quvchining musiqiy tajribasiga aylanishi uchun bir necha bor qayta tinglash jarayoni idrokni boyitishi, musiqiy obraz tasavvurini chuqurlashtirishi va asarning esda qolishini ta'minlashi lozim.

Musiqiy obrazlarni taqqoslash-qiyoslash metodi o'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metoddan oqilona foydalanish o'quvchilarning musiqiy-eshitish qobiliyatlarini o'stiradi. Avval kontrast asarlardag farqlarni anglash, keyinchalik esa kayfiyati bir xil bo'lgan asarlarda nozik o'xshashliklarni his etishlariga yordam beradi.

### **3.4 5-6-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni**

Umumiy o'rta ta'lim maktabining har bir bosqichi o'qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo o'zluksizlikni ta'minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi kerak. O'zluksiz ta'limning ayrim bosqichlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish muhimdir. Chunki o'rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo'ladi. SHuning uchun ham 5-6-sinflarni o'zviy holda o'rganish mumkin. 4-sinfda boshlang'ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo'lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya'ni o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichiga o'tadilar. Bu sinfda barcha fanlar bo'yicha o'qituvchilarning o'zgarishi, sinf rahbarining o'zgarishi o'quvchilarning yangi sharoitlarga ko'nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi.

*5-6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy harakteristika*

Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma'lumki, bu yosh usmirlik davriga to'g'ri keladi. Usmirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfiga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin usmirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi ham mumkin.

Usmirlik davri «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushqo'l», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O'quvchilarda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ruy beradi.

Usmir shaxsi rivojlanishning muhim omili - uning shaxsiy faolligi - shaxsiyat omilidir. Bu davrda usmirning o'z-o'zini anglashi jarayoni faol va mashakkatli kechadi. Usmirning yoshidagi muhim o'zgarishlar uning organizmidagi jismoniy o'sish va biologik voyaga yetish bilan bog'liqdir.

Usmirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar.

Usmir organizmi o'sishidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o'zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga yetish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o'sishida muhim o'zgarishlarga olib keladi.

Musiqiy tarbiyada bu yosh ovoz apparatining mutatsiyasi davri bilan bog'liq. Ovoz apparati yo'g'onlashadi, ovoz ayniqsa, o'g'il bolalarda sezilarli darajada pastrok bo'lib boradi. SHuningdek, ovozning buzilish holatlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq yuqori tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim. Endi mutatsiya hodisasiga batafsil to'xtalib o'tamiz.

O'g'il bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri, odatda jinsiy bolog'atga yetish davriga to'g'ri keladi. Mutatsiyaning boshlanishi ko'p sabablarga bog'liq, jumladan, iqlimga ham bog'liqdir.

Mutatsiya davrida hiqildoq tez o'sadi. Ayniqsa qalqonsimon tog'ay juda kattalashadi. Boylamlar ikki barobar 13-14mm dan 24-25mm gacha kattalashadi.

Bu davrda hiqildoq kasallikka chalinuvchan bo'lib qoladi. Ovoz ehtiyot qilinmasa, hiqildoqda turli xil kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Mutatsiyaning turi va davomiyligi hammadada har xil kechadi.

Bolalarda mutatsiyaning boshlanganligini o'z vaqtida payqash va vokal asarlarini to'g'ri tanlash o'ta muhim shartlardandir. Mutatsiya boshlanganligining dastlabki belgilari: ovozning nimjon bo'lib qolishi, intonatsiyaning buzilishi, qo'shiq aytish xohishining yo'qolishi, ovozning xirrilab qolishi. Mutatsiya



hammadada har xil, ayrim bolalarda yengil, ayrim bolalarda esa og'ir kechadi. Bir me'yorda ovozning yo'g'onlashib borishi bu yengil mutatsiyadan darak bersa, ovozning bir yo'g'onlashib, bir ingichka yangrashi, gohida ovozning chiqmay qolishi og'ir mutatsiya belgilaridir. Kuzatishlarga ko'ra ko'pincha, diskant ovozlari basga, alt ovozlari tenorga aylanadi.

Qizlarda ham mutatsiya davri bo'lib o'tadi. Biroq ularda mutatsiya o'g'il bolalarnikidek sezilarli o'tmaydi. Qizlarda mutatsiya bilinmay, juda sekin o'tganligi tuffayli ularning ovoz o'zgarishlarini payqash mushqo'l. u davrda og'ir kuylarni kuylashga berish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. ovozni haddan tashqari zo'riqtirib qo'yish natijasida, qizlarning ovoz paylarida bog'lam, tugunchalar paydo bo'lishi va keyinchalik mutlak ovozning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi mutatsiyaning har xil - sezilarli yoki sezilmasdan o'tishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ovoz apparatlarini zo'riqtirmay, ularga yengil kuy va qo'shiqlarni berishi kerak.

### **3.5 7 sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni**

#### *7-sinf o'quvchisiga harakteristika*

7-sinf usmirlik davriga to'g'ri kelib, kiyin o'quvchi davr hisoblanadi. Bu ko'pgina olimlarning kuzatishlarida o'z aksini topgan. o'quvchilar bu yoshda jismoniy yetiladilar. Bu davrda musiqa darslarini usmirning holatiga qarab tashkillashtirish talab etiladi.

Bu davrda o'quvchilarda ovoz mutatsiyasining eng rivojlangan paytidir. Ovoz apparati usmir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Ovoz apparatining o'sishi ravonligini yo'qotib, notekis rivojlanadi.

Ayrim o'quvchilarda mutatsiya 5-6-sinflarda boshlangan bo'lsa, ayrimlarida endi boshlanadi. Bu o'qituvchidan nihoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki sinfning yarmi mutatsiyaning so'ngi bosqichida bo'lsa, qolgan yarmi boshida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarning ovoz diapazoni yuqori ovozlarda - 1 "do"dan 2 "mi" gacha, kuyi ovozlarda - kichik oktava "si"dan 2 oktava "re" gacha bo'ladi.

7-sinf o'quvchilarining ichki dunyosi ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Ularning dunyoqarashi kengaygan bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladilar. musiqiy didlari ham yaxshi shakllangan bo'lib, o'qituvchi repertuar tanlashda ularning qiziqishlarini hisobga olmag'i kerak.

7-sinf o'quvchilari ixtiyoriy diqqatga ega bo'ladilar va qiyinchiliklarsiz yirik musiqa shakllarini idrok eta oladilar (uvertyura, simfoniya, sonata, maqom va hokazo). O'quvchilar asarga nisbatan paydo bo'lgan his-tuyg'ulari, tasavvurlarini hikoya tarzida aytib bera oladilar. SHuningdek, 7-sinf o'quvchilari kompozitor yoki bastakor haqida referatlar, bukletlar va nutqlar tayyorlay oladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning mana shunday ijodiy hislatlaridan unumli foydalangan holda,

ularni musiqiy to'garaklar, xor jamoalariga jalb qilishi, qolaversa, o'quvchilar orasida o'tkaziladigan tanlov, musobaqa va olimpiadalarga jalb etishi muhim. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttirib qolmay, balki yetti yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

*7-sinfda "Musiqqa madaniyati" darslarining tuzilishi*

7-sinfdagi musiqa darslari umuta'lim maktablari uchun belgilangan musiqa ta'limining so'nggi bosqichi hisoblanadi.

7-sinfda musiqa darslari asosan, uchta faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi. Xususan:

1. Qo'shiq kuylash.
2. Musiqa idroki (tinglash).
3. Musiqa savodi.

Mazkur sinfda avvalgi sinflarda o'tilgan musiqa materiali yakunlanadi va mustahkamlanadi. Musiqa darsining tuzilishi asosan, ijrochilikni tashkil etsada, musiqa savodi va idrokisiz to'laqonli ijroga erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda bir qator ijobiy fazilatlar shakllandi.

Musiqa darslari quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi:

- dars mavzusi (yil, chorak va dars avzusidan kelib chiqqan holda);
- darsning turi (to'rt faoliyatdan biri ustuvor bo'ladi);
- darsning maqsadi: ta'limiy va tarbiyaviy;
- qo'llaniladigan adabiyotlar;
- darsning olib borilishi;
- amaliy ishlar;
- yangi mavzuni o'tish (barcha faoliyatlarni o'z ichiga qamrab oladi);
- o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- uyga vazifa berish va o'quvchilar bilimini baholash.

Barcha sinflarda yil va chorak mavzulari mavjud bo'lib, 7-sinfning yil va chorak mavzulari quyidagicha:

<b>7 – sinf</b>	<b><i>Yil mavzusi: Xalq musiqasining mahalliy uslublari.</i></b>
<b>1 – chorak</b>	<b>Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv.</b>
<b>2 – chorak</b>	<b>Farg'ona, Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv</b>
<b>3 – chorak</b>	<b>Maqom. SHashmaqom.</b>
<b>4 – chorak</b>	<b>Xorazm maqomlari, Fargona-Toshkent maqom yo'llari.</b>

## **O‘quvchilarni turli ko‘rik - tanlovlarga tayyorlash tartibi.**

“Fan oyli” o‘tkazish har bir fan o‘qituvchi singari tasviriy san’at va chizmachilik o‘qituvchisiga ham katta ma’suliyat turadi:

Fanga doir o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar namunasidan ko‘rgazma tashkil qilinadi.

Fan bo‘yicha ochiq darslar jadvali tashkil etiladi.

Fan bo‘yicha o‘quvchilardan kirish va chiqish testi olinadi.

Fan bo‘yicha sinflar aro bellashuvlar tashkil etiladi.\*\*

Fan o‘qituvchisi o‘qituvchisi maktabda quyidagi sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishi kerak.

-Tashkiliy qismi, o‘quvchilarni jalb qilish, konkurs shartlarini aniqlash, o‘tkazish, ish joyini tanlash.

-Maktabning quyidagi ish hujjatlarini tayyorlash

1. Maktab direktorining buyrug‘i.

2. Qatnashuvchi o‘quvchilar haqida umumiy ma’lumot.

3. Konkurs emblemasini yasash

4. Konkurs shartlarini tuzish.

5. Hakamlar a’zolarini tuzish

6. O‘quvchilarning badiiy chiqishlarini tashkil etish.

7. O‘tkazilgan tadbir haqida o‘qituvchisining hisobini yozish.

8. Konkurs g‘oliblari va ishtirokchilarini maktab ma’muriyati bilan birgalikda rag‘batlantirish.

9. Konkursning vaqti, o‘tkazish joyi haqida ma’lumotlar.

Fan o‘qituvchi o‘quvchilarni konkursga tayyorlashdan boshlaydi. Musobaqada o‘quvchi quyidagi ishlarni bajaradi. Ishtirok etish, musobaqa tashkillashtiriladigan joylarni bezash, kerakli asbob-uskunalar bilan ta’minlashda o‘qituvchiga yordam beradi.

Konkursga maktabning V-IX sinf o‘quvchilari, ota-onalar, mahalla, fermer xo‘jaliklari rahbarlari, tuman xalq ta’limi bo‘limi xodimlari jalb etiladi. Uni tashil etishga maktabning ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari bevosita rahbarlik qiladi.

Maktab ko‘rgazmasining muvaffaqiyati ko‘pincha faqat taqdim etilgan ishlarning mazmuni bilan emas, balki ayrim ishlarning va umuman, ko‘rgazmaning bezatilishi bilan ham belgilanadi. Ko‘rgazmani tayyorlashda eng oldin umumiy mavzuni belgilash, uning shiorini aniqlash zarur. Keyingi ko‘rgazmaning bo‘limlarini tayin qilish kerak. Ko‘rgazmaga tashrif buyuruvchilar miqdori unga maktab o‘quvchilarining, maktab mikrorayonida yashadigan bolalar va o‘smirlarning ota-onalari taklif etiladi.

Ko‘rgazma natijalarini yakunlashda birinchi o‘rinlarni aniqlash, u yoki bu presonajlarning mualliflari olgan ballar hisobida emas, suvenerlar berish ma’qul.

Ko‘rgazma ishining natijalari yakunlanadigan yig‘ilishda baza korxonasi mutaxassisiga so‘z berilishi va u ishlarni xayrixohlik bilan bilan sharhlashi, eng qiziqarli ishlarning avtorlarini aytib o‘tishi, o‘quvchilarga maktabni bitirgach mahalliy kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyga o‘qishga borish taklif qilish kerak.

Maktab ko‘rgazmalarini o‘tkazish tuman va shahar maktablarining hammasida taxminan bir vaqtda amalga oshirilishi sababli qatnashchilarining

qo'shni maktab ko'rgazmasiga sayohatini uyushtirish, u yerda maktab ustaxonasida (fan xonasida) shug'ullanadigan yosh rassomlar uchrashuv o'tkazib, o'sha maktab ko'rgazmasiga taqdim etilgan eksponatlarni muhokama qilish, o'quvchilarni o'z ko'rgazmalariga taklif etish g'oyat foydalidir.

**Xulosa.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hozir amalga oshirilayotgan islohotlar badiiy va dizayn ta'lim-tarbiya jarayonining oldingi holatiga nisbatan rivojlanayotgan, yaxshilanayotgan bo'lsada, uni yanada rivojlantirish zaruratini ham keltirib chiqarmoqda.

Bu masalada tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisining roli katta. U chuqur bilimga ega bo'lishi uchun tinmay o'z ustida muntazam mashq qilib borishi, o'zining ilmiy-nazariy va amaliy bilim saviyasini takomillashtirib ilg'or tajribalarni o'rganishi, unga tayanishi lozimdir.

Har bir tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi darsdan tashqari tadbirlarni yaxshi tashkil etsa, o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi. O'quvchini o'ziga bo'lgan ishonch, burch, mas'uliyati yanada oshadi

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Birinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
2. Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
3. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
4. Birinchi sinfda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
5. Birinchi sinfda musiqa savodi jarayonida nimalarni o'rgatish mumkin va bu jarayon qanday amalga oshiriladi?
6. Birinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
7. Birinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qo'shimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
8. Ikkinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
9. Ikkinchi sinfda musiqa tinglash faoliyati qanday amalga oshiriladi?
10. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
11. Ikkinchi sinfdagi qo'shiq kuylash repertuarini aytib bering.
12. Ikkinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'tiladi?
13. Ikkinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
14. Ikkinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qo'shimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
15. Uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
16. Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
17. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
18. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy

asarlarni tinglaydilar?

19. Uchinchi va to'rtinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?

20. Uchinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

21. To'rtinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

22. Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.

23. Beshinchi va oltinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?

25. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?

26. Mutatsiya hodisasiga ta'rif bering.

26. Beshinchi va oltinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?

27. Beshinchi va oltinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?

28. Beshinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
29. Oltinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
30. Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
31. Yuqoridagi sinflar o'quv dasturiga yana qanday kuy va qo'shiqlarni kiritgan bular edingiz?
32. Ettinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
33. Ettinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
34. Mazkur sinfda qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va repertuarga qaysi mavzudagi qo'shiqlar kiritilgan?
35. Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazonlari qanday bo'ladi?
36. Yettinchi sinfda o'quvchilar tinglashi uchun qaysi mavzu va janrdagi kuy va qo'shiqlar tavsiya etiladi va nima uchun?
37. Ettinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
38. Ettinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Apraksina.O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2119 «Музыка и пенie») - М.: Просвещение, 1983-222s
- 2.Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиров Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 s.
- 3.D.Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma.T.2009 O'zDK.

## 4-MAVZU: MUMTOZ MUSIQA AN'ANALARI VA ULARNI O'QITISH METODIKASI

### REJA

1. Mumtoz musiqa madaniyatining tarixi va rivoji.
2. Musiqa madaniyatining yoritishda musiqashunoslarning o'rni.
3. An'anaviy qo'shiqchilik san'atida xalq hofizlarining tutgan o'rni.

#### 4.1 Mumtoz musiqa madaniyatining tarixi va rivoji.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk SHarq allomalari Muhammad Al-Xorazimiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muxammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali CHangiy va boshqa ulug' bobokolonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining to'zilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar "Qobusnoma"da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnayga, qonuoga, nayga o'hshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib to'rganidagi tasvirlari, minyatura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganidan darak beradi. SHarq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar bilimdon ustoz san'atkorning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari quyidagi o'n ikki (davozdax) maqom mavjud bo'lgan. Ular "Ushshoq", "Navo", "Bo'zalik", "Rost", "Husayniy", "Xijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", "Isfahon", "Zirofqand", "Bo'zrug".

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitga yangi ijro yo'llari saqlangan ko'rinishlari bilan



jilolanib ketgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning "SHashmaqom" (Olti maqom)i: "Bo'zruk", "Rost", "Dugoh", "Segoh", "Navo", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning "CHor maqom"i (To'rt maqom), "Dugox Xusayniy"ning yetti yo'li, "CHorgoh"ning oltita ijrochilik yo'li, "SHahnozi Gulyor"ning oltita ijrochilik yo'li hamda "Bayot" yo'llarining savt va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Xorazm maqomlari ham yuqorida tahkidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga hos yo'nalishlarini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi "Panjgoh" maqomi kiritilgan.

Xalq san'atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq SHakarjonov: "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shohlari Farg'onadir",- deb ta'riflagan ekanlar. Ustozning bu gaplarida katta ma'no yotadi.

Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo'nalishi dostonchilik sa'ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlargan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa "Bo'yi juyi muliyon" sherining ushshoq kuyida aytilgan qadimgi qo'l yozmalarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallaev qadimgi qo'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kusnog'ora, qobiz, talb, tanburuk, zir, nay, chagona, shaypur, surnay, karnay, arg'unay, donun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg'u asboblari o'lkamida keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko'rsatib o'tgan.

Natijada XIII asrga kelib Buxoroning "SHashmaqom" (olti maqom); "Bo'zruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlandi.

SHuning uchun avlodan-avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy meros sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona, Toshkent maqomlari betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug'ne'mat sifatida ardoqlanadi

#### 4.2. Musiqa madaniyatining yoritishda musiqashunoslarning o'rni.

IX-XI asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin X-XI asrlarda ijod etgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib ba'zilar ustida to'htalib o'tishni lozim topdik.

IX-X yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa "Bo'yi juyi muliyon" sherining ushshoq kuyida aytilgan qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan.

X asrning buyuk qomusiy olimi Abu Nasr Al Farobiy bo'lib uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida Ovrupa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarni



ishlash ustida ijod qildi va “Qonun, g’ijjak” kabi yangi musiqiy sozlarni kashq etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan “Kitob ul musiqa al-kabir” (Katta musiqa kitobi), va boshqa asrlari mavjud. Farobiy o’sha davr ijrochilik san’atida katta shuhrat qozongan uning musiqa yo’nalishidagi nazariy asarlari kelajakda O’rta Osiyo xalqlari musiqa fani taraqqiyotiga asos bo’ldi va shu bilan birga dunyo musiqa fani rivojiga ham katta hissa bo’lib qo’shildi.

Yana bir ulug’ alloma Abu Ali Ibn Sino musifa nazariyasi bilan shug’ullangan bo’lib bemor insonlarning dardiga musiqa ham shifo bo’lishi haqida yozib o’tgan. Uning “Alqonun fit-tib”, “Kitob ul shifo”, “Donishnoma” kabi qator asarlarida musiqaning estetik ahamiyati va ta’sir kuchiga, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o’z amaliyotida isbotlab berdi.

Tarix zar varaqlariga nazar soladigan bo’lsak ulug’ bobomiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san’at gurkirab rivojlangan. Amir Temur o’z to’zuklarida 10-toifa xunar-san’at egalaridir. Ularni davlatxonaga keltirib o’rdada o’rinlari belgilangan. Yozma manbaalarda yana shu darning yirik bastakor Sayfitdin Nayi, Qutbi Nayi, Said Yusuf (qo’bo’z) Darvishbek kabi musiqa sohasida mashxur bo’lgan san’atkorlar qalamga olinadi.

Ulug’bek vafotidan so’ng san’atdagi rivojlanish davri Hirotga ko’chdi. Buning bivosita rahbarligada ulug’ bobomiz Alisher Navoiy turdi,

podshoh va shoir Xusayn Boyqaro xomiylik qildi. Navoiy butun Movrounnahr, Xuroson san’at va adabiyot ahlining sarboni bo’lib yangi taraqqiyot pog’onasiga olib chiqdi. SHu davr ichida o’zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho’qqiga ko’tarildi. Yangi kuylar, qo’shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi.

O’tmishda nota yozuvi bo’lmaganligi sababli og’izdan-og’izga o’tib kelgan mavjud xalq mumtoz kuy va qo’shiqlari endilikda notaga olingan bo’lib, bu xayrli ishni V.A.Uspenskiy, Ye.E.Ramonovskaya, I.Akbarov, M.Yusupov, akademik Yu.Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada ayniqsa ustoz Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdir. Natijada “ O’zbek xalq musiqasi”, “SHashmaqom”, “Xorazm maqomlari” singari ko’plab musiqiy to’plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma’naviy boyligiga aylandi.

O’lkamizda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo’lmish xofizlik azaldan muqaddas sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz bo’lmish “Qur’on” oyatlarni dilga jo qilib uning zebu-zabarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni “Hofizi Qur’on” deb yuritganlar.

“Hofiz” arabcha so’z bo’lib, “yodda saqlamoq” ma’ngosini anglatadi. Hofiz-ollohning 99 ismlaridan biri deb ham ta’riflanadi. Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan ham badiiy she’riyatdan habardor bo’lganlar. SHuning uchun ham ular ijro etgan qo’shiqlar nihoyat ta’sirchan bo’lib, tinglovchilarni o’ziga

rom eta olgan. Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma'noga ega bo'lgan g'azallarni kuyga solib, ijro etgan qo'shiqlari uchun "Hofiz" degan nomga musharraf bo'lishlari ham qandaydir ramziy ma'no kasb etishi tabiiydir.

O'zbek xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimda turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo'shiqchi, yallachi, katta vashutslachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug'anniy, mutrib, yirovchi, go'yanda, singarilar.

O'tmishda hofizlarimiz "SHkami" yo'lida ijro etganlar. Bu yo'ldja ijro etish g'oyat murakkab bo'lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan. Bizning davrimizga kelib xam bu hayrli ishlar davom etmoqda. Mashxur xofiz va bastakor Fattohxon Mamadalev "Nasrulloiy" musiqa yo'llariga so'z solib uning talqinchasini, uforisini, soqiynomasini yaratdi.

SHu o'rinda aytish lozimki qo'shiqchilik san'atimiz rivojga o'zbek bastakorlari va sozandalari o'zlarinig o'lkan xissalarini qo'shib kelmoqdalar. Yu. Rajabiy, T. Jalilov, I. Ikromov, S. Kalonov, K. Jabborov, Fahriddin Sodiqov, A. Ismoilovlar singari 100lab bastakorlar yaratgan qo'shiqlar va kuylar xalq mulkiga aylanib qoldi.

#### **4.3. An'anaviy qo'shiqchilik san'atida xalq hofizlarining tutgan o'rni.**

XX asrning ikkinchi yarimiga kelib an'anaviy qo'shiqchiligimiz guldastasi navbatdagi avlod quliga o'tdi. Orif xoji Alimahsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Xotamov, Fattohon Mamadaliev, Tavvakkal Qodirov, Faxriddin Umarov, Ro'zimat Jumaniyozov, Ne'matjon Qulabdullaev, Otajon Xudoyshukrov, Bobomurod Hamdamov, Tojiddin Murodov, Kamolliddin Rahimov singari mashhu hofizlar shular jumlasidandir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan respublika vohalar yosh xonandalari ko'rik tanlovlari, "SHarq taronalari" xalqaro musiqiy anjumanida hofiz va xonandalarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlari "O'zbekiston -vatanim manim!" respublika qo'shiqlar ko'rik tanlovlarini an'anaviy tarzda o'tkazilishi qo'shiqchilik san'atimizning kelajak avlod quliga topshirishda ko'pri bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ustozlar an'ansini davom ettirishib, qator san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan xolda o'zlariga xos ijro yo'llari va uslublar bilan qo'shiqchilik xazinasiga sezilarli hissa qo'shmoqdalar. (ILOVA) Yurtimizda musiqa san'ati qadimdan rivojlangan. Urgut tumanidagi Mo'minobod qishlog'idan 3ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay topilgani, ko'xna Afrosiyob devoriy suratlardagi mashshoq Mug'aniylar tasviri ulug' alommalarimizning musiqaga oid falsafiy-estetik qarashlari xalqimizning qadimda ham musiqiy salohiyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolatdir.

#### **4.Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida 2020-yilning 5—10-sentabr kunlari II Xalqaro maqom san'ati anjumani**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 1-noyabrda imzolangan «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarorining kirish qismida «Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi», deya keltiriladi. Epik an'analar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, ammo ular O'zbekistonda hozirga qadar musiqiy va shoirona ko'rinishda saqlanib qolgan va rivoj topmoqda. Va bu o'zida biryo'la dostonchi, shoir, sozanda, xonanda va aktyorlikni mujassam etgan baxshi-shoir (*dostonchilar, jirov, baksi, yuzboshi, sannovchilar*) – xalq dostonchiligi san'ati bilan bog'liq. Baxshilardan ulkan so'z boyligi, jonli xalq tilining istalgan shaklidan mohorat bilan foydalanish, so'z o'yinlari va musiqiy bezaklar majmuidan boxabar bo'lish talab etiladi. Negaki, dostonlar faqat og'zaki ijro uchun mo'ljallanmagan. Ularda o'z musiqiy asoslari bilan farq qiluvchi 5 dan 36 tagacha ohang mavjud. Ohanglar qisqa va takroriy tuzilmaga ega. Ohanglar so'zlab, kuylash tavsifiga ega. Do'mbira, dutor yoki qo'bizda o'zi chalib ijro etiladigan termalar asosiy musiqiy-she'riy janr hisoblanadi.

So'zsiz, O'zbekistonda Xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkazilayotgani tasodifan emas. Mamlakatimizda o'ziga xos baxshichilik, dostonchilik maktabi yaratilgan bo'lib, u ustoz-shogird an'alariga asoslanadi. O'zbek xalq musiqiy san'atida dostonchilik to'rt: Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlariga bo'linadi. Har bir mintaqaning o'z baxshi-shoirilari, epik san'at yaratuvchilari va ularni saqlovchilari bor. Ularning ko'plari repertuaridan 20 tadan 100 tagacha doston ijrosi o'rin olgan. XX asr dostonchilariga – Po'lkan shoir (76 doston), Qodir baxshi (72), Fozil Yo'ldosh o'g'li (60), Ergash Jumanbulbul o'g'li (50), Mardonqul Avliyoqul o'g'li (43), Bola baxshi Abdullayev (20 tadan oshiq), Yusuf O'tagan o'g'li (31)larni misol keltirish mumkin.

O'zbek baxshichilik san'ati hozirga qadar mashhur hisoblanadi. Ular faoliyati ham davlatimiz tomonidan yuksak baholanadi. Ularga yuksak «O'zbekiston xalq baxshisi» unvoni ham beriladi. Boshqa biror mamlakatda bu kabi maqom uchramaydi. Bola baxshi Abdullayev va uning o'g'illari – Norbek va Yetmishboy, Qalandar baxshi Normatov, Shomurot Tog'ayev, Abduqahhor Rahimov, Ziyodulla Islomov, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Qora baxshi Umirov, Jumaboy jirovlar ham xalq orasida katta hurmat-e'tibor qozongan.

Katta avlod an'alarini yosh avlod davom ettiradi. Xususan, Feruz Normatov va Jonibek Piyazovlar «Nihol» mukofoti sovrindorlariga aylanishdi.

Ko'pgina taniqli baxshilar haqida «Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram» to'plamida batafsil ma'lumot keltirilgan. Uning tuzuvchisi - O'ktam Hakimov. Nashrga taniqli dostonchilar ijrosidagi epik dostonlar yozilgan disk ham ilova qilinadi.

**Andrey Slonim,**

**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri postanovkachi-rejissyori.**

– Birinchi Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazilishi muhimligini baholashning imkoni yo‘q. Tarixi juda qadim-qadimga borib taqaladigan xalq dostonchilik madaniyati, milliy ijodkorligi ma‘naviy dunyomizni ham boyitadi.

Baxshilar ijodi – mohiyatan bu ko‘hna dunyoni maftun etgan, had-hududsiz ma‘naviy kengliklar va o‘lkada yashagan odamlarning boshqa eng oliy sifatlari, insonning atrofini o‘rab turgan chek-chegarasiz, ulkan olam bilan uyg‘unlashuvi haqidagi g‘aroyib dostonlardir. Shu bois bo‘lsa kerak, har safar ularni tinglaganda o‘zimizni yaxlit bepoyon olamning bir zarrasiday his etamiz, ko‘p asrlik yuksak ma‘naviyat an‘analarining ishtirokchisiga aylanamiz. O‘zim opera rejissyori sifatida ular dramaturgiyasining juda faol ichki harakatlar bilan to‘yintirilgani juda qimmatli, deb bilaman. Ular tavsifiy va inson ruhiyatini bor butunligicha ochib beradi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan bunday ko‘lamdagi festival – chinakam xalq bayramidir. U yer yuzida ijodkor ajdodlarining o‘ziga jalb qiluvchi qo‘shiqlarida mujassam bo‘lgan vasiyatini ko‘z qorachig‘idan ardoqlaydigan, e‘zozlaydigan mamlakatlar ozligi bilan ham o‘ta g‘aroyibdir.

**Abzal Rafiqov,**

**O‘zbekiston xalq artisti, Akademik rus drama teatri artisti:**

– Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalining aynan Termizda o‘tkazilishini eshitish, favqulodda quvonarli bo‘ldi. Ushbu tadbirning qadimdan ana shu xalq ijodi rivoj topgan Surxondaryoda, xorijiy mehmonlar ishtirokida o‘tkazilayotgani ham o‘ziga xos chuqur ma‘noga ega. Baxshilarning dostonlari – unutmazligimiz kerak bo‘lgan tariximiz va madaniyatimizning ajralmas qismidir. Zero, asarlarga jo bo‘lgan qadriyatlarimiz asrlar osha avlodda avlodga o‘tib keladi.

Texnologiyalar, texnik taraqqiyot jadal ilgarilab ketgan, bosma va elektron axborotni istalgan manbadan olish mumkin bo‘lgan hozirgi zamonda xalq ijodida o‘z aksini topgan tarixiy xotiralarini saqlab qolish, ayniqsa, muhim.

Masalan, bugun ham zamondoshlarimiz uchun ilhom manbai bo‘lgan, uning asosida pesalar yozilgan, spektakllar qo‘yilgan mashhur «Alpomish» dostonini olaylik. Dostonda hech qanday sinovlardan qo‘rqmaydigan mard va jasur qahramon aks etadi. Undagi jonajon yurtga, oilaga bo‘lgan muhabbat juda muhim ahamiyatga ega. Ana shu madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni tarqatishda baxshilarning roli juda muhim va bunga baho berish juda mushkul ish.

Bugun xalq ijodiyotining ana shu turiga e‘tibor qaratilganining o‘zi g‘oyat muhim hodisadir. Yaqinda Termiz shahrida bo‘lib o‘tadigan Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali uning kelgusida yanada ravnaq topishidagi ilk tayanch bo‘ladi, albatta. Festival nafaqat madaniy merosni saqlab qolish uchun, balki uni rivojlantirib, keng yoyish, u haqda kelgusi avlodlarga so‘zlab berish maqsadida ham o‘tkazilmoqda.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. O‘zbek san’ati tarixiga xissa qo‘shgan allomalardan kimlarni bilasiz?
2. San’atkor Yusufjon qiziq SHakarjonov musiqa merosimizga qanday ta’rif bergan?
3. “Hofiz” so‘zining ma’nosi nima?
4. Mustaqilligimiz sharofati bilan qanday ko‘rik tanlovlar o‘tkazilmoqda?
5. SHarq xalqlarining musiqiy merosi nomlarini bilasizmi?
6. Raga qaysi xalq musiqiy merosi?
7. SHarq xalqlari musiqiy merosi nima deb nomlanadi?
8. SHashmaqom qaysi xalqlarning musiqiy merosi xisoblanadi?
9. Xalq musiqasining ijodkori kim?
10. Xalq qo‘shiqlarining ijodkori kim?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I. A.Karimov “Yuksak ma’navitya va yengilmas kuch” –T. SHarq 2008 y.
2. “Barkamol avlod”-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.Prezident I.A.Karimov. 1997yil 29 avgust.
- 3.”Yoshlar yili” davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PK-805 sonli qarori.
- 4.Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi “ Ta’lim taraqqiyoti” - T. “SHarq” – 1999y.
- 5.R.Qodirov “Musiqqa pedagogikasi” – Tosh.”Musiqqa”.
6. Tolipov U.K. Usanboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari”. Toshkent “fan”.2009 y.

## **5-MAVZU: “ROSSIYA, YEVIROPA VA SHARQ MAMLAKATLARIDA MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYASI TIZIMI”**

### **REJA**

1. SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o‘xshashligi
2. Rossiyada musiqa ta’limi tizimi
- 3 Estoniyada musiqa ta’limi
- 4.Litvada musiqa ta’limi
- 5.Polshada musiqa ta’limi
6. Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi
7. Turkman xalq mumtoz musiqasi
- 8.Eron xalq mumtoz musiqasi
- 9.Arab xalqlari mumtoz musiqasi
- 10.Xitoy xalq mumtoz musiqasi
- 11.Uyg’ur xalq mumtoz musiqasi
- 12.Hind xalq mumtoz musiqasi
- 13.Yaponiyada musiqa ta’limi tizimi

**5.1. SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o‘xshashligi** Ma’lumki, jahon xalqlari azaldan bir-birlari bilan siyosiy,

ijtimoiy, savdo- sotiq va madaniy aloqada bo‘lib kelgan. Har bir xalqning go‘zal, mukammal va arziguli an‘anasi odati boshqa xalqlar ananalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Buni biz hozirgi davrimizdagi yoshlarimiz orasida g‘arb estrada uslubidagi musiqa janrlarining

ommalashgani bilan solishtirsak to‘g‘ri bo‘ladi. Demak, o‘tmishdan xalqlarning turli hayotiy tizimlarida boshqa xalq an‘analariga o‘xshagan jarayon muqarrar ekan. Biz shu omiini kasbiy musiqa san’ati tizimida tasavvur qilishiga harakat qilamiz. Odatda, musiqiy asarning « nomi », «shakli», «tovush- Qatori», «matni» boladi.

Asrlar davomida xalqlarning o‘zaro munosabatlarida esa nomlanishlar (iboralar). Asarlarning tuzilish shakllari, so‘z ko‘p

tuzilishlari, musiqiy cholg‘ularda qiyosiy o‘xshatmalar bo‘lgan.

Maqomlarning nomlanishida umuman olganda, bu tizim maqomot deiladi. Ammo, Ozarbayjonda niug‘om. o‘zbek- tojik xalqlarida maqom deb yuritiladi. Ayrim xalqiarda o‘zgacha (hindlarda raga; mag‘rib. arablarda nuba) nomlanadigan bu musiqa turi kasbiy musiqaning eng yirik shaklidir. SHarq xalqlarining musiqiy cholg‘ularida ham juda ko‘p o‘xshashliklar mavjud.

Jumladan, rubob sozi o‘tmishda SHarq xalqlarida «rebaba». «rabab» nomlari bilan keng ommalashgan. Tanbur sozi ham hindlarda — tamera, arablarda tambura, uyg‘urlarda - tombur deb vuritilib

kelinadi. Urma cholg‘ular ko‘pgina SHarq xalqlarida daf, daff, dapp, def degan nomlarda uchragani kabi, damli sozlar ham “nay”, “nev”, “ney”, “noy”, “surnay”

esa “zurna”, “suma” nomi deb qo‘llaniladi. Ushbu jarayon nafaqat ularning nomlarida, balki cholg‘u sozlarida ham yaqqol ko‘rinib turadi. SHuni alohida ta‘kidlashi lozimki, bular SHarq xalqlarining turmush tarzi. e‘tqodi. mashg‘uloti birligidan kelib chiqqan. SHu bois, SHarq xalqlari an‘analarining ko‘p jihatlarida biz turli o‘xshashliklar borligining guvohi bomamiz.

## 5.2 Rossiyada musiqa ta‘limi tizimi



Rossiyada musiqa pedagogikasi katta muvaffaqiyatlarga erishdi va jahon musiqa jamoatchiligining hurmat - e‘tiboriga sazovor bo‘ldi.

SHu jumladan, taniqli kompozitor, pedagog, musiqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyasiga katta hissa qo‘shdi.

D.B.Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o‘rin tutadi. Uning fikricha darsning tarkibiy mushtarakligi mashg‘ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o‘rin ajratilgan. Ta‘kidlash lozimki, bolalar bilim egallashida "xususiylikdan umumiylikka" formulasi "umumiylikdan xususiylikka" qoidasi bilan almashtirilgan.

Umuman D.B.Kabalevskiyning ishlab chiqqan musiqiy o‘qitish tizimi, musiqiy asarlar orqali hamma bilim va malakalarni bolalarga taqdim etish asosida tuzilgan. SHu bilan birga pedagogikaning muammoli o‘qitish tizimi Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo‘lib qolgan. Ya‘ni bolalar o‘zlari fikr yuritib muhokama qilib, o‘qituvchining rahbarligida ma‘lum bir bilim va malakalarga ega bo‘lishligi nazarda tutiladi.

## 5.3 Estoniyada musiqa ta‘limi

Estoniya musiqa hayotida qo‘shiq bayramlarini o‘tkazish katta voqeadir. Bu bayramlarni o‘tkazishdan oldin har bir tumanda qo‘shiq kunlari o‘tadi. Birinchi ommaviy qo‘shiq bayrami 1869-yili Tartu shahrida o‘tkazilgan. Bunda hamma voxalardan erkaqlar xor jamoalari (sakkiz yuz kishidan iborat) ommaviy ravishda qatnashish uchun to‘planadilar.

Ushbu bayram bugungi kunga etib kelgan an‘analarga asos soldi. Bolalar xor jamoalari 1870-yildan boshlab (doimiy ravishda bo‘lmasa ham) qo‘shiq bayramida ishtirok etmoqdalar. Qo‘shiq bayrami birinchi kundan boshlab, aholining hamma qatlamarini san‘atga jalb etishga asoslangan edi.

1947-yildagi umumrespublika qo‘shiq bayrami 25000dan oshiq qatnashchilarni yig‘ini va umumxalq ommaviy bayramiga aylandi. 1947-yildan boshlab maktab xor jamoalari ham hamma qo‘shiq bayramlarida ishtirok eta



boshlaydilar. Dastlab, bayramlarda maktab bolalar xor jamoalari, aralash va ayollar xor jamoalari shunidek, damli cholg'ular jamoalari ishtirok etdilar. 1960-yildan boshlab o'g'il bolalar xor jamoalari ham ishtirok eta boshlaydilar. V.Laul boshchiligidagi o'g'il bolalar qo'shma xorini alohida ko'rsatish lozim.

1965 yili, birinchi marta respublika yosh skripkachilar ansambli ishtirok etib, qo'shiq bayramini an'analariga yangilik kiritdi. Maktab xor jamoalari qatnashchilarining soni oshib borayotganligi, shu munosabat bilan qo'shiq bayramlarini tashkil etishda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olib, umumrespublika qo'shiqlar bayrami orasida maktab o'quvchilari xor jamoalarining ko'riklarini o'tkazishga qaror qilindi. Birinchi shunday bayram 1962 yilning yozida Tallin shahrida o'tkazildi. Qatnashchilarning umumiy soni 20000ga yaqin edi. Xor ishida eng muhim va qiziqarli shakllardan biri 1963-yildan boshlab o'tkazilayotgan yozgi qo'shiq oromgohlaridir.

Ikki soatlik qo'shiq mashg'ulotlari bolalarning kashfiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, sport va boshqa o'yinlar esa kunning qolgan vaqtini to'ldiradi. Estoniyadagi qo'shiqlar bayramiga tayyorgarlik jarayonida seminar va yozgi yig'ilishlar o'tkaziladi. Seminarning alohida shakli-dirijyorlarning respublika qo'shma xori bo'lib uning tarkibiga 200dan ortiq musiqa o'qituvchilari va xor dirijyorlari kiradi.

Bu xor jamoasini respublikaning eng yaxshi dirijyorlari, shu qatorda Gustav Emesaks, Yuriy Variste edi. Ularning xorni boshqarishi mamlakat xormeystrlarining malakasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar va yoshlarning musiqa madaniyatini rivojlanishiga maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega.

1951 yili Yu.Variste rahbarligi ostida Tallindagi usmirlar saroyi qoshida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib bu jamoa xor maktabiga aylanib, hamma sinf o'quvchilarini qamrab olgan. Xor jamoasi bitta asosiy va uchta tayyorlov xor jamoalaridan iborat. 1964-yildan boshlab xor maktabi o'quvchilari nota o'qishning yangi "Yo-LE-MI" tizimiga o'tdi, yangi repertuari muvaffaqiyat bilan egallab, notani juda yaxshi o'qib, musiqa ohanglarini to'g'ri kuylamoq.

1964 yili respublikada bolalar musiqa maktablari o'quvchilaridan iborat yosh skripkachilar ansambli tashkil etildi.

Orkestr repertuarini bolalar o'zining turar joylarida o'rganadilar va har yili 3-4 marta kontsertlar uchun repetitsiyaga yig'iladilar. Orkestr qatnashchilarining yoshi 7 dan 17 gachadir, ya'ni o'qishni boshlayotgan va uni tugatayotgan o'quvchilar bir jamoaga birlashgan. Orkestr kontsertlari doimo muvaffaqiyat bilan o'tmokda.

O'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa-xor tarbiyasi berish ishiga respublikadagi eng yaxshi bolalar xor jamoalaridan biri "Ellerxeyne"ning rahbari



X.Kalyustening hissasi kattadir. Bu jamoadagi ijrochilik madaniyatining yuqori saviyada ekanligi - bolalar bilan yaxshi tashkil etilgan ishning bevosita natijasidir.

#### **5.4. Litvada musiqa ta'limi**

XX asrning ikkinchi yarmida bolalarga beriladigan musiqiy tarbiya sohasida o'zgarishlar ro'y berdi. 1966-yil umumiy ta'lim maktabi isloh qilindi. Bolalar musiqiy tarbiya uslubiyoti uning qoidalari va mazmunidagi o'zgarishlar musiqa sohasida yangi o'quv qo'llanmalarini vujudga kelishi natijada respublikada musiqiy tarbiya saviyasini oshirishga sabab bo'ldi.

Musiqa bo'yicha eski dasturlarda bolalarning musiqiy tarbiyasida, tor va keng ma'noda, ayrim cheklanishlar bor edi. Masalan umumta'lim maktablari dasturlaridan musiqa nazariyasi asosiy o'rin olgan edi, musiqani tinglash, bolalarga musiqiy cholg'ularda kuy ijro etish o'rgatilmagan edi. Darslarning mazmuni va uslubiyoti ko'p hollarda kasbiy musiqa ta'lim yo'nalishlarini to'g'ridan - to'g'ri qaytarar edi. Jahon musiqa tarbiyasi va ta'lim tizimlarini diqqat bilan o'rganib chiqqan litvalik mutaxassislar barcha tizimlarda ta'limning ma'lum bir shakliga (Z.Koday tizimida-solfedjio uslubida kuylash qo'shiq, K. Orfda-bolalar cholg'ularida kuy ijro etish. Kabalevskiyda musiqani eshitish va u haqida so'zlashish) diqqat-e'tibor berilgan, degan xulosaga keldilar. SHuning

uchun ular " musiqiy tarbiya tizimi bir-biri bilan mazmuni va uslubi orqali mahkam birlashgan faoliyat turlarining izchilligiga asoslanishi kerak"- degan farazni ilgari surdilar.

SHunday qilib, Litvadagi musiqa darslari quyidagi bo'g'inlarga ajratila boshlandi: musiqani eshitish, musiqa o'quvi asosida kuylash, solfedjio usulida kuylash, ritmik tarbiyasi, musiqa cholg'ularida ijro etish. Undagi bo'g'inlar musiqiy tarbiya va ta'limda yagona bir tizimni tashkil etdi va ayni paytda har bir bo'g'in o'zining maqsadiga ega bo'ldi.

Musiqani eshitish - darsning kerakli qismi hisoblanadi. Musiqani tinglash orqali bolalar o'qib, bilim oladilar, kompozitorlar ijodi bilan tuyg'ulari va salohiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning ma'naviy kamolotiga turtki bo'ladi. Musiqa bilan shug'ullanish bolalarning badiiy bilim darajasini kengaytiradi, ularning dunyoni tasavvur qilishlariga yordam beradi. SHaxsga beriladigan estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan xor qo'shiqchiligini buyuk mazmuni ana shundadir.

#### **5.5.Polshada musiqa ta'limi**

Polyak pedagoglari, bolalarning musiqali salohiyatini ijodiy tafakkurini kuchaytiradigan ijodiy amaliyotga alohida e'tibor beradilar.

Bolalar ijodiy amaliyotining eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari quyidagilar:

1. O'zi yaratgan yoki berilgan kuy asosida erkin badiha etish;
2. Musiqa qonunlariga buysunadigan hamda ongning nazoratini talab qiladigan badiha.

Polyak pedagoglari bolalarga beradigan topshiriqlarning turli variantlaridan keng foydalanadilar: ma'lum ritmdagi badiha (masalan, maqol va matallarning turli vaznlar asosida) yoki poliritmiya, polimetriya uslublarida kuylash, kuyni berilgan usulga yoki polyak xalq raqslari usullariga moslashtirish, ma'lum (masalan, rondo, variyasiya, uch qismli) kompozitsion shaklda badiha, she'r va hikoyalarga bag'ishlab musiqa bastalash. Polyak maktablarida Jak-Dalkroz asos solgan musiqa sadolari ostida ritmik mashqlar keng qo'llanilmoqda. Tajriba maktablarining 1-4

sinflarida musiqiy-jismoniy mashqlarning quyidagi shakllari bajariladi:

1 - mashqlar va ritmik o'yinlar bo'lib, ularda muayyan vazifalar rejalashtiriladi, masalan,

musiqa sur'ati, dinamikasi, ritmikasi o'zgarishiga bolalarning sezgirligini oshirish;

2 - usul va jismoniy harakatlardan iborat musiqa shakllari (uch qismli, variyasiya vaboshqa)ni yaratish;

3 - tinglagan musiqa asarlariga izoh berish;

4 - ashula va raqs o'yinlari.

Barcha sinflarda bir necha daqiqalar davomida musiqani eshitish, joriy etilgan Sakkiz yillik maktablar uchun fonotekalar tuzilib unga maxsus ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ilova qilingan. Mazkur qo'llanmalarda turli yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurni rivojlantirish, diqqat va xotirani faollashtirish usullari tariflanadi, yozib olingan musiqa asarlarining tahlili beriladi, kompozitor va ijrochilar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Musiqani tinglash jarayoni boshlang'ich sinflarda polyak tili dasturidagi muayyan musiqa mavzusiga, yuqori sinflarda esa tarix, geografiya, badiiy va fuqorolik tarbiyasi fanlari bilan bog'liq bo'ladi.

Polyak maktablari musiqiy tarbiya darslarida musiqa bilan tasviriy san'atlarning uyg'unlashuviga e'tibor beriladi. SHu maqsadda darslarda musiqa va tasviriy san'atning uyg'unlashgan shakllari, shu jumladan, audiovisual jihozlari yordamida kino, televidenie kabi turlari qo'llaniladi.

Xor qo'shiqchiligi bolalarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, qo'shiq orqali tashki olamni idrok etish, dunyo haqidagi bilimlarni egallash va boyitishning manbalaridan biri, insonparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta'riflanadi. Xor jamoasida qo'shiq aytish zamonaviy inson uchun zaruriyat hisoblanadi.

Evropa, Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya shakl va tizimlarini tahlil qilib, ham ijobiy, ham salbiy tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ijobiy tomonlardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: musiqa materialining asosi sifatida xalq musiqasidan keng foydalanish; musiqa o'quvi, ritm, xotirani rivojlantirish, musiqa savodxonligini oshirish yuzasidan ommabop usullarni

tadbiq etish, musiqa o'qituvchilarining pedagogik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, o'qituvchilar musiqiy tayyorgarligining maqsadga muvofiq usullarini kidirib topish, ta'limda texnik vositalaridan keng miqyosdan foydalanish.

Xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumta'lim maktablarda yagona o'quv rejalari va dasturlarining yo'qligida namoyon bo'lmoqda.

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo'lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan musiqiy tarbiyaning umumiy tomonlarini ham ko'rsatish mumkinki — uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil qilish kerak.

Bolalar musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko'riklarini o'tkazish va boshqa chora- tadbirlar bolalar musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, ISME dan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Yevropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va mukammallashuvi uchun zarur bo'lgan ilg'or uslubiyotning egallashda muhim o'rin tutadi.

## **5.6. Turk va Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi**



Zamonaviy turk estrada musiqasi o'zining milliy tarovati. SHarqona o'ynoqiligi bilan jahonga mashhurdir.

Ozarbayjon xalqi turk xalqlar avlodiga mansub bo'lib, o'zining uzoq o'tmishiga va milliy qadriyatlariga ega. Ozarbayjon xalqining ijtimoiy hayoti negizida janrlarga boy bo'lgan an'anaviy madaniy merosi to'plangan.

Liar asosan, turmush tarzi

qo'shiqlaridan iboratdir.

Tasnillar ozarbayjon xalqining usulda ijro etiladigan ko'plab tizimdagi qo'shiqlari bo'lsa, mug'omlar erkin ijroga asoslangan badiha uslubiga xos bo'lgan yirik mumtoz janrdir.

Ozarbayjon xalqi musiqiy cholg'ularga ham boy. Xalq orasida tutek, tulup-zurna, balabon, duduk, kemoncha, soz, tor, daff, gabal, nog'ora, bala-nog'ora yoki dumbul kabi milliy musiqiy cholg'ulari keng ommalashgan.

## 5.7. Turkman xalq mumtoz musiqasi

Barcha xalqlar singari turkmanlarda ham xalq musiqasi, uning sodda va mumtoz nomlari mavjud. Turkman xalq musiqasida, asosan, mehnat, marosim, maishiy, epik va mumtoz namunalar o'z aksini topgan. Xalq orasida keng ommalashgan musiqiy namunalardan «Hu\ di» (alia), «Yagish yagara keldi» (bolalar qo'shig'i), «Yar-yar» kabi bir qator asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Turkman mumtoz musiqasining asosiy janrlari: dostonlar, badiiy adabiyot namunalariga asoslangan ashulalardir. Turkman xalq ashula va qo'shiqlarining o'ziga xos tornoni shundaki, ular ko'proq deklamatsion, ya'ni so'zlashuv xarakterida ijro etiladi. Turkman xalqi epik janr ijrochilarini «baxshi» deb ataydilar. Turkmanlarning eng qadimiy dostoni bu «og'iznoma»dir. Bundan tashqari, ularning merosidan «Go'ro'g'li», «Oshiq G'arib va SHohsanam», «Asl va Karim» kabi dostonlar ham joy olgan.

Turkman musiqasidagi \_\_\_\_\_ asosiy cholg'u sozlari:  
g'ijjak, dutor,  
tuyduk, dilli tuyduk va qo'bizlardir. Turkman xalqi o'zining o'tmishda yashab ijod qilgan buyuk allomalari bilan faxrlanadi.

Ular orasida turkman xalq shoiri Maxtumqulining adabiy merosiga ko'pchilik xonandalar murojaat qiladilar. SHu bois, mumtoz musiqa merosida Maxtumquli so'zlari bilan aytiladigan juda ko'p musiqiy namunalar mavjud. Maxtumquli XVI asrda (1730-1782) yashab, juda katta meros qoldirgan buyuk shoirdir. Uning merosi nafaqat turkmanlar, balki boshqa xalqlar orasida ham keng ommalashgan.

## 5.8. Eron xalq mumtoz musiqasi O'zbek-tojik maqomlariga



o'xshash bo'lgan Eron kasbiv musiqasining asosiy janri «dastgoh» deb ataladi. Eronda 7 ta dastgoh turkumi mavjud: Sluir, Mohur, Humoyun, Segoli, CHorgoh, Navo, Rost- Panjgoh. Har bir dastgoh, o'z navbatida, Muqaddima,

Daroma, Qarashma, Gusha, Bayoti  
Ovoz, CHahor, Muzrib,

Turk. Abu Ato kabi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Eronda soz, tanbur, santur, nay, surnay, Ud, Dovra, chang kabi milliy cholg'u asboblardan keng foydalaniladi.



## 5.9 Arab xalqlari mumtoz musiqasi

Halqlari ko'hna va boy musiqa an'alariga ega. Bu mintaqada jozibador va o'ziiga xos tarovati bilan farqlanuvchi samoniy, taqasim, bashraf muvanshoh, mawal, dar, kuba, ma'ruf kabi aytim janrlari hamda taxlima, samoniy, taqasim, bashraf singari cholg'ular keng tarqalgan.

Qadimda asli Markaziy Osiyoda ixtiro qilingan "al-ud" barasida arab xalqlarining milliy cholg'u asbobi hisoblanadi. SHuningdek damli cholg'u turiaridan nay sumay, arg'ul; torli cholg'ulardan qonun, santur, rubob, tanbur; zarbli cholg'u asboblardan - nog'ora, daff, tabla arablarda keng qo'llaniladi. Diniy marosim janrlari tavjid, madh, zikr, ramazon qo'shiqlari arab musiqasida azaldan shakllanib kelgan. Arab musiqasining mashhur namoyandalari Uim Kulsim va Said Darveshning nomlari jahonga mashhurdir.

## 5.10. Xitoy xalq mumtoz musiqasi



Xe Lu-Tin va boshqalar ijodida taraqqiy etmoqda. Xitoy qadimiy va boy madaniy an'analarga ega mamlakatdir. Xitoy musiqasi, ayniqsa, xalq qo'shiqchiligi qadim zamonlardan pentatonika tovushqatorlariga asoslanadi.

Tan sulolasi davrida xitoy musiqasining asosiy pardalari va tovush-tizimi asosida shakllanadi. XII

asrlarda an'anaviy xitoy operasi rivojlanadi. XIX asrda bu janrning 300 dan ortiq shakllari yuzaga keladi. Asliula, rehitativ raqs va cholg'u musiqasiga asoslangan xitoy operasining mumtoz namunasi sifatida Pekin musiqa teatri Sitszuy keng rivojlangan. Zamonaviy xitoy musiqasi mashhur kompozitorlari Si Sin-Xay, Ne Er, CHjan SHu, Xuan Sen

## 5.11. Uyg'ur xalq mumtoz musiqasi

Uyg'ur kasbiy musiqasi uchta katta hududga ajratiladi. Bulan Qashqar, Kumul (markazi Turfon) va Ili vodiysi (markazi G'ulja). Kasbiy musiqada Hi vohasining musiqa san'ati yetakchi hisoblanadi.

Uyg'ur musiqasining kasbiy tizimiga kiruvchi janrlar: maqom va muqom tizimiga kiruvchi turkumiy janrlar doston, naxsho va sanam. Uyg'urlarning yetakchi milliy cholg'u sozlari: tanbur, dutor, safoil qashqar rubobi. g'ijjak. nog'ora va surnay. Odatda. musiqa ijrochilari xalq orasida muqomchi, dostonchi, naxshichi, sanamchi,

mashrapchi, usulchi, aytimechi va cholg'uchi kabi iboralar bilan nomlanadi. Uyg'ur musiqasi o'ziga xos jozibali va serqochirimdir.

### 5.12.Hind xalq mumtoz musiqasi

Hind xalq musiqasi janrlari juda boy va xilma-xildir. Bunda

turli xil folklor janrlari bilan birgalikda jahonga mashlmr bo'lgan

mumtoz janr «Raga» larni ham alohida ta'kidlash lozim.

Ma'lumki hind ragalari o'z o'rnida o'zbek-tojik «SHashmaqom»i singari mukammal shakl va falsafiy mavqeidagi janr sanaladi. Hind musiqiy cholg'ulari ham ancha rang-barang. Hind mumtoz musiqasini dunyoga tanitishda Avan Akbar Xon, Xariprost va Yu. V. Narayaposvali kabi mohir ijrochilarning hissalari katta.

### 5.13.Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi

Hozirgi kunda Yaponiya

maktab va oliy o'quv

yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti o'z aksini topgan.

Barcha darsxonalar yangi zamonaviy texnika asboblari bilan jihozlangan.

Bolalar bog'chasida «Sudzuki» tizimi mashhurdir. Yapon pedagogi *Sudzukining* metodi juda yaxshi natijalarni bermoqda. Uning tizimida ona tilini



o'qitilishi, musiqa tinglab idrok etishi bilan amalga oshiriladi. Bolalar cholg'u asboblarda kuy chalishlari muhim rol o'ynaydi.

Sudzuki musiqani eshitish – bolaning musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi muhim vosita deb ta'riflaydi. Bola, iloji boricha, o'zi ijro etadigan musiqani ko'proq eshitishi ham lozim. Bunda, garchand, musiqa mutaxassisi bo'lmasa ham, onaning roliga So'zduki alohida e'tibor beradi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi.

Onalar mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladilar va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadilar. Sudzukining ta'birida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas. Oilada gramyozuv, televidenie, kontsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog'cha va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Televidenie, grammplastinka va magnitofon yozuvlaridan foydalanib, Sudzuki,

bolakaylarni ham bevosita, ham «sirtqi» tarzda o'qitmokda. Ta'limning an'anaviy usulidan farqli ularoq ushbu uslub bolaga ona tilini o'rgatish jarayoniga o'xshab ketadi.

O'quvchilarning bilimlarini baholash uchun har bir trimestrda ikki marta barcha mavzular bo'yicha yalpi so'rov o'tkaziladi.

Yaponiyadagi qariyb har bir maktabda xor jamoasi bo'lib, unda haftada ikki marta mashg'ulot o'tkaziladi. Xor jamoasi bilan musiqa o'qituvchisi ish olib boradi. Yaponiyaning musiqali hayoti yosh skripkachilarining qo'shma orkestrlari chiqishlari bilan o'zgacha ko'rinishga egadir. 1948 yili Yaponiyada xor dirijyori va jamoat arbobi Akiko Seki tashabbusi bilan «Yaponiyaning kuylovchi ovozlari» xor jamoasi tuzilib, u xor qo'shiqchiligining barcha havaskorlarini birlashtiradi.

Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo'lib unga musiqa, tasviriy san'at va mehnat o'zviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida
- b) 6-14 yoshgacha to'liqsiz o'rta maktab
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi

Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda o'qigan talabalar rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va musiqa san'ati tanqidchilari kasblarini egallab chiqadilar.

O'qituvchi-kadrlar tayyorlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliygoxlarida tayyorlanadi. O'qituvchilar, shuningdek ona Vatanidan olgan bilimlariga qoniqmay, rivojlangan Yevropa mamlakatlarga o'qishga borib o'z bilim va malakalarini oshirib qaytadilar.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o'xshashligi
2. Daf, daff, dapp, def solg'ular qanday asbob hisoblanadi
3. "nay", "nev", "ney", "noy", "surnay" esa "zurna", "suma" nomi bilan mashg'ur cholg'ular
4. Rossiyada musiqa ta'limi tizimi
5. Estoniyada musiqa ta'limi
6. Litvada musiqa ta'limi
7. Polshada musiqa ta'limi
8. Turk va ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi
9. Turk musiqasi Markaziy Osiyo xalqlari musiqasi.
10. Zamonaviy turk estrada musiqasi

- 11.Ozarbayjon xalqi musiqiy cholg'ulari
- 12.Turkman xalq mumtoz musiqasi
- 13.Eron xalq mumtoz musiqasi
- 14.Eron musiqasining tarixiy ildizlari o'zbek, tojik va turkman xalqlari madaniyatining ko'hna sahifalari bilan chambarchas bog'liqligi
- 15.Arab xalqlari mumtoz musiqasi
- 16.Xitoy xalq mumtoz musiqasi
- 17.Uyg'ur xalq mumtoz musiqasi
- 18.Hind xalq mumtoz musiqasi
- 19.Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Apraksina.O.A. Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2119 «Музыка і реніе») - M.: Prosvexeniye, 1983-222s
- 3.Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадилов Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 с.
- 4 D.Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma.T.2009 O'zDK.
- 5.S.Begmatov, D.A.Karimova Q.MAmirov T.G'ofur G'ulom nashriyoti,2008 y



**6 –MAVZU: ESTRADA MUSIQASI. O‘ZBEK ESTRADA  
MUSIQASINING RIVOJLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI  
XOLATI  
REJA**

1. Estrada san'atining tarixi
2. Estrada san'at janrlari

### **6.1 Estrada san'atining tarixi**

"Estrada - bu kichkina shakllar san'ati, ochiq sahnada ajoyib musiqa ijrosi maydoni. Uning o'ziga xosligi, san'atkorlik ijodiy bireylilikning yorqin vahiyiga, ta'sirlangan mavzularning dolzarb, jiddiy ijtimoiy va siyosiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lishida, hazil, satira va jurnalistikaning ustunligida, badiiy va ifodalovchi vositalarda, ommaviy namoyish va qisqa muddatlardagi harakatlarning turli shartlariga oson moslashtiriladi.

Qadimgi Misr va qadimiy Gretsiyadagi san'atda turli sanat uzoq o'tmishda o'z ildizlariga ega. Musiqa, drama teatri, xoreografiya, adabiyot, kino, satirik, pantomima kabi boshqa san'at asarlari bilan yaqindan hamkorlik qilsa-da, u mustaqil va o'ziga xos san'at shaklidir.

O'rta asr san'ati san'ati san'ati, Germaniyada balagan teatrlari, Rossiyada kufir, Italiya maskalari teatri va boshqalar. qo'shiqchining tomoshabinlarga bevosita e'tirozi bo'lgan, keyinchalik bu tadbirda bevosita ishtirokchi bo'lishga imkon berdi. Raqamning qisqa davomiyligi (15-20 minutdan ko'p bo'lmagan) ekspresiv vositalar, lakonizm va dinamikaning eng yuqori darajada to'planishini talab qiladi. Pop raqamlari to'rt guruhga ajratilgan. Birinchi tur guruhida gapirish (yoki nutq) raqamlari bo'lishi kerak. Keyin musiqiy, plastik-xoreografik, aralash, "original" raqamlarni kiriting.

Estrada folklor bilan an'analari bilan kundalik hayot bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, ular qayta-qayta takrorlanmoqda, modernizatsiya qilinadi, "sedated". Ko'ngilochar ko'ngilxushlik sifatida estrada san'atining turli shakllari qo'llaniladi.

Musiqiy xilma-xillik turli janrdagi musiqalarni o'z ichiga olgan: qo'shiqlar, operettalar, musiqiy asarlar, ashula asarlarini turli-tuman ishlashda turli-tuman shoular. XX asrda estrada san'ati jazz va mashhur musiqa bilan boyitildi.

SHunday qilib, estrada san'ati uzoq yolni bosib o'tdi va biz bugungi kunda ushbu janrni boshqa ko'rinishda va ishlashda kuzatishimiz mumkin, ya'ni uning rivojlanishi hali ham to'xtamaydi.

Qiziqchi (Rossiya), spiremans (Germaniya), jonglyor (Frantsiya), frant (Polsha), maskaraboz (Markaziy Osiyo) va boshqalar. g'oyalari mavjud.

SHahar hayoti va odatlariga bag'ishlangan satira, siyosiy mavzulardagi keskin hazil, hokimiyatga bo'lgan tanqidiy munosabat, kulgili sahnalar, hazillar, o'yinlar, raqs pantomima, jonglyorlik, musiqiy eksantrikalar karnaval va shovqinlarida tug'ilgan kelajakdagi estrada janrining boshlanishi edi.

SHahar hayoti va odatlariga bag'ishlangan satira, siyosiy mavzulardagi keskin hazil, hokimiyatga bo'lgan tanqidiy munosabat, beysbollar, kulgili sahnalar, hazillar, o'yinlar, masqaraboz pantomimi, jonglyorlik, karnaval shovqinlarida tug'ilgan kelajakdagi estrada janrining boshlanishi edi.

Rossiyada estrada janrlarning kelib chiqishi folklor festivallarida kulgili, kulgili va ommaviy ishlarda namoyon bo'ldi. Ularning vakillari "o'rgatilgan" ayiqlar, aktyorlarning rahbarlari, aktyorlar "reprises" o'ynash, quvurlar ustida o'ynashni taklif qiladigan ajablantiradigan soqolli raund-bobolar, kichkintoylar va kulgili odamlar.

## **6.2 Estrada san'at janrlari**

Ochiqlik, lakonizm, improvizatsiya, festival, o'zigaxoslik va ko'ngilocharlik kabi fazilatlar turli san'atga xosdir.

Bayramona dam olish san'ati sifatida rivojlanishida estrada san'ati har doim o'ziga xoslik va xilma-xillikka intiladi. Bayram tuyg'usi tashqi o'yin-kulgi, yorug'lik o'yinlari, chiroyli sahna ko'rinishi, sahna maydonchasi shaklidagi o'zgarishlar va boshqalar hisobidan yaratilgan. Estrada musiqa turli shakllari va janrlari bilan ajralib turishiga qaramasdan, uni uch guruhga bo'lish mumkin:

- Kontsert bosqichi (ilgari "divertikul" deb nomlanadi) pop-kontsertlarda barcha turdagi ijrolarni uyg'unlashtiradi;

-teatral xilma-xillik (miniatyura teatri, teatr-kabare, kafe-teatr yoki keng ko'lamlı kontsert tomoshasi, musiqa zallari, ko'plab ijro etuvchi xodimlar va birinchi toifali estetik texnika);

-bayram marosimlari (folklor festivallari, stadion festivali, sport va kontsert raqamlari, to'plar, karnavallar, maskaradlar, festivallar va boshqalar).

### *MUSIQA ZALLARI*

Agar estrada shousning asosi to'liq raqam bo'lsa, unda bu tahlil, dramatik harakatlar singari, sahnada sahnada sodir bo'layotgan barcha narsalarning bo'ysunishini talab qiladi. Bu, qoida tariqasida, organik jihatdan birlashtirilmadi va ishlashning tarkibiy qismlaridan birining zaiflashishiga olib keldi: sonlar yoki belgilar yoki uchastka. Bu "20-asrning mo'jizalari" filmida ishlab chiqarish paytida sodir bo'ldi - o'yin bir qator mustaqil, zaif bilan bog'liq epizodlarga aylandi. Tomoshabinlar muvaffaqiyati faqat bitta balet ansambli va bir nechta birinchi navli estrada va tsirk namoyishlari bo'lib o'tdi.

*MINIATYURA TEATRI* - teatr guruhi bo'lib, asosan kichkina shakllarda ishlaydi: kichik o'yinlar, eskizlar, eskizlar, operalar, estradalar (monologlar, parodiyalar, raqslar, qo'shiqlar). Repertuarga hazil, satira, ironiya va lug'at ta'sir ko'rsatadi. Guruhning kichikligi, bitta aktyor teatri, ikkita aktyor bo'lishi mumkin. Nisbatan kichik tomoshabinlarga mo'ljallangan lakonistik namoyishlar bir xil mozaik tivali bo'lib xizmat qiladi.

Gapirib berish janri sahnada - asosan soʻzlovchi intermedia, stsenka, hikoya, monolog, feleton, mikrominiatyura (stsenka anekdot) bilan bogʻliq boʻlgan janr.

Konferanse - juft, yagona, massa. "Birlik va qarshi qarama-qarshilik" qonunlari boʻyicha, yaʼni satirik printsipda miqdordan sifatta oʻtish.

Skech - entrika tez rivojlanayotgan kichik bir sahnadir, oddiy simpozium kutilmagan kulgili, oʻtkir postlar ustiga qurilgan, bu yoʻlda bir qator bemaʼni narsalarning paydo boʻlishiga imkon beradi, lekin hamma narsa odatda baxtli nihoyasida tugaydi. 1-2 aktyor (lekin uchdan koʻp boʻlmagan).

Kalambur - bu oʻxshash chalinishlardan kulgili foydalanishga asoslangan hazil, ammo ekvivalent soʻzlar yoki kombinatsiyalarning ovoz oʻxshashligini oʻynashda turli xil ovoqli soʻzlar.

### *DJAZ ESTRADA haqida*

"Djaz" atamasi quyidagilar koʻpincha quyidagicha tushuniladi:

- 1) improvizatsiya va maxsus ritmik intensivlik asosida musiqa sanʼati turi,
- 2) bu musiqani ijro qiluvchi orkestrlar va ansambllar. SHuningdek, "djaz bands", "djaz ansambli" (baʼzan ijrochilar soni - jazz triosi, jazz kvarteti, "djaz orkestri", "katta bant" soʻzlari guruhlarini belgilash uchun ham ishlatiladi).

*ESTRADAGI QOʻSHIQ* Kontsert dasturida keng qoʻllaniladigan vokal (vokal va instrumental) miniatyura. Sahnada koʻpincha plastika, kostyum, yorugʻlik, sahna sozlamalari yordamida "oʻyin" miniatyura sifatida hal qilinadi ("teatr teatri"); shaxsning oʻziga xos xususiyati, xususan, bastakorning "hammuallifi" boʻlmish sanʼatkorning qobiliyati va qobiliyatligi katta ahamiyatga ega.

Qoʻshiqning janrlari va shakllari turli-tuman: romans, ballada, halq qoʻshiqlari, lapar va boshqalar .; Ishlash usullari ham oʻzgaradi: yakkaxon, ansambl (duet, xor, vok-instr ansambl).

Estrada musiqachilar orasida kompozitorlar guruhi ham bor. Bular Antonov, Pugacheva, Gazmanov, Loza, Kuzmin, Dobrynin, Korneliuk va boshqalar.

### *ESTRADAGI RAQS*

Bu qisqa raqs raqami, yakkaxon yoki guruh boʻlib, milliy estrada namoyishlari, turli namoyishlar, musiqa zallari, miniatyura teatrlari; vokalchilar dasturini, asl va hatto nutq janrlarini aks ettiradi va toʻldiradi. U folklor, xonadon raqsi, klassik balet, zamonaviy raqs, sport gimnastikasi, akrobatika, turli xorijiy taʼsirlar va milliy urf-odatlarini kesib oʻtish asosida tashkil etilgan.

Raqsning plastik qismlari tabiati, musiqasi, teatr, rasm, tsirk, pantomimaning taʼsiri ostida shakllantirilgan zamonaviy ritmlar bilan belgilanadi. Xalq raqslari dastlab poytaxtlik truppalari namoyishiga kiritildi. Repertuarda rus, folklor qoʻshiqlari va raqslaridan qishloq, shahar va harbiy hayotning teatral yoʻnalishli koʻrsatuvlari, vokal va raqs xonalari mavjud edi.

### *ESTRADAGI QUGʻIRCHOQLAR*

Rossiyada qadim zamonlardan buyon ular qo‘l san‘atlarini qadrlashadi, o‘yinchoqni yaxshi ko‘rishadi, qo‘g‘irchoq bilan qiziqarli o‘yinlarga hurmat ko‘rsatishadi. Petrushka askar, militsioner, ruhoniylar bilan gaplashdi va hatto o‘limida ham uning jasoratini silkitib, odamlarni sevmasdan, yovuzlikni ag‘darib, odamlarning axloqiyiligini da‘vo qildilar.

Petrushkalar bir o‘zi yoki iktasi aylanib yurgan: qo‘g‘irchoqboz va musiqachi pianinotchilarni o‘zlari yaratdi, aktyorlarning o‘zi edi va direktorlar qo‘g‘irchoqlar, sahna sahnalari, qo‘g‘irchoqbozlar harakatlarini davom ettirishga harakat qildilar. Qo‘g‘irchoqlar quvg‘in qilingan.

*“Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivali haqida.*

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Estrada – bu nima?
2. Estrada janri qayerda paydo bulgan?
3. Estradada qanday janrlarini bilasiz?
4. Djaz estrada haqida nima bilasiz?
5. Kalambur aysi janr turiga kiradi?

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Bermont Ye. Konkurs estrady. //Teatr. 2008, №2, s.75-78
2. Konnikov A. Mir estrady. M., 2014.
3. Russkaya sovetskaya estrada // Ocherki istorii. Otv. red. dokt. isk., prof. Ye.Uvarova. V 3-x T. M., 20012
4. Smirnov-Sokolskiy N. Estrada pered konkursom. //Sovetskoe iskusstvo. 2010
5. Uvarova Ye. Teatr estradasi: Miniaturalar, myuzik-xolly M. 2004.
6. SHaroev I. Rejissura estrady i massovyx predstavleniy. M., 2010;

### **7-MAVZU: MILLIY CHOLG‘U SOZLARI, ULARNING GURUHLANISHI (ORKESTR, ANSAMBL) VA YEVIROPA CHOLG‘U SOZLARIGA O‘HSHASHLIGI VA FARQI**

**REJA:**

1. SHarq olimlarining musiqiy musiqa cholg'ulari to'g'risidagi qarashlari

2. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek milliy cholg'ulari

### **7.1 SHarq olimlarining musiqiy musiqa cholg'ulari to'g'risidagi qarashlari**

IX-XI asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyoning buyuk donishmandlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniylar o'z davridagi mavjud barcha dunyo ilmlarini puxta egallash va tahlil qilish evaziga o'z ta'limotlarini yaratishga erishdilar. Bu nazariyalar va ilmlar eng ilg'or va mukammal bo'lganligi bois nafaqat Arab xalifaligi hududida, balki butun jahonda bir necha asrlar davomida dunyo ilmining rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

Arab tilining islom dini qabo‘l qilingan barcha mamlakatlarda davlat tili sifatida joriy etilishi bir tomondan noqulaylik tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ushbu mamlakatlarda yashagan ilm ahlining arab tiligi tarjima qilingan grek falsafasi va ilmidan bahramand bo‘lish imkonini yaratdi. Bu davrda Aristoksen (“Garmonika”, “Ritmika”), Aristotel (“Muammolar”), Yevklid (“Garmonika”, “Kanon”), Ptolomey (“Garmonika”) va boshqa mualliflarining asarlari arab tiliga tarjima qilingan edi. Ushbu asarlarning tanqidiy o‘rganilishi natijasida IX-XI asrlar davomida O‘rta Osiyoning buyuk olimlari – Forobiy, Ibn Sino, al- Xorazmiylar tomonidan o‘z davrining mukammal musiqa nazariyasi ishlab chiqildi.

Bu asarlarga yuz yillar davomida G‘arb va SHarq musiqashunoslari eng mukammal manba sifatida murojaat etdilar. O‘sha davrlarda musiqa ilmi matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida qabo‘l qilingan edi. Ana shu davrdan boshlangan musiqa ilmi XII asr boshlarida Faxruddin ar-Roziy (“Ilmlar majmuasi”ning bir bo‘limi musiqaga bag‘ishlangan), XIII asrda Safiuddin Urmaviy “Risolatun ash SHarafiya” va “Kitob ul advor”),

XIV asrda eronlik olimlar ash-SHeroziy va al-Amuli, XV asrda Abdurahmon Jomiy (“Musiqqa haqida kitob), al-Husayniy, Abdulqodir Marog‘iy, XVI-XVII asrlarda buxorolik Kavkabiyy va Darvish Alilarning asarlari bilan yanada boyitildi.

**Abu Nasr Forobiy** (grek olimlari)ning asarlarini batafsil o‘rganish asosida O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib musiqa nazariyasini yaratgan olim hisoblanadi. Uning “Musiqqa haqida katta kitob”i nafaqat mukamal musiqa nazariyasi, balki cholg‘ushunoslik bo‘yicha ham ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk manbadi. Ushbu yirik risolaning ikkinchi kitobi musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan. Ushbu manbada eng mukammal cholg‘ulardan biri sifatida **ud** keltiriladi. Bu davrda udning to‘rtta tori bo‘lganligi, uni yanada yaxshiroq qilish uchun beshinchi tor ham kiritilishi maqsadga muvofiqligi bayon etiladi.

Aslida esa Forobiygacha davrda yashagan al-Kindiy (taxminan 790-847 yillar) ud cholg‘usiga 5-tor kiritilib, u xayvon ichagidan eshilgan holda tayyorlanganligi va yog‘ochdan yasalgan mizrob (plektr) o‘rniga suyakdan yasalgan mizrob ishlatila boshlangani to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Forobiyning kitobida **ud** cholg‘usining tasviri berilmagan bo‘lsa-da, uning zamondoshi bo‘lgan Bag‘dod xalifasi Ja‘far al Muqtidir (manbada Djafar al-Muktidir-bi-alax) o‘zining ud cholg‘usini ushlab to‘rgan holatini kumush tangada zarb qildirgani bois Forobiy davridagi ud to‘g‘risida tasavvur qilish mumkin.

Forobiyning kitobida keltirilishicha, **tanbur** o‘z sadosiga ko‘ra udga eng yaqin cholg‘u. Bu davrdagi tanburning ikkita, ba‘zida uchta tori bo‘lgan. Forobiy ikki turdagi tanbur to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Ularning birinchisi – **xuroson tanburi**, ikkinchisi – **bag‘dod tanburi**. Ularning shakli va tovush qatorida farqi bor ekanligi, bag‘dod tanburida 5 ta bog‘lama parda mavjudligi uchun unda faqat

qadimiy kuylarni ijro etish mumkinligi, agar u takomillashtirilib, tovush qatori o'zgartirilsa qadimiy kuylarni chalish imkoniyati chegaralanib qolishi mumkinligini ma'lum qiladi. Aksincha, xuroson tanburidagi doimiy (qo'zg'almas) 5 ta pardadan tashqari 13 ta suriladigan pardalar mavjudligi va unda turli xil kuylarni chalish imkoniyati birmuncha kengligi aytiladi.

Forobiyning kitobida **damli** (puflab chalinadigan) cholg'ular to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Unda keltirilgan birinchi cholg'u bo'ylama nay bo'lib, (d'Erlanjening taxminiga ko'ra) tojiklarning **tutak** cholg'usiga yaqin bo'lgan bo'lsa kerak. Ushbu bo'ylama nayning ustki qismida 7 ta orqa tomonida 2 ta teshik bo'lgan.

Forobiy yana bir cholg'u – **qo'shnay** to'g'risida ham ma'lumot keltirib, uni **dubay** deb ataydi (balki aslida dunay, ya'ni ikki nay ma'nosidadir).

Manbada "rubob" nomi bilan keltirilgan cholg'u ikki yoki bitta torli bo'lganligi va uning tovushi inson ovozigacha yaqinligini hisobga olgan holda bu yerda g'ijjak cholg'usi haqida gap ketayotganligini fahmlash mumkin. Chunki, arablar hozirgacha g'ijjak cholg'usini "rubob" deb ataydi (O.T.). Bu cholg'u kvarta oralig'ida, ud cholg'usining ikkinchi va uchinchi toriga mos holda sozlanishi bayon etilgan.

**Arfa cholg'usi** – har bitta tovush hosil qilish uchun alohida tor tortiladigan cholg'ular qatoriga kiritilib, o'sha davrda uning 11 yoki 12 torli turlari tarqalganligi, ijroda qulaylik bo'lishi uchun uning 15 torli turi ancha ma'qul ekanligi, ushbu cholg'uning yanada mukammal bo'lishi uchun uning torlari sonini 25 taga yetkazish lozimligi aytiladi.

Forobiy davriga yaqin muddatda yashagan **Abu Ali ibn Sino** ham musiqani matematika fani tarkibiga kiritgan va o'zining "Kitob ul SHifo" asarining bir qismini musiqaga bag'ishlagan. Ushbu nashrda u torli cholg'ularni birinchi marta turlarga ajratgan va ularni:

- mizrobli (tanbur, barbat);
- rezonator ustiga torlari tortilgan (shohrud);
- ikkita asosga torlari tortilgan (lira);
- kamon vositasida tovush hosil qilinadigan (rabob) cholg'ularga ajratadi.

Abu Ali ibn Sino Forobiydan farqli ravishda hozirda ud nomi bilan mashhur cholg'uning eski – **barbat** nomi bilan keltiriladi. Barbat asli turkiyzamin va eronzaminda juda qadimdan mavjud bo'lib, unda VIII asrda birinchi bo'lib arab musiqasini ijro etgan shaxs Ibn Surayi bo'lganligi Farmer tomonidan e'tirof etilgan. SHu davrning o'zida yashagan al Xorazmiy ham barbat – bu ud cholg'usi ekanligi, **bar** – **ko'krak**, **bat** – **o'rdak**, ya'ni o'rdak ko'krak ekanligini yozgan. Haqiqatan ham davrlar ta'sirida o'zining ko'rinishini yo'qotmagan udning yon tomonidan qaralsa, bunga amin bo'lish mumkin.

Udning qadimiy nomi VI-VII asrlarda yashab o'tgan Barbat Marvaziy nomi bilan bog'liqligiga qaraganda asbobni u yaratgan ham bo'lishi mumkin degan taxminlar ham yo'q emas.

O'sha davr musiqa cholg'ulari to'g'risida ma'lumot beruvchi yana bir manba "Mafotih al ulum" bo'lib, u Forobiy va Ibn Sinolarga juda yaqin davrda yashagan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al **Xorazmiy** tomonidan to'zilgan. Ushbu asar ikkinchi maqolasining 7-bobi "Musiqa haqida" deb nomlanadi va ushbu bobning 1-fasli to'laligicha musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Al Xorazmiy tomonidan bitilgan mazkur asarning 7-bobi marhum olim Abdumannon Nazarov tomonidan arab tilidan o'zbekchaga tarjima qilingan va izohlari bilan O'.Toshmatovning "CHolg'ushunoslik" o'quv qo'llanmasi tarkibiga kiritilib, 2006 yilda nashr etilgan (ilovada 7-bobning 1-fasli va unga A.N. yozgan sharhi berilmoqda).

Deyarli bir davrda yashagan uch olimning musiqaga oid nazariyasi va ta'limotini XIII asrda yashagan **Safiuddin Urmaviy** nafaqat to'ldirdi, balki yanada rivojlantirdi. Forobiy va boshqa olimlardan farqli ravishda u musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan maxsus risola qoldirmagan bo'lsa-da o'z asarlarida **birinchi marotaba** ud cholg'usi **vositasida aniq musiqiy tovush** hosil o'rnini belgiladi va ularga **arab alfaviti** asosida nomlashni tavsiya qildi. Bu esa o'z navbatida tovushlar balandligini aniqlash va qog'ozda ifodalash imkonini berdi. Tovushlar balandligini aniqlash nisbiy (absolyut, tsentlarga tayanmagan), ya'ni udning qaysi balandlikdagi tovushga sozlanishiga nisbatan bo'lsa-da, keyinchalik **zamonaviy nota tizimining** dunyoga kelishi uchun asos yaratdi.

"Risolatun ash SHarafiya" asarida muallif udning o'sha zamonda eng mukammal cholg'u ekanligini e'tirof etib, unda beshta juft tor mavjudligi, torlar kvarta oralig'ida sozlanishi, udning dastasida 7 ta parda (yoki tovush hosil qilish o'rnini O'.T.) mavjudligi to'g'risida ma'lumot berdi va har bir pardaga o'sha davrning mashhur ijrochilari bergan nomlarni yozib qoldirdi.

**G'ijjak** to'g'risidagi ma'lumotlarga kelsak, Abdulqodir Marog'iyning kitobida keltirilishicha, g'ijjak va kemancha aslida bitta cholg'u bo'lib, birinchisining kosaxonasi kattaroq, keyingisidiki esa kichikroq hajmi bilan farqlanadi. Bundan tashqari, o'sha davrlarda ularga tortiladigan asosiy torlar 2 tadan bo'lib, g'ijjakda cholg'usida qo'shimcha 7 dona rezonator torlar ham qo'llanilganligi bayon etiladi.

**Dutor** cholg'usi to'g'risidagi ilk ma'lumotlar XV asrga oid al **Husayniyning** qo'lyozmasida uchraydi. Biroq bu cholg'u to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishning imkoniyati chegaralangan. Undagi ijro uslubi aniq yoritilmaganligi bois ko'plab tadqiqotchilar "dutor" atamasi tanburning 2 ta torli turi bo'lishi mumkin, deb xulosa chiqarishlariga imkoniyat yaratadi.

## **7.2 XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek milliy cholg'ulari**



XIII-XVII asrlarda forscha yaratilgan risolalarda chang, qonun, no'zha, rubob, tanbur va nay to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Forobiy birinchi bo'lib **inson ovozi eng mukammal cholg'u** sifatida e'tirof etgan bo'lsa, bu fikr Ibn Sino va ash SHeroziy tomonidan yana bir bora ta'kidlangan. Ushbu allomalarimizning asarlarida inson ovoziga eng yaqin cholg'ular birinchi navbatda damli (puflab chalinadigan) cholg'ular bo'lsa, undan keyingi o'rinda torli-kamonli cholg'ular ekanligi va undan keyin ud va tanbur turishi e'tirof etiladi.

XVII asrda buxorolik buyuk hofiz, sozanda **Darvish Ali CHangiy** tomonidan yaratilgan risola o'sha davrga xos juda ko'p musiqa cholg'ulari haqidagi o'ta qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Darvish Ali Movarounnahr hukmdori Imomqulixon (1611-1642) saroyida musiqachi bo'lib xizmat qilgan. U yaratgan risolaning beshinchi va oltinchi boblari musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Xususan, unda tanbur – juda qadimiy musiqa cholg'usi va boshqa cholg'ularning ustozlari ekanligi, chang – Zuhro yuldo'ziga bag'ishlangan 26 ta torli va 7 maqomni ijro etish xususiyatiga ega cholg'uligi, nay – 8 ta teshikli qadimiy damli cholg'u va unda barcha 12 maqomlarni ijro etish mumkinligi, qonun – 6 xil sozlanishi mumkin bo'lgan tirnama cholg'u ekanligi, ud – barcha cholg'ularning podshosi bo'lib, uning 6 juft ipak torlari borligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Mazkur asarda Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan rubob (mizrobli O'.T.), g'ijjak, qo'biz cholg'ulari, shuningdek, mahalliy aholi tomonidan kam qo'llaniladigan musiqor (Pan fleytasi turidagi), nayi-enban (junli terisi bor damli cholg'u?), ruhavza (olti torli tirnama cholg'u), kungura ( 5 ta ladli hind cholg'usi), arg'anun (meshli damli cholg'u) haqida ham yozilgan. O'sha davrda ijro qilingan **ruhavza, kungira, musiqor** cholg'ularining ijrochilari to'g'risida umuman ma'lumot berilmagan. Bu esa mazkur cholg'ularning o'sha davrda kam ishlatilganligiga yoki iste'molda deyarli bo'lmaganligini bildiradi.

Qadimgi miniatyura asarlarida ham cholg'u sozlari chalib o'tirgan sozandalarning ko'rish mumkin. Ammo aynan qaysi cholg'u yoki necha torli bo'lganligin anglash mushkul.Ushbu cholg'ular qatorida qonun cholg'usi ham miniatyuralardan joy olgan. Lekin qonun cholg'usiga nechta tor tortilgani, quloqlarining sonini ilg'ab olishning imkoniyati yo'q. Faqat qonun cholg'usi sozandalarning tizzasiga qo'yilib, tirnab chalinayotganini kuzatish mumkin.

Aksariyat miniatyuralarda ov va jang jarayonlarini tasvirlashda kuchli ovoz chiqaradigan cholg'ular ishtirok etadi. Bo'lar asosan, karnay, surnay, tarelka, nog'ora va litavrasimon katta urma cholg'ulardir.

Miniatyuralardan shuni kuzatish mumkinki, muqaddam tasviriy san'at asarlarida tasvirlanmagan ikki tomoniga teri tortilgan baraban ham o'z aksini topgan.

Miniatyuraga boy nashrlardan yana biri Alisher Navoiyning “Xamsa”sidir. Mazkur asarlarga o‘sha davr musavvirlari tomonidan ishlangan minatyuralarda chang, g‘ijjak, doyra, rubob, tanbur, dutorsimon cholg‘u, ud, surnay, karnay, nog‘ora, nay cholg‘ulari aks ettirilgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoga kelgan sayohatchilar bu yerdagi milliy musiqa cholg‘ularining rang-barangligi va turlarining ko‘pligini ko‘rib hayron qolishgan. Ular CHor Rossiyasi tomonidan bosib olingan yerlardan tashqari, hukumat qo‘shinlarining oyog‘i yetib bormagan tog‘li hududlarga ham borishga muvaffaq bo‘lishgan va turli joylardan musiqa cholg‘ularini arzon garovga sotib olib o‘z kolleksiyalarini yaratishgan. Ushbu sayohatlar davomida O‘rta Osiyodan olib ketilgan musiqa cholg‘ularining juda katta qismi Sankt Peterburgdagi Etnografiya instituti qoshidagi Pyotr I nomidagi mo‘zeyida jamlangan. Bu yerdagi cholg‘ularning asosiy qismi XIX asr 80-yillarining yarmidan 1914 yillarigacha davrda yig‘ilgan bo‘lib, ularni to‘plashda I.Zarubin, I.Rachinskiy, K.Roset, A.Samoylovichlar tomonidan sotib olingan cholg‘ular asosiy o‘rinni egallaydi.

Mo‘zeydagi cholg‘ular Pomirning tog‘li qishloqlari va Xivaga uyushtirilgan sayohatlar davrida sotib olingan. Bu kolleksiyadagi tanbur, qo‘biz, g‘ijjak, bo‘laman, surnay, tilli tuydyuk, nog‘ora, va doyralar ichida dutorning yo‘qligi Samoylovichni ham qoniqtirmagan. SHunisi qiziqarli-ki, Xivadan sotib olingan tilli tuydyuk cholg‘usining rasmi bundan uch yil muqaddam Suriyadan kelgan folklor ansamblida foydalanilgan va bizga sovg‘a sifatida tashlab ketilgan arablarning “maqruna” cholg‘usining xuddi o‘zginasidir. Bundan kelib chiqadiki, shu ko‘rinishdagi cholg‘ular ham unutilib, ularning o‘rniga hozirgi ko‘rinishdagi qo‘shnaylar o‘tgan asrning boshlaridan foydalanila boshlagan ekan.

O‘sha davrda ayollar o‘rtasida **changqo‘biz** juda keng tarqalganligi va uni xivaliklar “qo‘biz” deb atashi yozib qoldirilgan. Xonning chiqishini “e‘lon qiladigan” karnaylar va kechalari soqchilar tomonidan chalinadigan barabanlarni Samoylov xivaliklarning musiqa cholg‘ulari qatoriga kiritmaydi. Uning kolleksiyasida cholg‘ular hozirgi kundagi cholg‘ulardan keskin farqlanmaydi. G‘ijjak uch torli bo‘lib, uning kosasi kokos daraxtining mevasidan yasalganligi, tanburning torlari uchta ekanligi istisno bo‘lmasa, aksariyat cholg‘ularning deyarli o‘zgarmagan holda o‘zbek musiqa madaniyatida saqlanib kelayotganligini anglatadi. Darvesh qiyofasida O‘rta Osiyoga kelgan mo‘jor (venger) Vamberi ham g‘ijjak, dutor cholg‘ulari to‘g‘risida alohida fikr bildirgan. Ayniqsa, u xon saroyidagi musiqa cholg‘ulari va sozandalarning mahoratiga yuksak baho beradi.

SHu davrlarda to‘plangan musiqa cholg‘ulari kolleksiyalari ichida eng boyi 1870 yilda Toshkent shahriga kapelmeyster lavoziga ishga kelgan Avgust Eyxgornning to‘plamidir. U bu yerda o‘tgan 13 yil umri davomida ikki marta cholg‘u kolleksiyasini to‘plagan. Uning birinchi kolleksiyasi 1872 yili

Moskvadagi ko'rgazmada namoyish etilib, keyin Venada tashkil etilgan Jahon ko'rgazmasiga olib ketilgan va V.Belyaevning taxminiga ko'ra yerdan qaytmagan. SHundan keyin ikkinchi marta to'plangan cholg'ular kolleksiyasi 1885 yilda Peterburgdagi F.Patek nomidagi mo'zeyda namoyish etilgan.

Kolleksiyada o'sha davrdagi aksariyat cholg'ular aks etgan bo'lsa-da, xalq ichida iste'molda bo'lgan cho'pon nay, burg'u (hayvon shoxidan yasalgan cholg'u), tablak, qoshiq va qayroq unutilib qoldirilgan.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. SHarq olimlarining cholg'u sozlari bo'yicha meros qoldirgan qanday asarlarini bilasiz?
2. Berilgan tasvirdagi cholg'u asboblari nomlarini sanab bering.
3. Evropa va Osiyo cholg'u asboblarning o'xshashligi
4. Evropa va Osiyo cholg'u asboblarning farqligi
- 5 Orkestr turlari
6. XIX-chi asrning boshi XX asr oxirlarida paydo bo'lgan cholg'u sozlari haqida nimalar bilasiz?
7. Nomi bor ammo bizgacha yetib kelmagan qanday cholg'ularni bilasiz?
8. CHolg'ular necha guruhga bo'linadi?
9. Zarbli cholg'ularga nimalar kiradi?
10. Damli cholg'ular gurug'i g'aqida nimalar bilasiz?
11. Torli cholgular necha turga bo'linadi va kaysi sozlar kiradi?
12. Qayta tiklangan cholg'ular haqida nimalar bilasiz?
13. Temuriylar davri cholg'ulariga nimalar kiradi?
14. Boburiylar davri musiqa madaniyati haqida nimalar bilasiz?
15. Qayta tiklangan cholg'ular haqida nimalar bilasiz?
16. Temuriylar davri cholg'ulariga nimalar kiradi?
17. Boburiylar davri musiqa madaniyati haqida nimalar bilasiz?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. O'.Toshmatov CHolg'ushunoslik (O'rta maxsus ta'lim muassalalari uchun o'quv-qo'llanma) T.: 2004
2. R.Qodirov "Musiqa pedagogikasi" – Tosh."Musiqa".
3. Tolipov U.K. Usanboeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari". Toshkent "fan".2009 y.
4. Fayziev O.O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 2012 yi.
5. X.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 2007 y.
6. SHaripova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.
7. N.Norxo'jaev, H.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 2009 y.

8. G.SHaripova musiqa o‘qitish metodikasi T. 2006
9. O.Ibrohimov, J.Sadirov 7-sinf musiqa darsligi T. 2008 G'.G'ulom nashryoti
10. O.Ibrohimov O‘zbek xalq musiqa ijodi.T. 2007 y.
11. Maqomat.O.Matyoqubov Musiqa nashriyoti T. 2004 y.

Amaliy mashg'ulot

**1-MAVZU: “MUSIQA MADANIYATI” FANI O‘QITUVCHILARI  
MALAKASINI OSHIRISH O‘KUV-MAVZUIY REJASI, DTS  
TALABLARI ASOSIDA KOMPETENTSIYAVIY YONDOSHUV, O‘QUV  
DASTUR, O‘QUV REJA, QO‘LLANMA VA DARSlikLAR TAHLILI”  
REJA**

1. Umumiy o‘rta ta’limning musiqa madaniyat fani yo‘nalishidagi Davlat ta’lim standartlar sharhlari

2.Hozirgi zamon musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi

**1.1. Umumiy o‘rta ta’limning musiqa madaniyat fani yo‘nalishidagi Davlat ta’lim standartlar sharhlari**

Umumiy o‘rta ta’limning musiqa madaniyat fani yo‘nalishidagi Davlat ta’lim standartlar sharhlari 1998y., 2004y., 2008y. misolida yoritamiz.

O‘zbekiston Respublikasi «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi 1998-yil 13-maydagi 203-sonli xamda «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida» 1999-yil 16-avgustdan 390-sonli qarori jarilishini ta’minlash, ta’lim mazmunidagi islohatlarning bosh aqsadidan kelib chiqqan holda uning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalk talimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari” va «O‘quv dastur»lari bir o‘quv yilida barsha sinflarda tajriba-sinovdan o‘tkazilib, 1999 o‘quv yilidan amaliyotga joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-fevraldagi «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini qayta ko‘rib chiqish hamda yangilarini yaratish bo‘yicha xukumat komissiyasi» majlisi bayoni qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlari xar bir o‘quv fani bo‘yicha tanqidiy o‘rganilib, takomillashtirildi.

*Maktabda musiqa madaniyati o‘qitilishning ta’lim vazifasi* – o‘quvchilarni musiqa madaniyati fanini o‘rganishga kirishguncha boshka fanlardan olgan bilimlarini va hayot tajribalariga tayangan holda eng muxim musiqaviy tushinchalar, qonunlar, nazariyalar, musiqa madaniyati bilan tanishtirish, shu bilimlarga suyangan holda ularga ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi 1998-yil 13-maydagi 203-sonli xamda «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rtata’limni tashkil etish to‘g‘risida» 1999-yil 16-avgustdan 390-sonli qarori bajarilishini ta’minlash, ta’lim mazmunidagi isloxlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda uning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalk talimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari” va “O‘quv dastur”lari bir o‘quv yilida

barcha sinflarda tajriba-sinovdan o'tkazilib, 1999 o'quv yilidan amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-fevraldagi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish hamda yangilarini yaratish bo'yicha xukumat komissiyasi" majlisi bayoni qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim tizimida qo'llanilayotgan ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari xar bir o'quv fani boyicha tanqidiy o'rganilib, takomillashtirildi.

Endi ushbu umumiy bilim va tushunchalarni sinflar va har bir sinfnig (1-4-sinflar) yil va chorak o'quv mashg'ulotlari misolida ko'rib chiqamiz.

**1-sinf.** Biz musiqani sevamiz" mavzusi asosida kuy va qo'shiqlar yil fasllariga, hamda bolalar psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilgan, o'quvchilar ularni darsda, turli tadbirlarda hamda bayramlarda sevib ijro etib, raqsga tushadilar. SHuningdek, milliy cholg'ularimiz bilan tanishadilar, milliy xalq kuy-qo'shiqlari namunalaridan tinglab, ularga chapak va bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'ladilar. Bu esa o'quvchilarni ilk yoshidanoq milliy musiqamizni idrok etishni o'rgatishga undaydi.

#### ***Yil mavzusi "Biz musiqani sevamiz".***

*1-chorak mavzusi "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar".* Ushbu chorak davomida o'quvchilar musiqa savodi bo'yicha eng oddiy atama va tushunchalar haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi. Ya'ni, ular musiqa tovushlari, baland va past tovushlar, uzun va qisqa tovushlar haqida tasavvurlar hosil qiladilar. Bu tushunchalar kuy va qo'shiqlarni tinglash va kuylash jarayonida tarkib toptiriladi.

*2-CHorak. "Musiqali o'yinlar va qo'shiqlar" deb nomlanadi.* Bu chorakda o'quvchilarga quyidagi nazariy bilimlar beriladi: baland-past, uzun-qisqa tovushlar hakidaga tushuncha va tasavvurlar mustahkamlanadi, Do-major (o'n qator)ni nota chizig'idagi joylashuv o'rniga qarab kuylashga kirishiladi.

*3-CHorak. "Xushnavo cholg'ularimiz" deb nomlanadi.* Musiqa savodxonligi doirasida o'quvchilarga kuy yo'nalishini (harakatini), tovushlar cho'zimini, nota chizigidagi o'rnini grafik chiziqlar orqali ifodalash orqali mashqlar bajariladi. Kuy chizmasidagi uzun va qisqa tovushlar ustida chorak va nimchorak notalarni yozib kuylashigi e'tibor qaratiladi.

*4-CHorak. "Xushnavo sholg'ularimiz".* Qo'shiq kuyini grafik chiziqlarda ifodalab, uni so'zlari bilan (plakatga qarab) kuylash, chorak va nimchorak nota yozuvlari haqida bilimlarni mustahkamlash va bolalar cholg'u asboblarida kuyga ritmik jo'r bo'lish ko'nikmalari ustida ish olib boriladi. O'quv yili davomida oddiy dirijyorlik qoidalari "diqqat", "auf takt", "boshlash", "tugallash" ko'nikmalari hosil qilinadi.

**2-sinf.** O'quvchilar ijrochilik turlari (yakkanavozlik, jo'rnavozlik, cholg'uchilar va xonandalar ansambli), musiqaning ifoda vositalari (kuy, o'lchov usul, dinamik belgilar, temp, repriza) haqida bilimlarga ega bo'ladilar. O'zbek

xalq kuyi namunalari bilan tanishib, bastakorlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

***Yil mavzusi: "Ijrochilik turlari, musiqaning ifoda vositalari".***

*1-CHorak mavzusi "Yakkanavozlik, jurnavozlik, jo'rsozlik" deb nomlanadi.* 1-chi chorakda musiqa savodi faoliyatida yoki butun faoliyatlar jarayonida o'quvchilarning quyidagicha nazariy bilim va malakalarga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi. O'quvchilar chorak va nimchrak notalarni kuylash ustida ishlarni davom ettiradilar, nota yo'li (besh parallel chiziq, ularni nomlanishi) bilan tanishadilar.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar "Skripka kaliti" (Sol kaliti), yozilishi, bajaradigan vazifasi, shuningdek "sol" tovushini nota yo'lidagi o'rni va yozilishi haqida bilib oladilar.

*2-CHorak. Mavzu "Yakkanavozlik va yakkaxonlik. cholg'uchilar va xonandalar dastalari".* Nota savodxonligi bo'yicha nota yo'lida mi, lya tovushlarini yozilishini o'rganadilar. SHu jarayonda tinglangan yoki jamoaviy ijro jarayonida amal qilish talab qilingan musiqaning o'zga ifoda vositalari – temp, ritm, dirijyorlik qoidalari, registr, ritmik cho'zimlar haqidagi bilim va tushunchalar ham rivojlantirib boriladi.

*3-CHorak. "Dasta turlari. Kuy nima? Kuyida nimalar ifodalanadi?"*

CHorak davomida nota savodxonligi boyicha nota yo'lida Do, Lya tovushlarini yozilishi bilan tanishish talab qilinadi. O'quvchilarga asosiy 7 tovushni nota chiziqlarida yozish topshirig'i berilib, ularni bu borada bilim va tushunchalari mustahkamlanadi.

*4-CHorak. Mavzu: "Musiqaning ifoda vositalari".* Musiqa savodi bo'yicha ilk bor major va minor tonalliklari, ularni asosiy uch tovushliklari kuylash bilan farqlashga o'rgatiladi. (Do major va Lya minor misolida). **C-dur, A-mol**

SHundan so'ng Do major tovush qatorini 2/4 va 3/4 o'lchovlarida taktab kuylash mashqlari bajariladi.

**3-sinf.** Musiqaning shakl va mazmuni, ansambl va uning turlari, xor va orkestr, oddiy musiqa shakllari, band va naqarot haqida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Mavzular yuzasidan yangi kuy va qo'shiqlar bilan tanishadilar.

**Yil mavzusi "Musqaning ifoda vositalari".** *1-CHorak.* "Musiqaning ifoda vositalari". Ayrim mashq va qo'shiq nota yozuvini kichik qismlarini nota yozuviga qarab kuylash. Bunda dastlab o'qituvchi yordamida, so'ngra unga ergashib va keyin mustaqil kuylashga o'rgatiladi.

*2-CHorak Mavzu: "Xor va orkestr".* Nota savodxonligi bo'yicha aytim mashqlar va qo'shiq qismlarini va nota yozuviga qarab kuylash malakalari ustida isholib boriladi. Major va minorni eshitib farqlashga e'tibor qaratiladi. *3-CHorak. "Musiqaning tuzilishi".* Aytim mashqlar va qo'shiqlarni o'qituvshiga ergashib notaga qarab, oldin nota nomi bilan, so'ngra qo'shiq



soʻzlari bilan kuylash, major va minor ladlarini **1, 2, 3, 4, 5** – bosqishlari haqida aniq bilimlarga ega boʻlish, shuningdek **diez, va bemol kabi** alteratsiya belgilari bilan tanishishlari lozim boʻladi.

*4-CHorak. Mavzu: (Oddiy musiqa shakllari. Band va naqorat).* Major va minor uchtovushligi va butun tovush qatorni nota yozuviga qarab kuylash, alteratsiya belgilari diez, bemol-bekar haqidagi bilimlar ustida ish olib boriladi.

**4-sinf.** Oʻzbek xalq musiqa ijodi namunalari bilan tanishib, unda xalq aytimlari va cholgʻulari, bayram va marosim qoʻshiqlari, mavsum qoʻshiqlari, bahor fasli qoʻshiqlari haqida bilimga ega boʻladilar hamda ushbu mavzular asosida kuy-qoʻshiqlarni tinglaydilar va kuylaydilar. Bular orqali nomoddiy madaniy merosimiz namunalari bilan tanishadilar, milliy qadriyatlarga eʼtiqodli boʻlishni oʻrganadilar.

**Yil mavzusi: “Oʻzbek xalq musiqa ijodi”.**

1-chorak. “Xalq aytimlari va cholgʻulari”. Bunda quyidagisha nazariy bilimlarni egallash koʻzda tutiladi:

- ton va yarim ton haqida bilimlarni mustahkamlash;
- lad (major va minor) haqida bilimlarni mustahkamlash;
- 4/4 oʻlshovi bilan tanishish, mashq va aytimlar misolida oʻrganish;
- 2/4, 3/4, 4/4, oʻlchovlarini kuchli, kuchsiz hissalariga koʻra farqlash;

dirijyorlik ishoralariga qarab, uni tushunib kuylash.

*2-CHorak. Mavzu: “Bayram va marosim qoʻshiqlari”.* Nota savodxonligi: Do major, Sol major va Lya minor, Mi minor tonliklarini qiyosiy oʻrganish, tonlik haqida tushuncha hosil qilish, qoʻshiqlar misolida 6/8 oʻlchovi bilan tanishish.

*3-CHorak. Mavzu: “Mavsum qoʻshiqlari”.* Major va minor tovush qatorlarni nota nomlari va soʻz boʻgʻinlari, (lya, ma, mi, da va hakazo) bilan kuylash. Oʻqituvchi ovoziga joʻr boʻlib soʻngra mustaqil ravishda do major, lya minor, sol major, mi minor tonalliklarini dirijyorlik qilib (2/4, 3/4, 4/4 oʻlchovlarida) kuylash.

*4-CHorak. Mavzu: “Baxor fasli qoʻshiqlari”.* Fa major, Re minor tonalliklari asosiy (turgʻun) tovushlarini kuylash. Ularni turli ritmik choʻzimda va 6/8 oʻlchovida kuylash. Mashq va qoʻshiqlarni nota yozuviga qarab avvaliga solfedjiolash uslubida, soʻngra soʻzlari bilan kuylash malakalari ustida ish olib borish. Koʻrinadiki, boshlangʻich (1-4- sinflar) da oʻquvchilarda hosil qilinadigan nazariy bilimlar ularga nazariy limlarni mukammal oʻrganishni emas, eng oddiy atamalar, musiqani ifoda vositalari haqidagi boshlangʻich maʼlumotlarni egallash va shu orqali ularda notaga qarab kuylash, yaʼni nota oʻqish malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

**5-sinfda** kompozitorlik musiqa janrlari haqida bilimlarga ega boʻlib, u orqali oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri, xor sanʼati, simfonik orkestr, musiqada vokal-simfonik janrlar, sahnaviy musiqa asarlari, balet va raqs sanʼati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar, opera sanʼati,

o‘zbek musiqasida opera janri haqida ma’lumotlar oladilar. SHaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga etishadilar.

**6-sinfda** Mumtoz musiqa keng yoritilgan. Undan o‘quvchilar mumtoz musiqa haqida tushuncha, zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari, sharq xalqlarining mumtoz musiqasi hamda Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishadilar.

**7-sinfda** xalq musiqasining mahalli uslublari, Farg‘ona – Toshkent, Samarqand – Buxoro, Surxondaryo – Qashqadaryo, Xorazm vohalarining mahalli uslublari hamda o‘ziga xos ijrochilik an‘analari, xususiyatlari, musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik)ni o‘rganadilar. Maqom haqida umumiy tushunchaga, o‘zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, shashmaqom, uning cholg‘u, ashula yo‘llari, Farg‘ona – Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg‘u va aytim yo‘llarini kuylash hamda tinglash imkoniga ega bo‘ladilar. SHu bilan birga o‘zbek musiqa san‘atining jahon musiqa san‘atida tutgan o‘rni hamda O‘zbekistonning musiqa madaniyati haqida zarur bilimlarga ega bo‘ladilar. Unda atoqli o‘zbek san‘atkorlari va musiqiy jamoalari, teatr san‘ati va kontsert ijrochilik faoliyati, televidenie va kino musiqasi haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

“Musiqqa madaniyati” fani o‘quv dasturidagi biror bob yoki bo‘limning o‘rganish tartibini, jamoa bo‘lib kuylash va musiqa tinglash faoliyatlari uchun berilgan asarlarni o‘qituvchi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini va ijro imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘rinlarini o‘zgartirib o‘qitishlari mumkin.

### **1.2.Hozirgi zamon musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi**

1998 yili O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarida musiqa ta’lim-tarbiyasi Kontseptsiyasi ishlab shiqildi va qabul qilindi. Unda jami V-bo‘lim mavjud. I – bo‘lim: “Musiqqa madaniyati fani o‘qituvchisining metodologik tayyorgarligi”; IV bo‘lim - “Hozirgi zamon musiqa o‘qituvchisi” deb nomlanadi.

Musiqa ta’lim tarbiyasi Kontseptsiyasining 3-bobi «Musiqqa ta’lim-tarbiyasida mazmuni, tuzilishi va tabaqalanishi» deb nomlanadi. Musiqqa sabog‘i tarbiyalovchi, shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta’lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat hissiyotlarini tarbiyalash bilan birga yosh avlodda oliy insoniy fazilatlarini tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta’limshunosligi hamda o‘qitish uslubiyotiga tayanish lozim bo‘ladi. Musiqqa ta’lim va tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosiy o‘rin egallaydi. Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab qardosh xalqlar va umumbashariy musiqa madaniyati bilan tanishish, ya’ni «ta’limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarining ustivorligi»ga amal qilish musiqa o‘qitishning muhim didaktik yo‘nalishi hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni ikki shaklda – dars va sinfdan (shuningdek, maktabdan) tashqari musiqiy mashg'ulotlar tarzida amalga oshiriladi. O'qitishning asosiy hamda barcha o'quvchilar uchun zaruriy shakli musiqa darslaridir. SHu bois dars tuzilishlari va o'qitish usullarining xilma-xil shakl turlarini qo'llash va tajriba jarayonida darsning yangi tuzilma, usullarini kashf etish dolzarb masala bo'lib turadi. Bunda milliy va sharq musiqa ta'limshunosligini o'rganish, undan unumli foydalanish muhim omil hisoblanadi.

Musiqa ta'limi nazariyoti va amaliyoti ilg'or tajribalarga tayanadi, uning mazmuni musiqa san'atining umumiy qonuniyatlariga tayangan va musiqiy-mavzuviy tizim asosida ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. Unda ta'lim-tarbiya uyg'unligiga amal qilinadi va maktab bitiruvchilarining barsha fanlar qatori musiqa san'ati sohasida ham ijobiy ko'nikmalarni shakllantirib, madaniy hayot uchun zarur bo'ladigan umumiy bilim malakalariga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi.

*Musiqa ta'lim-tarbiyasi mazmuni quyidagicha tarkib topadi:*

Boshlang'ich maktab (I-IVsinflar). Boshlang'ich maktabda o'quv musiqa madaniyatining asosiy poydevori shakllanadi. Ammo maktabgashcha tarbiya inson shaxsi shakllanishining muhim, ma'suliyatli davri sifatida mustaqil ahamiyat kasb etadi. CHunki u boshlang'ich ta'limning tayyorgarlik bosqichidir. SHu bois, bolalar bog'chalariga qatnamaydigan bolalar uchun davlat aralash (qisman pulli) hamda xususiy (pulli) shakldagi musiqiy-badiiy tayyorlov guruxlarini ochish (san'at, nutq, axloq, tabiatshunoslik, hisob o'qitish)ga e'tibor kuchaytiriladi.

Boshlang'ich maktab musiqa darslarida bolalarning aqliy rivojlanishlari me'yoriga mos oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi.

Musiqani tinglash, qo'shiq kuylash, oddiy cholg'ularda chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari, bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baxolash, musiqa ijodkorligi malaka-ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasida o'quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiyoj uyg'otiladi.

Musiqa darslari maktabda teng huquqli fan hisoblanib, haftada ikki soatdan o'qitiladi, maktab o'quv rejalari va dasturlariga yozma ishlar, reyting hamda muqarrar va ixtiyoriy imtihonlar joriy etiladi.

Iqtidorli va ishtiyoqmand o'quvchilar badiiy ehtiyojlariga qarab fakultativ darslar, musiqa to'garaklari va boshqa mashg'ulotlarda badiiy rivojlantiriladi. O'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, badiiy ehtiyojini qondirish, iqtidorli o'quvchilarni ijobiy rivojlantirish yo'lida tabaqalashtirib o'qitish uchshun zarur imkoniyatlar yaratiladi.

Kontseptsiyada tabaqalashtirib o'qitishning quyidagi shakllari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Musiqani chuqur o'rganuvchi maktab (sinflar) oshiladi; iqtidorli bolalar uchun o'quvchilar uylarida turli musiqa to'garaklari va studiyalari hamda bolalar musiqa maktablari tarmoqlari kengaytiriladi; malakali mutaxassis va zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lgan maktablarda cholg'uchilik, raqs, xonandalik va boshqalardan guruxli hamda yakka darslar,

ota-onalar roziligi va maktab pedagogik kengashi qarori bilan yarim pullik yoki to'la pullik yakka hamda guruxli musiqa darslari tashkil etiladi.

Iqtidorli o'quvchilar badiiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida izlanishlar olib boriladi, bunda rivojlangan mamlakatlar tajribalari o'rganiladi. Musiqani mufassal o'rganadigan kollejlarda va litseylar ochiladi, xususiy san'at maktablari tarmoqlarini rivojlantirishga imkoniyatlar beriladi.

Musiqani o'qitishning barcha shakllariga doir dasturlar ilmiy asosda ishlab shiqiladi va yangi darsliklar, o'quv metodik ko'rgazmali qo'llanmalar yaratiladi. Eng yaxshi dasturlar va darsliklar uchun tanlov e'lon qilinadi. Kontseptsioning 4-bobi «Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi» deb nomlanadi.

Unda hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqat, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozimligi ta'kidlanadi. U o'zini uzluksiz kasbiy va madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shartligi, musiqa, nafosat (estetika), pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan musiqani o'qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim hamda malakalar egasi bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, musiqa o'qituvchisi ixtisosida zarur me'yorda cholg'uchilik, xonandalik, xor dirijyorligi va musiqa nazariyotchiligi sifatlariga ega

bo'lmog'i lozimligi ham alohida uqittiriladi. Zamonaviy musiqa o'qituvchisi milliy musiqa hamda o'zbek adabiy tilini mukammal bilmog'i, umumbashariy musiqa madaniyatidan, kundalik musiqaviy-madaniy hayotdan voqif bo'lishi shart. Musiqani o'qituvchisi pedagogik muloqot egasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozimligi aytib o'tiladi.

Musiqani o'qituvchisi kasbiy sifatlariga ta'rif berilib, hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozimligi bayon etiladi. O'qituvchi musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, olib borishi kerakligi haqida ham uqtirib o'tiladi.

Izlanuvchan va ijodkor o'qituvchining ilg'or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagi musiqa ta'lim-tarbiyasini doimo takomillashtirib, rivojlantirishning asosiy tayanchi, ilhom manbai ekanligi, bilimdon va tajribali musiqa o'qituvchisi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy-ma'rifiy ishlarning sarkori bo'lishi lozimligi eslatib o'tiladi.

Kontseptsiyaning so'nggi 5-bobi «Musika ta'lim-tarbiyasining ilmiy-uslubiy ta'minlanishi»ga bag'ishlanadi.

Unda umumiy ta'lim maktablarida musika ta'limi va tarbiyasi mazmuni hamda uslubiyoti milliy musika boyligimiz madaniy an'alarimizga tayangan holda ishlab chiqiladi. Bunda qardosh va jahon xalqlarining bu sohadagi ilg'or tajribalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi. SHu asosda yangi o'quv dasturlarining xilma-xilligiga erishilishi aytib o'tiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodkorligi va izlanuvchanligiga keng imkoniyatlar berilishi, ularning tajribalariga tayanib, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishlarida, bu ishga bilimdon olimlar, tajribali musika muallimlari keng jalb etiladi. Birinchi navbatda ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, bugungi ilmiy ishlaridagi sun'iylik, ilmiy sayozlik, ko'chirmachilik, amaliyotdan uzoqligiga barham berish choralari ko'rilishi alohida uqtirib o'tiladi. Buning uchun ilmiy pedagogik tadqiqot ishlariga ko'proq tajribakor amaliyotshi o'qituvchilar jalb etilishi, keng sinov amaliyotlaridan hosil bo'lgan puxta nazariyot asosidagina metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi haqida aytib o'tiladi.

Bunday qilib, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musika ta'lim-tarbiyasi Kontseptsiyasining qabul qilinishi muhim madaniy-ma'rifiy ahamiyatga molik masalalardan biridir. Mazkur hujjatda Respublika xalq maorifi tizimida musika ta'lim-tarbiyasi ishining rivojlantirish istiqbollari, musika madaniyati fanini o'qitishni sifatli bosqichga ko'tarish, musika ta'limi maqsad vazifalari asosida ma'rifiy-musiqiy ishlarni tashkil etish, musika o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi ishlarini yanada takomillashtirish xususidagi istiqbol yo'nalishlar bayon etib berilgan. Bugungi kunda musika madaniyati fani o'qituvchilari, shu soha bo'yicha tayyorlanayotgan bo'lg'usi mutaxassislar albatta, Respublikada musika ta'lim-tarbiyasining yangi Kontseptsiyasini qunt bilan o'rganib, unda izohlangan boblarning mohiyatini chuqur tushunib, idrok etib o'zlarining pedagogik faoliyatlarida tadbiq etishlari lozim.

Musika ta'lim-tarbiyasining maqsadi–yosh avlodni milliy musika merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musika boyluklarini idrok eta oladigan, anglaydigan hamda qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musika san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqadan zaruriy bilim, amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish-maktab musika ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Hozirgi zamon musika o'qituvchisi izlanuvchan, AKT vositalaridan foydalana oladigan, bolalarni estetik tarbiyaga yetaklovchi, ularni qobiliyatini ko'ra oladigan, psixolog, bolalardagi musiqiy qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirib, nafaqat musika tinglashni balki hissiyot bilan uni qabul etishni va ularni ifodali ijro etish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

## Musiqqa ta'lim-tarbiyasining

**Yosh avlodni milliy merosimizga vorislik qilib, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan hamda qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iborat.**

### Musiqqa ta'lim – tarbiyasining vazifalari

**O'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish**

**Musiqqadan zarur bilm, amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish**

**Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish**

Musiqqa darslarida internet tarmog'idan foydalanish ham hozirgi zamonaviy talablardan biridir. Bunda o'qituvchi turli davlatlardagi musiqqa dars jarayonlarini kuzatishi, ularning dars o'tish usullari, texnik vositalardan foydalanish, turli davlatlarning milliy qo'shiqlaridan namunalar keltirish, ularni taqqoslash, farqlash va zarur jihatlarni o'rganish ham dars jarayonini qiziqarli va rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Texnika asrida yashar ekanmiz zamonaviy kuy-qo'shiqlarini yaratish bilan birga, uni tinglashga o'rgatadi balki zamonaviy texnika vositalaridan keng va samarali foydalanib, o'quvchilarni eshitish qobiliyatlarini o'stiradi, o'z navbatida bolalarning vokal-xor malakalarni egallashlariga ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Musiqqa ta'lim-tarbiyasining yangi Kontseptsiyasiga asosan musiqqa ta'lim-tarbiyasi maqsadi – yosh avlodni milliy musiqqa merosimizga vorislik qilib, umumbashariy musiqqa bo'yligini idrok eta oladigan hamda qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqqadan zaruriy bilim, amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish- maktab musiqqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Ta'limning o'ziga xos jihatlaridan biri o'qishki, shaxs egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviy – ahloqiy sifatlar iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishning omili sifatida amalga oshirilmoqda. Axborot ko'lamining keskin o'sishi, insonlarda ma'naviy ehtiyojlarning oshishi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini yangi darajaga ko'tardi. Chunki, nafaqat ta'lim mazmuniga, balki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish madaniyati, uning yo'llari, shakllariga ham talab oshmoqda.

Ta'lim rivojlanishining asosiy xususiyatlari hozirgi paytda maxsus bilimlar, yuqori kasbiy tayyorgarlik va insonning umumiy madaniyati, uning ma'naviy xislatlari iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini yechishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Insonlar ma'naviy qiziqishlarining ko'p qirraligi, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, vazifalarini amalga oshirishda ma'lum darajada qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Buning asosiy sababi o'qishki, nafaqat tarbiyaviy ishlarni tashkil etish madaniyatiga, balki ularning mazmuni, uslubi va shakliga ham talablar ortadi. Tarbiya muammolari yechimini hal etishga atroflicha yondashish zaruratning paydo bo'lishi ijtimoiy hayotni, ma'naviy muhitni, iqtisodiy muhit bilan o'zaro chuqur bog'lanishi va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish vositalarini, ilmiy asoslangan uslublarini tadbiq etish bilan bog'liqdir.

*Pedagogik mahorat - musiqa o'qituvchisi kasbiy faoliyatining asosi:*

-Yuksak madaniyatli,

-O'z kasbiga cheksiz sadoqat

-Ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozim

*Ayniqsa musiqa madaniyati fani o'qituvchisi ixtisosida zarur me'yorida:*

-cholg'uchilik,

-xonandalik,

-xor dirijyorlik

- musiqa nazariyotchiligi sifatleri mujassam bo'lmog'i lozim. Hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozim. U musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik xayot bilan bog'lab, bo'yitib olib borishi darkor.

Izlanuvchan va ijodkor o'qituvchining ilg'or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagi musiqa ta'lim-tarbiyasini doimiy ravshda takomillashtirib rivojlantirishning asosiy tayanchi va ilxom manbayidir. Bilimdon va tajribakor musiqa o'qituvchisi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy-ma'rifiy ishlarning sardoridir. Ijtimoiy rivojlanish mohiyati va musiqa san'ati qonuniyatlarini anglash; Turli shaklda ommaviy targ'ibot va madaniy, musiqiy – ma'rifiy ishlarni

olib borish malakasi. Ahloqiy – an’naviy tarbiya metodikasini bilish va estetik shakllantirish. Badiiy tarbiya amaliyotida uni tadbiiq eta bilish.

*Psixologik-pedagogik tayyorgarlik.* Psixologik – pedagogik fan asoslarini bilish, ta’lim – tarbiya nazariyasi, musiqa san’ati psixologiyasi va shaxsning psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilish. Pedagogika – psixologiyadan nazariy materialni bilish bilan birga o‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur egallamoq, uning asosiy jihatlarini o‘quv – tarbiya amaliyotiga qo‘llay bilish. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini bilish, turli xil yoshdagi o‘quvchilarning musiqiy ehtiyoj va qiziqishlari shakllantirishning pedagogi – psixologik qonuniyatlarini bilish. O‘z professional (kasbiy) faoliyatini tanqidiy ba’hlash malakasi, shaxsiy pedagogik mahoratni doimiy takomillashtirib borish. Psixologo-pedagogik tajribalar olib borish malakasini egallash, tadqiqot farazini tasdiqlovchi ilmiy natija va xulosalar chiqara olishga erishish.

*Umumiy metodik va maxsus metodik tayyorgarlik.* Musiqiy tarbiya va o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini chuqur bilish. O‘quv jarayonini asosli rejalashtirish va uni tuzatish hamda to‘ldirishlar bilan boyitish, musiqiy-didaktik materialni maqsadga muvofiq tarzda tanlay olish, uni yetkaza olish. Musiqa madaniyati darslarida didaktik printsiplar va metodlardan foydalanish, tayansh musiqiy bilimlarni shakllantirish, turli yosh bosqichi o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlarini shakllantirish. O‘quv jamoasi ishini boshqarish va nazorat qila olish. Ilmiy-metodik adabiyotlar bilan asosli va metodik jixatdan samarali ishlay olish malakasi, musiqiy estetik-tarbiya muammosi va uning nazariy yechimlari bo‘yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.

*Musiqiy-pedagogik tayyorgarlik.* Musiqa nazariyasi va tarixi bo‘yicha musiqiy-nazariy bilimlarga; O‘zbekiston musiqa san’ati va jaxon musiqa madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi, umumbashariy xususiyatlari mohyatini chuqur tushunmoq, ularning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan o‘zaro bog‘liqligini anglamoq; Musiqa asarlarini tahlil qila olish, uni to‘liq idrok etish, mantiqiy anglab his etmoq; Xor drijyorligi va vokal-ijroshchilik bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish; Xor partiturasini o‘qiy olish, ijroshilik va asarlarning xor-vokal tahlili; Dirijyorlik texnikasining malaka va ko‘nikmalarini to‘liq egallaganlik; Ovozni qo‘yish metodikasi, ovoz tarbiyasi bilan shug‘ullanib bilmoq; cholg‘u-ijrochilik va jo‘rnazovlik faoliyati bo‘yicha bilim va malakalarga ega bo‘lish, cholg‘u asboblarni chala olish mahorati; Musiqiy-ijrochilik san’ati va yakka ijro malakasini egallaganlik; Bolalar qo‘shiqchiligi va cholg‘u ijrosiga jo‘r bo‘lish xususiyatlarini puxta bilish; Yakka va ansambl asarlarini notasini o‘qiy olish.



*“Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivali haqida.*

**“Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivali ishtirokchilari va mehmonlarining dastlabki guruhi Samarqand shahriga yetib keldi. Mehmonlar shaharning diqqatga sazovor joylari, tarixiy obidalari, xalqimizning urf-odat va an’analari bilan yaqindan tanishmoqda. O‘zA muxbirlari ularning mamlakatimiz va festival haqidagi taassurotlarini yozib oldi.**

**Sashar Zarif, Xalqaro raqs loyihasi tadqiqotchisi (Kanada):**

– Samarqandga, umuman, mamlakatingizga birinchi bor kelishim. Menga juda yoqdi. Ayniqsa, Registon ansambli hayratlanarli darajada go‘zal. Juda ko‘p xalqaro musiqa festivallarida ishtirok etganman. Lekin “Sharq taronalari” ular orasida alohida ajralib turadi. Chunki festivalda san’atning barcha ko‘rinishlari o‘z ifodasini topgan va o‘z nomiga munosib tarzda tashkil etilgan. Xususan, Sharq mamlakatlari va o‘zbek madaniyati uyg‘unlashgan. Mamlakatingiz ushbu xalqaro festivalga yuqori saviyada tayyorgarlik ko‘rgan.

**Vazkuyes Franko Xuan Antonio, jurnalist (Ispaniya):**

– Sharq madaniyati tarixi qanchalik boy va sermazmun ekanligidan xabardorman. Bugun Samarqanddagi muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlar, ma’lumotlar bilan tanishib, bu zaminda musiqa va san’at bir necha ming yillar davomida rivoj topib kelayotganiga guvoh bo‘ldik. Xususan, Samarqanddan miloddan avvalgi VIII asrga oid noyob topilma – hayvon suyagidan ishlangan nay cholg‘u asbobi topilgani yoki qadimiy Afrosiyob devorlaridagi suratlarda musiqachilarning aks ettirilgani ham shundan dalolat beradi.

Albatta, bunday tarixiy maskanda nufuzli san’at bayramida qatnashishning o‘zi katta sharaf. Ammo men Samarqandga kelishim bilan Ispaniya qirolligi bilan yaqin hamkorlik o‘rnatgan Amir Temurni yodga oldim. Bizning tashrifimiz ham o‘sha davrda yo‘lga qo‘yilgan aloqalarning mantiqiy davomidek tuyuldi menga. Biz bu imkoniyatdan samarali foydalanamiz va milliy musiqa madaniyatimiz haqida ma’lumot berish bilan birga o‘zbek milliy madaniyati, san’ati bilan yaqindan tanishamiz.

**Mun Xyun Suk, Xalqaro hakamlar hay’ati raisi, IOV xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti asoschisi (Janubiy Koreya):**

– “Sharq taronalari” bilan mazkur xalqaro musiqa festivaliga asos solinganidan buyon hamkorlik qilib kelamiz. Festival hamda uning doirasida o‘tkaziladigan konferensiya dunyo mamlakatlarining milliy musiqa san’ati, madaniyati boyishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bunday keng qamrovli festival dunyoning boshqa mamlakatlarida kuzatilmaganini alohida ta’kidlash lozim.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Xalk ta’limi Vazirligining asosiy vazifalari;
- 2.Maxalliy xalq ta’limi bo‘limlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi;
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi.
5. Maktabgacha ta’lim
6. Umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim
7. Oliy talimdan keyingi ta’limga
8. Maktabdan tashqari ta’limga
9. Musiqa tinglash, musiqa savodi, qo‘shiq kuylash
10. Jamoaviy aytm, bolalar cholg‘u-asboblari chalish, musiqiy ritmik harakatlari, musiqa ijodkorligi
11. Musiqa tarixi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Musiqa madaniyat fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o‘tqazish yuzasidan tavsiyalar. O‘R XTV RTM, Toshkent, 2006 y.
- 2.Malaka oshirish va qayta tayyorlash davlat talablarining qayta takomillashtirilgan varianti. Musiqa madaniyati. Toshkent, 2009 y.
- 3.Askarov I. va boshqalar. Musiqa 5-7 darsiklar. T.,2002,2006y.y.
- 4.O‘zRMSIV, O‘.D.K. R.Qodirov “Musiqa pedagogikasi”-T. -2013y.
- 5.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining pedagogik maxorati asoslari. Tuzuvchi: T.V.Shevchenko. T, 2001.

## **2-MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARS FAOLIYATLARINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH METODIKASI**

### **REJA**

1. Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati
2. Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishga o‘qituvchining tayyorgarligi
3. Musiqa savodi faoliyati

### **2.1. Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati O‘quvchilarning har tomonlama**



musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo‘lib harakat qilish malakalari shakllandi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati - ritm hissi faollashadi, Musiqiy

materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi.

Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati o'quvchining o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir etadi.

Musiqiy-ritmik harakatlar jamoaviy faoliyatlardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yurish, yugurish va sakrashda harakat koordinatsiyalari juda yaxshi. Musiqa sadolari ostida o'zlari maroq bilan: qarsak chaladilar, oyoqlari bilan tupillatadilar, turli buyumlar bilan, xususan, koptok, tayoqchalar, lentalar, sun'iy gullar, oddiy musiqa asboblari bilan ifodali harakatlar bajaradilar. Musiqa va harakat birligini his qilish ularga xosdir. Bu sifat esa - bolalar musiqiy-ritmik harakat faoliyatida musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. Vaqtning chegaralanganligi va maxsus xonaning yo'qligi sababli musiqa darslarida harakatlarni bajarish o'rinsizdir, balki ular ayrim raqs elementlarini o'tirgan yoki turgan holda bajaradilar.

Musiqiy-ritmik harakatlar ham boshqa faoliyat turlari kabi o'quvchilarda har tomonlama musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi:

- Musiqiy rivojlanadi;

- ijodiy qobiliyatlarni;

jamoabohar harakat bajarish malakalari shakllandi.

Musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarda ritm hissini faollashtiradi. Bu esa darsning musiqiy materialini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishi tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Harakatlar yordamida o'quvchilar asarning karakter xususiyatlarini ko'rsata oladilar.

Musiqiy-ritmik harakat - faoliyat asosida musiqiy materialni moterplastik qayta ishlashdir. U musiqaning emotsional ta'sirini kuchaytiradi. Bularning hammasini musiqa, uning karakteri, kayfiyati bilan harakatning uyg'unlashtiruvchi ko'nikma va malakalarni singdirilishi oqibatida yuz beradi va maqsadga erishiladi.



Ritmik harakatlar yordamida musiqa shakllari, musiqiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi taassurotlar mustahkamlanadi. Harakat karakteri va yo'nalishini o'zgartirish orqaligina erishish mumkin.

Musiqiy pesalar, qo'shiqlarni sahnalashtirish ifodali harakatlar

orqali nafaqat musiqiy-eshituv taassurotlari rivojlanadi, balki ijrochilik qobiliyatlari, badiiy didlari shakllandi. Agarda ularga mustaqil harakat o'ylab topish vazifasi yuklatilsa, ular musiqaning obraziga, karakteriga mos o'zlari harakat o'ylab topadilar va bajaradilar. Odatda sahnalashtiruvchi raqslarga dasturli musiqa tanlab olinadi, chunki uning mazmuni va harakatlarning ketma-ketligi ayon bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchi bilan

birgalikda mos harakatlarni topadilar. Bajarish vaqtida o'qituvchi bolalarga yordam beradi, yangi harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarish kerakligini tushuntiradi, ko'rsatib beradi.

Harakatlarni o'rgatish jarayonida kirish so'zi, tushuntirish, she'riy matndan foydalaniladi.

Harakatlarning yorqin taqqoslanishi o'quvchilarni ushbu harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishlariga yordam beradi.

Musiqqa ostida harakatlarni takomillashtirish paytida texnik vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o'quvchilarni o'ziga tanish bo'lgan kuylarni yangicha yangrashi bilan tanishishlari, o'qituvchiga esa harakatlarni aniq bajarishini ta'minlash imkonini beradi.

Musiqqa va harakat uyg'unligi insonning ma'naviy va jismoniy rivojini o'zaro bog'laydi va barkamollikka yo'naltiradi deb aytish mumkin. Musiqqa va harakatning o'zaro bog'liqligi masalalari ko'p marotaba

psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqashunoslikda ko'rib chiqilgan. Organizmning umumiy funktsional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini I. Sechenov, B. Teplovlar isbotlab berishgan. Musiqiy-ritmik tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan N. Aleksandrova, M. Rumer, Ye. Konorova, N. Vetlugina, M. Palavandishvili kabilar shug'ullanib kelganlar. SHu o'rinda XX asrning boshlarida ko'p mamlakatlarda shveytsariyalik musiqachi, pedagog E. Dalkroz tomonidan asos solingan ritmik tarbiya tizimining keng tarqalganini aytish joiz. E. Jak Dalkroz metodi - maxsus tanlab olingan mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirishga asoslangan.

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o'zaro bog'langan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

**Birinchi** Musiqiy rivojlantirishni ta'minlaydi, ya'ni musiqiy eshituvni o'stirish, harakatni musiqaga moslash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o'zlashtirishi; musiqiy va musiqiy eshituvni rivojlantirishni ta'minlaydi, harakatni musiqaga buysundira olish malakasini shakllantiradi, musiqiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

**Ikkinchi** yo'nalish to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tetik, xotirjam, sportcha, tantanavor, keskin prujina yurish va hokazo); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, keng, yumshoq, prujinali, xorovodli va hokazo); sakrashlar (engil, harakatchan); aylanishlar; qo'l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan); chapaklar (sekin, qattiq, past, baland, qo'l siltab, bir-biriga yaqin ushlab turib, sirg'aluvchi «likopchalar», kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlar); raqs elementlari (o'zbek xalq raqsalaridan «oyna», «arqon», «elka uchirish», «koptokni yuqoriga ot», chapak va yon tomonga qo'l harakati, ball, polka, golop, valsiga o'xshash raqs elementlari va hokazo.); oyoq uchida aylanish, prujinali qadam bilan sakrashning uyg'unligi; qo'l harakatlari (mayin,

keskin); turli holatlarda turish va o'zgartirish; buyumlar bilan harakat bajarish (koptok, lentalar, bayroqchalar bilan) ni o'z ichiga oladi.

**Uchinchi** yo'nalish o'quvchilarda tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan; aniq va tez to'xtash, harakatni o'zgartirish va hokazo).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarni e'tiborga olgan holda o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida tanlayotgan asari mavzu jihatdan, harakatlanish malakasi dars mavzusiga mos bo'lishi, aniq musiqiy-eshituv taasurotlarni, musiqiy bilimlarni chuqurlashtiradigan va mustahkamlaydigan, ijrochilik malakalarini rivojlantiruvchi bo'lishi zarur. Dars boshida va o'rta qismida qanday harakatlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar tomonidan harakatning sifatli va aniq bajarilishi musiqiy obrazning tushunishlari hamda o'qituvchining asarni ifodali ijrosiga bog'liqdir.

O'qituvchi o'quv materialini yoddan bilishi kerak. Harakat paytida u o'quvchilarni kuzatishi, ko'rishi va xatolarini tuzatishi zarur. O'quvchi barcha harakatlarni avval o'zi ko'rsatib berishi zarur, ayniqsa 1-2 sinflarga. Chunki birgina tushuntirish bilangina kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Harakatlarni ko'rsatish musiqaga bo'lgan emotsional javob qaytarishni kuchaytiradi.

## **2.2 Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishga o'qituvchining tayyorgarligi**

Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi musiqiy materialni dars mavzusiga mos holda tanlaydi. Mavzu, harakat ko'nikmalari aniq musiqiy eshitish vositasidagi tasavvurini (masalan, tambr yoki registr va hokazo) va musiqiy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. o'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlar sifati tinglangan musiqiy asarning idroki darajasi hamda o'qituvchining ifodali ijrosiga bog'liq. Ijro qilinayotgan asarni o'qituvchi yoddan chalishi kerak, chunki harakatlar bajarilishi vaqtida o'qituvchi o'quvchilarni kuzatib turishi, xatolarini tuzatishi lozim. Hamma harakatlarni avval o'qituvchi ko'rsatib beradi, ayniqsa, 1-2 sinflarda. Faqatgina og'zaki tushuntirish bilan ijobiy natijalarga erishish qiyin. Harakatlarni ko'rsatib berish o'quvchilarda musiqaga bo'lgan hissiy munosabatni faolashtiradi.

O'qituvchi barcha harakatlarni o'rgatish jarayonida obrazli so'z, tushuntirish, she'riy matndan foydalanish maqsadga muvofiq.

Harakatlarni tushuntirishda yorqin taqqoslashlar o'quvchilarga harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishga yordam beradi. Masalan, "Mening jajji toychog'im" so'zlari bolalarga tez, yengil, harakatchan, baland qadam tashlash va sakrama harakatlarining ifodaviyligini anglashda yordam beradi. Bu esa M.Otajonovning «Toychoq» pesasi mazmunini, undagi musiqiy obrazning rivojlanishi xususiyatlari, asarning shaklini his etish va ongli tushunish imkonini beradi.

Musiqaga harakatlar bajarishda o'qituvning texnik vositalaridan keng foydalanish lozim. Bu o'quvchilarni ularga tanish bo'lgan asarni yangi talqinda, jaranglashda ko'rsatib berish, o'qituvchiga o'quvchilar bajarayotgan harakatlarning sifatini kuzatish, lozim bo'lgan joylarda o'zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi.

### Darsda harakatlarni qo'llash uslublari



#### Musiqiy-ritmik

harakatlar bolalarning badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun o'quvchilarni bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. o'quvchilar xonada musiqa ostida qadam

tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal - belgilarga (harakatni boshlash, o'zgartirish va hokazo) javoban harakatlanishni o'rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o'rinlardan turib saflanishga signal bo'lsa, D. Nazarovning «Yurish marshi» ko'yinging boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuyga uchburchakning jo'rliqi qo'shilgan joyda esa sakrashga o'tishni ko'rsatishi lozim.

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni badiiy jihatdan boyitilishi uchun bolalarni shu faoliyatga tayyorlash kerak. SHuning uchun o'quvchilar avval harakatlanish malakalari haqida taassurot olishlari zarur. Ular xonada musiqa ostida marsh yurishni, yengil yugurishni, shartli musiqiy signallarga buysunishni o'rganadilar.

O'quvchilar aniq mo'ljal uchun berilgan mashqlarni o'zlashtirganlaridan so'ng, darsga maxsus vazifalar kiritiladi: Musiqiy obrazning karakter xususiyatlarini harakatlarda ko'rsata olish, bajara olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan: marshning turli karakterida turlicha harakatlanishni o'rganadilar: sportdagi marshda - tetik, o'yinchoqlar marshida-engil, oyoq uchida; harbiy marshda-baland qadam bilan va hokazo.

Bunda S.Abramovaning «Marsh» kuyidan foydalanish mumkin. O'qituvchi harakat uchun mashqlar va sinfga kirish uchun nafaqat marshlardan, balki tetik, tantanovor kayfiyatdagi asarlarni ishlatish mumkin. O'zbek xalq kuyi «Qari navo» kuyi ostida sinfga kirib kelish mumkin.

Eng oddiy raqs harakat elementlari bu - qarsak va oyoq tupillatishdir. Ularning yordamida o'quvchilar o'z taassurotlarini mustahkamlaydilar.

Harakatlarda ritmik suratni o'zlashtirishga katta ahamiyat berish kerak. O'quvchilarning diqqatini to'xtamlarga, bir tekis harakatning o'zgarishiga, marsh musiqasining punktir ritmga qaratish kerak. Buni masalan, «Kim yuryapti?» degan

o‘yin yordamida o‘rgatish mumkin. Bu yerda bolalar bir necha guruhga bo‘linadilar: birinchi guruh «Turnalar» musiqasiga yura-yura bir oyoqda to‘xtaydi; ikkinchi guruh-poezd musiqasi ostida harakat-yurish tezligi oshadi va sekin-astalik bilan to‘xtaydi; uchinchi guruh - "Qurbaqalar" musiqasi ostida sakrab yurishadi. SHunday o‘yinlarni qo‘llasak, bolalarda ritm hissi faollashadi, musiqani yanada chuqurroq tinglash malakasi oshadi.

Harakatlar yordamida bir qancha musiqiy taassurotlarni shakllantirish mumkin, xususan, ikki, uch hissali o‘lchovda. 2/4 ulchamidagi musiqaga joyda turib oyoq uchida ko‘tariladilar va tushadilar. 3/4 ulchamidagi musiqaga esa, «birinchi» hissaga tushadilar, «uchinchi» hissaga ko‘tariladir. Bolalar bu harakatlarni o‘zlariga tanish bo‘lgan musiqa sadolari ostida bajaradilar (polka va vals). Bolalar «Musiqiy badantarbiya» yoki «o‘z raqsingni bilib ol» o‘yini orqali o‘ynashlari mumkin.

Har bir guruh o‘z raqsiga mos ritmda harakat bajaradilar. O‘qituvchi esa musiqaga mos, ritmik va harakterini aniq ifoda eta olgan guruhni aniqlaydi va rag‘batlantiradi. Musiqiy ritmik faoliyatda nafaqat milliylikni rivojlantirish, balki harakatning madaniyligini, bolalarning badiiy didini rivojlantirish ham nazarda tutiladi.

O‘qituvchi musiqiy materialni tanlayotganida qaysi tayyor asarni olish mumkinligini va qaysilarini badihago‘ylikka berish kerakligini aniqlashi kerak.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning tashabbuskorlarini qo‘llab - quvvatlash zarur, o‘z raqsiga o‘ylab topgan harakatlarni asar harakteriga mos va unga xos xususiyatlari mujassam bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda musiqiy-ritmik faoliyat quyidagicha maqsadga muvofiq rejalashtiriladi.

Birinchi sinfda o‘qituvchining faoliyati bolalardagi maktabgacha

muassasadagi tajribalarini yanada faollashtirish, shuningdek harakatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak:

- a) raqs elementlari
- b) jismoniy tarbiya elementlari.

Bu yoshdagi o‘quvchilar harakatlarni o‘zlari o‘ylab topadilar. Keyin esa o‘qituvchi harakatlarning ifodali bajarilishiga e‘tibor qaratadi, chunki bolalar harakatlarni musiqa bilan aloqasini tushunishlari, ularga tanish bo‘lgan musiqiy o‘yinlardagi harakatlarni qo‘llay olish malakasini shakllantirishga yordam beradi. Bolalar musiqaning harakter va ifoda vositalarining o‘zgarishini aniq sezishlari kerak. Musiqiy nutq elementlari, ifoda vositalari haqidagi taassurotlar ijodiy vazifalarda mustahkamlanadi.

Birinchi sinf musiqa darsida musiqiy-ritmik harakatlarni tashkillashtirishda - bosh o‘rinni o‘yinlarga ajratish lozim. O‘yinlar bolalarni musiqaga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, musiqiy obrazni qabul qilishga yordam beradi.



Ikkinchi sinfda - darsdagi musiqiy-ritmik faoliyat o'quvchilarni avvalgi malakalarini yanada murakkabroq harakatlar orqali mustahkamlashga qaratiladi. Tanish bo'lgan harakatlarni raqslarda ijodiy ishlata olishni shakllantirish ham kiradi. Marsh va raqs harakatlarini bajarishdagi malakalari musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarini farqlashga, ikki ritmik birlikning muttanosibligini, nota yozuvini o'rganishga yordam beradi.

Uchinchi sinf o'quvchilarida o'zgargan qismlarda harakatlarni o'zgartirish malakasi mavjud bo'ladi. Musiqiy rivojlanish qonuniyatlarini va musiqiy shakllarning tuzilishini o'rganish jarayonida musiqiy jumlar ishlatiladi. Raqsning, qo'shiqning, marshning ritmik harakterni ajratish, cho'zimlarini bug'inlar yordamida belgilash («ti» va «ta» va boshqalar), nota yozuvida ko'rsata olish, musiqiy intonatsiya haqidagi tushunchani o'zlashtirishga yordam beradi.

Turtinchi sinfda - improvizatsiya va folklor - qo'shiq materiallari, xalq musiqasining xususiyatlari haqidagi taassurotlar keng ishlatiladi. Bu yoshdagi bolalar milliy raqs elementlari bilan tanishadilar. Ularning ritmik intonatsiyalari jihatdan o'ziga xosligidan o'quvchilar alohida millat musiqa «tili» ni, uslubini tushunib oladilar.

Ilk bosqichda o'quvchilarda aniq musiqiy taassurotlarni shakllantirish o'yin shaklida o'tkaziladi.

Musiqiy o'yinlarda bolalar xona bo'ylab harakatlanishni, shartli musiqiy signallarga ahamiyat berishni, tovushlarni balandligini, qattiqligini, oddiy musiqa cholg'ularining tembriga qarab farqlashni o'rganadilar. Xususan, doyraning bir tekis urilishiga bolalar yugursalar, kichik uchburchakning tovushiga to'xtaydilar.

Bolalarni yengil yugurishga, yo'nalishni tezda o'zgartira olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'yin davomida cholg'ular o'rtasidagi masofani o'zgartiradi, ya'ni doyrani ma'lum vaqtgacha urib turadi yoki kamroq uriladi. Bu esa bolalarning eshituv diqqatini oshiradi, cholg'ularning tembriga bo'lgan munosabatini (reaktsiyani) mustahkamlaydi. Ammo o'qituvchi bolalar oldiga vazifa qo'yayotganida dinamika haqida bolalarga tushuntirishi kerak: qattiq zarblarga yurish, xuddi «ayiqqa» o'xshab borish; sekin zarblarga -engil «qushlar»ga o'xshab qo'llarini qanot qilib oyoq uchida yugurish.

O'qituvchi o'yin davomida o'quvchilarni kuzatishi kerak, harakatlarni ritmik aniq, bolalarning qaddi-qomati to'g'riligiga ahamiyat berishi kerak. O'yinga turli karakter o'zgarishlar kiritilishi unga quvnoq, qiziqarli tus beradi. Bunday mashqlar va o'yinlar uchun o'qituvchi o'z xohishiga qarab musiqa tanlaydi, lekin dastur bo'yicha bo'lishi shart.

Agar birinchi harakatlanuvchi mashqlar o'quvchilarda musiqiy hodisalarda harakterni aniqlash bo'lsa, keyingisida aniq musiqiy-eshituv taassurotlarini shakllantiruvchi mashqlar bo'lishi kerak.

Bunday boshlang'ich muljal olish mashqalaridan so'ng dars jarayonida o'quvchilarga harakatlarda musiqiy obrazning karakteri xususiyatlarini ko'rsatib



berish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar beriladi. Masalan, marshlar turiga qarab harakat qilish: sport marshiga - shaxdam, bayram marshiga - tantanavor, soldatchalar marshiga - baland qadamlar tashlab harakatlanish; raqs musiqalarini ohang karakteri va tempiga qarab turlash orqali qo'l, bilak va yelka harakatlarini asarga mos holda «o'ynatish»: yengil raqs («Bahor keldi»), o'ynoqi raqs («Ufor»), Xorazmcha raqs («Lazgi»), ohista, ravon, Mayin raqs («Bahor valsi») va hokazo.

CHapaklar, qarsaklar, oyoq dupillatishlar harakat elementlarining eng oddiyalaridandir. Ular o'qituvchiga kuy ritmlari, nota cho'zimlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, o'zbek xalq kuylari «Do'loncha» va «CHertmak» asarlariga chapakda jo'r bo'lish orqali bolalar «Do'loncha» quyidagi tovushlar cho'zimi «CHertmak» quyidagi cho'zimlarga nisbatan qisqaroq ekanligi hamda qisqa tovushlar yugurish uchun, uzunroq tovushlar qadam tashlashga qulayligini his etadilar. Bu kuylarning ritmik xususiyatlarini taqqoslab, o'quvchilar musiqa karakteri va uning ifoda vositalari o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar.

#### *Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush balandligini eshitishni shakllantirish*

1. Bolalar ko'zlarini yumib, tovush balandligini cholg'uning tembri bo'yicha aniqlaydilar. Harakat - ramzlar orqali javob qaytaradilar. Masalan:

A. Muhamedovning «SHohi suzana» quyidagi past tovushlarga-oyoqlarini o'ynatadilar, baland tovushga - qo'l bilaklarini aylantiradilar; doyra tovushiga - shu cholg'u ijrosini ko'rsatadilar. 2. O'quvchilar turadilar. Birinchi turgan bola koptokni oladi. Agar musiqa baland yangrasa, bola koptokni boshi orqali keyingi bolaga doyra bo'ylab uzatadi, agar past yangrasa, oyoqlari orasidan uzatadi.

2. O'quvchi tinglagan ohangining doskaga bo'r bilan chizadi. Keyin ikki yoki uch o'quvchi xuddi shuni xayolan doskaga chizadilar va harakat bilan ifodalaydilar. Bu mashqda D.Zokirovning «Gulxan» kuyidan foydalanish mumkin.

#### *Musiqiy-ritmik harakatlarda ritm hissini oshirish*

1. Bolalar doyra bo'lib yoki partada o'tiribdilar. M.Mirzaevning «Bahor valsi» kuyiga koptokni ushlagan bola choraktali cho'zimga koptokni y qo'lidan bu qo'lga o'tkazadi, yarimtalik cho'zimga doyra bo'ylab yoki partadoshiga uzatadi.

2. Bolalar xona bo'ylab yorqin kuyga yuguradilar, mayin, ohista musiqani tinglashlari bilan juft bo'lib aylanadilar.

3. «Aks sado» o'yini harakatlarda: ritmik suratni boshdan yuqorida, orqada oldida chapak bilan takrorlash, keyin oyoqlarni turgan joyda tupillatish yoki yon tomonga chapak chalib oyoqlarni tupillatish.

4. O'quvchilar vazifa oladilar: berilgan harakatga ritmik suratni chapak orqali yoki ko'ylab berish. Avval o'qituvchi ritmik asosni harakatda ko'rsatadi, keyin esa o'quvchilar chapak yoki barmoqlarni qarsillatish orqali namoyon etadilar.

Harakatlar yordamida o'quvchilarda bir qator musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllantirish mumkin:

#### Ikki yoki uch hissasi o'lchov haqidagi tasavvurlar

1) Bunda o'quvchilar turgan holda 2/4 o'lchovidagi musiqaga oyoq uchida ko'tarilib va pastlab harakat bajaradilar, yoki

2) 2/4 o'lchovidagi musiqaga kift va yelkalarini boshga qarab ko'taradilar va o'z holiga tushiradilar

3) 3/4 o'lchovidagi musiqaga esa-birinchi hissaga yengil yarim o'tiradilar va «uch»ga turadilar va hokazo.

#### Harakatli mashqlar

1) Bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar va tovushlar balandligi yoki cholg'ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakatli belgilar yordamida ko'rsatadilar. Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga - qo'l bilaklari, doyra jarangiga bolalar doyrasida ijroga taqlid qilib ko'rsatadilar.

o'rta registrdagi tovush eshitilsa, bolalar ko'krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdagi tovush chalinsa - boshlari uzra chapak chaladilar.

2) Ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qismli asardagi registrnlarni taqqoslashda qo'llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o'rta registrda esa -tanani harakatlantiradilar va hokazo.

Bunda bir o'quvchining harakatlariga ikkinchi o'quvchi oddiy cholg'uda ritmik jo'r bo'lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshiriladi.

#### Musiqqa tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1) O'qituvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqiy asar ostida yurish yoki yugurish (sakrash);

2) Hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, tashbaqa; tez harakatlanuvchi - tulki, quyon, it va hokazo.

Bunday va bunga o'xshash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida o'qituvchi bir qator musiqiy tasavvurlar va bilimlar doyrasini (dinamika, musiqqa shakli, musiqiy jumla, tovush yo'nalishi va hokazo) tarkib toptirishi boshlang'ich sinflarda musiqqa o'qitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

1. Yurish va yugurish turli tempdagi ijro. P.I. CHaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» bunday mashqlarda juda qo'l keladi.

2. Ijro etilayotgan musiqiy obrazga xos ravishda harakatlanish.

3. Bir o'quvchi bolalarga tanish bo'lgan harakatlanuvchi mashqlarni boshqarib turadi. Qolganlar esa bajaradi.

4. Hayvonlarga taqlidiy harakatlar: sekin-fillar, toshbaqalar, ayiq; tez-quyon, kuchuk, va boshqalar.

5. Musiqaning tezlashishi yoki sekinlashishi ostida harakatlarni o'zgartirish: yurishdan yugurishga, yugurishdan sakrashga va hokazo.

6. Musiqaning tezlashishi va tto'xtashiga improvizatsiya, masalan: avtomabil, paravoz, arg'imchoq.

O'quvchilarga ular tinglanayotgan va kuylayotgan musiqiy asarlari mazmuni va harakteriga mos keladigan raqs va musiqiy-ritmik harakatlarni tanlash, topish va mustaqil ijro etish taklif etilsa, bunday vazifalar ularda ijodkorlik qobiliyatlarini faolashtiradi, badiiy didni rivojlantiradi. Bu vazifalarni osonlashtirish maqsadida mazmuni va harakat ketma-ketligini namoyon qiluvchi qo'shiq va dasturiy musiqa asari qo'llaniladi. SH. Najmiddinovning «Bolalar va g'ozlar», T.Toshmatovning «Ayiqpolvonlar bog'chasi», o'zbek xalq folklori «Boychechak», T.Xusayinlining «Jo'jalarim», A.Mansurovning «Piyoda askarlar qo'shig'i», P.CHaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» va hokazo asarlarini keltirish mumkin. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda harakatlarni topadilar. Ijro paytida o'qituvchi bolalarga harakatlarda ifodaviylikka erishish, ularni yaxshirok bajarish yo'llarni ko'rsatib boradi.

Musiqiy material tanlar ekan, musiqa o'qituvchisi qaysi asarda tayyor kompozitsiyasini qo'llash mumkin, qaysi asarni esa bolalarning o'zlari ijod qilib, harakat va raqs elementlarini topishlari uchun muljallash kerakligini aniqlaydi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ularda tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni qo'llab-kuvvatlab, rag'batlantirib borish muhimdir.

#### Musiqiy dinamika haqidagi taassurotlarni shakllantirish

1. Musiqa ostida dinamikani ko'rsata olish  $R$  ga - oyoq uchida yurish,  $R$  ga - tovonda yurish,  $R/R$  ga - dinamikaga xos kichik, o'rta, katta qadamlar bilan yurish.

2. Raqsda dinamikaning o'zgarishini qo'llar, bosh, yelka va hokazolar bilan ko'rsata olish. Masalan: kaft-bilakni aylantirish, tirsak-qo'llarni aylantirish.

3. Musiqa ostida krishchendo va diminuendoga qarab harakat bajarish: o'quvchilar doyra shaklida turib oladilar, agar tovush sekin-asta pasaya borsa, doyra torayadi, balandlasa kengayadi.

4. Gullar raqsini improvizatsiya qilish orqali bolalar musiqadagi dinamik o'zgarishlarni ko'rsatadilar, ya'ni gul o'sadi, ochiladi, suliydi yoki quyoshga talpinadi, shamoldan tusatdan sinadi va hokazo.

#### Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush kayfiyati haqidagi taassurotlarni shakllantirish

1. Bolalar juft bo'lib turadi, har bir bolada bittadan yumshoq koptok bor. Stakkato ijroga bolalar koptokni yerga (polga) uradilar, mayin, ohista kuyga u qo'ldan bu qo'lga o'tkazadilar. Bunda R.SHumanning «Jasur chavandoz» kuyidan foydalanishimiz mumkin.

2. O'qituvchi katta koptokni olib - stakkatoga-koptokni polga uradi, legatoga esa koptokni havoda yarim doyra yoki to'lqinsimon harakat qilib qo'llarida harakatlantiradi. Keyin esa bolalarga stakkato kuyga koptok misol

sakraydilar, ligatoga qo‘llarini havoda u tomondan bu tomonga «shamolda esayotgan navdalar» harakatini bajaradilar.

3. Mayin ohista kuy ostida bolalar juft bo‘lib doyrada aylanadilar. Qisqa yorqin kuyni tinglashlari bilanoq qo‘llarini qo‘yib yuboradilar va toki legato kuy ijro etilmagunicha turgan joylarida yengil sakraydilar

### Musiqiy-ritmik harakatlarda taassurotni shakllantirish

1. Bolalar doyra bo‘lib qo‘llarini ushlab yuradilar, har bir musiqiy jumlagacha yo‘nalishlarini o‘zgartiradilar. Bu vazifa birinchi o‘qituvchi bilan birgalikda qo‘shiq kuylash ostida o‘tkaziladi, keyin esa musiqa ostida o‘qituvchining yordamisiz bajariladi.

2. Bolalar doira bo‘lib o‘tiradilar. CHiqarilgan bir o‘quvchi doira ichida ko‘ptok bilan musiqaga mos ravishda harakatlanadi. Musiqiy jumla yakunida u keyingi bolaga ko‘ptokni beradi va o‘yin shunday davom etadi.

3. O‘quvchi tinglayotgan musiqaning musiqiy jumlasini xayolan qo‘llari orqali doskaga chizadi. O‘quvchining harakatlari asar tempiga, harakteriga mos bo‘lishi muhim o‘rin egallaydi.

4. Doskada yoki qog‘ozda turli musiqiy fragmentlarning grafik chizmalar tasvirlangan bo‘lib, bolalar tinglayotgan musiqaga mos chizmalarni tanlaydilar, keyin esa o‘zlari shu musiqaga mos harakatlar o‘ylab topadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, musiqa madaniyati darslarida raqs va musiqali harakatlarga alohida e‘tibor berishimiz kerak. Bu faoliyat turi o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg‘usi va asar badiiyatini ifodalash, ijrochilik malakalarini rivojlantirish bilan birga ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino aytganidek - tebranish jismni chiniqtirsa, musiqa esa ruhiyatni tarbiyalaydi. SHu bois, musiqa o‘qituvchisi boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda, raqs san‘atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo‘llash usullarini puxta egallagan bo‘lishi bugungi davr talabidir.

### **2.3. Musiqa savodi faoliyati** Musiqa savodi faoliyati maktabdan boshlanadi.

#### Musiqa savodi

musiqa ta‘limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanadi. SHuning uchun o‘qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma‘lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o‘quvini o‘stirish va nota yozuvlarini o‘rganishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki o‘quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi.

Musiqa savodi o‘quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o‘shishiga zamin yaratadi. SHu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo‘lib qo‘shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug‘diradi. Maktabda musiqa savodini o‘rganishda qo‘yiladigan asosiy metodik talab – dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda

- qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor.

Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir. Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham, o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqa ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'rgatilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.



1-sinfda musiqa savodi boshlang'ich bilimlarni beradi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib, raqsga tushgan bo'ladilar. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Tabiiyki, bog'chada musiqa savodi o'rganilmaydi. SHuning uchun o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bolarga musiqa haqida tushuncha beradi. «Siz qanday qo'shiqlarni bilasiz? Raqsga tushishni bilasizmi? Musiqani yaxshi ko'rasizmi?» va shu kabi savollar orqali bolalar bilan muloqotga kirishadi.

«Endi men sizlarga musiqa aslida nima ekanligi va qanday paydo bo'lganligi haqida gapirib beraman...» - deb bolalarni o'zaro suhbatga tortadi. O'quvchilar musiqa haqida tushunchaga ega bo'lganlaridan keyingina, ularning musiqa ifodalovchi vositalari bilan tanishtirish mumkin. 1-sinfda o'quvchilar nota yozuvi, notalarning joylashuvi, notalar nomi, uzunligi bilan qisman tanishib boradilar. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqot qilishga

yordam beruvchi vositadir. SHuning uchun musiqa tilini yaxshiroq tushunish uchun, musiqaning muhim ifodalovchi vositalarini bilish ahamiyatlidir.

Eng muhim bo'lgan vositalardan ladlar - major va minor lادلari haqida o'quvchilarga tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. 1-sinfning 2-yarmida bevosita nota yozuviga kirishish mumkin. Avvalom bor o'quvchilarga notalar yoziladigan chiziqning nega beshtaligi, nota yo'lining ahamiyati va ularda notalar qanday joylashishi haqida boshlang'ich tushunchalar berilgan bo'lmog'i lozim.

Nota yozadigan chiziq pastdan yuqoriga qarab sanalishini o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatib berishi lozim. Skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha berish kerak. Notalar yozilishidan oldin kalit belgisi qo'yilishi kerakligi, kalitsiz nota yozish mumkin emasligini o'quvchilarga misollar bilan tushuntiriladi. Masalan:

O'qituvchi: « Bolalar, maktabdan uyga kelganingizda eshikdan to'g'ri kirib ketasizmi, yoki avval kalit bilan ochib keyin kirasizmi?» Bolalar: Kalit bilan ochamiz.

O'qituvchi: Demak, kalitsiz uyga kirib bo'lmas ekan-a? Bolalar: Ha.

O'qituvchi: Musiqani yozish uchun ham musiqiy yo'lni avval kalit bilan ochamiz, ya'ni kalit belgisini qo'yishimiz shart, aksincha biz musiqa tovushlari olamiga kira olmaymiz.

SHu tarzda nota yozuvi o'rgatiladi. Yozishdan avval o'quvchilar notalar joylashuvini yodlagan bo'lishlari kerak. Masalan:

DO-yordamchi chiziqda joylashgan. RE-birinchi chiziqni tagida joylashgan. MI-birinchi chiziqda joylashgan.

FA-birinchi chiziq bilan ikkinchi chiziqning orasida joylashgan.

SOL-ikkinchi chiziqda joylashgan.

LYa-ikkinchi chiziq bilan uchinchi chiziq orasida joylashgan. SI-uchinchi chiziqda joylashgan.

Ana shundan keyin o'quvchilar beshta chiziqlarni qaysi birida qanday nota joylashganini o'zlari topa boshlaydilar.

Ayrim hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun nota chiziqlari yordamisiz ham qo'l yordamida notalar joylashuvini topish va ko'rsatishlari mumkin.

Buning uchun o'qituvchi qo'lini kundalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig'i deb faraz qiladi. O'quvchilarga ham o'ng qo'llarini xuddi shunday tutib o'qituvchi bilan birgalikda chap qo'l ko'rsatkich barmog'ida notalarni ko'rsatadilar va o'qituvchi aytgan notalarni o'zlari topib ko'rsatadilar.

Demak, musiqa savodi faoliyati maktablardagi eng muhim va yetakchi faoliyatlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'rganiladigan asarlarni savodli holda o'zlashtirishlariga imkon beradi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
  2. Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
  3. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
  4. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
  5. Uchinchi va to'rtinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
  6. Uchinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
  7. To'rtinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
  8. Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
  9. Bolalar cholg'ularida ijrochilik faoliyatining ahamiyatini tushuntirib bering.
  10. Bolalar cholg'ularida ritm hissini shakllantirish necha bosqichda amalga oshiriladi? Ularni sharhlab bering.
  11. Cholg'uchilik faoliyatini amalga oshirishda repertuar va ish metodlarining ahamiyatini yoritib bering.
  12. Darsda qo'llaniladigan bolalar musiqa cholg'ulariga tavsif bering.
  13. Darsda cholg'uchilik faoliyatini tashkil etish yo'llari qanday?
  14. Bolalar cholg'ularida ijro etish faoliyatini qaysi faoliyatlar bilan uzviy olib borish mumkin?
- Biror bir musiqiy asarga bolalar cholg'usida jo'r bo'lish yo'llarini ko'rsatib bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Apraksina.O.A. Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2009 «Музыка i penie») - M.: Prosveshchenie, 2013-222s
- 2.Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиров Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 s.
3. D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma.T.2009 O'zDK.

### **3- MAVZU: “BOSHLANG'ICH VA O'RTA SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL METODIKASI” REJA**

1. Birinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni
2. Ikkinchi sinfda vokal-xor malakalarini rivojlantirish ishlari
3. Uchinchi va to'rtinchi sinflar o'quvchilarida qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantirish metodlari



#### 4. Beshinchi va oltinchi sinfda qo‘shiq kuylash faoliyati

##### **3.1 Birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy xususiyatlari Qo‘shiq ijrosini ko‘rsatib berish.** Bolalarni o‘rganiladigan qo‘shiq

bilan, uning yaralish tarixi, ijodkorlari va qo‘shiqning mazmuni bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi o‘zi mazkur qo‘shiqni ijro etib beradi.

O‘qituvchining ijrosi badiiy jihatdan yorqin va ifodali bo‘lishi lozim. Agar o‘qituvchi o‘zi ijro etib bera olmasa, qo‘shiqni magnit tasma yoki boshqa yozuvlar orqali ham eshittirish mumkin. Baribar o‘qituvchi qo‘shiqni o‘rgatish jarayonida quvchilarga qo‘shiqni bo‘laklarga bo‘lib kuylab berishiga to‘g‘ri keladi. SHuning uchun qo‘shiq qanchalik kichik va sodda bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi uni yuqori saviyada ijro etib berishi muhimdir.

Qo‘shiq haqida suhbat. Qo‘shiqning badiiy ahamiyatini aniqlash maqsadida o‘qituvchi bolalarga qo‘shiqning xarakteri, ifodaviyligi, dinamikasi va boshqalar haqida so‘zlab beradi. Bu sinfdagi bolalarga ko‘proq quvnoq, sho‘x xarakterdagi qo‘shiqlar yoqadi. SHuning uchun ularga g‘amgin, qayguli qo‘shiqlarni o‘rgatish kiyinroq kechadi.

Qo‘shiq ijrosini ko‘rsatib berish. Bolalarni o‘rganiladigan qo‘shiq bilan, uning yaralish tarixi, ijodkorlari va qo‘shiqning mazmuni bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi o‘zi mazkur qo‘shiqni ijro etib beradi.

O‘qituvchining ijrosi badiiy jihatdan yorqin va ifodali bo‘lishi lozim. Agar o‘qituvchi o‘zi ijro etib bera olmasa, qo‘shiqni magnit tasma yoki boshqa yozuvlar orqali ham eshittirish mumkin. Baribar o‘qituvchi qo‘shiqni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga qo‘shiqni bo‘laklarga bo‘lib kuylab berishiga to‘g‘ri keladi. SHuning uchun qo‘shiq qanchalik kichik va sodda bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi uni yuqori saviyada ijro etib berishi muhimdir.

Qo‘shiq haqida suhbat. Qo‘shiqning badiiy ahamiyatini aniqlash maqsadida o‘qituvchi bolalarga qo‘shiqning xarakteri, ifodaviyligi, dinamikasi va boshqalar haqida so‘zlab beradi. Bu sinfdagi bolalarga ko‘proq quvnoq, sho‘x xarakterdagi qo‘shiqlar yoqadi. SHuning uchun ularga g‘amgin, qayguli qo‘shiqlarni o‘rgatish kiyinroq kechadi

Qo‘shiq so‘zlari va ohangini o‘rganish. Qo‘shiqning qay darajada murakkabligiga qarab o‘qituvchi uni so‘zlarini alohida, kuyidan avvalroq o‘rgatadi.

Biroq hadeb so‘zlarga berilmay, uni iloji boricha kuy bilan hamohanglikda o‘rgatish yaxshi natija beradi. O‘qituvchi qo‘shiqni jumalarga bo‘lib o‘rgatadi. o‘quvchilar jumlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga jumalarning o‘rtasida nafas olish mumkin emasligini tushuntiradi. Bu jarayonda musiqa savodiga murojaat qilish kerakli natijani beradi.

Ijro ifodaviyligi ustida ishlash. Qo‘shiqni o‘rganish jarayonining boshidan to oxirigacha ijroni ifodaviyligiga ahamiyat berish kerak. Ko‘pchilik

mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'quvchilar qo'shiqning so'zlari bilan ko'yini to'liq o'zlashtirib bo'lganlaridan so'ngina ifodaviylikka erishish mumkin, ekan. Bu holda o'quvchilar o'z diqqatlarini so'zlarni va ko'yini qanday kuylashga emas, balki qo'shiqning mazmunini ochib berishga qaratadilar. Ifodali kuylashni o'qituvchining asarning kompozitori va shoiri, uning yaralish tarixi hamda tarbiyaviy ahamiyati haqidagi kirish so'zi ham ta'minlab beradi.

### *1-sinfda musiqa savodi*

Yuqoridagi bo'limlardan ko'rib turibmizki, musiqa savodi barcha faoliyatlarni birlashtiruvchi va o'quvchilarning ijodkorligini, ijro mahoratini oshiruvchi jarayondir. SHuning uchun bu jarayonni alohida mustaqil faoliyat sifatida ko'rib bo'lmaydi.

Birinchi sinflarda musiqa savodi jarayonini hamma o'qituvchilar har xil mavzularni o'rgatishdan boshlaydi. Kimdir tovushlar harakatidan, kimdir tovushlar balandligi, uzunligi va boshqalardan boshlaydi. Ayrim o'qituvchilar musiqa savodi jarayonini musiqiy registrlarni o'rgatishdan boshlaydi. Qanday mavzudan boshlashidan qat'iy nazar o'qituvchi musiqa savodini boshqa faoliyatlar bilan o'zviy bog'lashi kerak. Kuylashda tovushlar harakati, balandligi, cho'zimi haqida tushuntirsa, tinglashda ritm, metr, dinamika, ulchov va boshqalar haqida ma'lumot beradi.

Bolalarga tovushlar harakatini qo'l yordamida tushuntirish ham yaxshi natija beradi. Ularga beshta barmoqlarimizni nota chiziqlariga qiyoslab notalar joylashuvini o'rgatish mumkin. Birinchi sinf o'quvchilarining musiqa darsliklarida kerakli mavzularni o'zlashtirish uchun barcha ma'lumotlar, ko'rgazmalar keltirilgan bo'lib, ularni bolalar o'qituvchilari yordamida bemalol o'zlashtiradilar.

Muhimi birinchi sinf o'quvchilari "yuqori"ga va "pastga" harakatlanish tushunchalarini to'liq o'zlashtirishlari lozim. Buni amalga oshirishga "zinapoya» yordam beradi. o'quvchilar zinapoya yordamida tovushlarni pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bemalol kuylay oladilar.

O'quv dasturiga ko'ra birinchi sinf o'quvchilari tovushlar nomi, uzunligi, balandligi, ritmi, metr tushunchalarini, nota yozuvi haqida tushunchalarni egallashlari kerak. Maktabga kelgan bolalar uchun bu biroz urakkab bo'lsada, mahoratli o'qituvchi bu vazifalarni bemalol uddalay oladi. Birinchi darslardan oq nota yozuvi va unda notalar joylashuvini sekin-asta o'rgatilib, kuylatib borilsa, bu vazifalar hech qanday qiyinchilik o'yg'otmaydi.

Tovushlar balandligi haqida tushunchalar quyidagicha beriladi:

- 1) baland, past va o'rta tovushlar - registr haqida tushunchalar berish;
- 2) bir xil balandlikdagi tovushni yuqoriga va pastga harakati haqida tushuncha berish;
- 3) bosqichma-bosqich harakat (zinapoya);
- 4) har xil balandlikdagi tovushlar turlicha nomlanadi : do,re,mi
- 5) tugallanganlik va tugallanmaganlik (turg'un va noturg'un) va tonika tushunchalari beriladi;

6) tanish bo'lgan kuylar orqali major va minor ladlari haqida tushunchalar beriladi.

Yuqoridagi barcha beriladigan tushunchalar darsdagi musiqiy faoliyatlar jarayonida mustahkamlanib boriladi.

Tovushlar uzunligi haqida tushunchalar quyidagicha beriladi:

1) uzun va qisqa tovushlar qarama-qarshi ohangda beriladi;

eng ko'p qo'llaniladigan uzunliklar chorak va nimchorak notalar har xil sharli bo'g'inlar, qarsaklar orqali tushuntiriladi.

***Birinchi sinfda yil va chorak mavzulari:***

<b><i>Yil mavzusi:</i></b>	<b><i>Biz musiqani sevamiz</i></b>
<b><i>1-chorak:</i></b>	<b><i>Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar</i></b>
<b><i>2-chorak:</i></b>	<b><i>Musiqali o'yinlar va qo'shiqlar.</i></b>
<b><i>3-chorak</i></b>	<b><i>Xushnavo cholg'ularimiz.</i></b>
<b><i>4-chorak:</i></b>	<b><i>Xushnavo cholg'ularimiz</i></b>

Demak, birinchi sinf o'quvchilari bilan musiqa madaniyati darslarini olib borishda ularning yosh-psixologik xususiyatlariga, idroklari, xotira va shuningdek, fiziologik xususiyatlariga ahamiyat berish oldinga qo'yilgan maqsadga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **3.2 Ikkinchi sinfda vokal-xor malakalarini rivojlantirish ishlari**

2-sinfda vokal xor ishlari birinchi sinfda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash va qo'shiq kuylashdagi mavjud nuqsonlarni tuzatib borishdan iboratdir. Bunda bolalarning qo'shiq kuylash jarayonidagi musiqa o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish va bu ularning umumiy musiqa idroki, ravnaqi uchun muhim ekanligini hisobga olish lozim. 1-sinfdagidek, bolalarni xor sa'natiga muttasil qiziqtirib borish lozim.

Xorning o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, unda hamma ishtirokchilardan «Diqqat», «Auf», «Ijroni boshlash», «Ijroni tugatish» kabi zarur dirijyorlik ishoralari amal qilib kuylashi talab etiladi. Ayniqsa, bolalarni qo'shiq kuylash holati (Xor ustanovkasi, ya'ni, qo'llarni tizzalarga erkin kuyib, stul suyanchig'iga suyanmasdan, bosh va g'vardani to'g'ri tutib o'tirish) ga doim amal qilib kuylash kerakligi ham eslatib boriladi.

2-sinfda ham bolalarning o'qituvchi ovozigacha «Tayanib» kuylash uslubi davom etadi. SHuning uchun osoyishta yengil nafas olib, vokal tovushlarini to'g'ri hosil qilib ko'rsatish, talaffo'zning burroligi, yumshok va lunda ovoz hosil qilish kabi muhim malakalarda o'qituvchining o'zi yaxshi namuna bo'lishi shart. 2-sinfda bolalar malakalarining oshib borishi fiziologik ush munosabati bilan ovoz kuchi, diapazoni, tembri, ovozining cho'zimi va boshqalarining o'zgarib borishi vokal xor ishlarini ma'lum sistema asosida olib borishni talab etadi. Bunda bolalar ovozlari avaylab tarbiyalash, xorda kuylaganda bolalarda onglilik va badiiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish, xor ijrosidagi ikki ovozlikni sezib ajrata olish va

o'qituvchi ovoziga tayanib ikki ovozlilik elementlari bo'lgan qo'shiqlarni kuylash malakalarni hosil etish asosiy maqsad deb hisoblanadi.

Vokal xor ko'nikmalarini rivojlantirish usullari: U ko'pincha maxsus mashqlar (a, u, yu, da, de, di, do, du) va qo'shiqlar o'rganishda so'zlarni fonetik jihatdan aniq ravshan talaffuz etish yo'li bilan shakllanib boradi. SHuningdek, unli tovushlarni cho'zib va undosh tovushlarni tez, aniq talaffo'z etib kuylash vokal tovushlarini to'g'ri hosil etish juda muhim ahamiyatga ega. Kuylashda ligattoga erishish esa, osoyishda va ravon nafas olish va chiqarishga bog'liq.

Vokal nafasi nutq nafasidan farqli ularoq upkaga me'yorida havo olib, uni musiqiy jumlaning oxirigacha yetkazib ravon va osoishta sarflashdan iboratdir.

Diktsiya (Talaffuz) qo'shiq kuylashda alohida o'rin egallaydi. Bunda unli tovushlar chuzib, undoshlar qisqa, tez va aniq talaffuz etiladi.

Ansambl - xorda ovozlarning ritmik, dinamik, temp, tembr va intonatsion uyg'unligidir. Soz malakasi esa, ansamblning vujudga kelishida asosiy omil hisoblanadi. Qo'shiqlarning badiiy ijro etilishiga ovozlardagi soz va ansamblning uyg'unligi vositasi bilangina erishish mumkin bo'ladi.

Ritm ansambli musiqa asarining metrik hissalarini sezib kuylashga yordam beradi.

Dinamik ansambl - asardagi obrazlarni tasvirlashga yordam beradi. Asardagi obrazlarni tasvirlashda kompozitor kuchli va kuchsiz tovushlardan foydalanganligi aniqlanadi, albatta. SHundagina o'quvchilarda forte va piano dinamik tushlari haqida aniq tushuncha hosil bo'ladi.

Temp ansambli xor ishtiroqchilarining ma'lum bir su'ratda kuylashga erishishidir. Temp asar xarakteriga bog'liq. Qo'shiqning bandlari va naqorati xarakter jihatdan bir biridan farq qilib tempning o'zgarishiga ham ta'sir etishi mumkin.

Tembr ansambli ustida ishlaganda, o'g'il va qiz bolalar ovozlari registr va tembr jihatidan bir-biriga yaqinligi sababli hozircha asosan ovozlarni fonetik jihatdan bir teksda hosil etib kuylashda o'rgatish. Tembr ansamblning vujudga kelishi ijrochilarning malaka va tajribalari bilan bog'liqdir.

Ikki ovozda kuylash xor sa'natining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ammo u bir oz qiyinchiliklar bilan amalga oshadi. Ikki ovozda kuylash zamirida o'quvchilarning garmonik intervallarni his qilish o'quvini rivojlantirish yotadi. Ikki ovozda kuylashning elementar ko'nikmalari ham birinchi sinfdan boshlab rivojlana boradi:

1. Akkomponentida qo'shiq ohangi takrorlanmaydigan asarlarni kuylatib, bolalarda e'tiborni taqsimlash ko'nikmasini shakllantirish. Bu - o'quvchilarni qo'shiq ko'yini akkomponent ritmi va tempiga mos holda, tonallikdagi melodik sozdan chiqmasdan kuylashga o'rgatishdan iboratdir.

2. Qo'shiqning ritmik tuzilishini chapakda yoki og'zaki tarzda ijro etish. Bolalar avval qo'shiqning ritmi, taktning metrik hissalarini chapakda chalib

kuylaydilar. So‘ng chapak, doyrachalar, uchburchak urma cholg‘u, shaqildoqlarda chalib, qo‘shiq va cholg‘u kuylariga ritmik jo‘r bo‘ladilar. Mazkur uslublar bolalarda faqat ikki ovozlik malakalarinigina rivojlantirib qolmay, balki ularda ritm tuyg‘usi va ijodkorlikni ham o‘stiradi.

SHuningdek bolalarda diqqat e‘tiborni kuchaytiradi. 2-sinfda yangi va muhim element sifatida bolalar bilan mashq va qo‘shiqlar ohangiga o‘qituvchi ikkinchi ovoz sifatida jo‘r bo‘lib ikki ovozlikni vujudga keltirishi lozim. Bunda bolalardan ikki ovozlikni qanday his etayotganliklari va uning ta‘sirchangligini so‘rab, ularni ikki ovozli qo‘shiq nafosatiga qiziqtirish lozim.

Ikki ovozlikni hosil etishda bolalarni mayin ovozda kuylatish zarur. Aks holda ikkinchi ovoz eshitilmay qoladi. Xor bilan ashula aytish murakkab psixologik fiziologik jarayon bo‘lganligi sababli o‘qituvchi xor bilan ishlash uslublari, bolalar ovozinig o‘ziga xos xususiyatlari va repertuar imkoniyatlarini puxta bilgan holda ishga kirishishi lozim.

### *Ikkinchi sinf qo‘shiq repertuari xarakteristikasi*

Umumta‘lim maktablarida 2-sinf o‘quvchilari intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda qo‘shiq repertuarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini o‘qitish davrida o‘quvchilarni go‘zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib kuyildi.

CHunki maktabda musiqa ta‘limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda «musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir. Musiqa madaniyati darslarida musiqa faoliyatlari oddiydan-murakkabga qarab borish printsipi asosida ta‘limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirilishi lozim.

Boshlang‘ich (1-4) sinflarda qo‘shiq repertuarini tanlash orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda to‘tiladi.

1. Tanlangan asarlar orqali o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatini (musiqiy o‘quvi, ritmi, tuyg‘usi, diqqati, xotirasi nutqini) o‘stirish.
2. O‘quvchilarni milliy musiqamizga, ona Vatanga, tabiatga muhabbat, go‘zallikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash.
3. O‘quvchilarni mehnatga, o‘qishga, hayotga o‘z-o‘zini va atrofdagilarni hurmat qilish, o‘zgalar mehnatini qadrlashga o‘rgatish.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, har bir darsga ijodiy yondoshib, yangi dastur talablariga muvofiq dars o‘tishi lozim. Musiqa fanidan bir yilda ikki marta yarim yillik taxminiy mavzuli ish reja konspekt tuziladi. Bunda o‘quvchilarni (sinfi), ovoz dipazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar yil, chorak, dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars to‘zilishi asosida tuziladi.

Qo‘shiqlarni tinglash uchun asarlarni o‘quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo‘shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o‘zgartirish

mumkin. Musiqa darslari asosan bir xaftada bir soat o'tiladi. SHuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan bir ovozli qo'shiqlarini kuylashadi. Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab t1 ovozlik elimenti bor qo'shiqlar kiritilgan. SHunga ko'ra oddiydan-murakkabga printsipli asosida musiqiy asarlar tanlanadi. Qo'shiqlarni o'rgatish jarayonida palapartish,

shoshma-shosharlik bilan o'rgatish, o'quvchilarda beparvolik hissini o'yg'otadi, aksincha yaxshi ijro etilgan, mazmuni tushuntirib o'rgatilgan qo'shiqlar chuqur ijobiy taassurot qoldiradi.

Takrorlash «Bilimlar onasi» deydi dono xalqimiz. Qo'shiqlarni mukammal o'zlashtirish uchun vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim. Har bir bola qaysi kasbni tanlashdan qat'iy nazar, musiqani, musiqi va qo'shiqlar, o'quvchilar hayotini nafaqat bezaydi, ayni paytda unga tantanovar sho'xchanlik, bayramona kayfiyat baxsh etadi. SHunday qo'shiqlar borki, hayotni yanada boyitishga va yaxshilashga xizmat qiladi, - deydi mutafakkirlarimiz. Bunga misol qilib, «Bolalar va g'ozlar» J.Najmiddinov musiqasi, «Maktabim» F.Nazarov musiqasi, «Hakkalar» N.Norxujaev musiqasi, «Paxta oy» F.Nazarov musiqasi singari qo'shiqlarni misol keltirish mumkin.

Dasturda berilgan barcha qo'shiq repertuarlari Davlat ta'lim Standartlari talablariga to'liq javob bera oladi. Musiqa o'qituvchisi o'ziga talabchan inson bo'lishi, erishgan muvaffaqiyatlardan kifoyalaniq qolmasligi kerak. SHunday musiqi o'qituvchisigina yaxshi tashkilotchi faol jamoatchi, o'z kasbini, bolalarni yaxshi ko'radigan malakali mutaxassis bo'lishi lozim. Musiqi madaniyati darslarida o'rgatiladigan qo'shiqlar repertuarida foydalanganda musiqi o'qituvchisi, o'quvchilarni psixologik xarakterini, ovozini, qiziqishini asta-sekin o'rganib borishi, iqtidorli o'quvchilarni sinfdan tashqari to'garaklarga taklif qilishi, musiqi o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan esa, yakka tartibda va dars jarayonida ish olib borish, topshiriqlar berishi lozim. DTS musiqi dasturida berilgan qo'shiqlar repertuari ilmiy, zamonaviy, mumtoz, o'quvchilar yoshiga, ovoz diapazoniga mos asarlar bo'lib mazmunan tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi xarakterga ega. Ya'ni bu qo'shiqlar mazmuniga Ona - Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, hurmat tuyg'ulari aks ettirilgan

Masalan: «Diyor madhi» N.Norxujaev musiqasi, «Oy vatanim» SH.Yormatov musiqasi, «Sog'lom avlod qo'shig'i» SH. Yormatov musiqasi, «Biz askarmiz» N. Norxujaev musiqasi, «Ochil paxtajon» F.Nazarov musiqasi, «Nisholda» D.Omonullaeva musiqasi, «Qadim Turon» N.Norxujaev musiqasi kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Masalan, «Oy bo'lamiz toy bolamiz» qo'shig'i X.Rahimov musiqasi, S.Barnoev qalamiga mansub. Ushbu asarda bolalar kelajakda Amir Temur bobolaridek botir, qo'rqmas, jasur bo'lishlari haqida ko'ylanadi. Yigitlar Alpomishdek qizlar Barchindek zukko, bilimdon bo'lib voyaga yetishlari, ona vatanga mehr muhabbatli, sodiq, mard o'g'lon bo'lib xizmat qilishlari haqida

madh etiladi. Bu qo'shiq ko'plet shaklida. Qo'shiq raqs xarakterida, tez sur'atda ijro etiladi. Fa major tongligida.

Bu qo'shiqlar komil insonni tarbiyalashda uning qobiliyatini, didini o'stirishda musiqa muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati darslarida qo'yilgan asosiy metodik talab - olingan musiqiy bilimni bevosita amalda qo'shiq kuylash, musiqa tinglash faoliyatlarida qo'llashdan iboratdir. O'quvchilarga urgatiladigan qo'shiqlar repertuari murakkabligiga qarab 2-3 soat o'rgatiladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun qo'shiqni ifodali ijro etib borish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, texnik vositalardan foydalanish, qo'shiqni magnitafonda tinglash, tarkatma materiallardan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'shiq kuylaganda ovoz apparatlariga ziyon yetmaslik uchun ularning ovoz diapazonlarini o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Dasturdagi qo'shiqlar repertuari har bir sinf uchun alohida berilgan. Qo'shiqni o'rgatishdan oldin maxsus yaqqol har xil mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsdan tashqari tashkil

etaladigan turli tadbirlarda faol ishtirok etish uchun o'quvchilarni muntazam ravishda tayyorlab borish kerak. Buning uchun o'quvchilarni musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini takomillashtirib borish va ularni o'zaro uyg'unlashishini mustahkamlashda ba'zan «Sinf sahnasiga» chiqish kuylatish yaxshi natija beradi.

Qo'shiqni to'liq o'rganib bo'lgandan so'ng 2-3 darsdan so'ng yoki chorak oxirida «dars kontsert» o'tkazish tavsiya etiladi. Sahnaga chiqish sinfdagilar orasida o'z o'rnini topish, kuylaganda bir-birini his qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qilish, o'quvchilarni o'zaro munosabatiga va xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

«Sahnada» kuylash o'quvchilarning repertuaridagi qo'shiqlarni qay darajada o'rganib olganlarini anglash, asarning ayrim jumllarini «pishitib» olishga va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkonini beradi. «Sinf kontserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etadi. Darsni sifatli va qiziqarli olib borish uchun noan'anaviy dars shakllarini musiqiy viktorinalarning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar bilan turli mazmunli o'yinlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

Sinfdan-sinfga o'tishda bolalarda fanni o'zlashtirish oson kechishi uchun bosqichlararo o'zluksizlikni va faoliyatlararo o'zviylikni ta'minlash pedagogika fanining eng muhim tamoyillaridan biridir.

### ***2 sinf: Yil va chorak mavzulari***

<b>Yil mavzusi:</b>	<b>Ijrochilik turlari. Musiqaning ifoda vositalari</b>
<b>1-chorak:</b>	<b>Musiqaning ifoda vositalari</b>
<b>2-chorak:</b>	<b>Yakkanavozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlik.</b>

<b>3-chorak:</b>	<b>Yakkanavozlikvayakkaxonlik.CHolg'ularva xonandalar dastalari</b>
<b>4-chorak:</b>	<b>Dasta turlari.Kuynima?Kuydanimalar ifodalanadi? Musiqaning ifoda vositalari.</b>

### **3.3 Uchinchi va to'rtinchi sinflar o'quvchilarida qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantirish metodlari**

Jamoa bo'lib kuylash - o'quvchilarni musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shaklidir. Har bir sog'lom bola kuylash imkoniyatiga ega bo'ladi. Kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyot va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositadir.

Bola qo'shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarinki kayfiyat, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular hosil bo'ladi. Qo'shiqda ikkita estetik vosita - musiqa va badiiy so'z birlashadi. SHuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash - o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshitish, lad hissini, sof intonatsiyada kuylash malakalarini hamda musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar. Ular o'zlarining va o'rtoqlarining ijrolarini kuzatadilar, birgalikda kuylashdan bahramand bo'ladilar. Ularda diqqat, kuzatuvchanlik, intizom va boshqa tarbiyaviy xususiyatlar shakllandi. 3-4-sinf o'quvchilarida kuylash jarayonida o'quvchilarning ovoz apparati yanada yaxshi rivojlanadi, nafasleri chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomatlari tekislanadi, bir so'z bilan aytganda ham ma'naviy, ham axloqiy, ham jismonan rivojlanadilar, tarbiyalanadilar.

Har bir insonning kayfiyatiga qarab ovozi yoqimli, quvnoq, jarangdor, sho'x yoki bug'ik, "shirali", "shirasiz" va hokazo bo'lishi mumkin. Ovoz chiqishi ovoz pardalariga bog'liqdir. Ovoz pardalari tebranishi natijasida ovoz hosil bo'ladi. Inson ovoz apparati juda murakkab tuzilgan. Uning asosiy qismlari - nafas olish organlari - upka, qorin bo'shlig'i, nafas muskullari, shuningdek, hiqildoq, ovoz paychalari, artikulyatsion apparatlar va boshqalar. Ovoz hosil bo'lishi uchun mana shu apparatlarning barchasi ishga tushadi. Bu murakkab jarayondir. Tovush apparantining fiziologik tuzilishi masalalariga olimlar P.CHesnokov, SH. Ro'ziev, D.Xalabuzar, N.Dmitrev o'z ilmiy ishlarida murojaat etganlar va atroflicha yoritib berganlar.

3-4-sinflarda kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbat o'yg'otish;

- musiqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;
- badiiy didni tarbiyalash;



- qo'shiqchilik ovozi, ya'ni yoqimli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, ovoz diapazonini o'stirish;

- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- musiqiy qobiliyatlarini o'stirish.

Qo'shiqning badiiy, chiroyli, ifodali ijrosiga erishishning muhim vositasi - o'quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirishdir. 3-4-sinfda ham o'quvchilar bilan qo'shiq aytishdagi holat, kuylash nafasi, tovush hosil qilish, talaffuz, soz, ansambl kabi vokal-xor malakalari ustida ish olib boriladi.

3-4-sinf "Musiqqa madaniyati" dasturidan Vatan, mustaqillik, diyorumiz, tabiat, mehnat, bolalik mavzularidagi qo'shiqlar o'rin olgan. Bu qo'shiqlar o'quvchilarda Vatanga muhabbat, uning kelajagiga sadoqat, mehnatsevarlik, estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'rganiladigan qo'shiqqa emotsional munosabatni rivojlantirish, tasavvurni, musiqiy eshitish va xotirani o'stirish, musiqaning ifoda vositalarining ahamiyatini tushunish, jarangli, kuychan, yengil tovushlarda kuylash, o'zini va o'rtog'larini tinglay olish, jo'rsoz bilan hamda jo'rsozsiz kuylash, ikki-uch ovozli kuylash orqali garmonik eshitish qobiliyatini shakllantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. O'qituvchi kuylash uchun qo'shiq tanlar ekan, avvalambor asarning badiiy qiymati, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, obrazlar doyrasini sinchiklab tahlil qilib chiqadi. Olingan natijaga qarab qo'shiqni o'rgatish metodlarini tanlaydi.

### **3-sinfda yil va chorak mavzulari:**

<b>Yil mavzusi:</b>	<b>Musiqaning ifoda vositalari</b>
<b>1-chorak:</b>	<b>Musiqaning ifoda vositalari</b>
<b>2-chorak:</b>	<b>Musiqqa nutqi</b>
<b>3-chorak:</b>	<b>Xor va orkestr</b>
<b>4-chorak:</b>	<b>Musiqaning tuzilishi. Oddiy musiqqa shakllari. Band va naqorat</b>

### **4-sinfda yil va chorak mavzulari:**

<b>Yil mavzusi:</b>	<b>O'zbek xalq musiqqa ijodi</b>
<b>1-chorak:</b>	<b>Xalq aytimlari va cholg'ulari</b>
<b>2-chorak:</b>	<b>Bayram va marosim qo'shiqlari</b>
<b>3-chorak:</b>	<b>Mavsum qo'shiqlari</b>
<b>4-chorak:</b>	<b>Bahor fasli qo'shiqlari</b>

### 3.4 Beshinchi va oltinchi sinfda qo'shiq kuylash faoliyati

Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ovoz apparati usmir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, notekis ravishda shakllandi. Bu daavrda mutatsiya davom etadi. SHuning uchun ham ularga ovoz diapazoni keng, baland

dinamikadagi asarlarni kuylash tavsiya etilmaydi. O'quvchilar qo'shiqlarni past-yarim ovozda baqirmasdan, ehtiyotkorlik bilan kuylashlari kerak. Bu sinf o'quvchilari bilan bir ovozli qo'shiqlar bilan birga ikki ovozli qo'shiqlar ustida ham ish olib boriladi. Buning uchun kichik hajmdagi kanonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'shiqlar o'rtacha sur'atda yozilgan bo'lishi, katta intervallarga sakrashlarning bo'lmasligi bu davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### *5-6-sinfda musiqa tinglash faoliyati*

Musiqiy asarni tinglash jarayonida o'quvchilarga asarni tinchlikni saqlagan holda, gaplashmay madaniyatli tinglash odobini o'rgatish muhimdir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda magnit tasma yoki o'qituvchining jonli ijrosi orqali eshittiriladi. Musiqa yangrashi bilan barcha sinfdagilar, jumladan o'qituvchining o'zi ham berilgan holda, barcha ishlarini chetga surib diqqat bilan tinglashi kerak.

Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonu dil kuylaydilar. Usmirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat kechinmalari, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi v jiddiy mushohada qilishga undaydi. Beshinchi sinfda o'quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini o'yg'otish muhim vazifadir. "Musiqa madaniyati" dasturiga kirgan buyuk g'oyalarni aks etuvchi T.Kurbonovning "SHiroq" baleti, U.Musaevning "Tumaris" baleti, T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" operasi, S.Yudakovning "Mirzachul" vokal-simfonik syuitasi, L.Betxovenning "Qahramonlik", A.Motsartning 40-simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o'quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

6-sinfda esa o'quvchilar bevosita mumtoz musiqa haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Mumtoz musiqa namunalaridan tinglaydilar. SHuningdek, sharq xalqlari mumtoz musiqalaridan namunalar tinglab o'z bilimlarini oshiradilar.

#### *5-6-sinfda musiqa savodi faoliyati*

Musiqqa savodi faoliyatida asosan musiqqa nazariyasiga oid bilimlar o'rgatiladi. O'quvchi musiqqa savodini o'zlashtirib borar ekan, u musiqiy asarlarni bema'lol nazariy jihatdan tahlil qila oladi. Bu sinflarga kelib o'quvchilar tovush, ritm, ulchov, sur'at, alteratsiya belgilari, major va minor ladlari, ikkita belgigacha bo'lgan tonliklarni biladilar. O'qituvchi o'quvchilarning mazkur faoliyatda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini boshqa faoliyat turlarida unumli qo'llay bilishi kerak. Bu

o'z navbatida o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi hamda boshqa faoliyatlardagi bilimlarini ham orttiradi.

<b>5-sinf</b>	<b><i>Yil mavzusi: Kompozitorlik musiqqa janri.</i></b>
<b>1 – chorak</b>	<b>O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati</b>
<b>2 – chorak</b>	<b>Simfonik orkestr. Musiqada vokal simfonik janrlar.</b>
<b>3 – chorak</b>	<b>Sahnaviy musiqqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama</b>
<b>4 – chorak</b>	<b>Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri.</b>
<b>6 – sinf</b>	<b><i>Yil mavzusi: Mumtoz musiqqa.</i></b>
<b>1 – chorak</b>	<b>Mumtoz musiqqa haqida tushuncha.</b>
<b>2 – chorak</b>	<b>Zamonaviy musiqqa va uning asosiy xususiyatlari.</b>
<b>3 – chorak</b>	<b>SHarq xalqlari mumtoz musiqasi namunalari.</b>
<b>4 – chorak</b>	<b>Evropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv.</b>

#### *7-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati*

7-sinfda qo'shiq kuylash jarayonida o'tgan sinflardagi vokal-xor malakalari mustahkamlanadi va aralash xorda kuylashning boshlang'ich malakalari shakllandi. SHuni e'tiborga olshi kerakki, bolalarning ovoz apparati o'zgarishi natijasida ular o'zlarining "yangi ovoz"laridan uyalib, qo'shiqni kuylamasligi mumkin. bu paytda o'qituvchi ehtiyotkorlik bilan yondashib, kerakli chora-tadbirlarni qo'llashi kerak.

Bu davrda sinfdagi o'quvchilar ovozi uchga bo'linadi: "do" birinchi oktavadan "mi" ikkinchi oktava diapazonidagi ovozlari;

2) "si" kichik oktavadan "re" ikkinchi oktavagacha bo'lgan ovozlari;

3) "mi" ("re") kichik oktavadan "si" ("do") kichik oktavagacha (mutatsiya davrida bo'lgan ovozlari).

SHu sababli o'qituvchi jamoa bo'lib kuylash jarayonida, ayniqsa mutant ovoqli bolalarning to'g'ri kuylayotganligini nazorat qilib turishi lozim.

Qo'shiq kuylash faoliyati uchun tavsiya qilingan dastur - janr va

musiqiy obrazlarning xilma-xilligi tufayli o'quvchilarning badiiy didini rivojlantirishga katta ta'sir qiladi.

Ko'povozlilik - jamoa bo'lib kuylash faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Ushbu usulda kuylash 7-sinf o'quvchilari uchun juda foydalidir. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning ovoz imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, jamoa bo'lib kuylash jarayonida ular o'z ovozlari ehtiyot qilish va ortiqcha zo'riqtirmay kuylash imkonini beradi. Ko'povozli asarlarni kuylashdan avval, ko'p ovozlilik elementlari bo'lgan bir qator mashqlarni kuylash, avvalgi sinflarda o'tilgan osonroq bo'lgan ko'povozli kuylarni qaytarish yaxshi natijalar beradi.

#### *7-sinfda musiqa idroki (tinglash)*

Musiqa idroki jarayoni musiqa mazmunini eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir.

Yuqorida aytilganidek, 7-sinf o'quvchilarida tinglash jarayonida ixtiyoriy diqqat ancha rivoj topgan bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar ancha katta hajmdagi asarlarni uzoq muddat tinglay oladilar. SHuni hisobga olgan holda 7-sinfda mumtoz musiqiy merosimizga salmoqli o'rin ajratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek maqomoti va mahalliy uslublarni o'zlashtiradilar. Ular dars jarayonida turli xil xalq va kasbiy ashula namuna (Mustahzod, Savti suvora, Mug'ulchai Dugoh Qashqarchasi va hokazo)lardan tinglaydilar.

Bu kabi namunalarni tinglash o'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning estetik dunyoqarashini boyitadi. Bu sinfda o'quvchilarga uyga beriladigan vazifalar ham ahamiyatlidir. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularga simfoniya, kantata, operalardan, maqomlardan, katta ashulalardan namunalarni tinglashga berishi mumkin. Uyda mustaqil ravishda tinglangan asarlar, sinf dars jarayonida birgalikda tahlil qilinishi kerak hamda o'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatib borishi lozim. Bu o'qituvchiga o'quvchilarni baholash va ularning bilim darajalarini aniqlashga yordam beradi.

#### *7-sinfda musiqa savodi jarayoni*

7-sinf musiqa darsiga qo'yilgan talablarga binoan o'quvchilar musiqiy asarning mazmuni, karakteri, janr va shaklini, lad va tonligini aniqlay olishlari zarur.

Mazkur sinf o'quvchilari musiqa savodi faoliyati orqali o'zlashtirgan materiallarini takrorlaydilar va mustahkamlaydilar. Bunday tashqari yangi tushuncha va atamalar bilan ham tanishadilar (katta ashula, dugoh, segoh, tuzuk,

ufar va hokazo). Har bir chorakdan soʻng yozilgan musiqa lugʻati bolalar uchun juda qulaydir.

7-sinfidagi muhim talablardan biri - oʻquvchilarning notaga qarab nutqlay olishlaridir. Ular major va minor ladlarida bemalol solfedjiolab kuylay olishlari kerak. Bu faoliyat uchun murakkab boʻlmagan asarlar tavsiya qilinadi

7-sinfda oʻquvchilar kichik hajmdagi musiqa asarlarini tahlil qilishni oʻrganadilar. Ular musiqiy asarning kaliti, tonligi, ulchovi, ritmi, tempi, mazmuni, harakteri va janri haqida maʼlumot bera olishlari kerak.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Birinchi sinf oʻquvchilariga tavsif bering.
  2. Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
  3. Qoʻshiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
  4. Birinchi sinfda oʻquvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
  5. Birinchi sinfda musiqa savodi jarayonida nimalarni oʻrgatish mumkin va bu jarayon qanday amalga oshiriladi?
  6. Birinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
  7. Birinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qoʻshimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
  8. Ikkinchi sinf oʻquvchilariga tavsif bering.
  9. Ikkinchi sinfda musiqa tinglash faoliyati qanday amalga oshiriladi?
  10. Qoʻshiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
  11. Ikkinchi sinfdagi qoʻshiq kuylash repertuarini aytib bering.
  12. Ikkinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular oʻtiladi?
- Ikkinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
14. Ikkinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qoʻshimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
  15. Uchinchi va toʻrtinchi sinf oʻquvchilariga tavsif bering.
  16. Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
  17. Qoʻshiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
  18. Uchinchi va toʻrtinchi sinflarda oʻquvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
  19. Uchinchi va toʻrtinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular oʻzlashtirilishi nazarda tutilgan?
  20. Uchinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
  21. Toʻrtinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

22. Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
23. Beshinchi va oltinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
24. Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
25. Mutatsiya hodisasiga ta'rif bering.
26. Beshinchi va oltinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
27. Beshinchi va oltinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
28. Beshinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
29. Oltinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
30. Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
31. Yuqoridagi sinflar o'quv dasturiga yana qanday kuy va qo'shiqlarni kiritgan bular edingiz?
32. Ettinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
33. Ettinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
34. Mazkur sinfda qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va repertuarga qaysi mavzudagi qo'shiqlar kiritilgan?
35. Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazonlari qanday bo'ladi?
36. Yettinchi sinfda o'quvchilar tinglashi uchun qaysi mavzu va janrdagi kuy va qo'shiqlar tavsiya etiladi va nima uchun?

Ettinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?

37. Ettinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Apraksina.O.A. Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2009 «Музыка i penie») - M.: Prosvещenie2013-222s
- 2.Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиоров Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 с.
- 3.D.Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma.T.2009 O'zDK.
4. Archajnikova L.G. Professiya-uchitel muzyki. -M.: Prosvещenie, 2004. -110 s.

### **4-MAVZU: “MUMTOZ MUSIQA AN'ANALARI VA ULARNI O'QITISH METODIKASI”**

#### **REJA**

- 1.An'anaviy qo'shiqlarning dastlabki namunalari

## 2. An'anaviy musiqiy merosning cholg'u va aytim ijrochiligi

### 4.1. An'anaviy qo'shiqlarning dastlabki namunalari.

O'tmishdagi musiqiy nazariy risolalarda o'n ikki maqom Duvozdah maqom majmuasi va unga kirgan 24 sho'ba va olti ovoza haqida mulohaza yuritiladi. O'n ikki maqom O'rta osiyoda XVII asrda ham qo'llanilgan - degan fikrlar yozma manbalarda mavjud. Biz bir necha dalillarga suyanib SHashmaqom taxminan XVIII asr o'rtalarida, o'zidan oldingi maqom ijodiyoti an'analari asosida uzil-kesil shakllangan. Maqomlarning dastlabki namunalari SHarqda hozirgidek nota yozuvlari bo'lmaganligi uchun bizgacha yetib kelmagan. SHuning uchun, ularni endilikda SHashmaqom musiqasi asosida tasavvur etishimiz mumkin.

O'n ikki maqomning SHashmaqomga munosabati masalasiga kelsak, ulardagi maqom va sho'balar nomi ko'pincha bir xil. Bu esa O'n ikki maqomdagi ayrim maqom va sho'balar olti maqomga birlashtirilib, yaxlit turkum xoliga keltirilganidan darak beradi. shashmaqom tarkibida O'n ikki maqomdagi nomlar uchrashini hisobga olib, bu yerda O'n ikki maqom va ularning sho'balarini sanab o'tamiz. O'n ikki maqom majmuasiga quyidagi maqomlar, ularning ma'lum ko'rinishlari - ovoza va sho'balar kiradi: Ushshoq, Navo, Busliq, Rost, Xusayniy, Hijoziy, Rohaviy, Zangula, Iroq,

Isfahon, Zirafkand, Buzruk. Ovozlar: Navro'z, Salmak, Gardoniya, Gavasht, Moyyo, shahnoz. O'n ikki maqomning sho'balari quyidagicha ataladi: Dutoh, Segoh, CHorgoh, Panjgoh, Ashiyrani, Bayotiy, Navro'zi, Arab, navro'zi Xoro, Navro'zi Bayotiy, Xisor, Nuxuft, Uzzol, Avj, nayriz, Mubarka', rakb, navro'zi sabo, Xumoyun, Zovuliy, Isfaxonak va ro'yi Iroq, bastai Nigor, Nihovand, Javziy, Muxayyar.



SHashmaqom o'zbek xalqi musiqa merosida juda katta o'rin tutadi.

SHashmaqom yo'llarida milliy va mahalliy musiqaning boy ohanglari, vazn xususiyatlari, doira usullari va ashulalar she'rlarini moslab tushira bilish qoidalariga bog'liq qator tomonlar

mujassamlangan. U 250 ga yaqin cholg'u va ashula yo'llarini o'z ichiga oladi. Ular asosida yaratilgan yuzlab xalq kuy va ashula namunalari, surnay yo'llari hisobga olinsa, maqomlarning xalq musiqasida tutgan mavqei naqadar baland ekanini yana bir bor amin bo'lish mumkin. SHashmaqom tojikcha olti maqom demakdir. SHashmaqom tarkibidagi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, segoh va Iroq maqomlarining har biri yirik shakldagi asarlar bo'lib, 20 tadan 45 tagacha katta va



kichik hajmdagi maqom yo‘llarini o‘z ichiga oladi. O‘tmishda maqomlarning ijro etilishida tanbur va doira yetakchi sozlardan hisoblangan. Hozir esa, uning tarkibi ancha kengayganini ko‘rish mumkin. Ilgari maqom dastalariga kiritilmagan chang, qo‘shnay, g‘ijjak, qashqar rubobi, dutor, so‘ngi yillarda esa ud, qonun kabi sozlar kiritilib, guruh ancha kengaytirildi. Binobarin maqom cholg‘u yo‘llarining ohangdor, jozibali ijro etilishi uchun yanada boy imkoniyatlar yaratildi. maqomlarning har biri ikki bo‘limdan - cholg‘u va ashula bo‘limidan iborat.

#### **4.2. An‘anaviy musiqiy merosning cholg‘u va aytim ijrochiligi**

Maqomlarning cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataladigan cholg‘u qismlari bo‘lib, ularning ohanglari turlicha bo‘lsada, doyra usullari bir hildir. Ular Tasnif, Tarji, Gardun, Muhammas va Baqil nomlari bilan mashhurdir. Maqomlarda nomdosh bo‘lmagan cholg‘u qismlari ham uchraydi. Masalan Navoda -Nag‘mai Oras, Dugohda - Beshravi Dugoh va Samoiy Dugoh,

Segohda - Xaffifi Segoh va x.z. Maqom cholg‘u yo‘llarining kuy tuzilishi murakkab bo‘lsada, o‘zining rang-barangligi, ohangdorligi bilan eshtuvchini maftun etadi. Ular uchun hos narsa shuki, har bir cholg‘u qism xona va bazgo‘ylardan tarkib topgan. Xona - uy, bo‘lak bo‘lib, musiqa islohatida kuyning o‘zgaruvchan va faol rivojlanuvchi bo‘lagidir. Unda kuy ohanglari o‘zgarib, yangicha uslubda avjga tomon harakatlanib boradi va bosh pardaga qaytib tushadi. Xonalar tufayli kuy mazmuni boyib boradi.

Bozgo‘y - tojik tilida qayta aytish, qaytariq demakdir va tuzilma



ko‘pincha “Peshraf” deyilgan kuy

qismlari katta ahamiyatga molik. Peshraf tojikcha - oldinga yuruvchi, oldinga harakat etuvchi, degan ma‘noni bildiradi. Ular xonalarning kuy harakatida turli balandliklarda bir necha bor takrorlanadi va bazgo‘yga ulanib ketadi. Peshraflar kishiga ko‘tarinki ruh baxsh etadi.

Maqom cholg‘u qismlarida doyra usullarining ham o‘rni kattadir. Masalan Tasnif va Tarjifda doyra usuli bir hil ijro yoki Tarjen Iroqdagi kabi, besh taktli bo‘lib ham kelishi mumkin. Gardun, Muhammas, Saqil, Hafif, Samoiy kabi iboralar bilan ataluvchi cholg‘u qismlari shu nomli doira usullari ifodasidir. Bu yerda bir narcha muhimki, Maxammas va Saqil qismlar doyra usullari juda murakkab bo‘lib, Muxammaslarda 16 takt, Saqillarda 24 taktli tashkil etadi. SHu bilan birga ulardagi xona va bozgo‘ylar hajmi bir - biriga teng.

kuyning xonalaridan so‘ng takrorlanadi. Binobarin ularni tugallovchi vazifasini ham bajaradi. Xonalar bilan kuy takomillashadi. Mazmunan chuqurlashadi va boyiydi. Bozgo‘ylar esa, musiqiy fikrni yakunlab, umumlashtirib beradi. Maqom cholg‘u yo‘llarida xonalarni takomillashuvida



SHashmaqomning ashgula bo‘limi sho‘‘balari ham bastakorlik san‘ati an‘analarining mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Kuy shakllari kor, qavl, amal, peshrav, naqsh, savt va tarona nomlari bilan mashhur bo‘lib, ular shashmaqom tarkibida ham uchraydi, binobarin umumiy tarzda taronalar nomi bilan ataladi. SHashmaqomning deyarli hamma cholg‘u yo‘llari peshrav ohanglaridan tuzilgan. Peshrav yo‘llarini tinglab ko‘rilsa, pastga pog‘onama - pog‘ona harakat qilayotgan peshrav tuzilmalarining ichida ohang yuqoriga harakat qilayotgani va kuyni tashkil etadigan xonalar yuzaga kelayotganini ajratib olish mumkin. Naqsh - bu atama bezak ma‘nosida ishlatiladi va shashmaqomning nasr deyilgan sho‘‘balariga moslanib bastalanadi. Naqshlar yengilroq ashula bo‘lib, murakkab va vazminroq ijro etiladigan nasr sho‘‘balariga ulanib aytiladi. naqshlar taronalardan kuy tuzilishi jihatdan boshqa ashula yo‘llaridan ajralib turadi. Endi taronalar shakliga kelsak, o‘tmishda ular to‘rtlik, ya‘ni ruboyi she‘rlarini va shu she‘rlarga mos kichik shakldagi ashulalarni ifodalangan.

SARAXBOR - Sar - tojikcha bosh, axbor - arabcha “xabar” so‘zining ko‘pligi, ya‘ni bui bora ashula turkumlari tuzilishidan darak beruvchi bosh ashula yo‘li, qisqasi, ashula bo‘limining bosh mavzui ma‘nosidir. Olti maqomning har birida ular maqomlar nomi bilan qo‘shib, sarahbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh va Sarahbori Iroq - deb nomlanadi. Ular muzore‘ Mujtass, Mutaqorib, ramal vaznlaridashi 11-14-15 bo‘g‘inli she‘rlar bilan o‘qiladi.

TALQIN ~ nomi sho‘g‘balar Iroqdan tashqari hamma maqomlarda uchraydi va Talqinni Uzzol, Talqini Ushshoq, Talqini Bayot, talqini CHorgoh, talqini Segoh deb yuritiladi. Talqin yo‘llari Uzzol, Ushshoq, Bayot, CHorgoh, Segoh, Nas rva Ufar yo‘llari bilan hamohang va bu sho‘‘ba qismlari bir-birining ritmik variantlaridir. Ularning taronalari esa, Saraxborlardagi kabi vazifani bajaradi.

NASR - Sochma, ko‘mak, zafar ma‘nosida ular shashmaqomda o‘nto‘rttadir. Ular:

Buzrukda - Nasrullovi, nasr Uzzol; Rostda - nasri

Ushshoq, Navro‘zi sabo; Navoda - Nasri bayot, Orazi

Navo, Xusayniy Navo;

Dugohda - nasri CHorgoh, Orazi Dugoh, Xusayniy Dugoh;

Segohda - Nasri Segoh, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Ajam;

Iroqda - Muxayyara Iroq.

Ular 6/4 takt o‘lchovidagi doira usulida ijro etiladi. UFAR - maqomlarning yakunlovchi qismi bo‘lib, sho‘xroq doyra usulida ijro etiladi.

Ularni ijrosi uchun turli vazndagi /Ramal, Hazaj, Razaj she‘rlardan foydalaniladi. Har bir maqomning sho‘‘balari va ularning taronalari turkum tarzida ijro etilib, Ufar bilan tamomlanib, oxiri sug‘orish bilan tamomlanadi. Bu suporishlar sarahborlarning ashula boshidagi jumlaridir. Suporish - topshiruv ma‘nosida

turkumni sarahborga uzatadi va u bilan yakunlanadi. Ikkinchi guruh sho‘‘balari Savt va Mo‘tilchalar usulida ijro etiladigan ashula yo‘llaridir. Faqat Navo maqomida mustazoda Navo sho‘‘basi “Talqin” doira usulida ijro etiladi.

Ikkinchi guruh sho‘‘balari, asosan, besh qismon bo‘lib, asosiy ashula yo‘llaridan tashqari shaxobchalari - Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar - deb nomlanadi va shu nomli doira usullari jo‘rligida ijro etiladi.

Ikkinchi guruh sho‘‘balari orasida Rok, Iroqi Buxoro, Mustazoda Navo o‘z tuzilishi bilan Savt va Mo‘g‘ilcha sho‘‘balaridan farq qiladi va ularning birinchi /bosh/ qismlari saraxbor va talqin usullarida ijro etiladi.

Olti yarim maqom: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Panjgoh turkumlarining matnlarini yozib olishga qaratilgan. XIX-XX asrlarda Xorazmda klassik musiqa taraqqiyoti ikki yo‘nalishda “Oltin yarim maqom tizimi”, “Dutor maqomlari”da nomoyon bo‘ldi.



SHashmaqom Xorazm sharoitiga moslanib olindi va juda katta o‘zgarishlarga uchradi. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo‘ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo va boshqalar maqomlarga yangi cholg‘u qismlar bastalab maqomlarni shaklan va mazmunan boyitdilar. Tasnif qismlari o‘rniga har bir maqom nomi bilan ataladigan cholg‘u yo‘llari yaratdilar. Maqom yo‘llarining kuy tuzilishida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ular kengaytirib yoki qisqartirilib qayta ishlanadi. Lekin, SHashmaqom ohanglari asosan saklanib qoldi. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari keyingi yillarda juda kam ijro etilgan bo‘lib, magnit yozuvlari ham sanoqli darajadadir. Xorazm maqomlari cholg‘u qismlaridan umumiy tasavvur olish uchun Buxoro cholg‘u yo‘llariga murojat etish kifoya. Ular orasida ba‘zi tafovutlar bor xalos. Masalan cholg‘u bo‘limlarida, SHashmaqomdagi tasniflar o‘rniga maqomlar nomi bilan ataladigan va Saraxborlarga ohangdosh sho‘‘ba va Ufarlar kiritilgan.

cholg‘u qismlarining kuy tuzilishi esa asosan saqlanib qolingani va Xorazm musiqiy uslubida ijro etiladi.

Xorazm maqomlari ashula yo‘llari esa tarona nomi bilan emas, maxsus boshqa nomlar bilan ataladi. Masalan, Tarona qismlari Rost maqomida, “Suvora”, “Naqsh”, “Faryod”, Buzrukda esa – “Sayri gulshan”; Navoda – “Suvora”, “Faryod”, “Naqsh”, Dugohda – “Suvora”; Segohda – “Naqsh” va “muqaddima” deb nomlanadi. Bu narsa Xorazm maqomlari ashula yo‘llarini “SHashmaqom” sho‘‘balari bilan solishtirishda juda katta qiynchiliklar tug‘diradi. Bundan tashqari ba‘zi taronalar o‘rni o‘zgartirilgan. Ko‘pincha saraxborlar taronalari Nasr sho‘‘balarida yoki aksincha foydalana boradi. Yana shuni aytish joizki Iroq maqomida ashula bo‘limi sho‘‘balari umuman uchramaydi. Nasr yo‘llarining ba‘zilarida taronalar mavjud bo‘lib, ular “Suvora”, “Naqsh”, “Tarona” nomlari bilan mashhurdir. “Naqsh” iborasi Temuriylar davridan brshlab qo‘llanilib kelingan. Lekin Buxoro maqomlari tomonidan unitilib yuborilgan bo‘lsada Xorazmda bu nom hozirgacha qo‘llaniladi. Buxoroda esa, naqsh ashula yo‘llari deb nomlanadi. “Naqsh” so‘zi arabcha bo‘lib, “bezak”, “sayqal” ma‘nolarini bildiradi. Bunda yirik shakdagi ashulalarga kichikroq shakldagi ashula yo‘llari ko‘zda tutilib, ular maqom turkumlariga haqiqatdan sayqal bo‘lib xizmat qiladi. Nasrlarning tarona yo‘llaridan yana biri suvoralar ham naqshlar vazifasini o‘taydi. Suvora iborasi tojikcha otliq, chavandoz ma‘nolarida ishlatiladi. Suvora yo‘llari tinglansa, otning yurishi bilan otliq kishining harakati ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Suvoralar usuli soqinoma yoki ufar doyra usullarida bo‘ladi.

Xorazm maqomlarida 13 chorakli takt o‘lchovidagi doyra usulida ham keladi. Keyingi vaqtlarda ular sustroq usulda ham ijro etiladigan bo‘ldi. Hozir Xorazmda suvora yo‘llarining turli namunalari keng tarqalgan. Ular shakl jihatidan maqom sho‘‘balari kabi yirikdir. Xorazm maqomlari ham ufarlar bilan yakunlanadi. Ufarlar esa ko‘pincha SHashmaqomdagi kabi Nasrlar bilan emas, balki saraxborlarga ohangdosh. SHunday qilib SHashmaqom Xorazm vohasi sharoitida muhim o‘zgarishlar bilan ijodiy foydalanilgan edi. Ba‘zi maqomlarning kuy yo‘llari, doira usullari ixchamlashtirildi, usul su‘rati biroz tezlashtirildi. Namud avjlari qisqartirilib olindi, kuy va ashula yo‘llari qayta bastalandi, ba‘zan yangidan-yangi qismlar yaratildi. SHashmaqom Xorazmda mustaqil yashab keldi.

SHuning uchun Buxoro va Samarqand shaharlarida so‘nggi davrlarda yaratilgan savt va mo‘g‘ilcha turidagi sho‘g‘balar Xorazm maqomlariga kirmay qoldi. Lekin Xorazm bastakorlari SHashmaqom usulida chuqur ijodiy ishlar olib bordilar. Maqomlar usulida “Suvora” yo‘llarining ajoyib namunalari “Feruz”, “Ilg‘or”, “Eshvoy”, “Norim-Norim2” kabm noyob kuy va ashulalar vujudga keldi. SHulardan biri “Unutma” ashulasidir. Bu ashula yo‘li nasrlar usulida ijro etilib, Xorazm dostonlarida aytiladi. Maqom yo‘llarining xalq dostonlarida ham foydalanilganligi Xorazmda maqomlarning naqadar mashhurekanidan dalolat beradi. Bastakorlar Xorazm sharoitiga mos kelgan ba‘zi maqom yo‘llari o‘rniga yangidan-yangi asarlar yaratdilar. Xorazm maqomlarida hofiz va ijrochi sozandalar ajralib turadi. Ovoz san‘atida Matyoqub Podachi, Xojixon Boltaev, cholg‘u

mahoratida Matyoqub Xarrot, Razzoqbergan Omonov nomlarini alohida qayd etish lozim.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1.«SHashmaqom»dagi maqomlar taxlilini bilasizmi?
- 2.«Buzruk» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 3.«Rost» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 4.«Navo» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 5.«Dugox» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 6.«Segox» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 7.«Irok» maqomi ijro yo‘llarini va ijroviy tuzilishini sharxlab bering?
- 8.Xorazm maqomlari xakida nima bilasiz?
- 9.«Xorazm tanbur chizig’i» xaqida so‘zlab bering?
- 10.Xorazm maqomlari tuzilishini sharxlab bering?
- 11.Farg’ona -Toshkent maqom ijrochiligi yo‘llari xaqida nima bilasiz?
- 12.«CHor makqom» ijrosi qanday tuzilgan va turkumlar ijrolari qanday nomlanadi?

### **FOYDALINGAN ADABIYOTLARI**

1. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o‘quv qullanma. T. 2008 y.
  2. SHaripova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. 2000 y
- Fayziev O.O‘quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 2002 yi.
3. X.Rahimov O‘zbekiston Vatanim manim. T. 2007 y.
  4. SHaripova G.M. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.
  5. N.Norxo‘jaev, H.Rahimov O‘zbekiston Vatanim manim. T. 2009 y.
  6. G.SHaripova musiqqa o‘qitish metodikasi T. 2006
  8. O.Ibrohimov, J.Sadirov 7-sinf musiqqa darsligi T. 2008 G’.G’ulom nashryoti
  9. O.Ibrohimov O‘zbek xalq musiqqa ijodi.T. 2007 y.
  10. Maqomat.O.Matyobov Musiqqa nashryoti T. 2004 y.

### **5 MAVZU: O‘ZBEK MUSIQASINING MAHALIY USLUBLARI REJA**

- 1.O‘zbek musiqasida mahaliy uslublar
2. Buxoro- Samarqand musiqqa uslubi
3. Xorazm musiqqa uslubi-
4. Farg’ona –Toshkent musiqqa uslubi.

Musiqqa tarixi, nazariyasi, vokal-xor mashg'ulotlari, savodi, tinglash, tahlil, adabiyot, chalish, ritmik xarakter, emotsional ta'sir, aralash dars, ifoda vositalari, psixologik ta'sir, ilmiylik, sistemalilik davomiylik, onglilik, faollik, kurgazmalilik, moslik, mustaxkamlik.

### **5.1. O'zbek musiqasida mahaliy uslublar**

“O'zbek musiqasi iborasi” keng mazmunli tushincha bo'lib, jumladan o'z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamini – xalq musiqasi va ustoz san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqqa sohalarini hamda bastakorlik va kompozitorlik kabi zamonaviy musiqqa ijodiyoti tarmoqlarini qamrab oladi. SHuningdek, “o'zbek musiqasi” mazmunida 4ta asosiy mahaliy uslublar mavjud va ular quyidagicha nomlanadi;

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa uslubi:

Buxoro- Samarqand musiqqa uslubi

Xorazm musiqqa uslubi:

Farg'ona –Toshkent musiqqa uslubi.

Har bir mahaliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'alariga ega. Bu an'alar esa o'zoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharoitdagi turmish tarzi, urf-odat bayramlari va boshqa shu kabi jarayonlar bilan o'zviy bog'lanib ketadi.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa uslubi deganda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida shakllangan barcha musiqiy badiiy an'alar tushiniladi. Bu an'alar mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab qo'shiq va cholg'u kuylaridan tashkil topadi. SHuni ham aytish kerakki, musiqiy an'alarining kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taluqli bo'lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmish tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitlarda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga keldi.

Surxondaryo-Qashqadaryo hududlarda yashovchi mahalliy aholi o'zoq davrlardan buyon chorvachilik va dehqonchilik mehnati bilan shug'ullanib keladi. SHu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq aytim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijro etilgan. CHorvachilikka doir qo'shiqlar (aytimlar) asosan “Sog'im qo'shiqlari” dan iborat bo'lib, ular qora mol, biya, tuya, echki kabi uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylangan.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa uslubining muhim qismini dostonchilik an'alarini tashkil etadi.

Doston ijrochilari shoir, yuzboshi yoki baxshi deb yuritilakdi. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq ijrochisi, do'mbira sozi birlashgan bo'ladi. Dostonlarni ijro etish mavsumi kech ko'zda, Yig'im-terim ishlari tugatilgandan so'ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etadi. xshilar kuylayotganda maxsus “bo'g'iqlik ovozi” bilan do'mbiraning ovoziga jo'navozlik qiladilar. Bo'g'iqlik ovozida kuylash dostonchilik maktabining asosini tashkil etadi.

Jumladan; “Alpomish”, “Avazxon”, “Go‘ro‘g‘li” kabilarni yod oladilar va kuylash usullarini o‘rganadilar.

## **5.2. Buxoro- Samarqand musiqa uslubi** Buxoro- Samarqand musiqa uslubi deganda Buxoro va Samarqand

shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an‘analari tushiniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiq-lari, ashulalari, cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin ayimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san‘ati va maqom namunalari keng o‘rin tutadi. Bu uslubning o‘ziga xos jihatlardan biri – unda ikki tillilik o‘zbek va tojik tillarining an‘anasini namoyon bo‘lishidir.

Odatda qo‘shiq ning bandlari o‘zbek tilida, naqoratlari esa tojik tilida yoki teskarisi bo‘ladi. Buxoro- Samarqand musiqa uslubida qarsak janriga alohida to‘htalib o‘tish kerak. Qarsak o‘yin ayimlarining bir necha turlari mavjud bo‘lib, u turli xil tomosha va davralarda ko‘pchilik tomonidan ijro etiladi. Jumladan, qars, yakka qars, qo‘sh qars, uch qars, besh qars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari bor.

Buxoro- Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san‘ati ham mavjud bo‘lib, u ayollar ijodi bilan bog‘liqdir. Sozanda bu-yakkaxon aytimchi bo‘lib, u qo‘lda qayroq yoki zang (qo‘ng‘iroqcha) bilan raqga tushib , qo‘shiq bandlarini kuylaydi. 2-3 ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqoratlar bilan jo‘r bo‘ladi. Bu guruh vakillari asosan ayollar yig‘inlarda ishtirok etib , o‘zbek va tojik tillarida kuylaydilar. Dastlabki qo‘shiq-lar tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan sokin ijro etilsa, keyingilari esa jadallashil o‘yin-raqs ayimlariga ulanib ketadi. Hozirgi vaqtda dastalarda akkordion va rubob ham qo‘llanila boshlandi.

Bundan tashqari Buxoro sanat uslubida “Mavragi” janri ham keng tarqalgan.

Bu janrda xam ikki tilda kuylash namoyon bo‘ladi. Jo‘rnavor sifatida faqat doiradan foydalaniladi. Mavragi asosan erkaklar tomonidan aytiladi.

Buxoroda tarqalish hududiga ko‘ra dostonchilik maktablari juda keng tarqalgan. Jumladan “Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi”, “Nurota dostonchilik maktabi”, Narpay dostonchilik maktabi shular jumlasidandir. Mashxur doston ijrochilaridan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Yo‘ldosh bo‘lbo‘l, Ergash Juman Bo‘lbo‘l shular jumlasidandir.

## **5.3. Xorazm musiqa uslubi**

Xorazm musiqa uslubi-bu shu vohadagi xalq qo‘shiq va laparlari turli marosim tamosha va o‘yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san‘ati kabi kasbiy musiqa an‘alaridan tashkil topadi. O‘zbek musiqasining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o‘zgacha tarovatga ega bo‘lib , uning ma‘lum darajada turkman va ozarbayjon musiqasiga mos jihatlari ham bordir.

Xorazm musiqa uslubining o'ziga xos jihatlari, uning an'anaviy cholg'ularida ham nomoyon bo'ladi. M, bo'lamon cholg'usi boshqa uslublarda uchramaydi. Bu soz tut daraxtidan ishlangan kichik urnay shaklidagim cholg'u bo'lib unda yakka holda va ansamllar tarkibida ijro etish mumkin.

Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asrning oxiriga kelib garmon cholg'usi ham ommalashib ketdi. Uni "soz" deb tashadi. Xorazm musiqa san'atida deyarli o'zbek xalq cholg'ulari deyarli uchramaydi, jumladan do'mbira ham.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs o'yin-kuylarini bir necha turlarga bo'lish mumkin:

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asosini Lazgi, Ganji Qorabog', Ufori kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o'yin kuylari. Ularning Yelpazalandi, Ufori Yelpazalandi kabi kuylar tashkil etadi.

3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin kuylari. Bu kuylarni CHog'olloq, Az-az, Xorazimcha, Yuz bir, Ot eroni, surnay yo'li kabi namunalar tashkil etadi. Xorazm raqs va o'yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. "Xarakatli o'yinda parrandali va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (ot o'yin, tustovuq o'yin, kaprtar va boshqalar) kiradi.

Ikki va undan ortiq ijrochilarning tarafma-taraf bo'lib kuylaydigan aytishuvlarga lapar deb aytiladi. Laparlar aytilayotganda raqsga xam tushish mumkin, chunki ularda raqsbop usullar, ayniqsa Ufar usuli keng qo'laniladi.

An'analarga ko'ra laparlar xalq bayrami va sayillarda to'y marosimlari va boshqa ommaviy tantanalarda ijro etilgan.

Xorazmda ashulachilike san'ati ravnaq topgan bo'lib, ashlachilarni xalq orasida ko'proq "go'yanda" deb ataydilar. Ashula janri mumtoz she'riyat namunalariga asoslangan. Kuy-ohanglari esa qo'shiq va laparga nisbatan diapazoni keng bo'lib, ovoz ko'lami bir oktava yuqori.

Xorazmda "suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlaridir. "Suvora" so'zi fors-tojikcha bo'lib, ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik to'zilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylar"ni ifodalaydi.

Xorazmda Suvora ijrochilarini didalishma deb yuritiladi. Uning 7 ijrochlari Xojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov, Madrahim yoqubov kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmda Suvora ashula yo'llarini ikki turkimi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

1. O'n ikki Suvoradan iborat SAVti Suvoralar turkumi. Bu turkumdagi har bir Suvora rim raqami bilan belgilanadi. Maalan, Savti Suvora 1, Savti Suvora 11, va hokazo.

Suvoralarning yanaibir turkumini yirik shaklli Suvoralar mjmuasi tashkil etadi.Xorazmda Suvoralardan tashqari yana alohida ashula yo'llari ham mavjud bo'lib, ulardan biri "Mustahzod" deb ataladi.

O'zbekiston xalq artisti, xonanda, sozanda va bastakor Komiljon Otaniyozi (1917-1975) Xorazim musiqa uslubining yirik nomoyodalaridan biri. Uning ijrosidagi "Aziz Vatanim", "Salom xind xalqiga", "Xorazm", "Netay," , "Oshiq G'arib", "Sunggi xon" dramalarida ham ishtirok etgan.

#### **5. 4 Farg'ona –Toshkent musiqa uslubi**

Farg'ona –Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini uchratish mumkin. Jumladan dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatlarga qarab yakka yoki ansambl shaklida nomoyon bo'ladi. Ommaviy bayram xalq tantanalari va to'y marosimlarida isurnay, karnay, nog'ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uy-xona sharoitida esa sadolanishi nisbatan yumishoq cholg'ular dutor, tanbur, g'ijjak, qo'shnay va boshqalar qo'llaniladi.

Farg'ona-Toshkent cholg'u musiqasida raqs kuylarini aytish mumkin. Bo'larda yana musiqa uslubida xotin –qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida tarafma-taraf bo'lib lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marositmi aytimlari bo'lgan yor-yor, kelin salom va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan, Ular ijrosida yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla-bu band-naqorat shaklidagi aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallachi doira jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa naqaratni davrada hozir bo'lgan ko'pchilik qo'shilib aytadi. Yakkaxon holdagi yallachi, odatda o'z aytimlariga dutor yoki doira sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doira jo'rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida xozir bo'lgan yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytimlaridan to'zilgan bo'ladi.

Yallachilik san'atining moxir ijrochilaridan Hadyaxon Hamdamova, Lutfixonim Sarimsoqova, Rahima Mazohidova, Oyimqiz To'xtaevalardir.

Yallachilikning yana bir ko'rinishi ham borki, uni Namanganda "Satang" deb ham ataydilar.

Farg'ona-Toshkent uslubida raqs kuylari ham mashhurdir. Bo'lardan, Dilxiroj, Andijon polkasi, Farg'onacha rez, Tanovor, Katta o'yin kabi raqs kuylarni aytish mumkin.

Farg'ona –Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari hma muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytimlarga nibatan ovoq doirasining kengligi hamda kuychan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi.

Ashulalar ijro etilishiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

Xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.

Kasbiy musiqaga oid ustoz-batakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.



“Tanavor”, “Ey nozanin” , “Oydek to‘libdur”, “Farzona”, “Ul parivash” singari xalq ashulalari nafaqat xofiz-ashulachilar balki ziyolilar, xunarmandlar , kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. SHuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham ichkarida kuylangan. Jumladan, “CHaman ichra”, “Tanavor”, “Qora sochim” kabi ashula yo‘llari dutor jo‘rligida xotin –qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ashulalar, an’anaga kura, turli yig’in va majlislarda , to‘y marosimlari va boshqa xalq tantanalari ijro etilgan. CHoyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqaoari ham o‘tkazib turilgan.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamatbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Rasulqori Mamadaliev, Jo‘raxon Sulstonov, Ma‘murjon O‘zoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Fattohxon Mamadaliev kabi mashhur san’atkorlar nomini xurmat bilan tilga olamiz.

Katta ashula –bu yirik xajimli ashula bo‘lib, uning kuy-ohanglari keng nafasli hofizlar uchun mo‘ljallangandir.

An’anaviy ijroga ko‘ra bu turdagi maqomlarning cholg‘u kuylari yakka soz –dutorida, tanburda, g‘ijjakda yoki tanbur-dutor-nayda, g‘ijjak-doira cholg‘ularidan iborat ansambl shaklida chalingan.

Ashula yo‘llari esa ashulachi hofizlar tomonidan tanbur yoki cholg‘ular ansambli jo‘rligida aytiladi. Ushbu maqom ashula yo‘llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa shoirlarning mumtoz she‘rlari asosida kuylanadi.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari xalqimizning madaniy hayoti bilan bog‘liq turli vaziyat va sharoitlarda, xalq tomoshalari va sayillarda, dorbozlar o‘yini va boshqa ommaviy tantanalarda, ashula yo‘llari esa gap gashtaklarda turli yig’in kechalari va nufo‘zli majlislarda ijro etib kelinmoqda.

Otmagay tong

S.Abdulla she‘ri

T.Jalilov musiqasi

Otmagay tong bog‘aro azming xromon  
bo‘lmasa, Bo‘lbo‘li shashdolari gul o‘zra nolon  
bo‘lmasa.

Qaydin ishq o‘tiga ursin, o‘zni u parvonalar, Parpirab bag‘rin yoquvchi sham‘i  
jonon bo‘lmasa...

( jonli ijro etish).

***Lapar.Yalla.Sozanda san’ati.Amaliy topshiriq***

## **LAPAR**

O‘zbek marosim folxlorida oilaviy maishiy marosimlardan biri nikoh to‘yi bilan bog‘liq folxlor namunalari tashkil etadi. nikoh to‘yi marosimlari va uning folxlorini boydir. Nikox marosimlari bilan bog‘liq ravishda jar (chorlovlar), ulan, lapar, yor-yor, kelin salom, kuyov salom, to‘y olqishlari kabi mustaqil folxlor

janrlari mavjud. Respublikamizning shahar va qishloqlarida ijro etiladigan, lapar janrlari va uning xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Laparlar nikohdan bir-ikki kun oldin kelin bo'lib tushadigan qizning uyida ijro etilgan. Bu marosim turli yerlarda «Kiz okshomi», «Kizlar majlisi», «Kiz oshi», «Lapar kechasi», «Kizlar bazmi», «Lapar tuyi» kabi turli tuman nomlar bilan yuritiladi. Lapar to'yi tadbiri to'y marosilarining nikohlargacha bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Odatda kizning (kelinning) yangalaridan biri maxsus yasatilgan otga minib, orqasiga 11-12 yoshli bolani mingashtirib, yoki piyoda holda qishlog'i va to'ydosh yaqin qishloqlarni aylanib, lapar kechasiga xabar qiladi. Bunda ashulachi, o'yinchi, laparchi qiz juvonlarni taklif qilishga alohida e'tibor beriladi. Yigitlar va yosh yalanlar qizlar bazmining oxirida, ya'ni uning lapar aytishish qismida ishtirok etadilar. Qiz bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmachoq o'ynaganday bo'ladi. Bu bazmda qizlar va yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib lapar aytishadi. Odatda, tuyga atab, qizning otasi ikki-uch juft kavush olib qo'yadi. Lapar aytuvchi shulardan bir poyini ushlab turib lapar boshlaydi va qizlar to'wasidagi laparchi qizga uzatadi. Ular ham o'z navbatida lapar bilan javob berib, haligi bir poy kavushni ro'paradagi laparchi yigitga olib kelib beradi. shu tariqa yangidan-yangi laparchilar urtaga tushaveradi.

Lapar bilan qiz va yigitlar bir-birlariga muhabbat izhor etib, tanishgan va ahdi-paymon qilishgan. O'z yurak dardlarini muzikasiz ma'lum ohangda ashula qilib aytishgan. Bordi-yu lapar aytayotgan yigit bilan qiz bir-birin yoqtirib qolsa, lapar aytib turib bir-birlariga sovg'a berishgan. Masalan, yigitlar ko'pincha kavush bilan birga tanga, so'm bersalar, qizlar qiyiqcha, dastrumol, atir, sovun va shu kabi narsalarni kavushning ichiga solib qaytarishgan.

Qiz bazmida ko'pdan beri aytilib kelingan laparlar takror aytilar va yangilari ham ijod qilinardi. Odatga ko'ra, bazmdan avval ziyofat beriladi, mash'ala yoqiladi, sung o'yin boshlanadi, keyin laparga o'tiladi.

Lapar Toshkent atrofi tumanlarida, Janubiy Kozog'iston o'zbeklari orasida keng tarqalgan. Laparni ko'p biluvchilarni laparchi deganlar. Ayrim to'ylarga maxsus laparchilar xam chaqirilgan.

**Sozandachilik san'ati.** Buxoro – Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda – bu yakkaxon – aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) ushlab raqsga tushadi, qo'shiq bandlarini kuylaydi. Ikki – uch ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqarotlar bilan jo'r bo'lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambli) da jami uch – to'rt ayol – yakkaxon sozanda, doirachi, naqarotchi qatnashadi.

An'analarga ko'ra, sozanda dastalari o'z san'atini faqat xotin – qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va ko'proq tojik tilida bo'lgan ko'p qismli o'yin – aytim turkumlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, aytim qo'shiqlarni ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash an'anasi mavjud. Odatda, sozanda o'z aytimini vazmin, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan “To'y muborak” qo'shig'i bilan boshlaydi. So'ngra asta jadallashib boruvchi raqs – o'yin aytimlari birin – ketin, to'xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doirachilar ham naqarotlar, ham usullar bilan jo'r bo'lib turishadi, ba'zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishiga ega ritmlarni o'zaro mutanosib ijro etadilar.

Hozirgi paytda sozanda dastalarida rubob, va hatto, akkordeon ham qo‘llanila boshlandi.

### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Surxondaryo-Qashqadaryo an’anaviy cholg’u uslubi haqida nimalarni bilasiz?
2. Baxshilar san’ati kimlarga xos?
3. Buxoro –Samarqand musiqa uslubi haqida nimalar bilasiz?
4. Qarsak janri kimlarga xos?
5. Mavragi janri deganda nima tushinasiz?
6. Xorazm musiqa uslubi haqida gapirib bering.
7. Xorazm dostonchilik maktabi nomoyondalarini bilasizmi?
8. Farg’ona –Toshkent musiqa uslubi haqida gapirib bering

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.I. Karimov “Yuksak ma’naviyta va yengilmas kuch” –T. SHarq 2008 y.
2. “Barkamol avlod”-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident I. Karimov. 2007yil 29 avgust.
3. ”Yoshlar yili” davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PK-805 sonli qarori.
4. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi “ Ta’lim taraqqiyoti” - T. “SHarq” – 2009y.
5. R. Qodirov “Musiqqa pedagogikasi” – Tosh. ”Musiqqa”.
6. Tolipov U.K. Usanboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari”. Toshkent “fan”. 2009 y.
7. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi. Toshkent; 1990 y.
8. Pedagogika. A.K. Munavvarov taxriri ostida. Toshkent. 2006 yil.

## **6-MAVZU: “ROSSIYA, YEVROPA VA SHARQ MAMLAKATLARIDA MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYASI TIZIMI”**

### **REJA**

1. SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o‘xshashligi
2. Rossiyada musiqa ta’limi tizimi
- 3 Estoniya, Litva, Polshada musiqa ta’limi
4. Turk , Ozarbayjon, Turkman, Eron, Arab, Xitoy ,Uyg’ur, Yapon va Hindistonda musiqa ta’limi.

**6.1 SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o‘xshashligi** Ma’lumki, jahon xalqlari azaldan bir-birlari bilan siyosiy, ijtimoiy, savdo- sotiq va madaniy aloqada bo‘lib kelgan. Har bir xalqning go‘zal, mukammal va arziguli an’anasi odati boshqa xalqlar ananalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Buni biz hozirgi davrimizdagi yoshlarimiz orasida g‘arb estrada uslubidagi musiqa janrlarining

Demak

ommalashgani bilan solishtirsak to‘g‘ri bo‘ladi. , o‘tmishdan xalqlarning turli hayotiy tizimlarida boshqa xalq an’analariga o‘xshagan jarayon muqarrar ekan . Biz shu omiini kasbiy musiqa san’ati tizimida tasavvur qilishiga harakat qilamiz. Odatda, musiqiy asarning « nomi », «shakli», «tovush- Qatori», «matni» boladi.

Asrlar davomida xalqlarning o‘zaro munosabatlarida esa nomlanishlar (iboralar). Asarlarning tuzilish shakllari, so‘z ko‘p tuzilishlari, musiqiy cholg‘ularida qiyosiy o‘xshatmalar bo‘lgan. Maqomlarning nomlanishida umuman olganda, bu tizim maqomot deiladi. Ammo, Ozarbayjonda niug‘om. o‘zbek- tojik xalqlarida maqom deb yuritiladi. Ayrim xalqiarda o‘zgacha (hindlarda raga; mag‘rib. arablarda nuba) nomlanadigan bu musiqa turi kasbiy musiqaning eng yirik shaklidir. SHarq xalqlarining musiqiy cholg‘ularida ham juda ko‘p o‘xshashliklar mavjud.

Jumladan, rubob sozi o‘tmishda SHarq xalqlarida «rebaba». «rabab» nomlari bilan keng ommalashgan. Tanbur sozi ham hindlarda — tamera, arablarda tambura, uyg‘urlarda - tombur deb vuritilib kelinadi. Urma cholg‘ular ko‘pgina SHarq xalqlarida daf, daff, dapp, def degan nomlarda uchragani kabi, damli sozlar ham “nay”, “nev”, “ney”, “noy”, “surnay” esa “zurna”, “suma” nomi deb qo‘llaniladi. Ushbu jarayon nafaqat ularning nomlarida, balki cholg‘u sozlarida ham yaqqol ko‘rinib turadi. SHuni alohida ta’kidlashi lozimki, bular SHarq xalqlarining turmush tarzi. e’tqodi. mashg‘uloti birligidan kelib chiqqan. SHu bois, SHarq xalqlari an’analarining ko‘p jihatlarida biz turli o‘xshashliklar borligining guvohi bomamiz.

## 6.2 Rossiyada musiqa ta'limi tizimi

Rossiyada musiqa pedagogikasi katta muvaffaqiyatlarga erishdi va jahon musiqa jamoatchiligining hurmat - e'tiboriga sazovor bo'ldi. SHu jumladan, taniqli kompozitor, pedagog, musiqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyasiga katta hissa qo'shdi.

D.B.Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha darsning tarkibiy mushtarakligi mashg'ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o'rin ajratilgan. Ta'kidlash lozimki, bolalar bilim egallashida "xususiylikdan umumiylikka" formulasi "umumiylikdan xususiylikka" qoidasi bilan almashtirilgan.

D.B.Kabalevskiy tizimining asosida "uch kit" ya'ni qo'shiq, raqs, marsh turadi. Bu ishda oddiy janrlar bolalar uchun musiqa haqida tushunchalarning shakllanishida birinchi kadamdir. musiqiy asar orqali ya'ni, qo'shiq, raqs, marsh janrida yozilgan asarlarni eshitib, ularni farqlash, aniqlash, tinglaganda fahmlay olishini maqsad qilib qo'ygan.

Keyingi bosqichda ushbu tushunchalar chuqurlashtiriladi, ya'ni raqssimon, marshsimon, qo'shiqsimon asarlar bolalarga eshittirilib, ular haqida erkin fikr yuritish malakalari rivojlantirilishi maqsad qilib qo'yiladi.

Umuman D.B.Kabalevskiyning ishlab chiqqan musiqiy o'qitish tizimi, musiqiy asarlar orqali hamma bilim va malakalarni bolalarga taqdim etish asosida tuzilgan. SHu bilan birga pedagogikaning muammoli o'qitish tizimi Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo'lib qolgan. Ya'ni bolalar o'zlari fikr yuritib muhokama qilib, o'qituvchining rahbarligida ma'lum bir bilim va malakalarga ega bo'lishligi nazarda tutiladi.

## 6.3 Estoniyada musiqa ta'limi

Estoniyadagi musiqa tarbiya tizimi qo'shiq bayramlarining ko'p yillik xalq an'analari asosida shakllandi, hamda eston xalqining yuksak xor san'atini saqlab qolishga intilgan musiqa o'qituvchilarining, musiqachilarning ulkan tashabbuslari hisobiga rivojlanib bordi. Hozirgi zamon musiqiy tarbiyasining ildizlari XIX asrga qarab o'tilgan. Sankt-Peterburg konservatoriyasida musiqa ta'limini olgan birinchi

eston kompozitorlari bolalarga beradigan musiqiy tarbiyaning zarurligini angladilar va bolalar uchun xor pesalari hamda qo'shiqlarini shuningdek, maktablar uchun ko'plab to'plamlarni yaratishga e'tiborlarini qaratdilar.

Estoniya musiqa hayotida qo'shiq bayramlarini o'tkazish katta voqeadir. Bu bayramlarni o'tkazishdan oldin har bir tumanda qo'shiq kunlari o'tadi. Birinchi ommaviy qo'shiqlar bayrami 1869-yili Tartu shahrida o'tkazilgan. Bunda hamma voxalardan erkaqlar xor jamoalari (sakkiz yuz kishidan iborat) ommaviy ravishda qatnashish uchun to'planadilar.

Ushbu bayram bugungi kunga etib kelgan an'analarga asos soldi. Bolalar xor jamoalari 1870-yildan boshlab (doimiy ravishda bo'lmasa ham) qo'shiqlar bayramida ishtirok etmoqdalar. Qo'shiqlar bayrami birinchi kundan boshlab, aholining hamma qatlamarini san'atga jalb etishga asoslangan edi.

1947-yildagi umumrespublika qo'shiq bayrami 25000dan oshiq qatnashchilarni yig'ini va umumxalq ommaviy bayramiga aylandi. 1947-yildan boshlab maktab xor jamoalari ham hamma qo'shiq bayramlarida ishtirok eta boshlaydilar. Dastlab, bayramlarda maktab bolalar xor jamoalari, aralash va ayollar xor jamoalari shunidek, damli cholg'ular jamoalari ishtirok etdilar. 1960-yildan boshlab o'g'il bolalar xor jamoalari ham ishtirok eta boshlaydilar. V.Laul boshchiligidagi o'g'il bolalar qo'shma xorini alohida ko'rsatish lozim.

1965 yili, birinchi marta respublika yosh skripkachilar ansambli ishtirok etib, qo'shiq bayramini an'alariga yangilik kiritdi. Maktab xor jamoalari qatnashchilarining soni oshib borayotganligi, shu munosabat bilan qo'shiq bayramlarini tashkil etishda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olib, umumrespublika qo'shiqlar bayrami orasida maktab o'quvchilari xor jamoalarining ko'riklarini o'tkazishga qaror qilindi. Birinchi shunday bayram 1962 yilning yozida Tallin shahrida o'tkazildi. Qatnashchilarning umumiy soni 20000ga yaqin edi. Xor ishida eng muhim va qiziqarli shakllardan biri 1963-yildan boshlab o'tkazilayotgan yozgi qo'shiq oromgohlaridir.

Ikki soatlik qo'shiq mashg'ulotlari bolalarning kashfiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, sport va boshqa o'yinlar esa kunning qolgan vaqtini to'ldiradi. Estoniyadagi qo'shiqlar bayramiga tayyorgarlik jarayonida seminar va yozgi yig'ilishlar o'tkaziladi. Seminarning alohida shakli-dirijyorlarning respublika qo'shma xori bo'lib uning tarkibiga 200dan ortiq musiqa o'qituvchilari va xor dirijyorlari kiradi.

Bu xor jamoasini respublikaning eng yaxshi dirijyorlari, shu qatorda Gustav Emesaks, Yuriy Variste edi. Ularning xorni boshqarishi mamlakat xormeystrlarining malakasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalar va yoshlarning musiqa madaniyatini rivojlanishiga maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega.

1951 yili Yu.Variste rahbarligi ostida Tallindagi usmirlar saroyi qoshida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib bu jamoa xor maktabiga aylanib, hamma sinf o'quvchilarini qamrab olgan. Xor jamoasi bitta asosiy va uchta tayyorlov xor jamoalaridan iborat. 1964-yildan boshlab xor maktabi o'quvchilari nota o'qishning yangi "Yo-LE-MI" tizimiga o'tdi, yangi repertuarni muvaffaqiyat bilan egallab, notani juda yaxshi o'qib, musiqa ohanglarini to'g'ri kuylamoq.

1964 yili respublikada bolalar musiqa maktablari o'quvchilaridan iborat yosh skripkachilar ansambli tashkil etildi.

Orkestr repertuarini bolalar o'zining turar joylarida o'rganadilar va har yili 3-4 marta kontsertlar uchun repetitsiyaga yig'iladilar. Orkestr qatnashchilarining yoshi 7 dan 17 gachadir, ya'ni o'qishni boshlayotgan va uni tugatayotgan o'quvchilar bir jamoaga birlashgan. Orkestr kontsertlari doimo muvaffaqiyat bilan o'tmolda.

O'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa-xor tarbiyasi berish ishiga respublikadagi eng yaxshi bolalar xor jamoalaridan biri "Ellerxeyne"ning rahbari X.Kalyustening hissasi kattadir. Bu jamoadagi ijrochilik madaniyatining yuqori saviyada ekanligi - bolalar bilan yaxshi tashkil etilgan ishning bevosita natijasidir.

Xor jamoasidagi mashg'ulotlar natijalari faqat qo'shiq ijro etish bilan chegaralanib qolmagan. Xor jamoasida qo'shiq aytish bolalarning his-tuyg'ulari va salohiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning ma'naviy kamolotiga turtki bo'ladi. Musiqa bilan shug'ullanish bolalarning badiiy bilim darajasini kengaytiradi, ularning dunyoni tasavvur qilishlariga yordam beradi. SHaxsga beriladigan estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan xor qo'shiqchiligini buyuk mazmuni ana shundadir.

### **Litvada musiqa ta'limi**

Litvada bolalar va yoshlarga beriladigan musiqiy tarbiya uzoq va o'ziga xos rivojlanish yo'liga egadir. Musiqiy tarbiya ko'p yillar davomida folklor, avloddan avlodga o'tayotgan xalq an'alariga asoslangandir. Litva musiqa madaniyatini rivojlantirishga, ko'p asrlar davomida maktab tarbiyasining asosini tashkil qilgan diniy musiqaning ta'siri kam emas.

XX asrning ikkinchi yarmida bolalarga beriladigan musiqiy tarbiya sohasida o'zgarishlar ro'y berdi. 1966-yil umumiy ta'lim maktabi isloh qilindi. Bolalar musiqiy tarbiya uslubiyoti uning qoidalari va mazmunidagi o'zgarishlar musiqa sohasida yangi o'quv qo'llanmalarini vujudga kelishi natijada respublikada musiqiy tarbiya saviyasini oshirishga sabab bo'ldi.

Musiqa bo'yicha eski dasturlarda bolalarning musiqiy tarbiyasida, tor va keng ma'noda, ayrim cheklanishlar bor edi. Masalan umumta'lim maktablari dasturlaridan musiqa nazariyasi asosiy o'rin olgan edi, musiqani tinglash, bolalarga musiqiy cholg'ularda kuy ijro etish o'rgatilmagan edi. Darslarning mazmuni va uslubiyoti ko'p hollarda kasbiy musiqa ta'lim yo'nalishlarini to'g'ridan - to'g'ri qaytarar edi. Jahon musiqa tarbiyasi va ta'lim tizimlarini diqqat bilan o'rganib chiqqan litvalik mutaxassislar barcha tizimlarda ta'limning ma'lum bir shakliga (Z.Koday tizimida-solfedjio uslubida kuylash qo'shiq, K. Orfda-bolalar cholg'ularida kuy ijro etish. Kabalevskiyda musiqani eshitish va u haqida so'hatlashish) diqqat-e'tibor berilgan, degan xulosaga keldilar. SHuning uchun ular " musiqiy tarbiya tizimi bir-biri bilan mazmuni va uslubi orqali mahkam birlashgan faoliyat turlarining izchilligiga asoslanishi kerak"- degan farazni ilgari surdilar.

SHunday qilib, Litvadagi musiqa darslari quyidagi bo'g'ing'larga ajratila boshlandi: musiqa eshitish, musiqa o'quvi asosida kuylash, solfedjo usulida kuylash, ritmik tarbiyasi, musiqa cholg'ularida ijro etish. Undagi bo'g'ing'lar musiqiy tarbiya va ta'limda yagona bir tizimni tashkil etdi va ayni paytda har bir bo'g'ing'in o'zining maqsadiga ega bo'ldi.

Musiqa eshitish - darsning kerakli qismi hisoblanadi. Musiqani tinglash orqali bolalar o'qib, bilim oladilar, kompozitorlar ijodi bilan tuyg'ulari va salohiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning ma'naviy kamolotiga turtki bo'ladi. Musiqa bilan shug'ullanish bolalarning badiiy bilim darajasini kengaytiradi, ularning dunyoni tasavvur qilishlariga yordam beradi. SHaxsga beriladigan estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan xor qo'shiqchiligini buyuk mazmuni ana shundadir.

Xor madaniyati (ommaviy qo'shiqlar bayrami, yosh avlodni turli musiqa jamoalari orqali xor san'atiga jalb etish)ning miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi Litva musiqa san'atining yetuklik darajasiga chiqayotganligidan guvoh beradi, xalq ijodini xalqaro maydonga chiqishiga zamin yaratmoqda.

### **Polshada musiqa ta'limi**

Polshadagi musiqiy tarbiya tizimi. Ye. Jak-Dalkroz va K. Orf g'oyalariga polyak pedagoglarining ijodiy yondashuvi asosida rivoj topmoqda.

To'liqsiz o'rta maktabda musiqiy tarbiya darsini birinchi-sakkizinchi sinflarda haftada bir soat miqdorida majburiy o'quv fani sifatida, qolgan yuqori to'rt sinflarda esa faqat bir yilda majburiy, qolgan uch yilda esa faqatltativ tarzida o'tkaziladi.

Polyak maktab o'quvchilarining musiqiy tarbiyada asosiy musiqa shakli bo'lmish qo'shiq muhim o'rin tutadi. Qo'shiq bilan bolalar bog'cha davridayoq tanishadilar. Asosiy diqqat e'tibor musiqiy tarbiyaning yetakchi shakli hisoblangan - kuylashga qaratilgan.

SHuningdek, repertuar tanlashga ahamiyat beriladi, uning badiiyligi musiqa va matnlar, bolalarning ijrochilik imkoniyatlari va ularning xilma-xilligi hisobga olinadi. musiqiy tarbiyaga oid o'quv dasturlarida polyak xalq qo'shiqlariga keng o'rin ajratilgan, qo'shiq ijro etishdan tashqari bolalar, urma cholg'ular, fleyta, mandolina, gitara, akkordeon kabi musiqa cholg'ularida ijro etadilar.

Polyak pedagoglari, bolalarning musiqali salohiyatini ijodiy tafakkurini kuchaytiradigan ijodiy amaliyotga alohida e'tibor beradilar.

Bolalar ijodiy amaliyotining eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari quyidagilar:

1. O'zi yaratgan yoki berilgan kuy asosida erkin badiha etish;
2. Musiqa qonunlariga buysunadigan hamda ongning nazoratini talab qiladigan badiha.

Polyak pedagoglari bolalarga beradigan topshiriqlarning turli variantlaridan keng foydalanadilar: ma'lum ritmdagi badiha (masalan, maqol va matallarning turli vaznlar asosida) yoki poliritmiya, polimetriya uslublarida kuylash, kuyni



berilgan usulga yoki polyak xalq raqslari usullariga moslashtirish, ma'lum (masalan, rondo, variyasiya, uch qismli) kompozitsion shaklda badiha, she'r va hikoyalarga bag'ishlab musiqa bastalash. Polyak maktablarida Jak-Dalkroz asos solgan musiqa sadolari

ostida ritmik mashqlar keng qo'llanilmoqda. Tajriba maktablarining 1-4 sinflarida musiqiy-jismoniy mashqlarning quyidagi shakllari bajariladi:

1 - mashqlar va ritmik o'yinlar bo'lib, ularda muayyan vazifalar rejalashtiriladi, masalan,

musiqa sur'ati, dinamikasi, ritmikasi o'zgarishiga bolalarning sezgirligini oshirish;

2 - usul va jismoniy harakatlardan iborat musiqa shakllari (uch qismli, variyasiya va

boshqa)ni yaratish;

3 - tinglagan musiqa asarlariga izoh berish;

4 - ashula va raqs o'yinlari.

Barcha sinflarda bir necha daqiqalar davomida musiqani eshitish, joriy etilgan Sakkiz yillik maktablar uchun fonotekalar tuzilib unga maxsus ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ilova qilingan. Mazkur qo'llanmalarda turli yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurni rivojlantirish, diqqat va xotirani faollashtirish usullari tariflanadi, yozib olingan musiqa asarlarining tahlili beriladi, kompozitor va ijrochilar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Musiqani tinglash jarayoni boshlang'ich sinflarda polyak tili dasturidagi muayyan musiqa mavzusiga, yuqori sinflarda esa tarix, geografiya, badiiy va fuqorolik tarbiyasi fanlari bilan bog'liq bo'ladi.

Polyak maktablari musiqiy tarbiya darslarida musiqa bilan tasviriy san'atlarning uyg'unlashuviga e'tibor beriladi. SHu maqsadda darslarda musiqa va tasviriy san'atning uyg'unlashgan shakllari, shu jumladan, audiovisual jihozlari yordamida kino, televidenie kabi turlari qo'llaniladi.

Xor qo'shiqchiligi bolalarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, qo'shiq orqali tashki olamni idrok etish, dunyo haqidagi bilimlarni egallash va boyitishning manbalaridan biri, insonparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta'riflanadi. Xor jamoasida qo'shiq aytish zamonaviy inson uchun zaruriyat hisoblanadi.

Evropa, Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya shakl va tizimlarini tahlil qilib, ham ijobiy, ham salbiy tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ijobiy tomonlardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: musiqa materialining asosi sifatida xalq musiqasidan keng foydalanish; musiqa o'quvi, ritm, xotirani rivojlantirish, musiqa savodxonligini oshirish yuzasidan ommabop usullarni tadbiq etish, musiqa o'qituvchilarining pedagogik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, o'qituvchilar musiqiy tayyorgarligining maqsadga muvofiq usullarini kidirib topish, ta'limda texnik vositalaridan keng miqyosdan foydalanish.

Xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida, shuningdek,

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo'lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan musiqiy tarbiyaning umumiy tomonlarini ham ko'rsatish mumkinki — uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil qilish kerak.

Bolalar musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko'riklarini o'tkazish va boshqa chora- tadbirlar bolalar musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, ISME dan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Yevropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va mukammallashuvi uchun zarur bo'lgan ilg'or uslubiyotning egallashda muhim o'rin tutadi.

#### **6.4 Turk va Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi**

Turk musiqasi Markaziy Osiyo xalqlari. ayniqsa, o'zbek musiqasi bilan ko'p jihatlardan o'xshashdir. Turk musiqasining asosiy kasbiy janri «maqom» deb nomlanadi va u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat -

taqsim, kor, basta, og'ir samoiy, sharqiylar, yuruq samoiy, soz bogmama kamoncha samoiy. Turk maqomlari ijrosida zurna, , soz, , tanbur, yovli tanbur (o'zbek satoesiga o'xshashli) qonun, ud, sumbut, doyra, daff kabi milliy cholg'ular ishlatiladi. Turklarda diniy marosim janrlaridan azon, tavjid, movlaviy o'yin, zikr va boshqalar keng qo'llaniladi.

Zamonaviy turk estrada musiqasi o'zining milliy tarovati. SHarqona o'ynoqiligi bilan jahonga mashhurdir.

Ozarbayjon xalqi turk xalqlar avlodiga mansub bo'lib, o'zining uzoq o'tmishiga va milliy qadriyatlariga ega. Ozarbayjon xalqining ijtimoiy hayoti negizida janrlarga boy bo'lgan an'anaviy madaniy merosi to'plangan. Liar asosan, turmush tarzi qo'shiqlaridan iboratdir.

Tasnillar ozarbayjon xalqining usulda ijro etiladigan ko'plab tizimdagi qo'shiqlari bo'lsa, mug'omlar erkin ijroga asoslangan badiha uslubiga xos bo'lgan yirik mumtoz janrdir.

Ozarbayjon xalqi musiqiy cholg'ulariga ham boy. Xalq orasida tutek, tulup-zurna, balabon, duduk, kemoncha, soz, tor, daff, gabal, nog'ora, bala-nog'ora yoki dumbul kabi milliy musiqiy cholg'ulari keng ommalashgan.

#### **6.4 Turkman xalq mumtoz musiqasi**

Turkmaniston O'rtasiy xalqlari orasida qadimiy tarixga ega

davlatlardan biridir. Uning uzoq o'tmishiga niunosib boy qadriyatlari va milliy an'nalari shakllangan. Turkmanistonning yana bir olamshumul jihati, bu hududdan "Buyuk Ipak yo'li" o'tganligida va qadimiy ilm maskanlarida bo'lgan Marv shahri shu yerda joylashganligidadir.

Barcha xalqlar singari turkmanlarda ham xalq musiqasi, uning sodda va mumtoz nomlari mavjud. Turkman xalq musiqasida, asosan, mehnat, marosim, maishiy. epik va mumtoz namunalar o'z aksini topgan. Xalq orasida keng ommalashgan musiqiy namunalardan «Hu\ di» (alia), «Yagish yagara keldi» (bolalar qo'shig'i), «Yar-yar» kabi bir qator asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Turkman mumtoz musiqasining asosiy janrlari: dostonlar, badiiy adabiyot namunalariga asoslangan ashulalardir. Turkman xalq ashula va qo'shiqlarining o'ziga xos tornoni shundaki, ular ko'proq deklamatsion, ya'ni so'zlashuv xarakterida ijro etiladi. Turkman xalqi epik janr ijrochilarini «baxshi» deb ataydilar.

Turkmanlarning eng qadimiy dostoni bu «og'iznoma»dir. Bundan tashqari. ularning merosidan «Go'ro'g'li», «Oshiq G'arib va SHohsanam», «Asl va Karim

kabi dostonlar ham joy olgan Turkman musiqasidagi\_\_\_\_\_ asosiy cholg'u sozlari: g'ijjak, dutor, tuyduk, dilli tuyduk va qo'bizlardir. Turkman xalqi o'zining o'tmishda yashab ijod qilgan buyuk allomalari bilan faxrlanadi. Ular orasida turkman xalq shoiri Maxtumqulining adabiy merosiga ko'pchilik xonandalar murojaat qiladilar. SHu bois. mumtoz musiqa merosida Maxtumquli so'zlari bilan aytiladigan juda ko'p musiqiy namunalar mavjud. Maxtumquli XVI asrda ( 1730-1782) yashab, juda katta meros qoldirgan buyuk shoirdir. Uning merosi nafaqat turkmanlar. balki boshqa xalqlar orasida ham keng ommalashgan.

#### **6.5 Eron xalq mumtoz musiqasi**

Eron musiqasining tarixiy ildizlari o'zbek, tojik va turkman xalqlari madaniyatining ko'hna sahifalari bilan chambarchas boglangan. O'zbek va tojik musiqasining bobokaloni— Barbod Marviy ( VII asr) Eron musiqasining ham asoschisi hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz— Abu Masr Forobiy, Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy va boshqa mutafakkirlarning musiqa sohasida qoldirgan ulkan merosi Eronda ham milliy-ma'naviy qadriyat sifatida ezozlanadi.

O'zbek-tojik maqomlariga o'xshash bo'lgan Eron kasbiy musiqasining asosiy janri «dastgoh» deb ataladi. Eronda 7 la dastgoh turkumi mavjud: Sluir. Mohur, Humoyun. Segoli, CHorgoh. Navo, Rost-Panjgoh. Har bir dastgoh, o'z

navbatida, Muqaddima. Daromad, Qarashma, Gusha, Ovoz, CHahor Muzrob. Bayoti Turk. Abu Ato kabi tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Eronda soz. tanbur. santur, nay, surnay, Ud, Dovra, chang kabi milliy cholg‘u asboblaridan keng foydalaniladi.

### Arab xalqlari mumtoz musiqasi



Halqlari ko‘hna va boy musiqa an‘analariga ega. Bu mintaqada jozibador va o‘ziiga xos tarovati bilan farqlanuvchi samoniy, taqasim, bashraf muvanshoh, mawal, dar, kuba, ma‘ruf kabi aytim janrlari hamda taxlima, samoniy, taqasim, bashraf singari cholg‘ular keng tarqalgan. Qadimda asli Markaziy Osiyoda ixtiro qilingan “al-ud” barasida arab cholg‘u xalqlarining milliy u

asbobi hisoblanadi. SHuningdek damli cholg‘u turiaridan nay sumay, cholg‘u arg‘ul; torli cholg‘ulardan qonun, santur, rubob, tanbur; zarbli u asboblardan — nog‘ora, daff, tabla arablarda keng qo‘llaniladi. Diniy marosim janrlari tavjid, madh, zikr, ramazon qo‘shiqlari arab musiqasida azaldan shakllanib kelgan. Arab musiqasining mashhur namoyandalari Uim Kulsim va Said Darveshning nomlari jahonga mashhurdir.

### Xitoy xalq mumtoz musiqasi

Xe Lu-Tin va boshqalar ijodida taraqqiy etmoqda. Xitoy qadimiy va boy madaniy an‘analarga ega mamlakatdir. Xitoy musiqasi, ayniqsa, xalq qo‘shiqchiligi qadim zamonlardan pentatonika tovushqatorlariga asoslanadi. Tan sulolasi davrida xitoy musiqasining asosiy pardalari va tovush- qatorlari Lyuy-lyuy tizimi asosida shakllanadi. XII asrlarda an‘anaviy xitoy operasi rivojlanadi. XIX asrda bu janrning 300 dan ortiq shakllari yuzaga keladi. Asliula, rechitativ raqs va cholg‘u musiqasiga asoslangan xitoy operasining mumtoz namunasi sifatida Pekin musiqa teatri Sitszuy keng rivojlangan. Zamonaviy xitoy musiqasi mashhur kompozitorlari Si Sin-Xay, Ne Er, CHjan SHu, Xuan Se

### Uyg‘ur xalq mumtoz musiqasi

Uyg‘ur xalqi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib o‘zining boy madaniy merosi bilan Markaziy Osiyo xalqlari orasida alohida o‘rin tutadi. Uyg‘ur xalq musiqa

san'ati ikki yo'nalishda, va yani folklor va og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa yo'nalishida shakllangan.

Uyg'ur kasbiy musiqa uchta katta hududga ajratiladi. Bulan Qashqar, Kumul(markazi Turfon) va Ili vodiysi (markazi G'ulja). Kasbiy musiqa Hi vohasining musiqa san'ati yetakchi hisoblanadi. Uyg'ur musiqasining kasbiy tizimiga kiruvchi janrlar: maqom va muqom tizimiga

kiruvchi turkumiy janrlar doston, naxsho va sanam. Uyg'urlarning yetakchi milliy cholg'u sozlari: tanbur, dutor, safoil qashqar rubobi. g'ijjak. nog'ora va surnay. Odatda. musiqa ijrochilari xalq orasida

muqomchi, dostonchi, naxshichi, sanamchi, mashrapchi, usulchi, aytimchi va cholg'uchi

kabi iboralar bilan nomlanadi. Uyg'ur musiqa o'ziga xos jozibali va serqochirimdir.

### Hind xalq mumtoz musiqa



Hindiston mamlakati jahon miqyosida tan olingan musiqiy san'at

an'analari vatani ekanligi ma'lum

O'rta Osiyo va Hindiston san'atlarining shuningdek.

hindlarning «Santur» musiqiy o'zbe

cholg'usining k «chang» iga "bansuri" ning «nav»ga o'xshashligi

kabi va yana boshqa misollarni

keltirsa bo'ladi.

Hind xalq musiqa janrlari juda boy va xilma-xildir. Bunda

turli xil folklor janrlari bilan birgalikda jahonga mashlmr bo'lgan mumtoz janr «Raga» larni ham alohida ta'kidlash lozim. Ma'lumki hind ragalari o'z o'rnida o'zbek-tojik «SHashmaqom»i singari mukammal shakl va falsafiy mavqeidagi janr sanaladi. Hind musiqiy cholg'ulari

ham ancha rang-barang.Hind mumtoz musiqasini dunyoga tanitishda Avan Akbar Xon, Xariprost va Yu. V. Narayaposvali kabi mohir ijrochilarning hissalarini katta.

### Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi

Yaponiya - go'zallikni ulug'laydigan mamlakat, shuning uchun

bolalarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan intilish maktab o'quv





rejasidagi «musiqa» o'quv fanida o'z  
musiqa bilan haftada uch marta,  
qadar - ikki marta, to'qqizinchi  
sinfda esa haftada bir marta

ifodasini topgan.

Birinchi sinfda o'quvchilar

ikkinchidan to sakkizinchi sinfga

shug'ullanadilar.

Mashg'ulotlarni olib boradigan pedagoglar o'rta ma'lumotli, aksariyati esa maxsus oliy ma'lumotga egadirlar.

Yaponiyalik muallimlari 1-sinf bolalarining musiqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradilar, chunki aynan shu yoshdagi bolalarda o'quv faniga intilish va jiddiy munosabat tarbiyalanadi. Birinchi sinfda o'quvchilar, ko'nikma-malakalarning butun bir majmuasini, ya'ni tovushni to'g'ri chiqara olish, nafasni rostdash, dirijyorning oddiy harakatlarini tushunish, qo'shiqni o'rganish hamda uni ijro etish, usulni his etish kabilarni egallashlari lozim.

Bolalarga mutlak tizim asosida nota savodini o'rgatish, keyinchalik metallofon, lab garmonchasi va fisgarmoniyada kuy ijro etish o'rgatiladi, shunday qilib qo'shiq ijrochiligi cholg'ular jo'rnovozligi bilan to'ldiriladi.

Maktabdagi o'quv yili uch semestrga bo'linib, 38 hafta davom etadi. Birinchi trimestrda bolalar ritmik jo'rnovozligi, ikkinchisida esa musiqa cholg'ularida murakkab bo'lmagan ikki ovozli mashqlar bajarishadi.

Birinchi sinfda bolalar musiqani eshitib, musiqa asarining badiiy xususiyatlarini, sur'ati, registr, dinamika, tembrni belgilaydilar, oddiy uch-qismli (AVA) shaklni aniqlaydilar.

6-sinfga kelib, bolalar murakkab musiqa asarlarini ijro etadilar. SHunday qilib, musiqa darslarida asosiy o'rin musiqa cholg'u asboblari ijro etishga ajratilib, bu narsa hamma bolalarni ijodiy jarayonda faol ishtirok etishga jalb etadi va ularda musiqaga qiziqish va muhabbatni o'yg'otadi.

Musiqaga oid o'quv rejasi va dastur shu tarzda tuzilganki, bolalarning musiqa ijrochiligida ishtiroki ularning musiqani eshitish qobiliyatining muttasil rivojlantirib beradi, ularni yanada murakkabrok musiqa asarlarini tinglab, idrok qilishga tayyorlaydi. Maktab o'quvchilari I.S. Bax, A. Vivaldi, V. Motsart, L. Betxoven, F. SHubert, F. Mendelson, M. Glinka, M. Musorgskiy, P. CHaykovskiy, N. Rimskiy-Korsakov, I. Stravinskiy, D. SHostakovich, A. Xachaturyan asarlari bilan, shuningdek, G. Karayan, E.SHvartskopf, L. Kogan, D. Oystrox, S. Rixter kabi buyuk ijrochilar va ular yaratgan asarlar bilan tanishadilar.

Musiqani eshitish jarayonida o'qituvchi texnik vositalardan, stereo elektrofon va videomagnitofonlaridan keng foydalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya

maktab va oliy o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti o'z aksini topgan. Barcha darsxonalar yangi zamonaviy texnika asboblari bilan jihozlangan.

Yaponiyadagi qariyb har bir maktabda xor jamoasi bo'lib, unda haftada ikki marta mashg'ulot o'tkaziladi. Xor jamoasi bilan musiqa o'qituvchisi ish olib boradi. Yaponiyaning musiqali hayoti yosh skripkachilarining qo'shma orkestrlari chiqishlari bilan o'zgacha ko'rinishga egadir. 1948 yili Yaponiyada xor dirijyori va jamoat arbobi Akiko Seki tashabbusi bilan «Yaponiyaning kuylovchi ovozlari» xor jamoasi tuzilib, u xor qo'shiqchiligining barcha havaskorlarini birlashtiradi.

Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo'lib unga musiqa, tasviriy san'at va mehnat o'zviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida
- b) 6-14 yoshgacha to'liqsiz o'rta maktab
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi

Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda o'qigan talabalar rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va musiqa san'ati tanqidchilari kasblarini egallab chiqadilar.

O'qituvchi-kadrlar tayyorlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliygoxlarida tayyorlanadi. O'qituvchilar, shuningdek ona Vatanidan olgan bilimlariga qoniqmay, rivojlangan Yevropa mamlakatlarga o'qishga borib o'z bilim va malakalarini oshirib qaytadilar.

### ***2017-yil Qashqadaryo viloyatidagi maqom musiqa festivali***

#### **“MAQOM” FESTIVALI RAQAMLARDA**

Har 2 yilda MAQOM ART xalqaro forumi o'tkaziladi. Shahrisabzdagi Maqom muzeyida 200 eksponat saqlanmoqda. Etno-shaharcha 3 haftada bunyod etildi. Shahrisabzning bosh maydoni 86 gektardan ortiq yerni egallaydi. Oqsaroy maydonidagi amfiteatr 1800 o'ringa mo'ljallangan. 6 sentabr kuni MAQOM ART ochilishida 70 dan ortiq mamlakatdan mehmonlar tashrif buyurdi. Maqom tanlovi gran-pri sohibi uchun ajratilgan summa – 15 000 dollar. Mahalli media vakillari uchun mukofot fondi – 50 000 000 so'm. Tunisning “Al Gharbi Twins”, Yaponiyaning “SPCP Japan” jamoalari va Turkmaniston vakili Suxonberdi Ozarberdiyev uchinchi o'ringa loyiq, deb topildi. Eronning “Nastar” ansambli va hindistonlik Ustad Iqbol Ahmat Xon ikkinchi o'ringa munosib ko'rildi. Ozarbayjonning “Hayrati” jamoasi solisti Nigor Shabanova va O'zbekistonning “Saqil” ansambli birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, Xalqaro maqom anjumanining bosh sovrini – Gran – pri Tojikiston maqom akademiyasiga berilgan e'lon qilindi.

## NAZORAT SAVOLLAR

1. SHarq xalqlari kasbiy musiqasining o'xshashligi
2. Daf, daff, dapp, def solg'ular qanday asbob hisoblanadi
3. "nay", "nev", "ncy", "noy", "surnay" esa "zurna", "suma" nomi bilan mashg'ur cholg'ular
4. Rossiyada musiqa ta'limi tizimi
5. Estoniyada musiqa ta'limi
6. Litvada musiqa ta'limi
7. Polshada musiqa ta'limi
8. Turk va ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi
9. Turk musiqasi Markaziy Osiyo xalqlari musiqasi.
10. Zamonaviy turk estrada musiqasi
11. Ozarbayjon xalqi musiqiy cholg'ulari
12. Turkman xalq mumtoz musiqasi
13. Eron xalq mumtoz musiqasi
14. Eron musiqasining tarixiy ildizlari o'zbek, tojik va turkman xalqlari madaniyatining ko'hna sahifalari bilan chambarchas bog'liqligi
15. Arab xalqlari mumtoz musiqasi
16. Xitoy xalq mumtoz musiqasi
17. Uyg'ur xalq mumtoz musiqasi
18. Hind xalq mumtoz musiqasi
19. Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Apraksina.O.A. Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie 2009 «Музыка і реніе») -M.: Prosveщenie, 2003-222s
- 3.Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиоров Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 s.
- 4 D.Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma.T.2009 O'zDK.
- 5.S.Begmatov, D.A.Karimova Q.MAmirov T.G'ofur G'ulom nashriyoti,2008 y.



## **7- MAVZU: MILLIY ESTRADA SAN'ATINING RIVOJLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI**

### **REJA**

1. Milliy estrada san'atining rivojlanishi
2. Estrada san'atining rivojlanishida B. Zokirovning o'rni.
3. Ilk estrada ansambllari va ularning san'at olamidagi o'rni

#### **7.1 Milliy estrada san'atining rivojlanishi**

Bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti, ma'naviy barkamol insonni madaniyatlash masalalari davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. SHu o'rinda milliy musiqiy estrada san'ati ijrochiligini professional darajaga ko'tarish, jumladan, estrada xonandaligi milliy maktabini yaratish va rivojlantirish yo'lida ijobiy harakatlar qilinmoqda.

1996 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida ilk bor «Estrada ijro-chiligi» bo'limining ochilishi, 2002-2003 o'quv yildan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasida yangi «Estrada san'ati» fakulteti ishga tushganligi va shu konservatoriya qoshida iqtidorli bolalar akademik Litseyining tashkil etilishi shu soha rivojiga katta ahamiyat berilayotganligining yana bir dalili bo'ldi.

Prezident SH. Mirziyoevning 15 fevral 2018 yil imzolagan farmoniga ko'ra "O'zbeknavo" hamda "O'zbek raqs" birlashmasi tugatilib, ularning negizida "O'zbekkontsert" davlat muassasasi tashkil etildi.

"Estrada"- ispancha so'zdan olingan bo'lib "taxta supa", "supa", "tepalik" ma'nosini anglatadi.

Milliy estrada san'atimiz bugungi kunda gurkirab rivojlanmoqda va olamga dong taratmoqda. Atoqli kompozitorlarimizdan Mutavakkil Burho-nov, Ikrom Akbarov, Manas Leviev, Sulayman Yudakov, Doni Zokirov, SHarif Ramazanov, Enmark Solixov kabilarning yaratgan o'lmas asarlar va ularni yuksak mahorat ila ijro etgan betakror xonandalar - jahon xalqlari qo'shiqlarini bo'lbo'lona kuylovchi Xalq artisti Tamara xonim, betakror ovoz egasi va ijro ustasi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovlarning o'zoq yillik samarali izlanishlari tufayli estrada san'atimizning milliy shakli vujudga keldi. Bunda kompozitorlik ijodi va Yevropacha kuylash uslublari milliy ohang va an'anaviy xonandalik yo'llari bilan tabiatan payvasta bo'ldi.

Albatta, respublikamizda milliy estrada rivoji jarayonida barcha yutuq va ayrim nuqsonlar ijodkorlarning bilimi va saviyasi, iste'dodi va mehnatiga bevosita bog'liq. Estrada san'ati tabiatiga binoan yuqori badiiy natijalar xonanda va sozandalar bilan bir qatorda bastakor hamda aranjirovkachi ijodiy hamkorligining mevasi sifatida yuzaga keladi. Ma'lumki, o'z vaqtida Botir Zokirov hamda Ikrom Akbarov, Enmark Solixov, keyinchalik "Yalla" guruhi va Yevgeniy SHiryayev, Muhabbat SHamaeva, Ra'no SHaripova, Yunus Turaev va Yevgeniy Jivaev, so'ngra Farrux Zokirov, Doni Ilyosovlarning ijodkorona mehnatlari tufayli zamonaviy o'zbek estrada qo'shiqchiligining mustahkam poydevoriga asos solinib, u kasbiy-badiiy barkamol sifatlariga ega bo'ldi.

1991 - 2001 yillari ham o'zbek estradasi yuldo'zlari darajasiga ko'ta-rilgan iste'dodli xonandalar - Yuldo'z Usmonova, G'ulomjon Yoqubov, Nasiba Abdullaeva, Kumush Razzoqova, Kozim Qayumov, Azim Mullaxonov, Ravshan Nomozov hamda "Qars" va "Toshkent" guruhleri Alisher Ikromov, Dilorom Omonullaeva, Alisher Rasulov, Vladimir Baramikov, Sarvar Qoziev kabi kompozitor va aranji-rovkachilar bilan yaqin hamkorlikda ijod qilishmoqda.

Darhaqiqat, Mustaqil yurtimizda milliy estrada musiqasini rivoj-lantirishga barcha imkoniyat va sharoitlar mavjud. Binobarin, shu soha ijodkorlari - xonanda-yu sozanda va bastakorlardan xalqimizga manzur bo'ladigan yangi badiiy barkamol qo'shiq hamda kuylar ijod etishlarini kutib qolamiz. Zero hozirgi zamon o'zbek estrada san'ati fidoiy, iqtidorli yosh san'atkorlarga boy.

### **7.2 Estrada san'atining rivojlanishida B. Zokirovning o'rni.**

O'zbek san'atining yorqin yuldo'zi, milliy estrada asoschisi, xonanda va bastakor Botir Zokirov o'zining iste'dod va mahorati bilan xalq e'tiborini qozongan san'atkorlardan biridir



Zokirov Botir Karimovich 1936 yil 26 – aprelda Toshkentda ustoz san'atkor Karim Zokirov oilasida tavallud topgan.

U o'zbek estrada musiqasining asoschisi o'zbek milliy estrada san'atining yirik namoyandasi, ajoyib shoir, rassom, dramaturg, rejissyor va mohir honandadir.

U 1965 yilda O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan. Botir Zokirovning konsertlari radio, va televideniya orqali chiqishlari tomoshabinlarda juda katta taassurot qoldirgan. Qo'shiqchining repertuari juda rang-barang edi; Opera ariyalari, o'zbek xalq qo'shiqlari, chet el shlyagerlari.

Uning mashhur “Arabcha tango”si retro muhlislari tomonidan hano‘zgacha sevib tinglanadi.

Botir Zokirov o‘zbek – zamonaviy professional estrada qo‘shiqchiligining asoschisi. Toshkent Davlat Konservatoriyasining vokal fakulteti (1952 – 1957), Toshkent Davlat teatr va rassomlik san’ati institutining rejissyorlik fakulteti (1958 – 1962)da ta’lim olgan.

Yoshlik ansambli (1957), o‘zbek Davlat estrada orkestri (1958-1970) yakkaxon xonandasi, Toshkent mo‘zixollining tashkilotchisi, yakkaxoni va badiiy rahbari (1972- 1978). 1978 yildan “O‘zbekkonsert” ning yakkaxon xonandasi Botir Zokirov o‘ta ta’sirchan tembrli, shirador ovozga ega bo‘lgan. Uning ijodida o‘zbek kompozitorlarining romans va qo‘shiqlari muhim o‘rin tutadi. U qaysi davlatga borib gastrol safarida bo‘lmasin o‘zining yorqin va betakror ovozi bilan, o‘sha xalqning mehriga sazovor bo‘lgan.

M. Burhonov – “Maftun bo‘ldim”, I. Akbarov - “Yor kel”, “Ra’no”, “Gazli” “Seni eslayman”, S. Jalil “Majnun monologi”, “Kechalar yuldo‘z sanab” va boshqalar uning ijrosida yangrab alohida xurmatga va xalq olqishiga sazovor bo‘lgan qo‘shiqlardandir.

Botir Zokirov estrada uslubida qayta ishlangan hind “Dil orzusi”, “Meychale”, eroncha “Maro bebus”, “Ayriliq qo‘shig‘i” misr “Arabcha tango,”Uyqum o‘g‘risi” livancha “Go‘zal qiz”, meksikancha “Alvido muhabbat”, italyancha “Yashasin muhabbat” qo‘shiqlarini ijro etgan.

Kinoakter sifatida Botir Zokirov yosh muhandis “Gullar ochilganda”, Rabindranat Tagor “Olovli yo‘llar” Abdulloh Abu Ali Ibn Sinoni otasi roliga “Dahoning yoshligi” kabi obrazlar yaratgan.

Botir Zokirov 1985yil 23 yanvarda vafot etgan. Respublikamizda Botir Zokirov nomi abadiylashtirilgan.

Xususan, Toshkent ko‘chalaridan biriga Botir Zokirov nomi berilgan Jizzahdagi san’at bilim yurti, Samarqanddagi yoshlar san’at markazi uning nomi bilan yuritiladi. 1994 yil Botir Zokirov nomida estrada orkestiri tashkil etildi. 1995 yil (Botir Zokirov) jamg‘armasi tashkil qilindi. 1989 yildan uning nomida zamonaviy estrada qo‘shiqlari tanlovi o‘tkaziladi.

### **7.3 Ilk estrada ansambllari va ularning san’at olamidagi o‘rni** Ilk bor O‘zbekistonda 1970 yilda Toshkent shahrida Toshkent teatr

instituti va Toshkent teatr instituti bitiruvchilardan iborat “Yalla” ansambli tashkil topgan. Ansambl O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist , kompozitor Ye. SHeryaev tashabbusi bilan VIA shaklida tashkil topgan. Ishtirokchilari F.Zokirov

(1976 yildan badiiy rahbar), SHaxboz Nizomiddinov, L. Kandalova, V. Jo‘raev, S. Avanesov, A. Fatxulin, Nargiz Boyxonova va boshqalar. Repertuardan folklor uslubida qayta ishlangan o‘zbek xalq qo‘shig‘i, Yevropa va SHarq musiqiy yestrada shakllari hamda ommaviy musiqaning boshqa vositalari bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos, jo‘shqin va jozibali uslub shakllanishiga asos bo‘ldi.



Uning ijrosida milliy kuy-qo'shiqlar zamonaviy talqinda arinjirovka qilinib sahna yuzini ko'rdi. Ansamb tarkibida 6 erkak 1 nafar ayol xonanda bor edi. Ular ijrosida aytilgan qo'shiqlar tez ommalashib dunyo yuzini ko'ra boshladi. Jumladan "Boychechak, Oq terakmi-ko'k terak, Yumalab-yumalab, Xandalak, Uch quduq, SHaxrisabz, Qilpillama, Majnuntol, CHoy xona, va h". Xalq qo'shiqlarini zamonaviy estrada janrida talqin etilishi butun xalq ichida tez tarqalishi bilan birga "Yalla" vokal cholg'u ansambli shuhratini dunyoga tarqalishiga sabab bo'ldi. Ansamb o'z repertuarlaridagi qo'shiqlarning xalqchilligi bilan bir necha davlatlarda gastrol safarida bo'ldi. Jumladan Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika mamlakatlarida bir necha marta gastrolga bo'lgan. O'zbekiston yurtini dong'ini dunyoga taratdi. Bu esa o'zbek millati uchun yuksak sharaf va faxr edi.

SHular qatorida "Sado", "Paxtaoy"(Bolalar ansambli), "Samarqand", "Navo" kabi ansambllar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Mazkur sharafli an'anani barkamol va izlanuvchan ijodlari bilan davom ettirayotgan keyingi avlod kompozitorlari - Dilorom Omanullaeva, Nadim Norxo'jaev, Alisher Ikromov, Alisher Rasulov, Doni Ilyosov va kuy-lashning yangi-yangi qirralarini kashf etayotgan usta xonandalarimiz O'zbe-kiston xalq artistlari Farrux Zokirov, Yuldo'z Usmonova, Nasiba Abdulla-eva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kumush Razzoqova, Gulsanam Mamazoitova, Sevara Nazarxon va boshqalarning ijodiy izlanishlari nati-jasida aytish mumkinki, hozirda estrada ijrochiligimizning milliy mak-tabi shakllanib, kun sayin yanada rivojlanib borayotgani yaqqol sezilmoqda. Estrada qo'shiqchilik va kuylash maktabini rivojlantirishda

ko'plab kompo-zitorlar izlanishlar olib bormoqdalar. Bo'lar jumlasiga taniqli kompozi-tor Dilorom Omanullaevaning izlanishlari diqqatga sazovordir.

Ta'kidlash joizki, xozirgi paytda o'zbek estrada musiqasi o'zining uslub nuqtai nazaridan murakkab jarayonni boshdan kechirmoqda. Hususan, unda Yaqin va O'rta SHarq estra-dasidan tortib to Lotin va SHimoliy Amerika hamda

G'arbiy Ovrupa mamlakatlari ommaviy musiqasining kuy-ohang va ritm-usullari ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Oldingi davrda man etilgan yoki davlat tomonidan "qo'llab quvvatlanmagan" ommaviy musiqa uslublaridan ("disko" va "hard-rok" dan boshlab "rep" va "xevi" metallgacha) erkin foydalanish, milliy an'anaviy musiqa namunalarining estrada sahnasiga olib chiqish tajribalari ham 1991 yildan boshlab keng o'rin tuta boshladi.

SHu bilan birga endilikda O'zbekistonda musiqiy estradaning yangi oqimlari, jumladan, yoshlar orasida "texno-pop", "pank", "hard-rok", "reggey" va "jaz-rok", "bard" qo'shiqchiligi kabi yo'nalish va uslublar rivojlanmoqda. Sarvar Qoziev rahbarligida kamol topgan hamda turli estrada tanovlari sovrindori darajasiga ko'tarilgan "Qars" ("CHiprodalli-dalli", "Yor-Yor, yoro-ney"), shuningdek "Toshkent" ("Bedana") va "Manzur" ("Etolmaysiz", "Meni yor dema") guruhlari, Muhammadjon Ro'zimuhammedov va "SHofayz", Doniyor Mamedov va "Bayram", Abdulla SHomag'rupov va "Nola" ("Nazokat", "Sensan sevarim"), Rashid Xoliqov va "SHah-zod" ("O'ynaysan", "Kelinchak"), Sevara Nazarxon va "Sideriz" ("Unutma"), Abdulaziz Karim va "Asr" ("Qurbon bo'laman"), Tohir Sodiqov va "Bolalar", "Xo'ja", "Toj" kabi guruhlar hozirgi davr yoshlar estrada musiqasining saralangan bo'g'inini tashkil etadi. Albatta, bu jarayonda ayrim natijalar bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlar estradasiga yuzaki taqlid qilish, "evropacha" va "sharqona" uslublarda "ijod" etish tamoyillari keng tus olmokda.

SHuningdek, yana bir alohida tamoyil sifatida jahonda mashhur ommaviy estrada (turk, eron, arab, frantsuz, ingliz va b. estrada yuldo'zlari) qo'shiqlarining kuy-ohanglariga o'zbekcha so'z va she'rlarni "bog'lab" ijro etish tajribalarini qayd qilish mumkin. Ammo bu kabi tajribalarni badiiy-ijodiy jihatdan doim ham qoniqarli, deb bo'lmaydi. Unutmaslik kerakki, bunday jarayonda yuzaga kelgan qo'shiqlar va shu asosda "ruhiy ozuqa" olayotgan yoshlarimiz pirovard-natijada ona tilimiz, milliy ohanglarimiz tarovatini, qolaversa ularning qadr-qiyamatini teran his etolmay qolishlari mumkin.

Ma'lumki, opera xonandaligida «A» va «O» tovushlari «doirasimon» yopiq tarzda kuylanadi. Estrada xonandaligi ijrochiligida esa mazkur tovushlar biroz ochiq va «xalqona» yo'lida kuylashi lozim. Zotan, xalq xonandaligi va an'anaviy maqom xonandaligining ovoz va nafas yo'llarini o'zida mujassam etadi. Estrada san'atining xalq tomonidan tez va oson idrok etishning sababi ham shunda.

Ovoz mashqlarining asosiy vazifalari:

1. Kuylashda nafasni vokal ixtisosiga mos darajada olish;
2. Kuylashda «artikulyatsiyani» thg'ri ishlatish;
3. Tomoq (ovoz) mushaklarini rivojlantirish;
4. Sof intonatsiyaga erishish;
5. Ovoz diapazonini (doirasini) kengaytirish;

6. Barcha kuylash texnikalari: kuychanlik (kantilena), stakkato, non legato, tayanchli tovush (орықтыы звук), faltset, tovush filirovkasi, ovoz dinamikasi (forte, piano) ni egallash;

7. Estrada xonandaligi uslubidagi barcha texnik yo‘nalishlarini egallash.

Eng avvalo ovozni erkin va to‘liq chiqishini diapazonning o‘rta qismida yangratishga erishish lozim. SHundan so‘ng diapazonning yuqori tovushlarini kuylashga o‘tish mumkin.

### *Sharq taronalari*

“Sharq taronalari” – Xalqaro musiqa festivali mustaqil Vatanimizning jahon uzra taratayotgan erk va ozodlik navolaridir. Erkin va farovon hayot, fayz-tarovat va go‘zal navolar og‘ushida boshlanib, bir hafta davomida mavj urajak anjuman, mamlakatimiz – qadim Samarqandimiz hayotida o‘chmas iz qoldiradi.

Festival jarayonida xalqimizning turmushi, urf-odatlar, an‘ana va marosimlari namoyish etiladi. Eng muhim mehmonlar mustaqil O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan buyuk o‘zgarishlar bilan tanishadilar. Xalqimizning o‘tmishi, yuksak madaniyati, boy ma‘naviyati, urf-odatlar, an‘ana va marosimlaridan voqif bo‘ladilar.

Sharq xalqlarining betakror milliy musiqasi va qo‘shiqlarini keng miqyosda targ‘ib etish, milliy an‘analarni saqlash, yosh avlodda san‘atga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalash, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash hamda ijodiy hamkorlik va madaniy-ma‘naviy aloqalar doirasini kengaytirish - “Sharq taronalari” festivalining asosiy maqsadidir.

Go‘zal Samarqandimizda har ikki yilda o‘tkazilib kelinayotgan bu anjuman dunyo xalqlarining san‘atlarini, turli millat vakillarini musiqiy ohanglar vositalari bilan birlashtirdi. Chunki bu festivalda jahonning ko‘plab mamlakatlaridan san‘at namoyondalari, mashhur xonanda va sozandalar qatnashadilar. Bu kabi tadbirlarda san‘atkorlarning o‘zaro tajriba almashuvlari uchun keng imkoniyatlar tug‘iladi.

Sharq madaniyati qanchalik umumlashma tushuncha sifatida qabul qilinmasin, u turli milliy-badiiy qiyofalarni, xilma-xil jabhalarni o‘zida mujassam etadi. Jamiki, Yevropa mamlakatlari san‘atida har bir milliy madaniyatning o‘zi yaratgan umuminsoniy ulushi borligini e‘tirof etsak, xuddi shu tarzda har bir Sharq mamlakatining ham o‘ziga xos umuminsoniy boyligi borligini tan olish lozim.

Boshqa festivallardan farqli o‘laroq “Sharq taronalari” shunisi bilan qadrligi, bunda ijod va milliy izlanishlar chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Aynan shuning uchun festivalning konsert tadbirlari unutilmas tarixiy sahifalarga aylangan bo‘lsa, festival doirasiga o‘tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyalar tarixiy, ilmiy-tadqiqot ahamiyatga ega.

Har bir ijrochi, ijodkor uchun festival o‘zgacha alohidalik kasb etgan. Festival konsertlarida yangragan rango-rang sharq kuy-qo‘shiqlaridagi nolalar har bir tinglovchining qalbiga birday yetib boradi. Bu nolayu ohanglar goh shiddatkor jo‘shqin tezkor bo‘lsa, goh g‘amgin, sokin, o‘ychandir. Tinglovchi qalbining tub-tubiga yetib borib odamlar dilini poklab ularni ruhan yuksaltiradi. Rang-barang sharq musiqiy guldastasi ichida o‘zbek ijrochiligini maktabi alohida o‘rin tutadi. Festival dunyo madaniyatiga ma‘naviy ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shayotir. Jahon jamoatchiligi qalbidan munosib joy olgan ushbu

Xalqaro anjuman yangi tashabbuslarga ya'ni, dunyo miqyosida sharq musiqasiga bag'ishlangan ko'plab anjumanlarning tashkil etilishiga ham turtki bo'lmoqda.

Uning Yunesko boshchiligida o'tkazilayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ushbu festivalning har safar milliy musiqa san'atimizning muayyan yo'nalishiga bag'ishlanishi unga yanada jozibadorlik, o'ziga xoslik bahsh etadi.

Ma'lumki, inson hech qachon kuy, qo'shiqsiz yashay olmaydi. U tug'ilganimizdanoq jonga tutash bir umr hayotimizga sherik bizga hamroh yaxshilik, tinchlik, do'stlik elchilari, jangchilari sifatida yo'llarni yo'llarga, ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'laydi, elu-elatlarni tinchlik, totuvlik va birodarlikka chorlaydi. Mana shunday ijobiy fazilatlariga yetaklovchi, chorlovchi bunday katta imkoniyat xalqaro tanlov dunyo sivilatsiyasini asosiy markazlaridan sanalgan Samarqand shahrida o'tkazilishi barcha O'zbekistonliklarning qalbida g'urur fahrini soladi.

### **Samarqand – jahonshumul musiqiy anjumanlar markazi sifatida.**

Samarqand – dunyo tanilgan shahar. Uning bag'rida ne-ne olimu donishmandlar, shoiru shuarolar, musiqashunos-rassom va arboblari yetishib chiqqan, ijod qilgan. Asrlar osha sayqal shaharda badiiy an'analar, musiqa san'ati saqlanib rivojlanib kelgan.

Xususan shaharning o'ziga xos musiqa san'atini maqomlar, marosim qo'shiqlari, asbobli kuylar, dostonlar, qarsak va ashula bezab turgan. Ularni xalq orasidan yetishib chiqqan musiqachilar, qo'shiqchilar, hofizlar va baxshi-shoirlar ijro etishgan. Abduqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy kabi bastakor, olim-nazariyachilar, shuningdek, qo'shiqchi va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov xalq baxshilari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Islom Shoirlar bu borada Samarqand obro'siga obro' qo'shganlar.

1997 yildan buyon Samarqand shahrida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o'tkazilishi barobarida yana jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborini o'ziga tortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqand yuragida – Registon maydonida olamshumul musiqa bayramini o'tkazish xalqaro hamkorlik masalalarida zarur madaniy voqelikka aylandi. Festival doirasida turli xalqlar ijrochilari, musiqa sohasi ijodkorlari, shuningdek olimlar o'rtasida ijodiy aloqalar o'rnatish imkonini bergani diqqatga sazovordir. Qolaversa, bu tadbir turli qit'alarda bir vaqtda bo'lib o'tayotgan musiqiy jarayonlarni muvofiqlashtirish imkonini ham berdi. Jahonning 60-ga yaqin mamlakatlari, jumladan, Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlari musiqashunoslari va qo'shiqchilarining ishtiroki festivalning ahamiyatini yanada oshirishga shubha yo'q.

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali kunlarida o'tkazilayotgan konsertlar, ijodiy uchrashuvlar, anjumanlar va tanlovlar turli davlatlardan kelgan musiqashunoslar uchun boy va samarali muloqotlarga aylanmoqda.

"Sharq taronalari" musiqiy festivalining O'zbekistonda, aynan Samarqandda o'tkazilishiga asos bor deyiladi Prezidentimizning tabrik so'zida, - chunki, Samarqand jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblanadi. Turli davrlarda Amir Temur, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Xo'ja Axrori – Vali, Qozizoda Rumi, Sharofiddin Ali Yazdiy, Davlatshoh Samarqandiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa o'nlab,



yuzlab ulug' insonlar bu yerda yashaganlar, bo'lganlar, davlatni boshqarganlar va ijod qilganlar. Samarqand asrlar osha turli xalq va madaniyat vakillarini tutashtiruvchi qo'rg'on vazifasini o'tagan.

“Sharq taronalari” festivalini o'tkazishdan maqsad Sharq xalqlarining takrorlanmas milliy kuy va qo'shiqlarini keng ommaga yetkazish, yosh avlodni san'atga, ayniqsa musiqaga mehr qo'yib tarbiyalashdek ezgu an'analarni asrash, do'stlikni va xalqlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni mustahkamlash, ularni madaniy aloqalar doirasida kengaytirishdir.

Songgi yillar davomida Respublikamizda madaniy aloqalar doirasida hamkorlikka katta ahamiyat berilmoqda. Zero, musiqiy madaniyat boshqa davlat va xalqlarning madaniy merosi aralashuvisiz rivojlana olmaydi. “Sharq taronalari” festivalining ikki yilda bir marta – avgust oyi oxirida o'tkazilishi, musiqiy ijodiyot doirasidagi erishilgan yutuqlarning keng almashuviga hamda o'zbek (Sharq) an'anaviy musiqasi bilan tanushuviga ko'mak beradi. Shu bilan birga, u zamonaviy jahon musiqasi madaniyatining yangi yutuqlarini namoyish etadi.

Festival ish tartibi uch yo'nalishdagi ijro tanlovi va konsertlarni ichiga oladi. Jumladan, xalq, an'anaviy qo'shiqchilik (milliy qo'shiqlarni eng yaxshi ijrosi tanlovi): an'anaviy milliy musiqasi (milliy Sharq an'analari badiiy mujassamlashtirish) kabi tanlovlar o'tkaziladi.

Sharq musiqasi ijrochilari festivali sifatida tashkil etilgan ushbu anjuman endilikda barcha qit'a musiqasi san'ati ustalarini birlashtiradi.

Darvoqea, festival doirasida “Milliy qo'shiqlarning eng yaxshi ijrochisi” tanlovi ham o'tkazilmoqda. Qatnashchilar o'z milliy musiqasi san'ati ijodiyotidan eng saralarini namoyish etishadi. Tanlov qatnashchilari ijrosini xalqaro hakamlar baholaydi. Birinchi va ikkinchi bor o'tkazilgan festivalga Tokio universiteti professori Xoruma Koshiba (Yaponiya), uchinchi festivalga Seul universiteti professori yangisida Koreya musiqasi akademiyasi prezidenti va shunga o'xshash chet davlatlar vakillari, hakamlar hay'ati a'zolariga Yevropa, Osiyo va Amerika musiqasi madaniyati vakillari ham taklif etilmoqda.

Birinchi bor o'tkazilgan “Sharq taronalari” musiqasi festivalida Granpri, ya'ni bosh mukofot maqomlar ijrochisi Simara Imanovaga (Ozarbayjon), birinchi o'rin Munojot Yo'ldiyeva va Shaynu Xuramaga (Hindiston) nasib etgan. Qolgan o'rinlar Eron, Xitoy, Qozog'iston, Mongoliya va Rossiya davlatlari ijrochilari munosib topildi. Ana shu tarzda festival mukofotlari har bir davlat ijrochilariga topshirib kelinmoqda.

An'anaviy tus olgan “Sharq taronalari” musiqasi festivali barcha konsert zalariyu, Estrada maydonlariga ko'chib o'tayotganligi keng doirasidagi tomoshabinlarni o'ziga rom etmoqda. Festivalning ulkan ahamiyat kasb etishiga yana bir sabab tadbirlar doirasida “Sharq xalqlari musiqiy san'atining bir maromda rivojlanishi”, “Sharq xalqlari musiqasi asboblari”, “Maqom san'atida olamshumul yangilik”, “Sharq qo'shiqchilik san'ati ijodiyot muammolari” kabi dolzarb muammolarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilayotganligidadir.

Anjumanda musiqashunoslar, bastakorlar, musiqachilar va madaniyat fidoyilari ishtirok etadilar. Festival doirasida tashkil qilinayotgan anjumanlarda Sharq musiqasi san'atida yechimini kutayotgan muammolarni muhokama qilish, munozara yuritish va uning kelajagini tahlil qilishga katta yordam berilmoqda.

Festivalning mukofot jamg'armasi 40 ming Amerika dollari etib



belgilangan. Shuningdek Granpri-bosh mukofot miqdori 10.000 dollar, ikkita birinchi o‘rinchi o‘ringa har biri – 7.000 dollardan, ikkita ikkinchi o‘ringa-5.000 dollardan, ikkita uchinchi o‘ringa-3.000 dollari miqdorida mukofotlar belgilangan.

Hozirgi qo‘shiqchilik san‘ati o‘zida turli ijodiy yo‘nalishlar va uslublarni, jumladan, xalq qo‘shiqlari, an‘anaviy vocal janri, bastakorlik va kompozitorlik usulida qo‘shiq yaratish, zamonaviy Estrada qo‘shiqlari (jaz, pop va rok) ni o‘zi ichiga olgan. Bular barchasi dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro madaniy almashinuvlarni vujudga keltiradi.

Festival yakuniga ko‘ra tashkilotchilar sahnada ijro etilgan eng yaxshi asarlarni o‘zida mujassam etgan SD disk chiqarishi ko‘zda tutilgan.

Olti asr burun buyuk Amir Temur Samarqandni dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biriga aylantirib, poytaxt qilgandi, uzoq safarlardan u nafaqat moddiy boylik, balki bebaho boyliklar-kitoblar, san‘at asarlari hamda me‘moru muhandislarni olib kelgan. Binobarin, ustalar mahalliy hunarmandlar bilan hamkorlikda betakror me‘morchilik maktabini yaratgan.

Amir Temur o‘z davlatida yaratuvchilik bilan dong taratdi. U rassomlar va shoirlar, olimlar hamda donishmandlarga alohida e‘tibor qaratdi. Bu an‘anani uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek ham davom ettiradi.

Bugungi Samarqand zamonaviy bir maromda rivojlanib Respublikamizning ikkinchi shahriga aylandi.

1997 yil Registon maydonida O‘zbekistonning taniqli san‘atkorlari ijrosida madhiya jarangladi – bu “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilishidan darak bergandi. Madhiya musiqasining muallifi, asli Samarqandlik bo‘lgan kompozitor Dilorom Omonullayevadir.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston o‘z kuch va imkoniyatlari bilan ma‘naviy boyliklarni yanada rivojlantirish uchun harakat qilmoqda. O‘tmish buyuk keljakni ko‘rinmas rishtalar bilan bog‘ladi. Unutilgan madaniyatimiz sarchashmalari – ulug‘ olimlar, faylasuflar, donishmandlar nomlarini abadiylashtirish natijasida tarixiy ildizlar qayta tug‘iladi. Ma‘rifiy, madaniy an‘analar qaror topadi.

Musiqa va qo‘shiq – dunyoda tarjimasiz yagona san‘at. Turli millat vakillari unnig vositasida bir-birlariga qalb izhorini ifoda etishadi. Samarqandga tashrif buyurgan san‘atkorlar, festival mehmonlari bu aqidaning hayotiy ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilindi. O‘tgan davr mobaynida festival xalqaro hamjamiyatda katta obro‘, nufuzga ega bo‘ldi. Zero, u orqali har bir millat va mamlakat o‘z san‘atini namoyish etmoqda. Festival xalqlar o‘rtasida milliy san‘at durdonalarini targ‘ib etish vositasiga aylandi.

Musiqa san‘atining necha ming yillar davomida odamlar qalbiga yuksak va beg‘ubor tuyg‘ularni jo etib kelayotgani, bu yorug‘ olamni yanada munavvar etib ko‘rsatuvchi ilohiy mo‘jizaliligini barchamiz anglaganmiz. Milliy musiqamizni targ‘ib qilish sohasida erishgan yutuqlarni namoyish etish, san‘at olami yangiliklaridan jahon musiqa ixlosmandlarini bohabar qilish maqsadida o‘tkazilib kelayotgan ushbu festivalning nufuzi yil sayin ortib borayotir.

Xalqaro madaniyat olamida katta yangilik bo‘ladigan bu tadbirning Samarqandda o‘tkazilayotgani tilaklar va maqsadlar mushtarakligidan dalolatdir. San‘atsevar Sharq xalqlari azal-azaldan eng ezgu umidlar bilan shu ko‘hna

zaminga intilib kelganlar. Samarqand tuprog'i ko'plab xalqaro simpozium, konferensiya va festivallarning guvohi bo'lgan.

“Sharq taronalari”dek go‘zal va nufuzli anjumanning dunyoda muqaddas sanalgan 5ta shaharlaridan biri bo‘lgan qadim Samarqandimizda o‘tkazilishi bejis emas. Chunki o‘zining rang-barang o‘tmishi va madaniyatiga ega bo‘lgan Samarqand musiqa san‘atining teran ildizlari uzoq asrlar qa‘riga borib tutashadi.

Qadimiy Sug‘diyoning musiqa san‘ati chuqur ildizlarga ega ekanligini o‘sha davrlarda bu yerga tashrif buyurgan sayyohlar, elchilar ham ta‘kidlab o‘tdilar.

Masalan, VII asrlarda Samarqandga tashrif buyukrgan budda monaxi o‘z xotiralarida “Bu shaharning xalqi kuy-qo‘shiq va sayillarni sevadi, ularning har xil musiqa asboblari bordir” deb yozgan edi.

Sug‘diyoning yuksak musiqa san‘ati VII-VIII asrlarda bu yerga kelgan arablarga ham yoqib qolgan. Arablar Sug‘dlarning ko‘pgina musiqa asboblarini o‘zlashtirib olganlar. O‘rta asrlarda Yevropa xalqlari orasida juda mashhur bo‘lgan Lyutnya nomli musiqa asbobining vatani ham aynan Sug‘diyona – Samarqand ekanligini dunyo olimlari tan olgan. Sug‘diyonda mashhur bo‘lgan cholg‘u asboblarining shohind dastlab arab mamlakatlariga o‘tdi, so‘ngra arablar orqali Yevropaga tarqalib Lyutnya nomi bilan mashhur bo‘lib ketdi.

Xitoylik olimlarning fikrlaricha hozirgi Xitoydagi ayrim musiqa asboblari Sug‘diyondan borib qolgan va Xitoyliklar tomonidan shu darajada qabul qilinganki, bu asboblari Xitoyliklar uchun keltirilganligiga ko‘plchilik ishonmaydi ham.

O‘tmishni unutgan xalqning kelajagi bo‘lmaydi. O‘zbek xalqining esa o‘tmish madaniyati boy. Mustaqillik sharofati bilan bu umrboqiy qo‘shiqlar, qadriyatlarimiz xalqimizga qaytdi. Yanada e‘zozlanib, sayqallanib borayotir. Folklor qo‘shiqlarimiz ham ana shunday ardoqli qadim san‘atlarimizdan biridir.

“Sharq taronalari” IV Xalqaro musiqa festivali munosabati bilan Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati tarixi muzeyida o‘zbek musiqa san‘ati ko‘rgazmasi tashkil etildi.

O‘zbek musiqa san‘ati va cholg‘u asboblari o‘zining boy o‘tmishi va tarixiga ega – deydi muzey direktori No‘mon Mahmudov – ko‘rgazmani tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham san‘atimiz tarixi bilan festival mehmonlarini tanishtirishdan iborat. Ko‘rgazmada O‘zbekistonlik ustalar tomonidan yasalgan nay, rubob, dutor, g‘ijjak, qo‘biz singari musiqa asboblari namoyish etiladi. Bundan tashqari ko‘rgazmadi XX asrning 30-40 yillarida mashhur hofizlar domla Halim Ibodov, Gabriel Mullaqandov tomonidan mahorat bilan ijro etilgan o‘zbek mumtoz qo‘shiqlarining magnit tasmasi qo‘yiladi. Shuningdek, Samarqandda bo‘lib o‘tgan barcha musiqa festivallari tarixi aks etgan fotosuratlar, dasturlar namoyish etildi.

Qisqacha aytganda ko‘rgazmada o‘zbek xalqi ma‘naviy merosining barcha qirralari aks etgan. Bu ko‘rgazma vaqtida bu yerga tashrif buyurgan barcha dunyo vakillari bizning ma‘naviy merosimizdan bahramand bo‘ldilar. Kundan-kunga rivojlanib, gurkirab borayotgan mustaqil O‘zbekistonimiz qadim Samarqandimizda bo‘lib o‘tadigan ushbu “Sharq taronalari” Xalqaro musiqiy festivali o‘zbek madaniyati, milliy urf-odatlarini, ma‘naviy qadriyatlarini dunyo xalqlariga namoyish etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan

musiqa san'atimizni yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarilishiga yangicha zamonaviy ohanglar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shunday musiqiy anjumanning boshqa mamlakatda emas, faqatgina bizning mamlakatimizda go'zal va hamisha navqiron Samarqandimizda bo'lib o'tishi g'urur bilan ta'kidlamog'imiz joizdir.

“Sharq taronalari” IV Xalqaro musiqa festivaliga tashrif buyurgan Avstriyalik Norimon Hujjati o'zining Samarqand to'g'risidagi taassurotlarida shunday degan edi:

- Men Eronda tug'ilib o'sganim uchun Markaziy Osiyo, xususan, Samarqand qalbinga nihoyatda yaqindir. Mening nazarimda, bugungi O'zbekiston bokira va butunlay yangi bir dunyo. Samarqandning havosi toza, odamlari samimiy, to'g'riso'z. Tabiati esa nihoyatda so'lim. Bu menga yaxshi ta'sir qildi, ko'nglim yayradi. Menga qolsa, jon deb Samarqandda yashagan bo'lardim. Meni umuman olganda, O'zbekistonda yashayotgan turfa xalqlarning totuvligi, o'zaro inoqligi hayratga soldi. Bundan dunyoning turli burchaklaridagi boshqa xalqlar ibrat olsa arziydi. Men bu jihatlarning festival kunlari yaqqol namoyon bo'layotganini ko'rib quvondi.

“Sharq taronalari” IV Xalqaro musiqa festivali hakamlar hay'ati a'zosi Oqoyi Murtazo Varinshoh ham Samarqand to'g'risida shunday fikrlar bildirgan edi – “Ushbu festivalning qadim va navqiron Samarqand shahrida o'tkazilayotganidan mamnunman. Men ko'plab xalqaro festivallarda ishtirok etganman, yer yuzining gavhari bo'lgan Samarqandning yuragida joylashgan Registon maydonida o'tkazilayotgan ushbu festival juda jozibalidir”.

Do'stlikni, inoqlikni, millatlararo totuvlikni behad qadrlaydigan jojajon O'zbekistonimizning har bir fuqarosi qalbida o'zga millat vakillari aytgan ushbu fikrlar g'ururlanish, faxrlanish tuyg'ularini vujudga keltiradi. Darhaqiqat, biz yoshlar ayniqsa shunday go'zal, maqtovg'a arzigulik serquyosh Vatanda yashayotganimizdan, shunday mamlakatning farzandi ekanligimizni yuksak iroda, faxr bilan ta'kidlamog'imiz, xalqimizning urf-odatlarini, ma'naviy merosini asrab-avaylamog'imiz lozim.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali ana shu baynalmilal ruhiyatning yorqin namoyishidir va mamlakatimizning ulkan salohiyati, xalqimizning boy ma'naviyati va san'atga dunyo xalqlarining, xususan, san'at ahlida yuksak ehtirom ifodasidir.

Janubiy Koreya Respublikasi musiqa akademiyasi prezidenti jano Kim Shin Van:

“Samarqand – dunyoning yulduzsifat shaharlaridan biri, ta'bir joiz bo'lsa, ularning eng yorqini va nurafshonidir. Tarixdan yaxshi bilamiz, bu shahar ma'rifat, madaniyat va ezgulik beshigi sifatida ham ma'lum va mashhurdir.

Mumtoz san'at bayrami aynan shu maskan, Registon majmuasida o'tkazilmoqda. Ezgulik qo'shiqchilik mahorati tanloviga bu qadar katta e'tibor berayotgan O'zbekiston xalqi va uning yurtboshisi I.A.Karimov janobi oliylariga cheksiz hurmatimni bildiraman” – deb Samarqand to'g'risida o'z fikrlarini bildirgan edi.

Ushbu “Sharq taronalari” festivalining o'tkazilishi musiqiy madaniyatimizni rivojlantirishda juda muhim o'rin tutadi. Ushbu festivalni Samarqand shahrida o'tkazilishi nur ustiga a'lo nurdir.

“Sharq taronalari” musiqiy festivalining aynan Samarqandda bo‘lib o‘tayotgani har bir tinglovchi ishtirokida har bir tomoshabin uchun taqdirning sovg‘asidir. Mazkur qadimiy shaharning betakror ko‘rinishi uning arxitektura yodgorliklari buyuk bir tarixning guvog‘i o‘laroq – musiqani nozik qabul qilish, uning manbalarini chuqur anglab yetish, inson qalbini yashovchanlik bilan boyitish kabi hislarni uyg‘otuvchi o‘ziga xos ruh bag‘ishlaydi.

Ko‘hna tariximizdagi ne-ne buyuk va unutilmas voqealarning guvohi bo‘lmish bu muazzam shaharda bo‘lib o‘tadigan ushbu san‘at anjumani millatlar va insonlar qalbiga azaldan yashab kelayotgan ezgulik va nafosatga intilish tuyg‘usini, bugungi kunda turli xalqlar sivilizatsiyalari o‘rtasida o‘zaro muloqot, hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojning nechog‘lik katta ekanini yaqqol namoyon etib turadi.

Samarqandning musaffo osmoni, moviy gumbazlari ostida o‘tadigan ushbu nafosat bayram san‘atni teran tushunadigan, san‘atkorni yuksak qadrlaydigan xalqimiz vakillari bilan bo‘ladigan muloqotlar, uchrashuv va suhbatlar insonlarda o‘chmas taassurot qoldiradi.

### **NAZORAT SAVOLLAR**

1. Ilk bor «Estrada ijrochiligi» bo‘limi qachon qayerda ochilgan?
2. Estirada so‘zi ning ma‘nosi nima?
3. Zamonaviy o‘zbek estrada qo‘shiqchiligining mustahkam poydevoriga asos solgan kimlarni bilasiz?
4. Botir Zokirov qachon tavallud topgan?
5. B. Zokirov nechanchi yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan?
6. B. Zokirov qaysi o‘quv yurtlarini tamomlagan?
7. Yalla ansambli qachon tashkil topgan?
8. Yalla guruhi ishtirokchilari haqida nimalar bilasiz?
9. Guruh qanday qo‘shiqlarni ijro etgan?
10. Yalla guruhi qaysi davlatlarda gastrol safarida bo‘lgan?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi T; 2000 y.
2. Umumta’lim maktablari musiqa dasturi. T; 2006 y.
3. V. Vaxrameev «Musiqaning elementar nazariyasi» T; O‘qituvchi, 2010 y.
4. “Musiqaning nazariyasi” D. Usmanaliev . “O‘qituvchi” 2003 y
5. I. A. Karimov “ Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” .-T.: «SHark» 2007 y.
6. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: «SHarq» 2017 y.
7. «Yoshlar yili» davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevralidagi PK-805-sonli karori.

## **8-MAVZU:MILLIY CHOLG'U SOZLARI, ULARNING GURUHLANISHI (ORKESTR, ANSAMBL) VA YE'VROPA CHOLG'U SOZLARIGA O'HSHASHLIGI VA FARQI**

### **REJA**

1. CHolg'ularning guruhlanishi
2. Qayta tiklangan va yangidan yaratilgan cholg'ular

#### **8.1 Cholg'ularning guruhlanishi**

Musiqqa cholg'ularini bir tizimga keltirish va ularni turlarga bo'lib tasniflash amaliyoti dastlab Hindistonda boshlangan. Bu ish eramizdan oldin boshlangan bo'lib, keyinchalik boshqa joylarda ham shu tizim mukammallashtirila boshlangan.

Bundan o'n asrdan oldinroq yashagan mashhur ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sinolar o'zlarining musiqaga bag'ishlangan risolalarida cholg'u tushunchasini yanada kengaytirgan va ularni **xalqiy** va **sun'iy** turlarga ajratgan. **Xalqiy** (xalqum) cholg'u bu – insonning ovozi bo'lib, dunyodagi eng mukammal cholg'u ekanligi ularning musiqaga bag'ishlangan risolalarda birinchi marotaba e'tirof etiladi. Darhaqiqat, inson ovozining imkoniyatlari kengligini nafaqat boshqa insonlarning, balki hayvonlar, qushlar, musiqqa cholg'ulari, boringki tabiatdagi turli shovqinli tovushlarga ham taqlid qila olishini ko'p bora ko'zatganmiz.

Insoniyat rivojlanishi davomida yaratilgan musiqiy cholg'ular, mantiqiy jihatdan olib qaraganda, birin-ketin paydo bo'lganligini kuzatish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, eng avvalo **urma zarbli cholg'ular**, keyin havo vositasida tovush hosil qilinadigan – **damli cholg'ular** va undan keyin **torli cholg'ular** dunyoga kelgan.

Urma zarbli cholg'ularning o'zi hosil qilinadigan tovush xususiyatiga ko'ra 2 turga bo'linadi. Bo'lar:

- hosil qilinadigan tovush ma'lum balandlikka ega bo'lib, kuy ijro etish imkoniyati bo'lgan cholg'ular;

- faqat usul hosil qilishda foydalaniladigan, ma'lum musiqiy balandlikdagi tovushni hosil qilmaydigan cholg'ulardir.

Havo vositasida tovush hosil qilinadigan cholg'ular o'z navbatida:

- bevosita quvur ichida tovush hosil qilinadigan;

- til yordamida tovush hosil qilinadigan;

- havo yo'nalishini o'zgartirish asosida tovush hosil qilinadigan cholg'ularga bo'linadi.

Torli cholg'ular:

- tirnab chalinadigan;

- urib chalinadigan;

- kamon bilan tovush hosil qilinadigan;

- mizrobli cholg'ular guruhlariga bo'linib ketadi.

Ba'zi musiqiy cholg'ular aynan biror guruhga kirmasdan u yoki bu guruhdagi ma'lum xususiyatlarni birlashtirgan holatda ham uchraydi. Masalan, changqo'bizdagi asosiy tovush temir, yog'och, suyak yoki qamish parchasini tebratish orqali hosil qilinsada, uni tinglovchilarga eshittirish uchun insonning og'iz bo'shlig'i rezonator vazifasini bajaradi. Bunda nafas olish va chiqarish uslubidan, ya'ni havodan foydalaniladi.

O'zbek an'anaviy cholg'ulari tarkibiga kiruvchi urma-zarbli cholg'ular orasida tovushi ma'lum musiqiy balandlikka ega bo'lganlari uchramaydi. Bu guruh cholg'ulari qatoriga doyra, nog'ora, safoil, qayroq, qoshiq, chindovul, tarelkalar kiradi. Ba'zi hollarda patnis, piyola kabi maishiy anjomlardan ham foydalaniladi.

Damli cholg'ularning **tilli**, **naypichoqli**, **mundshukli** turlari ham uchraydi. Quvurga to'g'ridan-to'g'ri havo jo'natish orqali tovush hosil qilinadigan qamish nay, g'ajir nay, nay cholg'ulari;

**til** yordamida tovush hosil qilinadigan sibizg'a, qo'shnay, bo'laman cholg'ulari;

**naypichoq** yordamida tovush hosil qilinadigan surnay;

**mundshuk** yordamida, tovush hosil qilinadigan karnay;

**sun'iy havo siqish moslamasi** yordamida tovush hosil qilinadigan

sopol nay kabi cholg'ular milliy damli cholg'ular guruhini tashkil etadi. **Torli cholg'ular** – ochiq tordan foydalaniladigan (chang, qonun) va

torning ma'lum bo'lagini bosish orqali tovush balandligi o'zgartiriladigan (ruboblar, dutor, tanbur, g'ijjak va boshqa) cholg'ularga bo'linishi mumkin. Ammo torli cholg'ularda tovush hosil qilinishi sharoitiga ko'ra boshqacha tasniflanishi ham mumkin. Bunda ijro uslublariga ko'ra urma jarangli torli (chang), tirnama cholg'ular (dutor, do'mbira), mizrobli cholg'ular (qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur, qonun), kamonli cholg'ular (qo'biz, g'ijjak, sato)ni sanab o'tish mumkin. Kitobning ilk mavzusi inson tomonidan hosil qilinadigan qarsakka bag'ishlanadi. V.Belyaev o'zidan muqaddam o'tgan cholg'ushunos olimlar Forobiy, Ibn Sino va boshqa SHarq olimlaridan keyin birinchi bo'lib inson a'zolarining o'zida hosil qilinadigan tovushni, ya'ni **qarsakni** musiqa cholg'ulari qatoriga kiritadi. U o'z kitobida qarsak jo'rligida ijro etilgan qo'shiq parchasi notasini ham keltiradi. Kitobda O'zbekistonda foydalaniladigan qayroq va qoshiqni yevropa tasnifiga amal qilgan holda urma cholg'ularning "kastanetlar" turiga kiritadi. Qayroq va qoshiqning tarixiy ahamiyati, milliy musiqada foydalanish o'rinlariga alohida e'tibor qaratadi.

Do'l yoki dovul nomi bilan ataladigan cholg'ularning O'zbekiston hududida unchalik keng tarqalmaganligi, shunga o'xshash, litavrasimon cholg'ularning Buxoro amiri tomonidan o'tkaziladigan maxsus marosimlarda ishlatilganligi haqida xabar beradi. Dovul cholg'usi haqiqatan ham Kavkaz

xalqlari va Eronda juda keng tarqalgan. Bu cholg'ularni hozir ham O'zbekistonda ishlatishadi va uning mohir ijrochilari bor.

“**Tarelka va patnisning** katta ashula ijrosida qo'llanilganligi, ular xonandalarning ovozi kerakli tomonga yo'naltirishda foydalanilganligi, shu bilan bir qatorda ba'zi ijrochilar tarelkalarni xuddi jonglyorlar kabi o'ynatish mahoratini ham egallaganligi ta'riflangan.

Bizning nazarimizda tarelkalarni katta ashula paytida ishlatishning bir necha sababi bor. Avvalo u ijrochining o'ziga ishongan holda tomoshabinlar oldida turishiga yordam beradi. Bundan tashqari, tarelkalarning eng asosiy vazifasi – xonanda ovozi kerakli tomonga (birinchi navbatda o'zi eshitadigan darajada), ya'ni tomoshabinlar va hamnafasi tomonga yo'naltirishdir. SHu bilan bir qatorda ijro jarayonida, shuningdek, hamnafas (birgalikdagi) ijro davrida bir xil tempga rioya qilish uchun “dirijerlik tayoqchasi” vazifasini ham bajaradi.

Ma'lumki, muqaddam Xorazmda ayollar tomonidan (xalfalar) juda keng qo'llanilgan garmonlar o'rnini keyingi paytda **akkordeon** cholg'usi to'liq egallab bo'ldi.

Torli cholg'ularga bag'ishlangan bobning kamonli cholg'ular haqidagi bo'limida qadimiy cholg'u – qo'biz, shuningdek, g'ijjak va o'sha davrda mahalliy sozandalar keng foydalangan skripka cholg'usi to'g'risidagi ma'lumotlarga duch kelamiz.

Navbatdagi bo'lim **tirnama cholg'ular** ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, unda do'mbira va dutor to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi. Vaholangki, Respublikamizning janubiy viloyatlari – Qashqadaryo va Surxondaryoda hozirgacha oddiy xalqning eng sevimli cholg'usi, baxshilarning doimiy hamrohi bo'lib kelayotgan o'zbek do'mbirasi (bizning nazarimizda) o'sha davrda ham shu va boshqa hududlarda juda keng tarqalgan bo'lishi kerak.



**Qayroq** – eng qadimiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. CHunki bu cholg'uning tabiatning o'zida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholg'ularning insonlar hayotidagi eng birinchi “sun'iy cholg'u”lari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi ne'matlarni pishirmasdan, qayday bo'lsa shunday iste'mol qilganligi va o'z navbatida qurol sifatida ham qo'l ostidagi jismlardan foydalanganligini bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida

dunyoga kelgan qayroq toshlar haligacha milliy cholg'uchilikda foydalanib kelinayotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat bo'ladi va har ikki qo'lda ikkitadan ushlab ijro etiladi.



**Qoshiq** – inson tomonidan ixtiro qilingan mehnat qurollari ichida albatta tayoqdan keyin turadi. Chunki, ibtidoiy odamlar yerdagi ildizlarni qazib olish uchun avvalo tayoqni kashf etishi lozim edi. Tabiatdagi ne'matlarni pishirishni o'rgangan odam endi qo'li kuymasdan ovqatni og'ziga olib borishi uchun qoshiq ixtiro etilgan. Tayoq ham, qoshiq ham bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan tovushdan ritmlarni to'zishda foydalanilgani aniq. Qoshiqning shu sifatda foydalanilishi natijasida keyinchalik ispan kastaneti singari maxsus cholg'ular ixtiro etilganligi, qolaversa rus tilidagi "kovshik", "kovsh" (suv ichiladigan katta qoshiq, shuningdek, ekskavatorning tuproq oladigan moslamasi) atamasi qoshiq so'zining hosilasi ekanligi 1930 yilda V.Belyaev tomonidan yaratilgan "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" kitobida keltirilgan. Musiqiy ijroda yuqorida ko'rsatilgan maxsus "qoshiq"lardan va quyida tasvirlangan – ovqat yeyishda ishlatiladigan yog'och qoshiqlardan foydalaniladi. Qoshiq ijrosida ham qayroqdagi singari har ikki qo'lga bir juftdan qoshiq ushlanadi va ularning bir-biriga urilishi natijasida kerakli ritm hosil qilinadi.



**Qo'biz** – kamonli cholg'ularning eng qadimiysi yoki qadimiylaridan biri hisoblanadi. Qo'bizsimon cholg'ular xitoyliklarda ("xu kin"), mo'g'ullarda ("xur") uchraydi. Qo'bizning kashf etilishi ba'zi manbalarda afsonaviy Qo'rqut



nomi bilan bog'lanadi. Kim tomonidan kashf etilishidan qat'iy nazar g'arb tadqiqotchilari **skripka** va unga o'xshash kamonli cholg'ularning ibtidosini sharqdan izlash kerakligini va bu cholg'u qo'biz bo'lishi haqiqatga yaqinligini e'tirof etishgan.

Qo'biz hozirda qozoq va qirg'izlarda juda keng foydalaniladi. Qoraqalpoq jirovlari ham faqat shu cholg'u jo'rligida o'z dostonlarini ham, termalarini ham aytishadi



Qo'bizning ikkita tori ham, kamonga tortiladigan tori ham otning yolidan tayyorlanadi. Uning kosaxonasining faqat bir qismiga teri qoplanadi va shu joyga uning xarragi o'rnatiladi. Kosaxonaning qolgan qismi ochiq qoladi. Ijroda uning har ikki tori birgalikda ishtirok etadi. CHolg'u ijrosida obertonlar ishtiroki juda faol bo'ladi va uning ijrosida birdaniga bir nechta tovush hosil bo'layotgandek taassurot tug'iladi. Qo'biz qirg'izlarda "**qil qiyaq**" deyiladi. Qozoq milliy cholg'ular orkestrining yetakchi kamonli cholg'usi bo'lgan qo'biz ijrochiligi qozoqlarda juda yuqori saviyaga yetgan. O'zbek milliy cholg'ularida ham qo'bizning takomillashtirilgan, biroq **violonchelga** yaqin ko'rinishga keltirilgan "qo'biz bas" va kontrabas o'rnida ishlatiladigan "qo'biz kotrobas"lar ishlatiladi.

## **8.2 Qayta tiklangan va yangidan yaratilgan cholg'ular**

Musiqa cholg'ulari ustalari, ya'ni sozgarlar doimo turli tajribalarga qo'l urib cholg'ularni mukammallashtirish, ijro imkoniyatini yanada kengaytirish, sadosini yaxshilash, ko'rinishini takomillashtirish, turli bezaklar bilan bezashga harakat qilib kelganlar. SHu bilan bir qatorda ba'zi sozgarlar ma'lum muddat iste'molda bo'lib keyinchalik unutilgan cholg'ularni qayta tiklash va ularga yangidan hayot bag'ishlash yo'lidan ham borib, ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan ham.

Ana shunday musiqa cholg'ulariga qayta hayot bag'ishlab, musiqiy hayotimizga kirib kelishi va o'z o'rnini topishida mehnat qilib kelayotgan andijonlik usta Abdumalik Madraimovning olib borgan tajribalari va erishgan natijalari haqidagi keltiramiz.

O'zoq izlanishlar, nodir meros sifatida bizgacha yetib kelgan qo'lyozmalar hamda ular asosida chop etilgan kitoblarni tahlil etish, ushbu manbalardagi miniatyuralarda tasvirlangan mumtoz o'zbek cholg'ularining shakl-shamoyillarini o'rganish natijasida Temuriylar davriga mansub mumtoz o'zbek cholg'u sozlarining dastlabki 6 ta namunasi tiklandi. Bu mumtoz cholg'ularga «G'ijjaki Boburiy», «Qo'shtor», «Xushnavo», «Dilrabo», «Dilnavo» va «Meros» deb nom qo'yildi.

**Manzur** yangi musiqiy cholg'u hisoblanadi. U tanbur bilan tor cholg'ulari oralig'idagi tovush sadosiga ega bo'lib, 1989 yilda toshkentlik sozgar Muhammadnazor Yunusov tomonidan tajriba tariqasida yaratilgan. Sozandalar o'rtasida juda keng tarqalmagan bo'lsada, O'lmas Rasulov, Abduhamid Mirhamidov tomonidan ijro etib O'zbekiston Radiosining oltin fondiga yozdirilgan yozuvlardan tanbur bilan ozarbayjon torining o'rtasida yaratilganligini anglash mumkin. Manzurni chalishda ishlatiladigan mizrob ham o'ziga xos uslubda plastik tordan tayyorlanadi. Uning tovush tembri juda past bo'lib, sozandalar ansamblida foydalanish imkoniyati chegaralangan. SHuning uchun ham bu cholg'udan aksariyat hollarda musiqiy yozuvlar paytida, ovoz kuchaytirish moslamalari bor joyda foydalaniladi.

#### **«Qo'shtor» cholg'usi**

Miniatyuralarda tasvirlangan sozlarga o'xshatib 1985 yili ilk marta o'yma dutor yasalgan edi. Ushbu sozni yanada takomillashtirish natijasida yangi mumtoz o'zbek cholg'usi «Qo'shtor» dunyoga keldi.

O'sha vaqtda yaratilgan «Qo'shtor»ning ko'rinishi tarixiy manbalardagi tasvirlardan olingan bo'lib, bu cholg'uning dutordan farqi uning shakli, shuningdek, yaxlit yog'ochdan ishlanganligi, tovush tembri, ohangining yoqimli ekanligidadir.



CHolg'uning tovush oralig'ida ham dutordan farq mavjud bo'lib, bu soz ko'proq an'anaviy milliy maqom kuylarini ijro etishga mo'ljallangan.

#### **«G'ijjaki Boburiy» cholg'usi**

G'ijjaki Boburiy cholg'usiga kamonli va chertib chalinadigan cholg'ularning miniatyura asarlaridagi tasviri asos qilib olingan. Mazkur cholg'u IX-XVI asrlarda qo'llangan sozlar turkumiga kiradi. U haqidagi ayrim ma'lumotlar Temuriylar sulolasiga mansub bo'lmish Boburiylar davridan

bizgacha yetib kelgan ba'zi hujjatlarda o'z aksini topgan. Bu shaklini yaratishda tarixiy rubob va g'ijjak cholg'ularining miniatyuradagi tasvirlari asos bo'lib xizmat qilgan. Hozirgacha mazkur cholg'uning barcha talablarga to'la javob beruvchi uch xil nusxasi (varianti) yaratildi hamda barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Uning birinchi o'yma nusxasi 1985-86 yillari, 1991 yili yanada takomillashgan ikkinchi nusxasi yaratildi va Andijonda bo'lib o'tgan san'atkorlar va san'at shnavandalarining katta yig'ilishida «G'ijjaki Boburiy» deb nom berildi.

Uning sinovida tovushning jarangdorligi, tozaligi, yoqimli, yumshoq, mungli va hamohangligiga katta e'tibor berildi. 1994 yilda esa cholg'uning bo'g'iz qismiga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.



Yuqoridagi tasvirda sinovdan o'tkazilgan «G'ijjaki Boburiy»ning takomillashgan 3-nusxasi aks ettirilgan (sozni tayyorlagan ustalar Abdumalik, Abdurahmon va Sardorbek Madraimovlar).

Kosaxona, qobirg'a va qobirg'a qoplamasi, burchak qoplama, orqa qoplama, bo'g'iz, xarrak, shayton xarrak, sim tortqich, osma to'sin, ustun, tugmacha, quloqlar, dasta, dasta qoplamasi, torlar uning tarkibiy bo'laklaridir.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. SHarq olimlarining cholg'u sozlari bo'yicha meros qoldirgan qanday asarlarini bilasiz?
2. Berilgan tasvirdagi cholg'u asboblarini nomlarini sanab bering.
3. Evropa va Osiyo cholg'u asboblarining o'xshashligi
4. Evropa va Osiyo cholg'u asboblarining farqligi
- 6 Orkestr turlari
- 7.XIX-chi asrning boshi XX asr oxirlarida paydo bo'lgan cholg'u sozlari haqida nimalar bilasiz?
8. Nomlari bor ammo bizgacha yetib kelmagan qanday cholg'ularni bilasiz?
9. CHolg'ular necha guruhga bo'linadi?
10. Zarbli cholg'ularga nimalar kiradi?
11. Damli cholg'ular guruh'i g'aqida nimalar bilasiz?
- 12.Torli cholgular necha turga bo'linadi va kaysi sozlar kiradi?
- 13.Qayta tiklangan cholg'ular haqida nimalar bilasiz?
- 14.Temuriylar davri cholg'ulariga nimalar kiradi?

15. Boburiylar davri musiqa madaniyati haqida nimalar bilasiz?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. O'. Toshmatov CHolg'ushunoslik (O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun o'quv-qo'llanma) T.: 2004
2. R. Qodirov "Musika pedagogikasi" – Tosh. "Musika".
3. Tolipov U.K. Usanboeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari". Toshkent "fan". 2009 y.
4. Fayziev O. O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 2012 yi.
5. X. Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 2007 y.
6. SHaripova G.M. Musika va uni o'qitish metodikasi. T. Turon-Istiqbol 2006 y.
7. N. Norxo'jaev, H. Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 2009 y.
8. G. SHaripova musika o'qitish metodikasi T. 2006
9. O. Ibrohimov, J. Sadirov 7-sinf musika darsligi T. 2008 G'. G'ulom nashryoti
10. O. Ibrohimov O'zbek xalq musika ijodi. T. 2007 y.
11. Maqomat. O. Matyoqubov Musika nashryoti T. 2004 y.

### **9-MAVZU: RAQS SAN'ATI. MILLIY RAQS SAN'ATI VA UNING NAMOYONDALARI**

#### **REJA**

1. Raqs san'ati tarixiga nazar
2. O'zbek raqsining tarixiy rivojlanishi
3. Xalq raqs maktabi uslublari
4. Raqs maktabi namoyondalari
5. Milliy raqs san'atining hozirgi kunda rivojlanishi

#### **9.1 Raqs san'ati tarixiga nazar**

Tayanch iboralar: Raqs, xoreografiya, baletmeyster, raqqosa, raqqos, xonanda, ijrochi, solist



Raqsdagi badiiy obraz tana harakatlari va xolatlari vositasida yaratiladi. Xalq raqsi qadimdan xalq hayotining tarixiy ijtimoiy va geografik sharoitlari ta'siri ostida rivojlanib kelgan. Dunyoda yashaydigan barcha xalq va elatlarning tarixan o'z hayotini ifodalovchi raqs san'ati mavjud bo'lgan. Xozirda ham buni kuzatish mumkin. SHarq mamlakatlarida musiqiy-raqsiy va pantomimik tomoshalar qadimdan keng tarqalgan. Xalq marosimlari bilan bog'liq hoda xorovodlar va marosim o'yinlari paydo bo'lgan. Xalq raqslari ustozdan shogirdga avloddan - avlodga o'tib yoyilib

borgan. Ularda oyoq, ko'l, bosh va tana harakatlari umumiy ritmga bo'ysunib, biri-biri bilan o'zviy bog'lanadi.

Xalq raqslari asosida tarkib topgan raqs san'ati yuksak darajada rivojlanib har-xil raqs o'yinlari qaror topgan. Xususan hozirgi baletning asosiy sistemasi sanalgan Yevropa professional raqsi o'zoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Uning rivojiga qadimgi sharq, Gretsiya va Rim raqs san'ati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Rimda elmenistik raqs rivojlanib, pantomimo yaratildi. Qadimgi Gretsiyada raqs madaniyatining bir vositasi sifatida hayotda katta o'rin egallagan. Raqs san'atiga bag'ishlangan risola va darsliklar yaratilgan. XVII-asrga kelib raqs san'ati yangi rivojlanish davriga kelib, murakkablashib balet spektakllari paydo bo'ldi.

## 9.2 O'zbek raqsining tarixiy rivojlanishi





O‘zbek raqsini qadimiyligini topilgan tasvirlar va topilmalar asosida aniq isbotlab berish mumkin. O‘zbek raqs san’ati xalq raqsi sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Xorazmdagi qo‘y qirilgan qal’a qo‘rg‘oning «O‘ynayotgan niqoblilar zali»deb atalgan manzilida niqob kiyib o‘yinga tushayotgan erkak va ayollarning ommaviy raqsi aks etgan tasvirlar ajdodlarimizning yuksak raqs san’atidan guvohlik beradi. Samarqand, SHaxrisabz, Buxoro, Toshkent raqqosa va raqoslarining shuxrati V-asrdayoq butun sharqqa yoyilganligini manbalarda ko‘ramiz. Arablar va Mo‘g‘ullar istilosi raqs sanoat rivojiga ham keskin zarba berdi. XIV - asrning ikkinchi yarmidan raqs yana o‘z qaddini tiklay boshladi. Navoiy zamonida Xuroson va Movaraunnaxrda raqs taraqqiy topdi.

Professional raqs bilan bir qatorda xalq o‘yinlari saqlanib, rivojlanib bordi. Raqs san’atimiz mehnat, marosim va e’tiqod bilan bog‘liq badan o‘yinlaridan «Katta o‘yin», «Maqom o‘yin», «Qarsak o‘yin» kabi monumental raqs turkumlarigacha bo‘lgan katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib, xalqning ma’naviy - madaniy hayotida muhim rol o‘ynab kelgan. Ushbu sanoat namunasi, xalq raqsi, ilg‘or an‘analari avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib yashadi va bizgacha yetib keldi. O‘zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat hamda marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan xalq professional raqs san’ati mavjud bo‘lib ko‘pgina, xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qiluvchi Farg‘ona, Buxoro, Xorazm uslub maktablari qaror topdi.

### **9.3 Xalq raqs maktabi uslublari**

Har bir o‘zbek raqs maktabining o‘zi bir olam. Milliy raqs harakat turlariga ko‘ra 3 uslubga bo‘linadi:

1. Farg‘on-Toshkent raqs maktabi uslublari
2. Buxoro raqs maktabi uslublari
3. Xorazm raqs maktabi uslublari

Farg‘ona raqslari goh sho‘x va tetik, goh mayin oquvchi harakat, gavgani bir oz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma’no kashf etuvchi chiroyli qo‘l harakatlariga xos bo‘lgan.

Buxoro raqs maktabining esa odatda tovonini urib-urib, tizzani bukib, ayni chog‘da gavgani g‘oz tutib, viqor bilan kift titratib, aniq shaklli puxta qo‘l harakatlari bilan o‘ynaganlar.




Xorazm raqsi uchun esa tizzalarni sal - pal bukib, kiflarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli tuman chiroyli shakllar yasab, o'ynoqi sho'x, otashin o'ynash harakaterlidir. Xorazmda qayroq bilan o'ynash keng rasm bo'lgan. O'zbek raqsida obrazlilik mazmundorlik xal qiluvchi rol o'ynaganki, bu xususiyat barcha maktab va uslublarni bog'lab yagona o'zbek raqsini maydonga keltirgan. Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, ijodiy hamkorlik tortishuv keng tus oladi. Buning natijasida ijro maktablarning mazmuni boyib, ahamiyati oshadi. Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining bir qator shaharlarida yirik raqs to'plar (ansambllari) tashkil etilgan bo'lib, faqat O'rta Osiyoda emas undan tashqarida ham o'zbek raqs san'atini munosib namoyish etilgan.

Surxondaryo-Qashqadaryo raqslari ham o'ziga xos uslubga ega. Lekin u raqs maktabi uslublariga kiritilmagan. Bu voaha raqs harakatlari alohida o'rganiladi va hozirgi kunda ommalashmoqda.

#### 9.4 . Raqs maktabi namoyondalari

XX-asrning 20-yillarida xalq raqslarining sahna variantlari yuzaga kela boshladi. O'zbek milliy raqsining sahna variantlari yaratildi va birinchi marta dunyo yuzini ko'rdi. «Qarinavo», «Sadr», «Dilxiroj», «Gul o'yin», «Munojot» kabi an'anaviy raqsar yangicha uslublar bilan boyigan xolda zamonaviy uslubda ijro etildi va yangicha talqinda xalq orasida shuhrat qozondi. «Pilla», «Paxta» kabi xalq mehnatini ulug'lovchi raqsar dunyoga keldi. Bu ishda raqs ustalari Yusufjon qiziq SHakarjonov,



usta Olim Komilov,  
Tamaraxonim, Mukarrama  
Turg'unboeva, Isoxor Oqilov,  
Galiya Izmaylovalarning xizmatlari  
kattadir.

#### **Usta Olim Komilov**

Musiqachi, baletmeyster,  
doirachi, xoreograf Usta Olim  
Komilov 1875 yil Marg'ilon  
shahrida tavvallud topgan. Ma'lum  
tarbiyaga ega emas artistlar toifasiga  
kiradi. Usta  
Olim Komilov mehnat  
faoliyatini aravasoqlikdan  
boshlagan. Ma'lum vaqtdan so'ng u  
hofizlarning kuylarini

xirgoyi qilishni va ko'plab usullarni urishni boshlaydi. Ish o'rtasidagi tanaffuslarda u qo'liga patnisni olib, mahorat ila taniqli doirachilarga taqlid qilardi. Uni oilaviy tantanalarga chaqirishar, u esa doira va nog'orada jo'r bo'lardi. Taniqli yallachi Salomat ayaga jo'r bo'lardi. Kunlardan bir kuni barcha marg'ilonlik usulchilar va raqqoslar orasidagi tantanada Olim Komilov artist deb tan olinadi.

1918 yil Qizil Armiya tarkibida ishtirok etgan birinchi raqs truppalari tashkil etgan. 20- yillari turli targ'ibot guruhlarida ishlagan. 1926 yildan 1929 yilgacha birinchi o'zbek etnografik baletmeysterlik guruhi yaratuvchilardan biri, keyinroq esa birinchi raqs maktabini ochgan.

1929- 39 yillar o'zbek musiqali teatri, 1939 yildan Navoiy nomidagi teatr baleymeystri, Roslavetsning "Paxta" (1933), Tallning "SHoxida"(1939), Bursulovskiyning "Gulandon"(1940) kabi birinchi o'zbek baletlarini sahnalashtirishda ishtirok etgan. F.V. Lopoxovga Vaselenkoning "Oq bilak"(1943) baletini sahnalashtirishda maslakdosh bo'lgan.

O'zbek raqs maktabining birinchi sonli etnografik guruhi o'zbek musiqali teatri studiyasida (1926-29) yillar Tamaraxonim nomidagi Respublika balet maktabida (1933-34 y), Navoiy nomidagi teatrning balet studiyasi va solistlar sinfidagi 1939-53 yillar dars bergan. O'quvchilari orasida Tamaraxonim, G. B. Izmayilova, M. Turg'unboeva, G. N. Mavaeva, K. Yusupova va boshqalar bor edi.

1935 yil Londonda bo'lib o'tgan birinchi Xalqaro milliy raqs festivalida "Pilla" raqsini yakkaxon ijrochisi Tamaraxonim Oltin medalga sazovor bo'lgan. Ushbu raqs birgina musiqiy asbob- doira usuli ostida ijro qilingan.

Doirachining mohirona ijrosi barchani lol qoldirgan, tinimsiz qarsak chalingan. Garchi bu raqqosalar tanlovi bo'lsada buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta I ning taklifiga binoan Usta Olim Komilov ham oltin medalga sazovor bo'lgan. Mohir sozandaning qo'l na'munasi gepisda olinib Angilya mo'zelyarida saqlanmoqda.

"Bu qo'l oddiygina musiqa asbobi orqali hayratlanarli ohang simfoniyasini yaratadi, teriga tortilgan o'zuklari o'yinga jo'r bo'lib turadi"-deya izoh qoldirilgan. Istalgan musiqa asboblari doira va nog'ora kabi usul beruvchi asboblardan juda muhim o'rin tutadi, zero usul barcha o'zbek musiqa turlarining asosidir. Doira ustasi bo'lish uchun ma'lum bir belgilangan mutaxassislikni tanlash kerak edi. Usta Olim Komilovni esa raqs ham o'ziga jalb etardi. U raqqosning har bir harakati

ma'lum bir tuyg'uni ifoda etishini chuqur tushingan. Usta Olim barmoqlarini azoblanish va kulishga o'rgatadi. U doira chalganda barmoqlar azoblansa raqsga tushganda barmoqlari yayrardi. Oradan bir necha yillar o'tib, dunyoning yirik musiqachilari uning ohanglarini butun bir simfoniyasini childirma kabi ko'zga tashlanmaydigan asbob orqali chiqarishga hayratlanishgan.



Raqqosalarga jo‘r bo‘luvchi doirachilar o‘z kasb mahorat sirlarini o‘nlab usullarini harakatlarini avloddan-avlodga o‘zatib borishgan. Odatda raqqosalarning ustozlari va baletmeysterlari ko‘pincha doirachilar bo‘lishgan.

Usta Olim Komilov 1953 yil Toshkentda vafot etgan. U “CHig‘atoy” memorial qabristoniga dafn etilgan.

### **Tamaraxonim (Petrovyants)**



Tamaraxonim aslida arman farzandi. Boku ishchisi Artyom Petrosov-ning otasi bo‘lib, 1905 yilgi revolyutsiyadan so‘ng Turkistonga surgun qi-lingan va Farg‘onaga Gorchakovo stantsiyasiga kelib ishchi bo‘lib ishlagan. Tamaraxonim shu yerda 1907 yilda tug‘ildi. Oilada 5 qiz bo‘lib ularning uchta-si Tamaraxonim,

Gavharxonim, Lizaxonimlar raqqosa bo‘lib etishdilar. Barchalari xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldilar. Tamaraxonimni va sin-gillarini dastlab saxnaga olib chiqqan ustoz Yusufjon qiziq SHakarjonov bo‘ldi. So‘ngra umr yo‘ldoshi Muxiddin qori Yoqubov bilan Moskvada o‘qidi. Ular birga duetlar ijor etishardi. Ular 1925 yilda Parijda jaxon festi-valida qatnashdilar.

So‘ngra jaxon bo‘ylab Tamaraxonimning gastrol kon-tsertlari boshlanadi. U 80dan ortiq davlatlarda bo‘ldilar, 80dan ortiq tilda qo‘shiq kuylab raqsga tushdi. Tamaraxonim lapar janriga asos solgan raqqo-sadir. Bu janrda lapar ijrosi raqs bilan uyg‘unlashib ajoyib bir joziba baxsh etadi. 1935 yilda Londonda I xalqaro festivalning oltin medaliga sa-zovor bo‘ldi. Ikkinchi jaxon urushi yillarida frontchi san‘atkorlar trup-pasida askarlarga madaniy xizmat qiladi. Filarmoniyalar qoshida raqs an-sambllari to‘zdi. U umrining so‘ngi marrasigacha ijod qildi. 90 yoshida

Tosh-kentda vafot etdi. Unga O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvoni, orden va medallar berilgan. 2001 yil Prezidentimizning farmoni bilan, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi. Toshkent shahrida uning juda katta uy mo‘zeyi ishlab turibdi. Bu mo‘zeyda turli millat raqslariga mansub kastyumlar, shaxsiy buyumlari, turli yillardagi afisha va rasmlar saqlanadi. Xalqning ziyoratgohiga aylangan.

## Mukarrama Turg'unboeva



Mukarrama Turg'unboeva 1913 yilda Marg'ilon shahrida o'rta hol oilada dunyoga keldi. U ustozlari usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziqdan taolim oldi. 50 yil o'zbek raqs san'atiga sitqidildan xizmat qildi. 1957 yilda mashxur «Bahor» ansamblini tashkil etib, jaxon bo'ylab 100dan ortiq mamlakatlarda namoyish etib, dovrug'ini jaxonga taratdi. O'zi yurakdan ijor etgan «Tanovor», «Katta o'yin», «Andijon polkasi», «Roxat» raqslari xaligacha xalqimiz orasida doston bo'lib keladi. Uning san'atidan taosirlangan Xindistonning mashxur sanoatkor yozuvchisi Axmad Abbas shunday degan edi: - Xindistonni hech kim qilich va qurol bilan o'ziga tobe etolmagan. Ammo o'zbek qizi Mukaramaxonim Turg'unboeva o'zining «Bahor» qizlari bilan, «Tanovor» raqsi bilan biz Xindlarni taslim qildi, lol qoldirdi. Mukarama Turg'unboeva olam kezgan, ustoz sanoatkor, milliy o'zbek raqsini qoyilmaqom qilib o'ynab, yuzlab xorij ellarning sanoatsevarlariga o'zbek raqsini ko'z-ko'z qilib kelgan. Uning repertuaridan juda ko'p turli xildagi raqslar o'rin olgan edi. Mukarrama opa sanoatda betakror shon-shuxrati bilan 1978 yil 20 noyabr kuni 65 yoshida xayot bilan vidolashdi. Uning xizmatlari davlatimizning faxriy unvonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan. Xalq artisti, davlat mukofoti, orden va medallari uning uy mo'zeyida saqlanmoqda. Mashxur «Bahor» ansambliga uning nomi berilgan. 2001 yilda Prezidentimizning farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Juda ko'plab ashula va raqs ansamblari bugungi kunda dunyoga mashhurdir. Mustaqillik sharofati bilan «O'zbekraqs» birlashmasi tasarrufida yangi raqs guruxlari to'zildi. Bolalar raqsi rivojlanmoqda. Har yili o'tadigan Mustaqillik va Navro'z bayramlarida va xalqaro anjumanlar dasturida raqs san'ati markaziy o'rinni egallaydi. Xoreografiya maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Xalq raqs va

balet maktabi inson ruxiy hayotini chuqur aks ettiruvchi, go'zal poetik tabiatga hamda katta badiiy umumlashmaga ega bo'lgan san'atdir. Raqs hamisha go'zallikka chorlaydi.

**9.5 Milliy raqs san'atining hozirgi kunda rivojlanishi** Avvalo shuni aytish kerakki, o'zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy shakllarda hamda zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Ular fanda «xalq raqsi» va «sahnaviy raqs» deb ataldi. Sahnaviy raqs ansambl bo'lib uyushgan havaskor va professional raqqos va raqqosalar tomonidan ijro etilib kelinadi. Ularni xalq raqs merosi negizida to'qib, saxnalashtirishda raqqos baletmeysterlar kamarbasta bo'lib kelishgan.

Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to'ldirgan, bir-biriga ta'sir ko'rsatgan holda XX asrda muayyan bosqichlarni bosib o'tdi. Bu yo'lda muvaffaqiyatlar ham, yanglishuvlar va yo'qotishlar ham bo'lgan, albatta. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Isoxor Oqilov, Qundo'z Mir-karimova, Roziya Karimova va boshqa raqs ustalarining ijodiy mehnati, sahna harakatlar ular yaratgan ansamblarning, ular madaniyatlab yetishtirgan raqqos va raqqosalarning faoliyati tufayli xalq raqs merosi sahnaviy shakllarda XXI asrga ham o'tganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Demokratik mayllar, so'z va ijod erkinligiga e'tibor bir daraja paydo bo'lgan o'tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalq an'analari va qadriyatlarini tiklash masalasi kun tartibiga qo'yilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, u yetakchi tendentsiyaga aylandi. Bu ayniqsa, zamonaviy xalq ijodiyotida yaxshi namoyon bo'ldi. Viloyatlarda tashkil topgan «Boysun» (Surxondaryo), «SHalola» (Toshkent viloyati), «Sumalak» (Andijon), «Doston» (Xorazm), «CHavki» (Samarqand), «CHiroqchi uforisi» (Qashqadaryo) kabi ellikka yaqin folklor-etnografik, ashula va raqs ansamblari xalq orasida yoxud keksalar xotirasida saqlanib kelayotgan ko'plab taqlidiy o'yinlar, raqslar, teatrlashgan marosimlar va maydon tomoshalarini tiklab, shaklga solib, sahnalarga olib chiqadilarki, bu ishning baxosi yo'q. Umuman, joylardagi xalq ansamblarining har bir viloyatning o'ziga xos san'ati, shu jumladan raqs uslubi va jozibasini saqlash, unutilayozgan o'yin va raqslarni qayta tiklashdagi xizmatlarini katta bo'ldi.

Masalan, «Nozanin» folklor-etnografik ansambli Buxoroda qadimgi zamonlardan meros bo'lib kelayotgan mavrigi-xonlikni tiklash va yangi sharoitlarda rivojlantirish yo'lidan borib, katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Mavrigixonlik badiiy so'z, qo'shiq va raqs uyg'unlashgan ajib bir turkumdir. «Nozanin»ning chiqishlari nainki Rossiya, AQSH, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Turkiya tomoshabinlarini, balki mamlakatimiz tomoshabinlarini ham lol qilib kelgan. Raqqosalarning egnilaridagi zar tikilgan keng kuylaklar, qasavali bosh kiyimlari, yaltiroq ro'mollar, ularning chirmanda va qayroqlarda bergan usullari, ayniqsa, bir-biriga chatishib ketgan va sekin-asta jadal-lanib boradigan,

qanday boshlangan bo'lsa, shunday holatga tushadigan daromad (o'yin boshi) va buromadi (o'yin oxiri), ashula va raqslari chindan-da ehtirosli va antiqadir.

1980 - 90-yillarda rejissyor Holiq Xursandov, musiqa rahbari Xabib Umarov boshchiligida "Boysun" ansambli Navro'zga aloqador turkum marosim, qo'shiq, o'yin, aytishuvlarning, qadimiy «Sust xotin», «Yada», «Lola» sayli, «Halinchak», «SHoxmoylar» (qo'shchi qo'shig'i), «Xo'p mayda» (bug'doy yanchish) kabi teatrlashgan xalq marosimlarini, «Sudxo'r akam jon beradi» nomli mashara o'yinni, uylanish marosimi bilan bog'liq urf-odatlar va o'yinlarni tiklab, ularga yangi hayot bashshladi.

«CHavki» (Samarqand viloyati, Bo'lung'ur tumani) folklor-etnografik ansambli o'z faoliyatini qadimiy «Qarsak o'yin» turkumining «Besh qarsak» yo'nalishida olib borib, xalq orasida yashab kelgan ko'pdan ko'p termalar, plastik va raks harakatlarini sah-naga olib chikdi. Nuqul er-yigitlardan tash-kil topgan va qarsaklar bilan o'zlariga o'zla-ri usul beruvchi mazkur ansambl folklor-etnografik jamoalar orasida o'ziga xosligi bilan yaqqol ajralib turadi. So'nggi yil-larda «CHavki» ansambli repertuaridan «Besh qarsak» o'yinlari bilan birga chorvadorlik-ka taalluqli an'anaviy «Poda to'p», «Gov-mish» singari o'yin, terma va qo'shiqlar ham o'rin olmokda<sup>1</sup>.

Qo'shnay, bo'lamon, surnay va qayroqlar jo'rliğida o'ynaladigan otashnafas va o'ynoqi, goh mayin, goh jo'shqin, goh kulgili Xorazm raqslari ham uslubi, ham ijrochilik xusu-siyatlariga ko'ra hamon eng noyob va yashovchan ma'naviy-estetik hodisa bo'lib, o'zbek xalq raqsi madaniyatida yetakchi o'rinlardan biri-ni ishg'ol qilib keladi. Bu jarayonda folk-lor-etnografik ansambllarining hissasi kat-ta. Xorazmning «Doston» (Xiva), «Navro'z» (Gurlan), «Kaldirg'och» (Bog'ot), «Orzu» (Ko'shko'pir) va boshqa ansambllari «Norim-norim», «Yuz bir», «Ufori», «Ufori bo'z-ruk», «Orazibon» raqslarini va o'nlab raqslarni o'z ichiga olgan «Lazgi» turkumini tik-lashdagi sahy-harakatlari tahsinga loyiq.

Ammo an'analarni tiklash va rivojlanti-rish barcha xalq ansambllarida bir xilda izchil va ko'ngildagiday olib borildi, deb aytish qiyin. Zero, bu masala badiiy rahbarlarning bilimdonligi, ijodiy izlanishlariga bog'liq. Lekin kanday bo'lmasin, Tosh-kent shahrida qaror topgan «Bahor», «Laz-gi», «Zarafshon» kabi davlat ansambllarida Farg'ona, Xorazm va Buxoro ijro uslublari qorishib ketayotgan, ansambllar o'z manbalari — xalq ijodiyotidan o'zoqlashib borayotgan, er-yigitlar raqsi inqirozga yuz tuta bosh-lagan bir paytda viloyatlardagi xalq ansambl-larining an'analarni qayta tiklash va ri-vojlantirish borasidagi faoliyati ibratli bo'ldi.

Istiqlol yillarida turli darajalarda o'tkazilgan festivallar, ko'rik-tanlovlar ham raqs san'atini rivojlantirishga turtki berdi. Ayniqsa, Navro'z va Mustaqillik bayramlari, «SHarq taronalari» festivali, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yil-ligi, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi yubileylari munosabati bilan Toshkent, Samarqand, Bu-xoro, Xiva, Termiz shaharlarining bosh maydonla-rida o'tkazilgan teatrlashgan bayram

tomoshalari umuman raqs san'atining rivoji uchun, qolaversa, xalq va professional ansamblarning yuzlab artistlari va baletmeysterlari uchun katta ahamiyat kasb etdi.

1990-yillarning avvali va o'rtalarida professional raqs san'atida ijobiy tendentsiyalar ham ko'zga tashlandi, albatta. Biri Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim tomonidan yaratilgan «Doyra dars» usullarini ko'z qorachig'iday asrab, shu asosda yosh raqschi qiz va yigitlarni madaniyatlash, Mu-karrama Turg'unboeva, Isoxor Oqilov kabi ustoz baletmeysterlar sahna-lashtirgan va endilikda mumtoz san'at asari bo'lib qolgan raqslarni sof holda yangi ijrochilarga o'tkazish tendentsiyasidir. Bu ishda Toshkent xoreografiya bilim yurti o'qituvchilari va «Bahor», «Lazgi», «SHodlik» ansamblaridagi raqs ustalarining xizmati katta. Ikkinchi

tendentsiya Davlat telera-diokompaniyasi qoshida tashkil topgan «Tanovar» raqs teatri bilan bog'liq bo'lib, milliy raqs teatri yaratish harakatidan iboratdir.

1989 yil oktyabr oyida Yuldo'z Ismatova tashabbusi bilan tashkil topgan «Tanovar» raqs teatri 16 raqqosa va 2 raqqos bilan ish boshlagan. Dastlabki dasturi «SHarq ayoli» degan teatrlashgan kontsertdan iborat bo'ldi. Unda «Munojot», «Anor-anor», «Raqqosa», «Xorazmcha», «Doyra», «Ey sarvi ravon», «Suv parisi», «Afg'oncha», «O'xshar» kabi sof va yallali raqslar «Sovchi kutish», «Non ushatish», «Qizlar bazmi», «Kelin salom», «Beshik allasi» singari etnografik lavhalar bilan uyg'unlashdi. Raqs ustasi shunga erishgan: rang-barang harakatlar, musiqa, ko'zni qamashtiruvchi liboslar asosida vo-qealar, lavhalar, to'qnashuvlar bir-biri bilan zanjirday bog'lanib ketadi. Gulnoz Akromova, Zebo Tursunova, Naima Yusupova, Ra'no Jo'raboeva, Barno Isroilova va Muyassar Sotiboldieva ijrosidagi yetti go'zal hamda Olga Usmonova, Zebo Ermatova, Barno Hamdamova, Fero'za Rahimova, Mavluda Ro'zmatova gavdalantirgan ohularning raqslari ham mazmunan, ham shaklan qiziqarli bo'lib, hammani lol qoldirdi.

Nihoyat, «O'zbekraqs» birlashmasi milliy o'zbek raqsini chet ellarda namoyish etish va shu yo'l bilan ham O'zbekiston nufu'zini oshirish masala-siga yetarli e'tibor berib kelayotir. 1997 - 2000 yillardagi ijodiy safar-lar shundan dalolat beradi. 1997 yil iyun oyida Parij shahrida Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan o'tgan xaftalikda, iyulda Turkiyaning Bursa shahrida o'tgan «Oltin Karagyozi» festivalida, noya-brda Olmoniyada o'tgan O'zbekiston ma-daniyati kunlarida, 1998 yil 25 may -

2 iyun kunlari Belgiyaning Sen-Garlen shahrida o'tgan xalqaro folklor ja-moalari festivalida, «Bahor» ansambli 7 - 11 iyun kunlari AQSHning At-lanta shaxrida o'tgan «Superkom-98» xalqaro ko'rgazmasida, 30 noyabr - 7 dekabrda turistik kompaniyalar taklifiga ko'ra Yaponiyada, 1999 yil fevralida «Lazgi» ansambli Olmoniyaning Gamburg shaxrida o'tgan O'zbekiston iqtisodiyoti kunlarida, 23 - 28 iyun kunlarida «Tanovar» raqs teatri Niderlandiya Qirolligining Yendash va

Varfum shaharlarida o'tgan xalqaro festival-da, 24 iyun - 8 iyul kunlari «Bahor» ansambli «Fukusima - O'zbekiston» ma-daniy va iqtisodiy assotsiatsiyasi 20 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda, 2000 yil aprelida «Lazgi» ansambli Seul shahrida o'tgan uchrashuvlarda qat-nashdilar. Xorijdagi safarlarga puxta tayyorgarlik ko'rildi, liboslar yangilandi, dasturlar va har bir chiqishning yuksak badiiy saviyada bo'lishiga aloxida diqqat qilindi. Natijada ansambllar, raqqosalar har gal yaxshi baho olib, bir jahon taassurotlar bilan qaytdilar. Bu hammasi, shak-shubxasiz, istiqlol ne'matlari bo'lib, raqs jamoalari, raqqos va raqqosalarni, baletmeysterlarni yangi ijodiy ufqlarni zabt etishga chorlaydi.

SHunday qilib, yutuqlar bir talay. Biroq yechilmagan muammolar, bahsli masalalar ham yo'q emas. Raqqos va raqqosalarning bayramlar munosabati bilan katta maydonlarda o'tadigan teatrlashgan tomoshalarda qatnashuvi bir tomondan ularning faoliyat doirasini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni yordamchi ijrochilarga aylanib qolishlariga sabab bo'lmokda. SHuningdek, yallalarda raqqosalar yakkaxon xonandalarga emas, xonandalar raqqosalarga xizmat qilsin.. Ayniqsa, yigitlar raqsi «O'zbekraqs» birlashmasining, ansambllarning diqqat markazida turishi kerak. SHu bilan birga maxsus bolalar raqslarini yaratish borasida ham hormay-tolmay izlanish, mehnat kilishga to'g'ri keladi, toki kichkintoylarimiz kattalarning raqslariga taqlid qilmay, o'z raqslariga ega bo'lsinlar.

*Raqs turlari va janrlari*

*Professional raqs san'ati* ham ikki asosiy raqs turidan tarkib topadi. Butun xalq ijodiyoti va professional san'atning boshqa Turlari negizida boshqa Xillar vujudga keladi, ularning har biri turli mintaqalarda turlicha sifat belgilariga ega bo'ladi. "Professional raqs" bo'limida aynan shu haqda so'z yuritiladi.

#### 4. Xalq raqs san'ati janrlari

Agar san'atda Xilning sifat belgilari san'atning boshqa turlari sifatleri bilan birikkan holda o'z sifatlarini shakllantirsa, *Janrning* sifat belgilari va badiiy vositalari san'at turining "ichidan" aniqlanadi.

Tomoshabinlarga faol ta'sir ko'rsatishning badiiy usullarini tanlaydigan raqs yaratuvchi yoki ijrochining badiiy maqsadi muayyan janrdagi raqsni yaratishda asosiy kuchga aylanadi.

Muallif ijobiy shodiyona hissiyotlarni paydo qilishni istaydi va namunali ibratli xarakterlarni, shodiyona voqealarni, baxtli hissiyotlarni, tabiatning yoqimli hodisalarini namoyish qilishga harakat qiladi. Agar muallif turmushdagi salbiy kuchlarni aniqlash va aks ettirishni, kishilarda ularga nisbatan qiziqish uyg'otishni istasa, u hissiyotlar, tuyg'ular, voqea-hodisalarning dramasi, to'fojiali intiho — o'lingacha ko'rsatib beradi.

Estetik M.Kogan shunday yozadi: "Bir qutbda hayot hodisalarini ijobiy baholashning eng yuqori darajasini mujassamlashtirgan janrlar, sharafluvchi janrlar: madhiya, oda, difiramb, qahramonlik poemasi yotsa, qarshi qutbda esa eng keskin inkor janrlari, satira janrlari yotadi. Bu ikki qutb orasida oraliq janr seriyalari: yo'qotish natijasidagi g'am-g'ussani ifodalovchi janrlar — fojia, rekviyem, dafn marshi, elegiya mavjud. Diapazonning boshqa tomonida xor qilib yoki butunlay yo'q qilib yuboradigan emas, balki iltifotli, muloyim, hatto do'stona, quvnoq tusdagi janrlar — fars, vodevil, do'stona sharj, lapar va shu kabi yumoristik janrlar yotadi"<sup>29</sup>.

Drama nazariyasi ko'p sonli janrlarni to'rtta asosiy guruhga birlashtiradi:

1. Komediya — yumoristik (do'stona kulgi), satirik (kulgi bilan "chaqib oladigan"), maishiy (hayotning ikir-chikirlarini ko'rsatish).

2. Drama — maishiy sahnalar, bunda hayotdagi ijobiy va salbiy kuchlarning keskin to'qnashuvi sodir bo'ladi.

3. Tragediya — kuchli salbiy kuchlar yorqin ijobiy kuchlarni azoblaydigan, ustidan g'olib keladigan, halok qiladigan hayot sahnalari.

4. Grotesk — komik yoki tragik shaklda namoyon bo'luvchi salbiy kuchlarning haddan ortiq konsentratsiyalanishi.

<sup>29</sup> Kagan M. Морфология искусств. — Л., 1972.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Raqs deganda nimani tushunasiz?
2. Raqs yo'nalishlarini aytib bering?
3. Raqs namunalari qaysi davrga mansub bo'lgan?
4. Xalq o'yinlarini sharxlab bering?
5. Xalq raqs maktabi yo'nalishlarini aytib bering?
6. Xalq raqs uslublarini o'ziga xosligini asoslab bering?
7. Zamonaviy raqs san'ati rivoji haqida so'zlab bering?
8. Respublikamizda raqs ansambllarini sanab bering?

9. Raqs san'atining namoyandalardan kimlarni bilasiz?

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.**

1. Avdeeva L. Tantservalnoe iskusstvo O'zbekistana // Gosudarstvennoe izd-vo xudojestvennoy literatury O'zbekskoy SSR. – Tashkent, 2001. – S. 192

2. Avdeeva L., Kadirov M., Ismatova Yu. Tantsy «Tanovar» // Izd-vo poligraficheskiy tvorcheskiy dom im. Gafura Gulyama. – Tashkent, 2012. – S.

3. Avdeeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan // G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent, 2014. – B

4. Avdeeva L. Mukarrama Tug'unboevaning raqsi // G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent, 2012.

5. Brun V., Tilke M. Istoriya kostyuma ot drevnosti do Novogo vremeni. – M., 2008.

6. Karimova R. Tantsy ansamblya «Bahor» // Izd-vo poligraficheskiy tvorcheskiy dom im. Gafura Gulyama. – Tashkent, 2000.

7. Karimova R. «Urok o'zbekskogo tantsa» nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent, 2015.

8. Karimova R. O'zbek raqslari // CHO'lpon nashriyoti. – Toshkent, 2003.

9. Karimova R. Merosiy raqs durdonalari // CHO'lpon nashriyoti. – Toshkent, 2013.

10. Karimova R., Sayfullaeva D. O'zbek raqsi. Ayollar yakka raqslari. – Toshkent, 2007.

11. Sayfullaeva D., Kazakbaeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari // «Voriz» nashriyoti. – Toshkent, 2006.

12. Tamarxonim. SHarq xalqlari raqslari // G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent, 2013.





**10-MAVZU: O‘ZBEK MUSIQA ME‘ROSINI RIVOJILANISHIGA  
KATTA HISSA QO‘SHGAN TARIXIY SHAXSLARNING UY  
MUZEYLARIDA (HUDUDLARDA TANLOV ASOSIDA EKSKURSIYA)  
OCHIQ DARSLAR:**

**1. Yu. RAJABIY UY MUZEYI**

**2. TAMARAXONIM UY MUZEYI**

**3. M. ASHRAFIY UY MUZEYI**

**REJA**

1. Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodi
2. An’anaviy musiqa ijrochiligi tarixi

**10.1. Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodi**

Muxtor Ashrafiy (1912-1975) Muxtor Ashrafiy 1912 yilda Buxoroda tug‘ilgan. Bolalik chog‘laridan milliy musiqaga mehr qo‘ygan, bo‘lajak san’atkor dutor, tanbur kabi sozlarni o‘zlashtirib, ilk musiqa saboqlarini Buxoro SHarq maktabida, so‘ngra Samarqand o‘zbek musiqa va xoreografiya institutida, N. N. Mironov rahbarligida kompozitorlik va dirijyorlik sohalarini o‘zlashtirdi.

Muxtor Ashrafiy 1931 yilda Toshkentdagi O‘zbek musiqali drama teatriga badiiy rahbar va dirijyor etib tayinlandi. Uning ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlari dastlab shu teatrdan namoyon bo‘ldi, o‘z ustozlari S. N. Vasilenko bilan hamkorlikda birinchi o‘zbek operalari «Bo‘ron» va «Ulug‘ kanal»ni yaratdi. Nihoyatda sermahsul ijodkor bo‘lgan Muxtor Ashrafiy butun umri davomida 7 ta opera, baletlar, 3 ta musiqali drama, 2 ta simfoniya, 4 ta kantata, dramatik spektakl va kinofilmlarga musiqalar, romans va qo‘shiqlar yaratdi.

Bastakorning simfonik asarlari mavzularining boyligi bilan ajralib turadi. Kompozitorning simfonik asarlari mavzularining boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, «Qahramonlik» va «G‘oliblarga shon sharaflar» deb nomlangan simfoniylari e’tiborga molikdir. Ularda o‘zbek xalq musiqasining ohang va usullaridan keng foydalanilgan. «Bayram uvertyurasi», «Tinchlik tarafdorlarining yurishi» va boshqa partituralari ham shodon va tantanavor yangraydi, kantatalari, xor sadolarining yorqinligi, milliylik bilan ajralib turadi. Uning «Jonim mening», «Kashmirda», «Subhidam», «Kel» kabi qo‘shiq va romanslari lirik kayfiyat, samimiy his-tuyg‘u va obrazlarining rang-barangligi bilan tinglovchilarning dilidan joy oldi.

San’atkor «Ichkarida», «Mirzo Izzat Hindistonda» musiqali drama, «Opa-singil Rahmonovalar», «Semurg‘» kino musiqalar, «Hind kundalıkları» qator ocherklar va o‘ndan ortiq adabiy va publitsistik maqolalar muallifidir. Ashrafiy 40 yildan ziyodroq davr mobaynida opera va simfonik musiqa dirijyori sifatida faol ishlab, o‘z repertuarini nodir asarlar bilan boyitdi. O‘zining «Dilorom», «SHoir qalbi», «Sevgi tumori» (balet) kabi asarlaridan tashqari, «Aida», «Karmen», «Knyaz Igor», «Pikovaya dama», «Masxarabozlar», «Iolanta» kabi operalar, «Oqqush ko‘li», «Spartak», «Don Juan», «Boxchasaroy favvorasi», «Yong‘oqchaqar» kabi baletlar shular jumlasidandir.

Pedagogik faoliyati, serqirra va sermahsul ijodi yuksak baholandi.

Y xorijiy mamlakatlarning orden va medallari, «Xalq artisti» unvoni, Davlat mukofotlari, Jamol Abdul Nosir, Javoharlal Neru nomidagi mukofotlar sohibidir. O‘zbek madaniyatining ulkan arbobi Muxtor Ashrafiy 1975 yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Hayoti va ijodi Jizn i tvorchestvo 1. Baxt vodisi : 4 parda 4 ko‘rinishli opera / M. Ashrafiy va M. Rahmonov librettosi. – Toshkent : n.j., 1947. – 20 b. : portr. – (Mehnat Qizil bayroq ordenli o‘zbek davlat opera va balet teatri). 2. Boran : 5 pardali opera / M. Ashrafiy, K. Yashin librettosi – Tashkent, 1939. – 67 s. 3. Ulug‘ kanal Sirdaryo : 5 pardali, 6 ko‘rinishli opera / libretto K. Yashin va M. Rahmonlarniki. – Tashkent, 1941. – 70 b. 4. Hindiston xotiralari : monografiya. – Toshkent : O‘zdavnashr, 1958. – 140 b. : rasm.

## **10.2. O‘zbek xalq an’anaviy musiqa merosi**

Barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham qadimdan o‘zining boy milliy ma’naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini va an’analariga ega bo‘lib kelgan tarixan juda o‘tmishga borib taqaladigan boy musiqiy merosga ega. O‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati va salohiyatini belgilovchi xususiyatlarini belgilovchi uning musiqasi, kuy va qo‘shiqlaridir. Bu milliy musiqiy me’rosi nihoyatda boy va ko‘p janrlidir.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalqining musiqa merosi og‘izdan-og‘izga, ustozdan shogirdga, otadan-o‘g‘ilga, onadan-qizga o‘tib kelgan ma’lum vaziyat va sharoit bilan chegaralangan (oilaviy marosim, mavsumiy marosim, mehnat qo‘shiqlari hamda diniy aytimlar, erkin mavzuli lapar, yalla, terma, qo‘shiq mumtoz ashula, terma va dostonlari, shashmaqom, Toshkent-Farg‘ona makomi, Xorazm maqomlari kabi ko‘plab musiqiy janrlardagi asarlar musiqa san’atining an’anaviy va bardavomligini ta’minlab kelmoqda. Bugungi kunda ular milliy ma’naviy musiqa qadriyatlarimizning asosini tashkil qiladi.

Milliy musiqiy madaniyatining poydevor hisoblanuvchi mumtoz asarlarni oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, shu jumladan, maktabgacha ta’lim, maktabdan tashqari, umumta’lim maktablari, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarning o‘quvchi yoshlari orasida targ‘ib qilish, ang avvalo o‘qitish ishlarini tashkil etish, millatimizning ulkan



nodir boyliklaridan ularni bahramand etish, shuningdek, musiqa an'analarini bardavomligini ta'minlashdan iboratdir.

Xalqimizning nmumtoz ashulalarini o'rgatish masalalari umumiy ta'lim maktablari, umumn olganda ta'lim muassasalari asosiy o'rinni egallaydi.

Kuylash uchun nihoyatda qiyin bo'lgan mumtoz ashulalar va maqom sho'bbalarini ham o'quvchilar maromiga yetkazib kuylay olishlari mumkin. Umumta'lim maktablari

o'quvchilari tomonidan Buzruk, Navo, Segox, Dugoh maqomlarinig saraxborlari va taronalari, Talqin, Mo'g'ilcha, Qashqarcha, Soqiqnoma va Ufor qismlari 7-sinf o'quvchilari tomonidan ijro qilishida hech qanday muammolik tug'dirmaydi.

Hukumatimiz tomonidan milliy musiqa ijrochilik mahoratini butun dunyoda e'tibor etilishini ta'minlash yo'lida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgan davtlabi yillardan Samarqandda xalqar "SHarq taronalari" festivalini, Respublikada Yunus Rajabiy, Ma'murjon Uzorov, Komiljon Otaniyozov va Xoji Abdulaziz Abdurasulov kabi xalq hofizlariga bag'ishlab Respublika qushiq ijrochiligi tanlovlarini, "O'zbekiston Vatanim manim", Baxshi-oqinlarning Xalqaro festivali kabi anjumanlarning o'tkazilishi xalq og'zaki ijod hamda uning an'anaviy qo'shiqchilik madaniyatini shakllanishi va rivoj topishiga nihoyatda ulkan hissa qo'shmoqda. An'anaviy qo'shiqchilik san'ati ko'pchilik SHarq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Ular nazariy va amaliy asoslarga ega, zero mazkur xalqlar musiqasining ustozona uslubidagi namunasidir. Ushbu an'anaviy ijrochilikning asosini shubhasiz, maqomlar, xususan o'zbek va tojik xalqlarining ma'naviy merosi hisoblangan SHashmaqom asarlari tashkil etadi. Ular asrlar davomida bu

sohada olib borgan ijodiy izlanishlari samarasidir. Ustoz sozanda va xonandalar keyingi avlodlariga ko'z qorachig'iday asrab bizgacha yetkazib kelgan maqom asarlari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng yuqori pag'onada turuvchi, beqiyos qimmatga ega bo'lgan musiqa san'ati boyliklari sifatida chinakkam xalq mulkiga aylanadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. maqomlar keng ma'noda o'zbek va tojik xalqlarining musiqiy qomusidir. Haqiqatdan ularda xususan o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado - ohanglar, doyra usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator musiqiy qonuniyatlar to'laqonli o'z ifodasini topgan. Maqom arabcha "joy", "o'rin", "makon", musiqa tushunchasida esa cholg'u asboblarida

tovush hosil etiladigan joy, ya'ni, aslida parda ma'nosida bildiradi. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad ~ tonallikni hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ham ifodalaydi. Maqomlar kuylarning lad hamda tonallik tushunchalari bilan bog'liq ekan, ularning yuzaga kelish tarixi juda qadim zamonlarga, mazkur kasb egalari tamonidan yaratilgan musiqa asarlari paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi.



nazariy masalalari IX-XI asrlarda

yashab ishod etgan Al-Kindiy, Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn-Sino, Al -

Urmaviy, Ash-SHeroziy, Al-Marg'oni, Jomiy va Al-Xusayin kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. SHuni qayd etish lozimki, musiqa nazariyasi hamma SHarq xalqlarida ba'zi tafovutlarni hisobga olmaganda deyarli bir hil mazmunda bo'lgan. Xatto maqomlar, sho'balar nomi ham o'xshash bo'lib, lekin ularning musiqiy mazmuni har bir halqning o'ziga xos bo'lib, bir-biridan tubdan farq etgan.

## 10.2 An'anaviy musiqa ijrochiligi tarixi

Qo'shiqlar halqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga hos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san'atdir. Halqimizning eng yaxshi ko'rgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak an'anaviy qo'shiqlarida halqning turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod xurramligi kelajakka ishonchi ifodalangan. SHuningdek, zo'ravonlik, erkinsizlik, adolatsizlikka qarshining qudratli ovozi eshtilib turgan. Qo'shiqlarning muzmuni voqealarning lirik g'ayasini badiiy o'zlashtirib, ya'ni yuz bergan xodisa va voqealarga munosabat, his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanadi.

Qo'shiq - san'atning oliy turi bo'lgan she'riyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Qo'shiq so'zini II asrning tilshunos olimi Maxmud Qashg'oriyning mashxur asari "Devonu lug'atit turk" asarida o'qish mumkin. O'zbek halq an'anaviy qo'shiqlarining uzoq tarixini o'rganishda "Devonu lug'atit turk"ning uchala tomida tarqoq holdagi qo'shiqlar ko'plab uchrasada, bundan ming yil ilgari ham qo'shiqlarning rang-barangligi ko'rinishlarini oilaviy, mehnat, mavsum marosim va ishq muhabbat temasidagi qo'shiqlarning keng tarqalganligi, ularning til ibrolari, vazn, qofiyalaridan qo'shiq ekanligini ko'rish mumkin.

Maqomlar har bir xalqning o'ziga xos musiqa boyliklari zaminida, atoqli sozanda, xonanda va bastakorlar ijodiyoti tufayli uzoq tarixiy - madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan. Musiqaga doir qadimgi manbalardan shu narsa ma'lumki, maqomlarning tarixiy-nazariy va amaliy tomonlari mavjud. Ularning

Maxmud Qoshg'ariy tomonidan chegil, qipchoq kabi qabilalar orasida to'plangan qo'shiqlar yordamida o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot etishi uchun lozim bo'lgan adabiy zaminning bir qismini qo'shiqlar tashkil etgan deyish mumkin. Devondagi to'rtliklarning halq qo'shiqlari asosida yaratilgan yozma adabiyot namunalari sifatida e'tirof etish ayni haqiqat bo'ladi. Qo'shiq so'zini yana bar mashhur qomusiy olim Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham uchratamiz.

Qo'shiq so'zi bir zamonlar poeziya she'riyat ma'nosini anglatgan va xalq she'riyati shu termin bilan atalgan, umumlashma termin sifatida ishlatilgan. Qo'shiqning bunday keng ma'nosi xalq o'rtasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, xalq shoir, dostonchilari, begimlar doston aytganlarini bildirmoqchi bo'lsalar "qo'shiq aytdim" ham deydilar. Ammo qo'shiq terminini ko'p ishlatadilar. Demak, qo'shiq o'zbeklarda keng ma'noda bo'lib, sher bilan kuyning qo'shilishini ifoda etgan. San'atning xaqiqiy mazmuni inson va uning hayotini muayyan davr ijtimoiy axloq normalari bilan belgilanadi, go'zallik esa his orqali kishiga zavq beradi. O'zbek halq og'zaki badiiy ijodida asosiy janrlardan hisoblangan qo'shiqlar xalq turmushini, ahloq normalarini o'ziga xos san'at orqali aks ettiradi.

Odamlarning ichki dunyosi, o'y tushunchasi, umid orzu va kelajakka bo'lgan ishonchi ham o'ziga xoslik bilan ifodalanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy tematik va janr xususiyatlarini

nazarda tutib, ular ikki turkumga bo'linganligini ko'rish mumkin.

lapar albatta raqs bilan, ko'pincha ikki kishi tomonidan dialog formasida ijro etiladi. Bu esa o'z navbatida lapar kuylarining raqsiyiligi hamda ikki va undan ortiq kishi tomonidan kuylash jihtlari bo'lganligi bilan ajralib turadi. Lapardan farqli o'laroq yalla esa ko'pincha naqoratli bo'lib, ko'pchilik tomonidan qarsak chalinib, jo'r bo'lib aytilsa, bandlar yakkaxon yalla ijrochisi tomonidan raqs bob ohangda ijro aytiladi. "Bu janrlar, ya'ni, terma, qo'shiq, yalla, lapar va ashulalar ayrim marosimlar bilan bog'langan holda keng tarannum etishlari natijasida ularning har biri mavzuning ko'pqirraliligi bilan ham marosim qo'shiqlaridan ajralib turadi. Lekin o'z tuzilishi va aytilish uslublarida esa ular marosim va mehnat qo'shiqlari, umuman ma'lum jarayon bilan bog'liq holda aytiladigan qo'shiqlardan deyarli farq qilmaydi", - deb yozadi musiqashunos olim F. Karomatov.

Qadimgi davrlarda qo'shiqchilik san'ati xalq san'ati shaklida paydo bo'lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o'tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqq boshlagan.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, O'zbekistonda an'anaviy professional qo'shiqchilik san'atining ilk asoslari bundan taxminan

2500 yil avval shakllana boshlagan. Bu esa rivojlangan turli janrlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi. "Nota yozuvlari bizda XSH asrdanoq ixtiro etilganiga qaramay, musiqa asarlarini ijrochilar, ustozdan an'anaga ko'ra og'zaki o'rganishni davom ettirganlar",- deb yozadi I.Rajabov. Xalq musiqasidagi "Bayot", "Dugox". "Segoh" kabi asarlar ustozdan shogirdga, ijrochidan ijrochiga, avloddan avlodga o'tgan sari sayqallana borgan va shu yo'sinda bizgacha yetib kelgan.

SHuning uchun ham merosimizning bu turkumiga nisbatan og'zaki an'anaviy professional musiqa iborasi ishlatiladi. Bunday professional musiqa turkumiga katta ashulalar, yirik hajmdagi rivojlangan cholg'u kuylari hamda merosimizning klassik namunasi bo'lgan maqomlar kiradi. "SHashmaqom"- Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari turkumidan iborat bo'lib, har bir maqom ikki bo'limdan - Mushkilot deb nomlanuvchi cholg'u va nasr nomi bilan yurtiladigan ashula bo'limlaridan iboratdir, o'z navbatida har bir bo'lim bir necha qismdan: cholg'u bo'limi - Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammasdan iborat.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Maqomat san'atining tarixiy ildizlari.
2. 12 maqom «SHashmaqom»ning asosi.
3. «SHashmaqom» va uning turkumlari.
4. «SHashmaqom» asosida yaratilgan ashula va musiqa ijro yullari.
5. Xorazm maqomlari va «Xorazm tanbur chizig'i» orasidagi farqlar.
6. Farg'ona-Toshkent ijro yo'llari va «CHormaqqom» ijroviy tuzilishi.
7. Dostonchilik ijrosi va taxlili.
8. Milliy musiqamizning ta'sirchan kuchi.
9. Milliy musiqa va zamon taraqqiyoti.
10. Maqom tarixi xaqida nima bilasiz?
11. 12 maqomni sharhlab bering?
12. «SHashmaqom»dagi maqomlar taxlilini bilasizmi?
13. O'zbek xalqi dostonchilik san'ati xaqida nima bilasiz?
14. Dostonchilik maktablarini sharhlab bering?
15. Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatini qanday tushunasiz?
16. Islom dini va musiqa orasidagi bog'lanish xaqida so'zlab bering?
17. Alla va yor-yor ijrolarining ta'sirchanligini sharhlab bering?
18. Milliy musiqamiz taraqqiyotida xozirgi zamon musiqasining ta'sirini qanday tushunasiz?

### **FOYDALINGAN ADABIYOTLARI**

1. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o'quv qullanma.

T. 2008 y.

2. SHaripova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. 2000 y.
3. Fayziev O. O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.
4. X. Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1997 y.
5. SHaripova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T. Turon-Istiqbol 2006 y.
6. N. Norxo'jaev, H. Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1999 y.
7. G. SHaripova musiqqa o'qitish metodikasi T. 2006
8. O. Ibrohimov, J. Sadirov 7-sinf musiqqa darsligi T. 2008

G'.G'ulom nashryoti

9. O. Ibrohimov O'zbek xalq musiqqa ijodi. T. 1997 y. 10.
- Maqomat. O. Matyoqubov Musiqqa nashriyoti T. 2004 y.
11. www. Ziyonet
12. <http://www.urairtii.ru>

## **11-MAVZU: ILG'OR PEDAGOGLARNI ISH TAJRIBALARINI O'RGANISH VA ULARDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI**

### **REJA:**

1. Dars kuzatishda maqsadni belgilash va tahlil qilishni rejalashtirish.
2. Darsni kuzatishga tayyorgarlik ko'rish
3. Darsni taxlil qilish.
4. Ko'zatilgan darsni hujjatlashtirish.

#### **11.1 Dars kuzatishda maqsadni belgilash va tahlil qilishni rejalashtirish.**

Har bir darsga qatnashishdan oldin maqsadini belgilash zarurdir. Qo'yilgan maqsad darsda qatnashish va uni tahlil qilishini yanada natijaliroq xulosalarni aniqroq qiladi. O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini qo'yilgan maqsad nuqtai nazaridan ko'zatadi. Aytaylik, o'qituvchi darsida qatnashishidan maqsadi uning o'qitishning texnik vositalari bilan ishlashi metodikasini o'rganish bo'lsin. Darsni tahlil qila turib, direktor diqqatini aynan shu muammoga qaratadi. Biroq, bu hol u darsning boshqa jihatlariga e'tibor bermaydi degani emas. Tajribali o'qituvchi hamma narsani ko'radi, tahlillar daftarida belgilaydi va o'qituvchiga yo'l-yuriq ko'rsatadi, biroq asosiy e'tibor maqsadli muammoga qaratiladi va asosiy xulosalar u bo'yicha chiqariladi.

Darslarga qatnashish maqsadini belgilash ayrim misollarini ko'rib chiqamiz:



-o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talablarning bajarilishini tahlil

qilish;

-o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali va tarqatiladigan materiallaridan foydalanish samaradorligi;

-o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish; - darsda o'qituvchiva o'quvchi hamkorligi;

-darsni olib borish, uni tashkil qilishning umummiy uslubi bilan

tanishish;

-o'qituvchining dastur materiallarini o'zlashtira olmayotgan o'quvchilar

bilan ishlash xususiyatlari;

-o'qituvchining metodik usullari samaradorligini o'rganish; - ilg'or ish tajribasini o'rganish va boshqalar.

### **11.2 Darsni kuzatishga tayyorgarlik ko'rish**

Darsga qatnashish maqsadini belgilab, qo'yidagilarni bajarish zarur:

-o'qituvchining dasturi, dars mavzusi va darsni rejalashtirishi bilan tanishish;

-o'zaro qatnashishlar jarayonida ilmiy mudir va boshqa o'qituvchilar tomonidan uning avvalgi darslarida qatnashish natijalari bilan tanishish, ishda qanchalik hisobga olinganligini aniqlash uchun hulosa va tavsiyalarga e'tibor berish;

-fan bo'yicha darslikni, metodik adabiyotlarni o'rganish;

-dars tahlil qilinadigan sinf tarkibini tahlil qilish. Oldindan puxta tayyorlanish darsni yanada malakali tahlil qilishni ta'minlaydi. Dars bir xillikni va bir qolibga solishni yoqtirmaydi. SHu sababli tahlil shablon asosida, tayyor sxema bo'yicha bo'lmasligi kerak. Biroq, shu bilan birga darsni tahlil qilish murakkabdir, shuning uchun darsni baholash, uning samaradorligini aniqlash uchun mezon zarur.

Dars sifatini, uning natijalari bo'yicha, o'quvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni qanchalik ongli ravishda va puxta egallashlari bo'yicha mantiqiy baholash lozim. Biroq, bir mashg'ulotda har doim ham to'liq tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Darsni taxlil qilish uchun mezon tanlash qiyinchiliklari, lars sifati omillarining murakkabligidan kelib chiqadi. Ulardan asosiylarini keltiramiz:

-butun dars davomida barcha o'quvchilarning bilim egallash borasida faol ijodiy ishlashi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim ortirish

faoliyatini rivojlantirish;

- o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlash faoliyatini qay darajada tashkil etgan.
- dars jarayonida o'quvchilar tomonidan qo'shimcha manbalardan foydalanish darajasi;
- butun o'quv faoliyatining mantiqiyligi va izchilligi, uning darsning asosiy didaktik maqsadiga bo'ysunishi. Takrorlashning maqsadga muvofiqligi, o'rganilayotgan material bilan bo'lgan munosabat;
- darsda o'qituvchi ishi mazmuni va metodlarining muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy didaktik tamoyili - qonuniga bo'y sundirilishi.

### **11.3 Darsni tahlil qilish.**

**Darsni tahlil qilish** – bu o'qituvchi uchun eng avvalo pedagogik mahorat maktabidir. Ilmiy asoslangan pedagogik tahlil o'qituvchiga o'z kamchiliklarini ko'rish, ularni o'z vaqtida yo'qotish, mavjud muvaffaqiyatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Ko'zatilgan darsni hujjatlashtirish.

O'qituvchilar darsni kuzatish va tahlil qilishni maxsus daftarga yozgan xolda xujjatlashtirish maqsadgi muvofiq bo'ladi. Mazkur daftarga ko'zatilgan darsni qo'yidagi pedagogik talablar asosida yozib borish lozim:

1. Dars beruvchi o'qituvchi va sinf haqida umumiy ma'lumot: shu kungi sana va yil, o'qituvchining ismi va sharifi, oxirgi marta qachon va qaerda, qanday muddatda malaka oshirishning turidan o'tgan, uning ma'lumoti, pedagogik staji va unvoni, dars olib borgan sinflar (9-a va 10-b) o'qituvchi dars berayotgan fadars mavzusi o'qituvchining darsdagi ta'lim-tarbiyaviy maqsadi sinf yoki o'quv xonalarining maktab gigienasi talablariga to'liq javob berish xolati.

O'qituvchining darsga tayyorgarlik holati.

-o'qituvchining kundalik dars rejasi va bayoni( uning maqsadga muvofiq yoki nomuvofiq to'zilgani) -o'zi ishlagan va darsga olib kirish uchun tanlagan ko'rgazmali qurollari (diagramma, tablisa, rasm, turli kolleksiya xamda gerbariy kabilar) -dars davomida kuzatish uchun tanlangan o'quv filmlar yoki diafilmlar (ularning maqsadga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi) mazkur darsga tayyorgarlik davrida o'qituvchi tomonidan foydalanilgan ilmiy-metodik va umumiy pedagogik adabiyotlar ruyxati.

Dars ko'zatuvcining maqsadi: SHu o'rinda dars ko'zatuvcchi o'z oldiga qaysi maqsadni qo'ygan bo'lsa, tahlil daftarining shu qismiga yozib qo'yadi. Masalan, darsda o'qituvchining ta'limni tarbiya bilan bog'lash yullari va bu boradagi metodlarni o'rganish.

Darsning borishiga ilmiy, metodik, didaktik, umumiy pedagogik va umumiy psixologik tavsif:

-darsning to'zilishi, uning qismlarini rejalashtirish, vaqtdan, sinf doskasidan va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanish (mazkur dars mashg'ulotining kabinet tizimida olib borilganligi yoki olib borilmaganligi), o'quv yoki sinf xonasining sanitar-gigiena holati, sinfdagi o'quvchilarni o'quv anjomlari bilan qanchalik qurollanganligi;

-darsning mazmuni-o'rganilayotgan mavzuning vaqt va mazmun jihatdan o'quv dasturiga mosligi, o'qituvchi bayon etayotgan mavzuning ilmiyligi, to'raligi, izchilligi, uning laboratoriya va amaliy ishlar bilan bog'lanishi, mavzuning o'quvchilar yoshiga mosligi, g'oyaviy qimmat, darsning tarbiyaviy ahamiyati, o'qituvchi bayonining ravonligi;

-o'tgan dars mavzusining so'ralishi, o'quvchilar bilimining baholanishi, yangi mavzuning o'tilgan mavzuga bog'lanishi ;

-o'qituvchining dars o'tish usul va metodlari: dars davomida oldingi yoki o'tgan darsda o'tilgan mavzuni so'lashda, yangi mavzuni bayon qilishda, mustahkamlash va yakunlashda o'qituvchi qo'llagan usul va metodlar, ularning maqsadga muvofiqligi, dars davomida foydalanilgan ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar, darsda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari;

o'quvchilarning darsga munosabati-darsga o'z vaqtida yetib kelishi, diqqat bilan tinglashi, kuzatishi, qiziqishi, faolligi, ishtiyoqi, intizomi, mazkur fan asoslarini bilishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, amaliy yoki laboratoriya ishlarini mustaqil bajara olishi;

-o'qituvchining darsga munosabati

-o'z vaqtida yaxshi tayyorgarlik bilan mashg'ulotga yetib kelishi,

-mazkur sinf o'quvchilarining psixologiyasini bilishi,

- darsda o'quvchilarga nisbatan muomalasi, -sinfni boshqara bilishi, -ish uslubi,

-darsda o'qituvchining raxbarlik roli, -

nutq madaniyati, -tashqi qiyofasi,

-o'quvchilar o'rtasidagi o'brusi,

-darsda texnika vositalaridan foydalanishi,

-mazkur sinfning rahbari bilan aloqasi va hokazo.

Darsning ijobiy va salbiy tomonlari. Bunda dars ko'zatuvchi darsning borishiga ilmiy metodik, didaktik, umumiy pedagogik hamda umumiy psixologik yunalishdagi tavsifi ichidan darsning yutuq va kamchiliklari terib olinadi va dars taxlilining shu qismiga ilmiy, metodik va umumipedagogik tavsiyalari dars kuzatish daftoriga yozishi.

Dars xulosasi-dars rejasining bajarilishi, o'qituvchining o'z oldida qo'ygan ta'lim-tarbiyaviy maqsadiga to'liq erishishining yoki erisha olmaganligi, o'quvchilar bilimining sifati, dars yoki ta'limning davlat dasturiga, standartiga mosligi, o'qituvchining ilmiy-metodik jihatdan tarbiyaga muhtojligi yoki mazkur o'qituvchining ilg'or tajribasini ommalashtirishga loyiqligi va hokozolar.

#### **11.4 Ko'zatilgan darsni hujjatlashtirish.**

Dars tahlili asosan o'quv mashg'ulotlarini tekshirish, o'rganish shaklida olib boriladi. Bunda qo'yidagilar ko'zga tashlanadi:

- a) maktab direktori va uning o'rinbosarlarining maktabda o'qituvchi ishiga rahbarlik doirasidagi dars tahlili;
- b) o'qituvchining malakasini oshirishga yordam berishi, takomillashtirish, ularning tajribalarini o'rganish, ommalashtirish doirasidagi dars tahlili;
- v) yosh o'qituvchilar pedagogik jarayonida nazariy bilimlarniamalotyotga qay darajada tadbiiq qilinayotganligini tekshirish va uning natijalarin o'rganish, shuningdek o'rgatish doirasidagi dars tahlili;
- g) o'qituvchilarning o'zaro bir-brlarining pedagogik usul va metodlarini o'rganish doirasidagi dars tahlili;
- d) o'quvchilar jamoasi yoki bir o'quvchining bilim doirasi, o'zlashtirish, axloq mezonlariga amal qilish, ota-onalar, tarbiyachilar va boshqalarning dars tahlili.

Demak, dars tahlilining asosiy maqsad va vazifasi ta'lim-tarbiya jarayoning to'g'ri yunalishi va bajarilishini nazorat etishgina emas, balki uni talablar darajasida amalga oshirishdir. Dars tahlilini shartli ravishda qo'yidagi asosiy 5 turga bo'lish mumkin: Ilmiy tahlil

Metodik tahlil

Didaktik tahlil

Umumpedagogik tahlil.

Umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil. Berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihati, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq yo'nalishi jihatdan to'g'riligini aniqlash demakdir. Bunda asosan qo'yidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

- O'qituvchining shu kungi darsga ilmiy-metodik jihatdan tayyorlanganlik holati;

- O'z mutaxassisligiga oid fan bo'yicha eng yangi ilmiy- nazariy axborotlar bilan qurollanganligi;

- Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning uvchilar ongiga singdirib borilishi;

-Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi;

-O'quvchi va o'qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi;

-O'quvilar mavzuni ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi;

-Dars davomida yangi mavzuni bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi, ta'limni tarbiya bilan bog'lab olib borilishi;

*O'qituvchi va o'quvchilarning nutq madaniyati.*

Metodik tahlil. O'qituvchining dars jarayonida qo'llangan usul va metodlarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mosligi yoki mos emasligini metodik tahlil davomida aniqlanadi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarining samaradorligini rang-barangligi, namnaviyligi uning o'tgan yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. SHu boisdan har bir ko'zatuvi (o'qituvchi, direktor, ilmiy bo'lim mudiri, metodist yoki nazoratchi) dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak.

Dars metodlarini tahlil qilishda qo'yidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy

shakllariga ko'ra:

a) hikoya usuli

b) og'zaki bayon usuli

v) suhbat usuli.

2.O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra:

a) o'qituvchining so'zlash usuli

b) ko'rgazmali qurollardan foydalanish usuli

v) darslik, konturli karta, diagramma yoki jadvallar bilan ishlash usuli

g) laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli

d) texnika vositalaridan ( informatika elektron hisoblash texnikasi, kinofilm, diafilm, radio, televizor kabilari) foydalanish usuli

e) sinf doskasidan, geografiya, tarix yoki zoologiyaga tegishli bo'lgan turli kartalardan foydalanish usuli kabilardir.



Таълим муассасаларидаги ўқитувчиларнинг илғор иш тажрибалари мактаб, туман, вилоят, республика миқёсида оммалаштирилади

• илғор тажрибага эга педагоглар

• Ижодкор, изланувчан ўқитувчилар

• Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси

• Ўқувчилари юқори натижага эришган ўқитувчилар

• Ўз касбининг мохир ўқитувчилари

www.ankiv.uz

#### **4-босқич: Илғор иш тажрибани оммалаштиришда куйидаги шаклларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади:**

• педагогик кенгаш, методбирлашма йиғилишида, анжуманларда, педагогик ўқишларда сўзлаб бериш ёки “Маҳорат синфлар”ни ташкил этиш;

• илғор тажриба таянч мактабларида, семинарларда, ижодий гуруҳларда, малака ошириш курсларида маълумот бериш;

• кўرғазмаларда панарама-дарсларида кўрсатиш;

• оммавий ахборот воситаларида мақолалар, тавсиялар шаклида бериш;



### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.
2. Innovatsion texnologiyalar nima
3. Pedagogik va axborot texnologiyalari darsda foydalanish
4. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar
5. Pedagogik texnologiyalar masalalari
6. Muammolarni o'rganuvchi shaxslar
7. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLARI**

1. J.G. Yuldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.
2. R.J. Ishmuxammedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari.

Keyslar to 'plami.



## **1-amaliy mashg'ulot: O'zbekiston kompozitorlari ijodida shakl va uslub muammosi. Zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari.**

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida musiqiy yo'nalishida asarlar yaratgan va yaratayotgan O'zbekiston kompozitorlari ijodida shakl va uslub muammosi; zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari; kompozitor va folklor; Yevropa mamlakatlarida dirijyorlar tayyorlash tizimi; SHarq va G'arb musiqasining integratsiyasi; Rossiya va Amerikada professional dirijyorlar tayyorlash tizimi va ularning mazmunini o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqe'larning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.

Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak. Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart. Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

Individual o'qish – 2 minut.

2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash – 5 minut.

4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

5. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

### 1-ilova

#### Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
“Zamonaviy musiqa” atamasi nimani anglatadi?		
O‘zbekistonda musiqiy avangardizm rivojlanish bosqichlari haqida gapirib bering.		
Dirijyorlik san’ati maktablari haqida nimani bilasiz?		

#### Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Kompozitor va folklorning o‘zaro bog‘liq tomonlari nimada?		
Zamonaviy musiqa yaratgan o‘zbek kompozitorlari haqida so‘zlab bering.		
Dirijyorning vazifasi nimalardan iborat?		

### 2-ilova

#### Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a’zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

#### 2-amaliy mashg‘ulot: Zamonaviy xonandalik maktablari.

**Ishdan maqsad** – Ta’lim tizimida xorijiy davlatlarda vokal maktablar; vokal ijrochilik san’atida artistik mahorat va sahna madaniyatini o‘rgatish borasida ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlarga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan

holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak. Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart. Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.
- kemağa tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

1. Individual o'qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

**Birinchi guruh uchun vazifa.**

<b>Savollar sharh</b>	<b>Tushuncha va</b>	<b>Izoh</b>
Vokal maktablar deganda nimani tushunasiz?		
Italyan vokal xonandalaridan kimlarni bilasiz?		
Maqom ijrochiligi haqida fikr bildiring.		

**Ikkinchi guruh uchun vazifa.**

<b>Savollar</b>	<b>Tushuncha va sharh</b>	<b>Izoh</b>
Zamonaviy xonandalik maktablari haqida qanday firklar bildira olasiz?		
O‘zbekiston vokal maktablarining yorqin vakillari kimlar?		
Zamonaviy estrada-jaz xonandaligi haqida firklaringiz.		

**2-ilova**

**Guruhni baholash jadvali.**

<b>Guruhlar</b>	<b>Javoblarning aniq, ravshanligi</b>	<b>Axborotning ishonchliligi</b>	<b>Guruh a'zosining faolligi</b>	<b>Umumiy ballar</b>	<b>Baho</b>
1-guruh					
2-guruh					

Mustaqil ta'lim

**Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni** Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Umumta'lim muassasalarda musiqa madaniyati darslarining maqsad va vazifalari.
2. O'quvchilar musiqiy faoliyatining mazmuni.
3. Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash.
4. Musiqa madaniyati darslarida musiqa kuylash.
5. Musiqiy ritmik harakatlar o'zbek halq cholg'u asboblarida ijro etishning umumiy masalalari.
6. Umumta'lim muassasalarda musiqa madaniyati darslarining shakl va mazmuni.
7. O'zbek halq cholg'u asboblarida ijro etish metodikasi.
8. Qardosh xalqlari cholg'ulari bilan tanishtirish
9. O'quvchilarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash
10. Sinfidagi o'quvchilarni kuylashga o'rgatish metodlari
11. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda qo'yiladigan talabalar.
12. Sinfdan tashqari o'quvchilarda musiqiy ko'nikmani shakllantirish usullari
13. O'quvchi yoshlarni kuylashga o'rgatishda vokal xor malakalari?
14. Qaysi faoliyat turi natijasida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari rivojlanadi?
15. Ritmni his qilish qobiliyati o'quvchilarda qachon rivojlanadi?
16. Kuylashga o'rgatish qaysi ta'limni o'z ichiga oladi?
17. O'quvchilarda xotira, nutq, fikrlash qaysi faoliyat davomida rivojlanadi?
18. Kuylash vaqtida o'quvchilarning qaysi organlari rivojlanadi?
19. Kuylashning vazifalarini aytib o'ting. O. Kuylash davrida eshitish va kuylashni bir-biriga aloqasi nimada?
21. O'quvchilar kimlarning nutqi va ohangini tahlid qiladilar?

22. To'g'ri kuylash uchun eshitish qobiliyatining ahamiyati nimada?
23. Boshlang'ich va o'rta sinflarda kuylash orqali qanday musiqiy faoliyat ko'proq olib boriladi?
24. O'quvchilarda dirijyorlik ko'nikmasi qanday shaklantiriladi?
25. Mashg'ulotning qaysi paytida o'quvchilar tik turib kuylaydilar?



## Glossariy

**Akkord** (it. Accordo, fr. Accord - birdamlik)– turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord odatda tertsiya intervali bo‘yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo‘ladi. To‘rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undetsimakkord deyiladi.

**Ansambl** (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to‘da san‘atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo‘lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – duet, uch ijrochi – trio yoki tertset, to‘rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, yetti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ba‘zan ansambl so‘zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

**Applikatura** (nem. Applicatur - qo‘ymoq, bosmoq) – musiqa cholg‘u asboblari ijro qilganda barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda kўrsatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo‘yiladi.

**Diapazon** (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg‘u asbobining tovush majmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig‘i.

**Diatonika** (yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o‘tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy mador, minor va o‘rta asr laddari uchun asos bo‘lgan asosiy yetti pog‘onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

**Diatonik gamma** – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada yettita tovush bo‘ladi.

**Dinamika** (yun. Dinamikos - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya‘ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta‘kidlab eshittirish v.b. bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

**Interval** (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o‘rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa garmonik interval, birin-ketin yangrasa – melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tertsiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

**Lad** – turg‘un va noturg‘un musiqiy tovush pog‘onalarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog‘onali major va minor laddari asosiy ladlar hisoblanadi.

**Orkestr** (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg‘u asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholg‘u asboblarning tarkibiga ko‘ra orkestrlarning turlari: simfonik – to‘liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg‘ular, damli - yog‘och va mis damli cholg‘ular, shovqinli - urma-zarbli cholg‘ular, yoki estrada-

simfonik – yuqorida sanab o‘tilgan cholularga elektr-cholgular, ya’ni gitaralar, sintezatorlar kabilarning qo‘shilishi asnosida .

**Partitura** (it. partitura – bo‘lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko‘p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg‘u asboblari bo‘yicha keladi. O‘z navbatida, bir turdagi cholg‘ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo‘yicha pastki satrlarda yoziladi.

**Partiya** (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

**Registr** (lot. Registrum – ro‘yxat, yozib, qo‘yish) – musiqiy matoning o‘rangini yuqori, o‘rta va pastki qismlarga mansubligi bo‘yicha ajratish.

**Rekonstruksiya** (lot. Re – «yangilanish» ma’nosini bildiruvchi so‘z yasovchi qo‘shimcha, va constructio - tuzilma) - qadimiy musiqiy cholg‘ularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholg‘ushunoslikda xalq cholg‘u asboblari tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va b.)ni yaratish ma’nosida qo‘llaniladi.

**Soz** – 1. Tovushlarning balandlik holati va munosabati. CHolg‘u asboblariidagi soz ularning tovushqatori tuzilishi va baland-pastligini aniqlaydi. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholg‘u asboblarning bir-biriga bo‘lgan balandlik munosabatlariga ko‘ra sozlanadi. 2. Torli cholg‘u asbob.

**Tembr** (fr. tembre - qo‘ng‘iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg‘u yoki xonanda ovozining o‘ziga xos tovush xarakteri. CHolg‘u asbobining tuzilishi va shakliga ko‘ra uning tembrini turlicha bo‘ladi.

**Temperatsiya** (lot. Temperatio – to‘g‘ri munosabatda, bir o‘lchamda) – musiqiy pog‘onalar oralig‘idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig‘ining teng 12 yarim tonga bo‘linishi bir tekis temperatsiya bo‘ladi.

**Tovushqator** – cholg‘u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo‘lgan tovushqator. U yuqori ko‘tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

**Transpozitsiya** (lot. Transponere – joyini o‘zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko‘chirish. Transpozitsiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo‘lsa; bir cholg‘u asbobdan ikkinchisiga ko‘chirish zarurati bo‘lsa; yozilgan notalar o‘qish uchun noqulay bo‘lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozitsiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o‘zgarmaydi.

**Transpozitsiyalanuvchi cholg‘ular** – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko‘ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg‘ular. Masalan, qashqar rubobi, afg‘on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

**Unison** (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

**Xromatizm** (yun. Chroma -rang) – diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o'zgarishi. Ular alteratsiya belgilari – diez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diez».

**Xromatik gamma** – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

**Ad libitum** – xoxishga ko'ra, istalgancha

**A2, A3** – ikkala, uchchala (cholg'u)

**Archi** – torli cholg'ular guruhining belgilanishi **Arco** – kamon

**Arpa** – arfa

**Attacca** – keyingi asarni tanaffussiz chalish

**Bachetta** – tayoqcha (zarbli cholg'ularda chalish uchun)

**Bassklarinette** (nemischa) – bas-klarnet

**Basso, bassi** – bas, baslar; kontrabas

**Batterie** (frantsuzcha) – zarbli cholg'ular guruhining belgilanishi

**Becken** (nemischa) – tarelkalar

**Bratsche** (nemischa) – alt

**Campana** – qo'ng'iroq

**Campanelli** – qo'ng'iroqchalar

**Cassa** – katta baraban

**Castagnetti** – kastanettalar

**Cello** – violonchel

**Cembalo** – klavesin

**Chitarra** – gitara

**Corno inglese** – ingliz surnayi

**Clarinetto** – klarnet

**Clavicembalo** – klavesin

**Cloche** (frantsuzcha) – qo'ng'iroq

**Col** – bilan

**Col legno** – kamonning taxta tomoni bilan chalish

**Con** – bilan

**Con sordini** – surdina bilan

**Celesta** – chelesta

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Sozandalik</b>	Ma'lum bir sozni (rubob, tanbur, doyra, nay va x.k) mukammal egallagan, ham jo'rnavoz, solist va jamoaviy	This is player of Uzbek national instruments like rubob, tanbur, doyra, nay and ets. He can play with solists, he solo player and

	ijrolarda qatnashib, mumtoz san'atni targ'ibotchisidir.	play with other instruments.
<b>An'anaviy ijrochilik</b>	Milliy musiqalarimizni asosini o'rganuvchi soha	Traditional performing arts learning basic of nationale music of Uzbekistan.
<b>Vohaga mansub janrlar</b>	Katta ashula Farg'ona-Toshkent vohasi, Mavrigiy va Buxorcha Samarqand-Buxoro vohasi, Suvoriylar Xorazm vohasi. Bundan tashqari dostonchilik, jirovchilik, halfachilik, yallachilik, laparchilik va boshqalar.	Janrs from Fergana-Tashkent Katta ashula (Big song), from Samarkand and Bukhara Mavrigi and Bukhorcha, from Khorezm Suvoriy and also janrs like doston (play epos), jirov (play epos an another stile), khalfa (womans epos players), yalla (melodies for the dans), lapar (sing a song in competition) and ets.

<b>Uch voaha maqomi</b>	Bular Xorazm maqomlari, SHashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridir.	That is Khorezm's makom, Shashmakom and Fergana-Tashken's makom ways.
<b>Ustoz-shogird tizimi</b>	Ustoz shogird tizimi an'anaviy ijrochilik sohasida eng sermahsul dars berish uslubi.	From teacher to student systems effect way for learning traditionale performing arts.
<b>Mukammal ijro</b>	Barcha jihatlari to'liq, chiroyli, behato ijro mukammal hisoblanadi.	All parameters is full and beutefull plays is the original perform.
<b>Nomukammal ijro</b>	Kamchiliklari mavjud bo'lgan ijro nomukammal ijro deyiladi.	Perfom with the mistakes we call unoriginal perform.
<b>Ijrochilik maktablari</b>	Ma'lum bir ustoz ijrochi tomonidan yaratilgan ijro maktabi deyiladi. Hozirgi kunda bunday maktablarning juda ko'p namunalari mavjud.	Performing schools belded from one of masters. Now in our contry many of performing schools



## **Foydalanish tavsiya etiladigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxati**

### **I.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.–176 b.

6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.–440 b.

7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – 302 b.

### **II.Normativ-huquqiy hujjatlar**

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 5106-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim Vazirligining 2011 yil 25 iyundagi 139-sonli buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 12 may ”O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 275 sonli qaror.

### **III. Mutaxassislik adabiyotlar**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

6. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

7. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste‘dod, 2008.

9. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste‘dod, 2010.

7. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.

8. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

9. Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPURizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.

10. Nurmatov H. va boshqalar 1-3 sinf “Musiqqa” darsliklari. 2016

11. Ibrohimov O. 4-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016

12. Mansurov A va D. Karimova 5-sinf “Musiqqa” darsligi. 2015

13. Bekmatov S. 6-sinf “Musiqqa” darsligi. 2017

14. Ibrohimov O. 7-sinf “Musiqqa” darsligi. 2016

15. Panjiev Q.B., Karimova D. A., Ualiev G.I., . - “Musiqqa madaniyati” fani o‘qituvchilari uchun O‘UM -T.-2017

### **Elektron ta‘lim resurslar**

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).

6. Xalq ta‘limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)

Toshkent shahar pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)

7. Ijtimoiy axborot ta‘lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

5. <http://www.school.edu.ru> - Umumta‘lim portali (rus tilida),

6. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

7. [music-dic.ru](http://music-dic.ru) - Bolalar uchun qo‘shiqlar

8. <http://www.zvuki.ru/>

9. <https://t.me/joinchat/> - Uchitel muzыki

10. <https://infourok.ru> - musiqqa darslari

11. <https://kopilkaurokov.ru/muzika/presentacii> - musiqqa dars prezentatsiyalari